

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI  
TOSHKENT ISLOM UNIVERSITETI**

**HADISSHUNOSLIK**  
**(o'quv qo'llanma)**

**«Toshkent islom universiteti»  
nashriyot-matbaa birlashmasi  
Toshkent – 2013**

**UO‘K: 297(075)**

**86.38**

**H15**

Hodisshunoslik: o‘quv qo‘llanma / tuzuvchilar: D.Rahimjonov, D.Muratov, R.Obidov, M.Alimova; O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Toshkent islom universiteti. – Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2013. – 268 b.

**KBK 86.38**

**Tuzuvchilar:**

**D.Rahimjonov** – tarix fanlari nomzodi, dosent

**D.Muratov** – tarix fanlari nomzodi

**R.Obidov** – tarix fanlari nomzodi, dosent

**M.Alimova** – tarix fanlari nomzodi..

**Mas’ul muharrir:**

**U.Uvatov** – tarix fanlari doktori, professor

**Taqrizchilar:**

**B.Eshonjonov** – tarix fanlari nomzodi, dosent

**I.Usmonov** – tarix fanlari nomzodi, dosent

**S.Oqilov** – tarix fanlari nomzodi

*O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo‘yicha qo‘mitaning 2013-yil 13-noyabrdagi 3158 raqamli tavsiyasi bilan nashr etildi.*

*Ushbu o‘quv qo‘llanma Toshkent islom universiteti O‘quv-uslubiy kengashining 2012-yil «30» noyabrdagi (4-sonli bayonnomha) va Ilmiy kengashining 2012-yil «30» maydagi (10-sonli bayonnomha) majlisida muhokama etildi va nashrga tavsiya qilindi.*

**ISBN 978-9943-390-72-0**

© «Toshkent islom universiteti»  
nashriyot-matbaa birlashmasi, 2013.

## SO‘ZBOSHI

«Biz farzandlarimizni dunyoviy bilimlar bilan bir qatorda Imom Buxoriy to‘plagan hadislar, Naqshbandiy ta’limoti, Termiziy o‘gitlari, Yassaviy hikmatlari asosida tarbiya qilmoqdamiz».

**Islom Karimov**

O‘zbekistonda ta’lim sohasini isloh qilish, rivojlantirish, yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Ushbu mas’uliyatlari ishni amalga oshirish uchun qabul qilingan Kadrlar tayyorlash milliy dasturi mamlakatimizda yangi jamiyat qurishning bosqichma-bosqich va tadrijiy rivojlanish prinsipiiga asoslangan.

Markaziy Osiyoga VII asr oxiri – VIII asr boshlarida kirib kelgan islom dini uzoq tarixiy jarayonlar mobaynida mahalliy xalqlarning o‘z diniy e’tiqodiga aylandi. Shuning uchun ham «Biz o‘z millatimizni mana shu muqaddas dindan ayri holda aslo tasavvur qila olmaymiz», deya aytilgan so‘z ham bejiz emas.

Yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega, davlat, jamiyat va oila oldida o‘z mas’uliyatini his etadigan, davlatning ichki va tashqi siyosatini to‘g‘ri anglaydigan, vatanparvar va xalqparvar, tashabbuskor va tadbirkor, zamonaviy bilimlar bilan qurollangan, irodasi baquvvat, imoni butun, vijdoni uyg‘oq mutaxassislarni tayyorlash obod yurt kelajagi uchun zaruriy omillardandir.

Bugungi shiddatli davrda chinakam ma’naviyatlari va ma’rifatli odamgina inson qadrini bilishi, o‘z milliy qadriyatlarini, milliy o‘zligini anglashi, erkin va ozod jamiyatda yashash, mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatida o‘ziga munosib o‘rinni egallashi uchun fidoiylik bilan kurasha olishi mumkin.

Mamlakatimizda bugungi kunda sog‘lom e’tiqodli yoshlarni tarbiyalash, ayniqsa, farzandlarimizni boshlang‘ich sinfdanoq sog‘lom e’tiqod ruhida voyaga yetishishlarini ta’minalash muhim vazifalardan hisoblanadi. Respublikamizda kafolatlangan e’tiqod erkinligi, islom dinining mamlakat ijtimoiy-ma’naviy hayotida tutgan o‘rni, turli diniy ekstremistik oqimlarning yoshlарimiz ongi va qalbini egallahsga qaratilgantarg‘ibotlariga qarshi

g‘oyaviy tarbiyaning yangi yondashuvlarini tadqiq qilish borasida ko‘plab ibratli ishlar amalga oshirilmoqda.

Talabalarda sog‘lom e’tiqodni shakllantirish va uni mustahkamlash masalalarini tahlil qilishda islom dinida e’tiqod tarbiyasi alohida o‘rin tutadi. Zero, islom ta’limotining milliy tarbiya tizimiga ko‘rsatgan ijobjiy ta’siri, shu jumladan, Qur’oni karim va hadislardagi ota-onas, farzandlik burchi, vatanparvarlik g‘oyalarini talqini katta pedagogik ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda milliy g‘oya talablaridan kelib chiqib, tarixiy, falsafiy, diniy-ma’rifiy adapbiyotlardagi mayjud qarashlarni o‘rganish asosida yoshlarda sog‘lom e’tiqodni shakllantirish bilan bog‘liq masalalarni hal etish mumkin.

Yoshlarda kamtarlik, insonparvarlik, rostgo‘ylik, halollik, mehnatsevarlik, bag‘rikenglik kabi umuminsoniy fazilatlarni tarbiyalashda hadislarning o‘rni beqiyosdir. Zero, hadislar insonni komillikka eltuvchi, uni ezgu, savob ishlarga da’vat etuvchi boy ma’naviy-ma’rifiy xazina hisoblanadi. Hadislar insonlarda birodarlik, qarindosh, ota-onas va farzandlarning haq-huquqlari hamda burchlari, mehr-oqibat, poklik, adolatparvarlik, shukronalik, rostgo‘ylik, insof, vijdon kabi insoniy xislatlarni tarbiyalaydi. Shu bilan bir qatorda razolat, kibr-u havo, adovat, hasad, xiyonat kabi illatlar qoralanadi.

Hadislar bilan bir qatorda Imom Buxoriy va Imom Termiziylar kabi muhaddislarning ibratli hayoti va ilmiy faoliyatini o‘rganish ham talabalarda ilm yo‘lida fidoyilik, xayrli ishlarga umrni bag‘ishlash kabi insoniy xislatlarni tarbiyalashda muhim o‘rin tutadi. Shuning uchun ham ushbu o‘quv qo‘llanmani tayyorlashda hadisshunoslikka oid zaruriy ma’lumotlarni berish bilan birga talabalarda ijobjiy xislatlarni tarbiyalashga alohida e’tibor berildi.

Bugungi kunda respublikamizda uzluksiz ta’lim tizimini isloq qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko‘tarish, unga ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish va ta’lim samaradorligini oshirishga katta ahamiyat berilmoqda. Zero, ta’lim jarayoniga yangi axborot-kommunikasiya va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni, elektron darsliklar, multimedia vositalarini keng joriy etish orqaligina mamlakatimiz ta’lim muassasalarida o‘qitish sifatini tubdan yaxshilashga erishish mumkin. Ta’limning bugungi vazifasi talabalarni tobora ortib borayotgan axborot-ta’lim muhiti sharoitida mustaqil fikrlash, olingan ma’lumotlardan to‘g‘ri va oqilona foydalanishga o‘rgatishdan iborat.

Hadisshunoslik fanini o‘qitishda quyidagi tamoyillarga alohida e’tibor berish maqsadga muvofiq:

- hadislarni o‘rganishda chuqur ilmiylik, tarixiylik, xolislik bilan yondashish;
- hadislarni qo‘pol, ateistik ruhda tanqid qilishdan ehtiyyot bo‘lish;
- turli hadislardagi g‘oyalarini ko‘r-ko‘rona noto‘g‘ri targ‘ib etmaslik;
- boshqa din vakillariga nisbatan dushmanlik hissini uyg‘otish qonunga zid ekanligini nazarda tutish;
- talabalarning diniy ong darajasini hisobga olish, ularning diniy his-tuyg‘ulariga ehtiyyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish;
- talabalarga bilim berishda asosiy e‘tiborni ularda konkret voqeа va hodisalarga nisbatan ongli ravishda o‘z shaxsiy fikrlariga ega bo‘lishlariga qaratish.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov tomonidan o‘zbek xalqining ma’naviy merosi, dini, shu jumladan islam dini qadriyatlari, milliy g‘oya, milliy mafkura haqida bildirgan fikr va mulohazalar, ta‘rif va tavsiflari dasturulamal, nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Hodisshunoslik fanini o‘qitishda faqat o‘quv qo‘llanmalari, darsliklarda muayyan mavzuga oid keltirilgan ma’lumotlar, fikr-mulohazalar bilan chegaralanmasdan, balki hadis to‘plamlari, o‘rtalasrlarga oid klassik matnlar, birlamchi manbalardan foydalanish, shuningdek, talabalarda din haqida xolis, to‘g‘ri dunyoqarashni shakllantirish, olgan bilimlari asosida konkret voqeа va hodisalarga nisbatan ongli ravishda o‘z shaxsiy fikrlariga ega bo‘lishlarini ta’minlashga alohida e‘tibor qaratish maqsadga muvofiq.

Hozirgi fan va texnika taraqqiyoti sharoitida hodisshunoslik fanini faqat so‘z yordamida o‘qitish yaxshi samara bermaydi. Shuning uchun dasturning mazmunidan kelib chiqib, texnik vositalardan unumli foydalanish zamon talabidir. Masalan, audio, video, kompyuter texnologiyalari vositasida hadislarning aytilishi, tarixi, hodisshunoslik sohalari, yo‘nalishlari haqida hikoya qiluvchi o‘quv filmlari, slaydlarni namoyish etish, buning uchun elektron dasturlar, xarita, sxema, fotografiya va boshqalardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Mavzuni yoritishda ko‘rgazmali ma’ruzadan foydalanish ham yaxshi samara beradi. Ayniqsa, hadislarning tuzilishi, matni, isnodi, ularning tahlili bilan bog‘liq ma’lumotlarni berishda mavzu bo‘yicha tayyorlangan sxema va rangli tasvirlardan iborat slaydlardan foydalanish samarali natija beradi. Jumladan, isnodlar silsilasi, roviylar haqidagi ma’lumotlarni o‘rganish, sahih to‘plamlaridagi hadis matnlarini qiyoslash orqali ularni

tahlil qilish, hadislarni auditoriyada birgalikda tarjima qilish bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirishda ko‘rgazmali slaydlar, elektron darslik va dasturlar ko‘rilayotgan materiallarni ochiq holda va qisqa sharhlash imkonini beradi. Bunda pedagog mavzu mazmunini ta’limning texnik vositalari yordamida yoritib berishi lozim. Ta’lim berishning interfaol usullari talabalarda mavzuni atroflicha egallahshlariga yordam beradi.

Bugungi kunda eng zamonaviy texnologiyalardan va kishilar uchun muqaddas hisoblangan tuyg‘ulardan foydalangan holda inson ongi va qalbi uchun olib borilayotgan kurash o‘ta nozik tus va xatarli ko‘lam kasb etmoqda. Turli mutaassib kuchlar islom dini asoslari, Qur‘on oyatlari va hadislarning asl mohiyatini buzib talqin qilib, jamiyat barqarorligiga tahdid soluvchi xatarli g‘oyalarni din bilan bog‘lashga urinmoqdalar. «Qur‘on va hadisdan nariga o‘tmaymiz», deya da’vo qilib, o‘zlarini mujtahid bilib, mazhablarni inkor qilayotganlar aslida, bunday harakatlari bilan milliy birlik va aqidaviy yakdillikka raxna solmoqdalar. Bunday harakatlar esa hadislarda va ulamolarning asarlarida qat‘iy qoralangan.

Dinda haddan oshish «g‘uluv» deb ataladi. Hadislarda ta’kidlanishicha, tarixda diniy masalalarda haddan oshgan qavmlar halokatga yuz tutgan. Hozirgi kunda ham islom dini haqida yetarlicha ilmi bo‘lmay turib Qur‘onni o‘zicha anglash, hadislarni o‘z bilganicha talqin etish, mazhablarni tan olmaslik, tasavvufni shariatsiz tasavvur qilish, o‘zi qo‘l bergen pirga ko‘rko‘rona ergashish, hatto, unga sig‘inish darajasida e’tiqod qilish kabi g‘uluvga ketish hollari uchramoqda.

Hadisshunoslik fanining maqsadi hadis va u bilan bog‘liq bilimlarni xolislik, tarixiylik, ilmiylik asosida yoritib berish orqali talabalarda to‘g‘ri va keng dunyoqarashni shakllantirish, jamiyat uchun yuksak ma’naviyatlari kadrlarni tarbiyalashdan iborat. Buning uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish talab etiladi:

- hadislarning rivoyat qilinishi va ularni tanqidiy o‘rganish bosqichlarini o‘rgatish;
- musulmon xalqlar orasida hadislarning tutgan o‘rnini ko‘rsatib berish;
- asosiy muhaddislar hayoti va faoliyatini o‘rgatish;
- hadis ilmiga oid sohalar va yirik asarlar haqida ma’lumot berish;
- hadislarni to‘g‘ri talqin etish va jamiyat ma’naviy taraqqiyoti uchun ulardan to‘g‘ri foydalanish yo‘llarini ko‘rsatib berish;
- turli guruhlarning hadislardan g‘arazli maqsadlarda foydalanish uchun ularni noto‘g‘ri talqin etishning oldini olish zarurligini tushuntirish.

Ushbu fan sohasida darslik va o‘quv qo‘llanmalarni yaratish uchun chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borish ayni davr talabidir. Buning uchun yurtimizda asrlar davomida buyuk muhaddis ajdodlarimiz tomonidan amalga oshirilgan ishlarni o‘rganish talab etiladi. Shuningdek, dunyo miqyosida, jumladan, Sharq va G‘arb olimlari bajargan tadqiqotlardan unumli foydalanish lozim.

Kursni o‘qitishning birinchi soatlaridan boshlab ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarning mavzulari va shunga oid tavsiya etilgan adabiyotlar bilan tanishtiriladi. Tarqatma materiallar talabalarga taqdim etilib, kurs bo‘yicha mustaqil tayyorgarlik ko‘rish, mustaqil bilim olish yuzasidan uslubiy yo‘llanmalar beriladi.

O‘quv qo‘llanmada Qur’on oyatlari shartli va qisqa ravishda sura nomi va oyatlarning orasini vergul bilan ajratib ko‘rsatildi. Masalan, Qur’oni karim «Baqara» surasining to‘rtinchi oyati – «Baqara, 4» ko‘rinishida berildi.

Mualliflar jamoasi ushbu o‘quv qo‘llanmani tayyorlash jarayonida o‘zlarining qimmatli fikr-mulohazalari va ko‘rsatmalari bilan yordam bergan barcha ustozlarga o‘z minnatdorchiligini bildiradi.

**Mas’ul muharrir**

## KITOBDА ISHLATILGAN SHARTLI QISQARTMALAR

<i>arab.</i>	arabcha
<i>a.s.</i>	alayhis-salom (unga salomlar bo‘lsin – payg‘ambarlar va buyuk farishtalarga nisbatan ishlatiladigan ibora)
<i>ing.</i>	inglizcha
<i>ko‘pl.</i>	ko‘plik shakli
<i>mas.</i>	masalan
<i>rz.a.</i>	raziyallohu anhu (Alloh undan rozi bo‘lsin – sahobalarga nisbatan ishlatiladigan ibora)
<i>r.a.</i>	rahmatulloh alayh (unga Allohning rahmati bo‘lsin – yirik islom ulamolariga nisbatan ishlatiladigan ibora)
<i>rus.</i>	ruscha
<i>s.a.v.</i>	sallallohu alayhi vasallam (unga Allohning rahmat va salomlari bo‘lsin – Payg‘ambar Muhammad alayhis-salomga nisbatan ishlatiladigan ibora)

## I BOB. HADIS ILMI TARIXI

1-MAVZU

HADISSHUNOSLIKKA KIRISH

### REJA:

1. Islom dinida payg‘ambarlikning o‘rnii va ahamiyati.
2. Hadis, hadis ilmi va hadisshunoslik.
3. Hadislarning jamlanishi.
4. Hadis ilmi doirasida tarixiy-biografik adabiyotning shakllanishi.

⌚ **Tayanch iboralar:** *hadisshunoslik, payg‘ambar, ahli hadis, muhaddis, xabar, isnod, rivoyat, mustalah*

⌚ **1. Islom dinida payg‘ambarlikning o‘rnii va ahamiyati.** Islom dinida payg‘ambarlik alohida ahamiyatga ega. Imon kalimasining ikkinchi qismida, ya’ni «Allohdan o‘zga iloh yo‘q va Muhammad Allohning elchisidir» deya qayd etilishida bu yanada yaqqol namoyon bo‘ladi. Ilk islom davrida birinchi musulmonlar Payg‘ambar alayhis-salomdan Qur’on oyatlarini tinglash bilan bir qatorda u kishini o‘zlariga yo‘lboshchi deb qabul qildilar. Oyatlarni to‘la tushunib yetish musulmonlarning barchasiga ham oson bo‘limgani sababli ular o‘zлari uchun ushbu «yetakchi»ga ergashar edilar. Musulmonlar orasida Payg‘ambar maqomining yuqori ekaniga Qur’onda kelgan bir qator oyatlar ham dalolat qiladi. Mazkur oyatlarda musulmonlarga qarata shunday deyiladi: «**Payg‘ambar sizlarga nimani bersa, uni olinglar va nimadan qaytarsa, undan qaytinglar**» (Hashr, 7). Bunday ma’nodagi chaqiriqlar islom dinida payg‘ambarlik va Rasululloh (s.a.v.) hadislarning katta ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi.



***Payg‘ambar so‘zining ma’nosi –  
«xabar yetkazuvchi»***

Payg‘ambarlik hurmatini saqlashga chaqiruvchi «**Albatta, Alloh va Uning farishtalari Payg‘ambarga salavot ayturlar**» (Ahzob, 56), ma’nosidagi oyatga binoan islom manbalarida Muhammad (s.a.v.) payg‘ambar nomi uchragan joyda «sallallohu alayhi va sallam» («Unga Allohning rahmat va salomi bo‘lsin»), «alayhi-s-salatu va-s-salom» («Unga rahmat va salomlar bo‘lsin») yoki qisqacha shaklda «alayhi-s-salom» («U kishiga salomlar

bo‘lsin») deb «salavot» aytildi. Payg‘ambar nomi zikr etilganda unga salavot aytishga chaqiriq Abu Hurayradan rivoyat qilingan quyidagi hadisda ham o‘z ifodasini topgan:

عَنْ أَبِي هُرَيْرَةَ قَالَ قَالَ رَسُولُ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ:  
رَغْمَ أَنْفَ رَجُلٌ ذَكَرْتُ عِنْدَهُ فَلَمْ يُصْلِحْ عَلَيَّ ...

«Abu Hurayra (r.a.) rivoyat qiladilar: Rasululloh sallallohu alayhi vasallam dedilar: Huzurida nomim zikr etilganda menga salavot aytmagan kishining burni yerga ishqalansin (ya‘ni xor bo‘lsin) ... !» (Sunani Termiziy, 3468).

O‘zbek tilida qabul qilingan «payg‘ambar» so‘zining asli fors tilidan olingen bo‘lib, «xabar yetkazuvchi» ma’nosini anglatadi. Bu nom arab tilida asosan «xabarchi», «elchi» ma’nolarini beruvchi «nabiy», «rasul» shakllarida keladi. Bundan tashqari Qur’onda payg‘ambarlar shaxsiga nisbatan ularga yuklatilgan vazifalarga ko‘ra «nazir», «munzir» («ogohlantiruvchi», «qo‘rquituvchi»), «bashir», «mubashshir» («xushxabar yetkazuvchi»), «mursal» («jo‘natilmish») kabi nomlar bilan ham atalganlar.

Dunyo dinlarida ilohiy xabarlarni insonlarga yetkazuvchi, vositachilik vazifasini o‘tovchi «payg‘ambarlik» maqomidagi shaxslarga nisbatan bir-biridan farqli yondashuvlar mayjud. Masalan, dinshunoslikda ibridoiy diniy shakl sifatida qabul qilingan shamanizmda «shaman» go‘yoki ilohiy kuchlar va insonlar orasidagi vositachilik vazifasini o‘tashi qayd etilgan. Ammo shamanni boshqa dinlardagi payg‘ambar maqomini bilan tenglashtirib bo‘lmaydi. Chunki shamanlarning da’vosiga ko‘ra, ular urug‘-qabila a’zolari bilan ruhlar orasidagi vositachilikni amalga oshiradilar. Ularning e’tiqodlaricha oddiy insonlarning ruhi o‘luvchi, shamanning ruhi esa abadiy hisoblanadi. Ammo islom dini ta’limotiga ko‘ra, payg‘ambarlar oddiy insonlardan chiqqani, Alloh oldida ular ham bir banda ekanliklari qayd etiladi (qarang: Kahf, 110).

Shuningdek, xristianlik va yahudiylilik manbalarida ham payg‘ambarlar va payg‘ambarlikka (rus.: prorok, prorochestvo; ing.: prophet, prophecy) alohida o‘rin berilgan. Yunus (Iona), Zakariyo (Zaxariya), Ayyub (Iov) kabi payg‘ambarlar nomlarining Bibliyada, Muso (Moshe), Ibrohim (Avram) nomlarining Tavrotda kelishi bu fikrning dalilidir.

Islom dini ta’limotiga ko‘ra, «payg‘ambarlar» ham «oddiy inson» ekanini alohida ta’kidlab, ularning avvalambor «Uning (Allohnning) bandasi» (abduhu) va undan keyin «payg‘ambari» (rasuluhu) ekani aytildi. Bunda asosiy e’tibor payg‘ambarlarning insonlar tomonidan ilohiylashtirilishining oldini olishga qaratilgan.

Islom dinida Payg‘ambarning oddiy inson ekani ta’kidlanishi bilan birga diniy amallarni bajarishda uning ko‘rsatmalariga amal qilish muslimmonlar uchun ilohiy buyruq darajasida qabul qilinadi. Bunga Qur’oni karimdagagi quyidagi oyatlar dalolat qiladi:

وَمَا يُنْطِقُ عَنِ الْهَوَىٰ (۳) إِنْ هُوَ إِلَّا وَحْيٌ يُوحَىٰ (۴)

**U (Payg‘ambar) o‘z xohishi bilan so‘zlamas.** U (Qur’on) faqat (Alloh tomonidan) vahiy qilinayotgan (tushirilayotgan) bir vahiydir. (Najm, 3-4)

Mufassirlar ushbu oyatlarga ko‘ra, Rasulullohning Qur’ondan tashqari gapirgan so‘zлari ham shunchaki insoniy xohish bilan emas, balki ilohiy ilhom bilan aytildi so‘zлar ekanini ta’kidlaydilar.

 **2. Hadis, hadis ilmi va hadisshunoslik.** «Hadis» so‘zi lug‘aviy jihatdan ikki xil: 1) «gap, so‘z, xabar, hikoya» va 2) «yangi, zamonaviy» ma’nolarini beradi. Hadis ilmi istilohida esa «hadis» deganda Muhammad (s.a.v.) payg‘ambarning aytgan so‘zлari, qilgan ishlari, taqrirlari (ko‘rib qaytarmagan ishlari) yoki u kishiga berilgan sifatlarni o‘zida mujassam qilgan xabar va rivoyatlar tushuniladi.

 ***Hadis – Muhammad (s.a.v.) payg‘ambarning aytgan so‘zлari, qilgan ishlari va taqrirlarini o‘zida mujassam etadi!***

«Hadis» va «sunna» («sunnat») so‘zлari ko‘pincha yonma-yon, ba’zan esa bir-birining o‘rmini almashtirib keladi. «Sunna» so‘zining lug‘aviy ma’nosи – «odat», «tariqa», «yo‘l» bo‘lib, istilohda Payg‘ambar (s.a.v.) odatlari, tutgan yo‘llari, taqrir, ya’ni ko‘rib qaytarmagan va buyurgan ishlariga nisbatan ishlatiladi. Boshqacha qilib aytganda, bu istiloh Payg‘ambar (s.a.v.) turmush tarzlarini anglatadi.

Ilk islam davrida Qur’oni karim oyatlari vahiy kotiblari tomonidan yozib borilar edi. Biroq bu paytda hadislarni qog‘ozga tushirish Rasululloh tomonidan «Menden Qur’on oyatlaridan boshqa biror narsani yozib olmanglar», deya qaytarilib, ularni faqat og‘zaki rivoyat qilishga ruxsat etilgan edi. Bu ish hadislarning Qur’on oyatlari bilan aralashib ketishining oldini olish uchun qilingan tadbir edi. Hadislarning o‘sha davrda yozilmaganiga yana bir sabab savodxonlarning ozligi va yozuv vositalarining taqchilligi edi.

Biroq ko‘p o‘tmasdan hadislarni ham yozib borish boshlandi. Bu ishga Payg‘ambar alayhis-salom tarafidan «Alloh nomiga qasamki, mana shu og‘izdan haqiqatdan boshqa narsa chiqmaydi», deyilgan so‘z turtki bo‘lgan edi. Ana shunday 30-40 atrofidagi hadis kotiblaridan Abdulloh ibn Amr mingga yaqin hadis yozib «sahifa» («kitob») holiga keltirdi va uni «*as-Sahifa as-sodiqa*» («*Ishonchli kitob*») deb atadi. Hadislarning katta qismini og‘zaki rivoyat qilgan roviylar ularni keyingi avlodga yetkazdilar.

Hijriy ikkinchi (milodiy VIII) asrga kelib musulmon olamida hadislarga bo‘lgan talab ortib ketdi. Hadislarni jamlash uchun yakka tartibda ilmiy safarlar uyuştirila boshlandi. Tarqoq holdagi hadislarni jamlash va tasnif etish, ya’ni «*tadvin*» faoliyati xalifa Umar ibn Abdulaziz (717-720) davrida voliyliklarga yuborilgan farmoyishlar bilan rasmiy tus oldi. Shu tariqa hadislar mavzularga ko‘ra tasnif etilgan holda kitoblarga jamlana boshladi. II/VIII asr o‘rtalaridan boshlab ilk hadis to‘plamlari vujudga keldi. Hozirgi kungacha yetib kelgan ilk hadis manbalari shu davrga oiddir. III/IX asrga kelib, «*as-Sihoh as-sitta*» («*Olti ishonchli to‘plam*») hadis majmuasi va keyinchalik o‘z qatoriga yana uch ishonchli to‘plamni olgan «*al-Kutub at-tis'a*» («*To‘qqizta kitob*») majmuasi yuzaga keldi.

«Hadis ilmi» alohida fan sifatida hadislarni jamlash, mavzularga bo‘lib tartiblash, roviy va rivoyatlarning ishonchlilik darajasini aniqlash jarayonida yuzaga keldi. Hadis ilmi bilan shug‘ullangan olimlar «muhaddis» deb ataldilar. III/IX asr hadis ilmining eng rivojlangan «oltin davri» hisoblanadi. Zero, olti ishonchli to‘plamni jamlagan muhaddislarning asosiy qismi shu asrda yashagan edilar.

X asr va undan keyingi davrda ham hadis to‘plamlarini tuzish bilan shug‘ullangan olimlar yashab o‘tdilar. Ammo ularning faoliyati IX asrda yashagan muhaddislarning faoliyatidan farqli edi. Ular o‘z asarlarini IV/X asrga qadar jamlangan hadis to‘plamlari asosida tuzdilar. Ular mavjud hadislarni sharhash va alohida mavzular atrofida qayta jamlash bilan shug‘ullandilar.

Hadislarning ishonchlilik darajasini aniqlash uchun bir necha xil ilmlarni bilish talab etilar edi. Jumladan, hadislar islom ta’limoti, huquqi va amaliyotining birlamchi manbasi bo‘lmish Qur’onni davom ettiruvchi, tafsir qiluvchi manba bo‘lgani uchun ham hadis ilmi bilan shug‘ullangan kishi Qur’onni yaxshi bilishi talab etilar edi. Shuningdek, muhaddis hadisni rivoyat qilgan roviylarning tarjimai holi, yashagan davr va makonlari haqidagi ma’lumotlarni ham bilishi kerak edi.

Hadislarning Payg‘ambardan muhaddisga qadar qanday tarzda yetib kelganini bilishning ham ahamiyati katta edi. Mazkur talablar hadis ilmini puxta o‘zlashtirgan muhaddisdan «Ulum al-Qur’on» («Qur’on ilmlari»), «Ilm ar-rijol» («Kishilar ilmi», ya’ni hadis roviylarini bilish ilmi), «al-Jarh va-t-ta’dil» («Jarohatlash va adolatli deb topish»), ya’ni hadis yoki roviyni ishonchli yoki ishonchsiz ekanini isbotlash), «Mustalah al-hadis» («Hadis istilohlari») kabi «Hadis ilmlari» majmuasini yuzaga keltirdi.

Hadis ilmini egallagan muhaddis har bir hadisni, uning roviysini, rivoyat qilinish uslubini sinchiklab o‘rgangan va bu ilm o‘zining yuqori cho‘qqisiga III/IX asrda erishgan edi. Bu davrda muhaddislar hadisning ishonchliligini aniqlash uchun, asosan, uni rivoyat qilgan roviylar zanjirining uzluksizligiga e’tiborni qaratdilar. Shuningdek, Hakim Termizi kabi olimlar hadislarni jamlash va sharhlashda ularning ishonchli yoki zaif ekanini aniqlashda ularning ma’nosiga ham e’tiborni qaratdilar.



### ***Evropada hadisshunoslik XIX asrda vujudga keldi!***

XIX asrda islom manbalarida mavjud ma’lumotlar asosida shakllangan Yevropa hadisshunosligida hadislarni saralashda ularning tarixiyligi va firqalarning faol bo‘lgan davrlariga, ya’ni qaysi mavzudagi hadis qaysi davrda ko‘proq dolzarb bo‘lganiga e’tiborni qaratdilar. Masalan, mo‘taziliylar haqida aytilgan hadis shu aqidaviy oqim faol bo‘lgan II/VIII asrga tegishli deb hisoblanar edi. Hadislarni saralashdagi bu ham o‘ziga xos uslub bo‘lib, uni ham mutlaqlashtirib bo‘lmaydi. Darhaqiqat, XIX asrda IX asrda yashagan muhaddislar kabi bevosa roviylardan hadislarni eshitib tahlil qilishning imkoniy yo‘q edi. Shuning uchun ham hozirgi kunda hadisshunoslikda hadislarni muhaddislar jamlagan mavjud manba va ma’lumotlar asosida o‘rganish ilmiy yondashuv sifatida qabul qilingan.

 **3. Hadislarning jamlanishi.** Hadis, islom ta’limotiga ko‘ra Qur’ondan keyingi ikkinchi asosiy manba hisoblanadi. Muhammad (s.a.v.) payg‘ambar vafotidan keyin ko‘p o‘tmay u kishi haqida sahobalarda saqlangan ma’lumotlar Arabistonidan tashqaridagi uzoq yerlarga yanada kengroq tarqaldi. Tabiiyki, Payg‘ambarni yaqindan bilganlar u kishi haqida ko‘proq gapirib berishga harakat qillardilar, ammo ulardan eshitib boshqalarga yetkazgan keyingi rivoyatchilar bu xabarlardan qodir

bo‘lganlaricha yodda saqlab qolardilar. Ko‘pgina sahabalar o‘zлari ko‘chib borgan fath etilgan yerlarda hadis aytardilar, ammo ilk davrda ularni yozishga bo‘lgan intilish ancha past darajada edi.

Turli mintaqalardan yakka holda va guruh-guruh bo‘lib hadis o‘rganish talabidagi kishilar – *muhaddislar* turli o‘lkalarga safar qila boshladilar. Har yilgi haj mavsumi ham turli mintaqalardan kelgan kishilarning uchrashishlariga va shu yo‘l bilan hadislarning keng tarqalishiga qulay imkon yaratdi.

Hijriy birinchi asrda, asosan, hadislarni amal qilish uchun o‘rganildi... Ammo ularning ishonchli bo‘lishi uchun uzluksiz roviylar zanjiri, ya’ni «isnod»ning shart ekanligi haqida faqat hijriy ikkinchi asrga kelib e’tibor qaratila boshlandi. Chunki bu davrda soxta hadislар ko‘payib, fitnalar avj olgan edi.



### ***Isnod – Rasululloh hadislarini muhaddisiga yetkazgan roviylar zanjiri***

Ibn Is’hoq (vaf. 150/767 yoki 151/768 y.) o‘zining Payg‘ambar (s.a.v.) ga bergen tarjimai holida doim ham uzluksiz roviylar zanjiri – «isnod»ni beravermaydi. Keltirgan isnodlarida ham ko‘pincha Molik ibn Anasga (713-795) olib borib ulaydi. Molikning «Muvatto» nomli qonunlar to‘plami ba’zan noto‘liq, ba’zan to‘liq, ba’zan esa umuman isnodsiz rivoyatlarni o‘zida mujassam qilgan. Hadislар devon shakliga keltirilgan davrda ular ikki asosiy qismidan: hadisni asl manba bilan bog‘laydigan birinchi qism – «isnod» va ayni hadisning o‘zi bo‘lmish ikkinchi qism – «matn»dan iborat bo‘lgan.



### ***Hijriy ikkinchi asrda hadislarni yozma tarzda jamlash dolzarb vazifaga aylandi***

Muhaddislar hadislarning ishonchlilagini tekshirib, ularni jamlayotgan paytlarida, ular orasida «an’ana» uzluksizligining muhimligiga yetarli e’tibor bermaganlar ham bor edi. Natijada har xil guruhlар orasida ixtiloflar paydo bo‘ldi. Imam Shofiy (150-204/767-820) o‘zining «ar-Risola» asarida hadislarning fiqh ilmi uchun asosiy manba ekaniни yaqqol ko‘rsatib berdi. Natijada hadis ilmi fiqh ilmidan alohida rivojlanishiga asos yaratdi.

Ilk davrda hadislar asosan og‘zaki ravishda avloddan-avlodga uzatilar edi. Abu Dovud o‘zining «Sunan»ida ikki ketma-ket hadisni keltiradi – ulardan birida Payg‘ambar (s.a.v.) o‘z so‘zlarini yozib olishga buyurgan bo‘lsalar, ikkinchisida bu ishdan qaytaradilar. Yozma ravishda hadislarni to‘plamaslik haqidagi Payg‘ambarning ko‘rsatmalariga asosan ilk davrda ba’zi musulmonlar faqatgina o‘zлari uchun qo‘llanma sifatida ularni yozib olgan edilar. Keyinchalik esa bu yozuvlar katta to‘plamlarga asos bo‘ldi. Shunday ilk to‘plamlardan biri Madinadagi Urva ibn Zubayrga (vaf. 94/712 yoki 99/717 y.) va ikkinchisi Suriyaga ko‘chib ketgan Muhammad ibn Muslim az-Zuhriyga (vaf. 124/741 y.) tegishli. Manbalar ba’zi sahobalar ham eshitgan hadislarini yozib borganliklari haqida ma’lumot beradi.

Ilk tuzilgan to‘plamlar har bir sahoba rivoyat qilgan hadislarni alohida tartibda berilgan «musnad» uslubida yozilgan bo‘lib, undan foydalanish mushkul edi. Chunki bir mavzu haqida ma’lumot olish uchun kitobni to‘liq ko‘rib chiqish kerak bo‘lardi. Abu Dovud Tayolisiy (vaf. 203/818 y.) va Ahmad ibn Hanbalning (vaf. 241/855 y.) to‘plamlari ana shu tartibda yozilgan. Molik ibn Anas o‘zining «al-Muvatto» asarini hadislarni muayyan fiqhiy mavzular bo‘yicha joylashtirish asosida tuzdi.

III/IX asr qilingan asosiy ish mavjud hadislarni boblar bo‘yicha tasnif qilib, «musannaf»lar yozishdan iborat bo‘ldi. Bu esa hadislardan foydalanish uchun ancha qulay edi. Shunday musannaflardan oltitasi alohida e’tiborga molik bo‘ldi. Ular – eng katta obro‘ga ega bo‘lgan Imom Buxoriy va Imom Muslimning (204-261/819-875) «Sahih» to‘plamlari, undan keyingi eng muhim asarlar – Abu Dovud (202-275/818-889), Termiziy (209-279/824-892), Nasoiy (215-303/830-915) va Ibn Mojalarining (209-273/823-886) «Sunan» asarlaridir. «Sahih» kitoblari o‘z ichiga biografik material, Qur‘on oyatlarining tafsiri bilan birga diniy qonun-qoidalar, ijtimoiy va shaxsiy axloq jihatlarini ham qamrab oldi. Keyingi davrda ham olti ishonchli to‘plamdan tashqari qator «Sunan» asarlari yozildi. Masalan, Hofiz Ahmad ibn Husayn Bayhaqiy (vaf. 458/1066 y.) «as-Sunan al-Kubro» va «as-Sunan as-sug‘ro» asarlarini yozgan.

«Sahih»larning ishonchlilik darajasi boshqa kitoblardan ko‘ra ancha yuqori hisoblansa-da, Buxoriy va Muslim asarlari ham o‘z davrida tanqid ostiga olindi. Bu to‘plamlarning qay darajada ishonchli ekanligini aniqlab beradigan yagona tashkilot bo‘limgani bois ularning jamiyatda egallagan obro‘si va keyingi olimlar tomonidan qilingan tanqidlarning kamligiga qarab ular haqida fikr yuritish mumkin. Imom Buxoriy va Imom Muslimning asarları IV/X asrdayoq to‘la e’tirof etilgan bo‘lsa, qolgan

to‘plamlar keyinchalik vaqt o‘tishi bilan tan olina bordi. Masalan, Ibn Xaldun (vaf. 808/1406 y.) Ibn Mojaning «Sunan»ini hisobga qo‘shmagan holda faqat besh to‘plam haqida so‘z yuritadi. Biroq vaqt o‘tishi bilan olti to‘plam tan olinsa-da, ba’zilar Imom Molikning «Muvatto»sini Ibn Mojjaning «Sunan»idan afzal ko‘rishardi.

Keyinchalik ham hadis ilmida avvalgi ishlarni qayta tartiblash bo‘yicha ko‘plab ishlar amalga oshirildi. Ular mazkur olti to‘plam darajasiga ko‘tarilmasa-da, asosiy manba sifatida foydalanilardi. Hadis kitoblariga sharhlar yozildi. «Al-Arbaun» («Qirqlik») janrida hadis to‘plamlari tuzish ommalashdi. Turli manbalardan hadislar jamlanib, yangi to‘plamlar yaratildi. Ulardan bizga ma’lum bo‘lgan eng e’tiborga loyiqlari – Bag‘aviyning «Masobih as-sunna» («Payg‘ambar yo‘li chiroqlari») va yanada ommabop asar Valiyuddin Tabriziyning «Mishkot al-masobih» («Chiroqlar tokchasi») asarlaridir.

Valiyuddin Muhammad ibn Abdulloh Umariy Xatib Tabriziyning (vaf. 740/1339-40 y.) «Mishkot al-masobih» asari Muhyussunna laqabi bilan tanilgan Ruknuddin Abu Muhammad Husayn ibn Mas’ud Bag‘aviy (vaf. 510/1117 y.) yozgan «Masobih as-sunna» («Payg‘ambar yo‘li chiroqlari») kitobining qayta ishlangan shaklidir. Bu asar musulmon olamida keng tarqalgan bo‘lib, o‘rtalarda madrasa tizimida asosiy qo‘llanma vazifasini o‘tagan.


«Mishkot al-masobih» asari 29 kitob (bo‘lim)dan iborat. Unda muallif ilm, ibodat, muomalot, axloq kabi musulmonlar hayotining juda ko‘p sohalariga tegishli mavzulardagi hadislarni jamlagan. Buning uchun Buxoriy, Muslim, Termiziy, Abu Dovud, Ibn Mojja, Nasoiy kabi muhaddislarning «Sahih», «Sunan», «Musnad» to‘plamlaridagi hadislardan foydalangan. «Kitob»lar o‘z navbatida «bob» va «fasl»larga bo‘lingan. Muayyan mavzudan chetlamaslik uchun har bir hadisning isnodi to‘liq keltirilmay, faqat uni rivoyat qilgan sahaba va ba’zan tobiyy nomlari berilgan. Hadis matnidan so‘ng uning manbasi va ishonchlik darajasi ko‘rsatilgan.

«Mishkot al-masobih» asarida hadislar rivoyatchisi, to‘plam muallifi yoki sahihlik darajasiga qarab emas, balki mavzular bo‘yicha jamlangani sababli foydalanish uchun juda quayadir.

Yuqorida zikr etilgan asarlar sunniylikdagi manbalar edi. Shialar esa faqatgina Ali orqali rivoyat qilingan xabarlarni o‘z ichiga olgan o‘zlarining manbalariga ega edilar. Ularda shialik talablariga javob beradigan rivoyatlar mujassam bo‘lgan edi. Bunday asarlar qatoriga – Abu Ja’far Muhammad ibn Ya’qub Kuliniyning (vaf. 328/939 y.) «al-Kofiy fi ilm ad-din» («Din

ilmi bo‘yicha kifoya qiluvchi»), Bobuya Qummiy nomi bilan mashhur Abu Ja’far Muhammad ibn Alining (vaf. 381/991 y.) «Kitob man lo yahduruhu al-faqih» («Faqih huzurida bo‘limganlar kitobi»), Abu Ja’far Muhammad ibn Hasan Tusiyning (vaf. 459/1067 yoki 460/1068y.) «Tahzib al-ahkom» («Hukmlarni tartibga solish») va keyinchalik undan muxtasar qilgan «al-Ibtisor fi ma-xtulifa fi mina-l-axbor» («Ixtilofli xabarlarni dalillash») asarlari kiradi. Ular ham sunniylikka oid kitoblardagi mavzularni o‘z ichiga olgan musannaf kitoblaridir.

Hadislarning tanqidiy o‘rganilishi o‘z davrining talabidan kelib chiqqan edi. Tan olingen to‘plamlar vujudga kelguniga qadar hadislar juda ko‘payib ketgan edi. Hadis ilmi bilan shug‘ullangan ulamolar – muhaddislar bu hadislarning ko‘pchiligi to‘qilgan ekanligini tan oldilar. Qussoslar inkor etib bo‘lmaydigan isnodlar bilan hadislar to‘qish bobida eng «ilg‘or» kishilar bo‘lib, bu hikoyalari uchun sodda kishilar ularga yaxshigina haq to‘lar edilar. Ayrim soxta hadislarni osonlikcha aniqlash mumkin edi. Ba’zilar soxta mafkuralarni tarqatish maqsadida hadis to‘qir va ba’zan bunday hadislar shunday ustalik bilan to‘qilar ediki, ularni haqiqiyalaridan ajratib bo‘lmasdi. Masalan, Payg‘ambar (s.a.v.)ning «Men payg‘ambarlarning muhri bo‘laman, mendan keyin hech qanday payg‘ambar bo‘lmaydi, agar Alloh xohlasa» degan so‘zlaridagi «agar Alloh xohlasa» iborasi to‘qilgan bo‘lib, hech qanday izohsiz qabul qilinishi mumkin edi. Ammo ilm ahli bu hadisni tasdiqlaydigan isnod naqadar ishonchli ko‘rinmasin, undagi buzg‘unchilik ruhini sezdilar.



Isnodga tegishli istilohlar alohida ilm sifatida o‘rganila boshlandi. Ular orasida isnodning uzluksizligi, rivoyatchilarning ko‘pligi, qabul qilishga yaroqli-ligiga ko‘ra mutavotir mashhur, mustafiz, aziz, g‘arib, sahib, hasan, zaif kabi turlarga ajratildi.

Hadisning ishonchligini asosan uning isnodiga bog‘liq holda o‘rganildi. Isnoddagi roviylar ishonchli bo‘lsalar, hadis ham ishonchlidir deb hisoblanardi.

Ammo, Hokim Naysoburiy o‘zining «Ma’rifat ulum al-hadis» («Hadis ilmlarini bilish») asarida bir qator ishonchli roviylar tomonidan rivoyat qilingan, ammo uning fikricha zaif va nuqsonli hisoblangan hadislarni keltiradi. Uning ta’kidlashicha, hadislardagi yolg‘onni aniqlash uchun isnodni chuqur tahlil etish kerak.



#### **4. Hadis ilmi doirasida tarixiy-biografik adabiyotning shakllanishi.**

Tarixiy-biografik asarlar arab adabiyotida juda keng tarqalgan. Musulmon jamiyatining o‘rtalarda diniy madaniyat tarixini o‘raganishda ular katta ahamiyatga ega. Arab tarixiy-biografik adabiyoti ichida vujudga kelgan ilk janrlardan biri tabaqot (tabaqalar) janridir. U islom ilmlari ichida maxsus janr sifatida vujudga keldi.



#### **«Tabaqot» janridagi asarlar tarixiy-biografik asarlar sirasiga kiradi**

Ba’zi tadqiqotchilar bu janr «ilm al-hadis» uchun zarurat tufayli vujudga kelgan desalar, boshqalar g‘olib arablarning o‘z nasablariga qiziqishi natijasida paydo bo‘lgan, deb hisoblaydilar. Tabaqot janrinining ilk rivojlanish davri haqida aniq ma’lumot yo‘q bo‘lsa-da, bu davrda uning turli janrlari yetishib chiqqanligi va asta-sekin unga tegishli asarlar ko‘payib borganligi ma’lum (630 y. dan 750 y. gacha va keyinroq).

Bu janrdagi ilk asarlar II/VIII asr oxiri – III/IX asr boshlarida yozila boshladi. Muofo ibn Imron Mavsuliyning (vaf. 184/800 y.) «Kitob tabaqot al-muhaddisin» («Muhaddislar tabaqalari kitobi»), Haysam ibn Adiy Sa’labiyuning (vaf. 207/822-3 y.) «Tabaqot al-fuqaho va-l-muhaddisin» («Faqih va muhaddislar tabaqalari»), Muhammad ibn Umar Vojidiyning (vaf. 207/822-23 y.) «Kitob at-tabaqot» asarlarining bizgacha faqatgina nomlari yoki keyingi davrda yozilgan asarlarda keltirilgan ko‘chirmalarigina saqlanib qoldi.

Bizgacha yetib kelgan tabaqot janridagi eng ilk asarlardan biri – Muhammad ibn Sa’d Basriyning (vaf. 230/845 y.) «Kitob at-tabaqot al-kabir» («Katta tabaqalar kitobi») asaridir. Ibn Sa’d o‘zining «Kitob at-tabaqot»ida o‘zidan oldingi shu janrdagi asarlardan to‘liq foydalangan. Shu sababli boshqa asarlarga o‘rin qolmagan va natijada ular e’tibordan chetda qolib, yo‘qolib ketgan.

Ibn Sa’d o‘zining asarida sahabalar va tobiylarning tarjimai hollarini batafsil bayon qilgan. Biografiyalarni tartibga solishda ulardan islomni birinchi qabul qilganlar va Payg‘ambarga yaqin bo‘lganlarning nomlarini

birinchi o‘ringa qo‘yadi. Hijratda va Badr jangida Payg‘ambar bilan birga bo‘lgan sahobalarining nomlari Badrdan keyin u kishiga qo‘shilganlarning nomlaridan oldinga joylashtirilgan. Har bir biografiya ichidagi kishilar haqida quyidagi ma’lumotlar berilgan: ismi, kelib chiqishi, tug‘ilgan va vafot etgan sanasi va joyi; kimdan hadis eshitgan va kimga hadis aytgan, uning axloqiy sifatlari, ma’lumot darajasi, xabarlarining ishonchliliqi.

Boshqa shu janrdagi asar – Xalifa ibn Xayyotning (vaf. 240/854 y.) «Kitob at-tabaqot»ida ham sahoba va tobiylarning tarjimai hollari ularning islom tarixidagi ahamiyatiga ko‘ra joylashtirilgan. Ibn Sa’ddan farqli ravishda Ibn Xayyot tarjimai hollarni joylashtirishda kishilarning qaysi qabilaga mansub ekanligini e’tiborga olgan. Muhammad alayhi-s-salom tarjimai hollaridan so‘ng avval hoshimiylar, keyin umaviylar, undan keyin esa boshqa qurashiylar va boshqalarining tarjimai hollari joy olgan.

Ilk asarlarning tuzilish va tarkibidan shu narsa ma’lum bo‘ladiki, tabaqot janri hadis ilmlarining ichida sahih hadislarni aniqlash va ularni roviylar zanjiri – isnodni tanqidiy o‘rganib, ularni yolg‘onlaridan ajratish maqsadida yaratilgan. Hadislarni to‘qish va to‘plash gurkiragan o‘sha davrda islom qonunchiligi va diniy maskurasini shakllantirish uchun katta amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan bu turdagи asarlarning paydo bo‘lishi tabiiy va zaruriy edi. Tabaqalarga bo‘lish turli kategoriyadagi kishilarni ularning ahamiyati darajasiga ko‘ra guruhlarga ajratish uchun qulay usul edi. Tadqiqotchilarning ta’kidlashlaricha, tabaqot janridagi asarlar foydalanish uchun qulay bo‘lgan.

III/IX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, olti devon shakliga keltirilgan hadis to‘plamlari yaratilganidan so‘ng, biografiyachilarning e’tiborlari ko‘proq bu to‘plamlarda uchragan roviylarning nomlarini to‘plash, ularni to‘g‘ri o‘qilishini ta’minalash hamda ishonchli va ishonchsizga ajratib, muhaddislar haqidagi maxsus to‘plamlarini tuzishga qaratildi. Bu olti to‘plamning tuzuvchilari bu turdagи asarlarning birinchi mualliflari bo‘lib qoldilar. Bu o‘rinda misol tariqasida Muhammad ibn Ismoil Buxoriyning «Kitob ad-duafo‘» («Zaiflar kitobi»), Ahmad ibn Ali Nasoiyning (vaf. 303/915 y.) «Kitob al-kuno» («Kunyalar kitobi»), Abu Bishr Dulobiyning (vaf. 320/932 y.) «Kitob al-asmo‘ va-l-kuno» («Ism va kunyalar kitobi») asarlarini keltirish mumkin. Ishga yangicha yondashuv biografiyalarning joylashuv tartibini o‘zgartirishni talab etdi. Masalan, Imom Buxoriy o‘zining «at-Ta’rix al-kabir» («Katta tarix») asarida hadis roviylarining tarjimai hollarini alifbo tartibida joylashtirdi.

Hadislarga o‘ziga xos munosabatda bo‘lgan shialik muhitida tabaqot janrining o‘z an’anasi vujudga keldi. Masalan, shialar orasida mashhur Ahmad ibn Muhammad Barkiyoning (vaf. 274/887 y.) «Kitob tabaqot ar-rijol» («Roviyalar tabaqalari kitobi») asarida Ali ibn Abi Tolibdan (vaf. 40/661 y.) rivoyat qilgan kishilar haqidagi biografik ma’lumotlar to‘plangan. Vaqt o‘tishi bilan bunday asarlarning tuzilish prinsipi ishlab chiqildi. 12 imomning biridan rivoyat qilgan kishilarning tarjimai hollari mos ravishda bir tabaqaga kiritildi. Tarjimai hollarning umumiy joylashuv tartibi quyidagicha:

1. Payg‘ambar sahabalari;
2. Ali ibn Abi Tolib as’hoblari;
3. Hasan ibn Ali (vaf. 49/669 y.) as’hoblari;
4. Husayn ibn Ali (61/680 yilda o‘ldirilgan) as’hoblari va shu tarzda

12-imomgacha.

Shialik mualliflaridan Muhammad ibn Umar Kashshiyning (vaf. 370/980 y.) «Ma’rifat axbor ar-rijol» («Roviyalar xabarlarini bilish»), Ahmad ibn Ali an-Najoshiyning (vaf. 450/1058 y.) «Kitob ar-rijol» va Muhammad ibn al-Hasan at-Tusiyning (vaf. 459/1067 y.) «Kitob ar-rijol» asarlari xuddi shu tartibda tuzilgan.

III/IX asrdan boshlab shialar bilan bir vaqtda sunniylarda ham hadis roviylarining tarjimai hollarini joylashtirishda o‘z tartib-qoidalari shakllandi:

1. 90/708-709 yilda tugagan sahabalar tabaqasi;
2. 148/765-766 yilda tugagan tobiylar tabaqasi;
3. 198/813-814 yilda tugagan atbo at-tobiinlar tabaqasi va hokazo.

Musulmon xalqlari hayotida yuz bergen o‘zgarishlar tabaqot janridagi asarlarning tarkib va tuzilishiga ta’sir ko‘rsatdi. Musulmon mamlakatlarining yirik shaharlarida hadisga oid ilmlarning rivojlanishi alohida shahar va tuman roviylari tabaqalarining paydo bo‘lishiga olib keldi. Bunday ro‘yxatlar o‘sha shaharga tegishli sahoba va tobiylarning tarjimai hollari bilan boshlanib, undan so‘ng shu joydan chiqqan hadis roviylarining tarjimai hollari berilgan. Muhammad ibn Hibbon Bustiyning (vaf. 354/965 y.) «Kitob at-tabaqot al-isbahoniya», Solih ibn Ahmad Hamadoniyning (vaf. 384/994 y.) «Tabaqot al-hamadoniyn» asarlari shu tartibda tuzilgan. Keyinroq yozilgan «shaharlar tarixi» janridagi asarlarning anchagina qismini muhaddislarning tarjimai hollari tashkil etadi. Ammo Xatib Bag‘dodiyning (vaf. 463/1071 y.) shu janrdagi «Ta’rix Bag‘dod», Ibn Asokirning (vaf. 671/1176 y.) «Ta’rix Dimashq» va boshqa asarlarda

bu shaharlarning sharafi bo‘lgan mashhur kishilarning tarjimai hollari, foydalanishga qulay bo‘lsin uchun, alifbo tartibida joylashtirilgan.

Mazkur asarlarning nomlari ularning ichki tuzilishi haqida xabar berib turadi. Bu xalifalikning markaziy mintaqalaridagi an'analar yangi muhitda rivojlangan musulmon Ispaniyasi misolida yaqqol ko‘rinadi. Masalan, Muhammad ibn Haras Xushoniyning (vaf. 360/970-71 y.) «Tabaqot ‘ulamo’ Ifriqiya» asarida ilohiyotchilarning biografiyalari tabaqalar bo‘yicha guruhlarga ajratilgan bo‘lsa, Ibn al-Farodiyning (vaf. 403/1013 y.) «Ta’rix ‘ulamo’ Andalus»ida tarjimai hollar alifbo tartibida taqsimlangan, bunda har bir harf chegarasidagi tarjimai hol vafot sanalarini e’tiborga olgan holda – avvalgilardan keyingilarga qarab davom ettirilgan. Ana shu Xushoniyning «Kitob al-qudot» asarida esa tarjimai hollar qozilik mansabiga tayinlanish tartibi bo‘yicha tasnif qilingan.

Boshqa janrlardagi yangi uslublar tabaqot janri mualliflarining asarlarida ham o‘z aksini topdi. Ismoil ibn Muhammad Isfahoniy (vaf. 535/1140-41 y.) o‘zining «Kitob tabaqot siyar as-salaf» («O‘tgan ulamolar tabaqalari kitobi») asarida kitob hajmini qisqartirish maqsadida hadis roviylarining isnodlarini tushirib qoldirdi. Tabaqlar ichidagi roviylarning tarjimai hollari alifbo tartibida joylashtirildi. Muhammad ibn Ahmad Zahabiy (vaf. 748/1348 y.) o‘zining mashhur «Ta’rix al-islom va tabaqot al-mashohir val-a’lom» asarida tarjimai hollarni joylashtirishda aralash tartibni qo‘lladi. Barcha biografik materialni o‘n yilliklar bo‘yicha taqsimlab, ular ichidagi tarjimai hollarni alifbo tartibida joylashtirdi.

Movarounnahrda eng avval yaratilgan mashhur tarixiy-biografik asarlardan biri Abu Sa’d Abdurrahmon ibn Muhammad Idrisiyning (vaf. 405/1015 y.) «Kitob al-kamol fi ma’rifat ar-rijol min ‘ulamo’ Samarqand» («Samarqand ulamolaridan roviylarni bilish bo‘yicha mukammal kitob») asaridir. Bu Samarqand ulamolari haqida yozilgan beباho manba bizgacha yetib kelmagan bo‘lsada, undagi ma’lumotlar keyingi davr mualliflarining asarlarida saqlanib qolgan. Masalan, Abu Hafs Nasafiy o‘zining «Kitob al-qand fi zikr ‘ulamo’ Samarqand» – («Samarqand ulamolarini zikr etish bo‘yicha shirin kitob») asarida 421 joyda undan ma’lumot keltiradi. Bu esa Idrisiy asarining asosiy qismi «Kitob al-qand»da saqlanib qolganligini ko‘rsatadi.

Muhammad ibn Ahmad G‘unjorning (vaf. 412/1021 y.) «Ta’rix Buxoro» asari ham tarixiy-biografik janrda yozilgan, ammo bizgacha yetib kelmagan asar hisoblanadi.

Ja’far ibn Muhammad Mustag‘firiyning (vaf. 432/1041 y.) Nasaf va Kesh tarixi bo‘yicha yozgan «Ta’rix Nasaf» asari yuqorida zikr etilgan ikki asar kabi bizgacha yetib kelmagan. Abu Hafs an-Nasafiy «Kitob al-qand» asarida 169 joyda Mustag‘firiydan rivoyat keltirgan. Shundan ham ko‘rinadiki, «Kitob al-qand» asarining ichida al-Mustag‘firi asarining bir qismi saqlanib qolgan.

Vaqt o‘tishi bilan hadis ilmi keng qamrovli sohaga aylandi. Bu fan doirasida shakllangan tarixiy-biografik adabiyotlar o‘zida barcha islom ilmlari sohalarini aks ettirdi. Shuning uchun ham hadis ilmining bir sohasi bo‘lmish tarixiy-biografik asarlarni keng miqyosda o‘rganish nafaqat hadis ilmini, balki musulmon dunyosi tarixi, madaniyati, ilm-fan sohalarini bilishda katta ahamiyat kasb etadi.

## HADIS

وَقَالَ النَّبِيُّ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ: مَنْ يُرِدُ اللَّهُ بِهِ خَيْرًا يُفَعِّلْهُ فِي الدِّينِ  
Nabiy s.a.v. aytdilar: Alloh kimga yaxshilikni xohlasa,  
uni dinda bilimdon qilib qo‘yadi.



### Mavzu bo‘yicha savollar

1. Islom dinida payg‘ambarlikning maqomi qanday va u boshqa dinlardagidan nimasi bilan farqlanadi?
2. Ilk islom davrida hadislarni yozishga qanday munosabat bildirilgan?
3. Qaysi davrga kelib hadislarga bo‘lgan ehtiyoj ortdi?
4. Hadisga qanday ta’rif berilgan?
5. «Tadvin» deganda nima nazarda tutiladi?
6. Hadis ilmining qanday sohalarini bilasiz?
7. Hadis rivoyatida isnodga e’tibor berish qachondan boshlandi?
8. Tarixiy-biografik adabiyotlar qanday ahamiyatga ega?



### Topshiriqlar

1. Mavzuni o‘qib chiqing va unda kelgan oyat va hadislarni yodlang.
2. Payg‘ambar Muhammad s.a.v. hayoti va ilk islom tarixiga oid manbalar bilan tanishing.
3. Imom Buxoriy hayotiga oid ma’lumotlar bilan tanishing.
4. Movarounnahrda yaratilgan tarixiy-biografik asarlar nomlarini yoddan aytинг.

## **Mustaqil ish mavzulari**

1. Odob-axloqqa oid hadis to‘plamlari.
2. Hadis turlari va ularni tasniflash usullari.
3. «Tabaqot» janridagi asarlarning o‘ziga xos jihatlari.
4. Movarounnahrlik olimlar ilmiy merosida tarixiy-biografik asarlarning tutgan o‘rnini.

## **Adabiyotlar**

1. Виждон эркинлиги ва диний ташкилотлар тўғрисида (янги таҳрири). // Ўзбекистоннинг янги Қонунлари. 19-сон. – Т.: Адолат, 1998. – Б. 223-235.
2. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008.
3. Ислом зиёси ўзбегим сиймосида. – Т.: «Тошкент ислом университети» нашриёт-матбаа бирлашмаси, 2005.
4. Абу Абдуллоҳ Мухаммад ибн Исмоил ал-Бухорий. Саҳиҳ ал-Бухорий: 2 жилди. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008.
5. Раҳимжонов Д., Муратов Д. Ҳадисшунослик (ўқув қўлланма). – Т.: ТИУ нашриёт-матбаа босмахонаси. 2010.
6. Джон Бёртон. Мусульманское предание: Введение в хадисоведение. – М.: Диля, 2006. – 304 с.
7. Ермаков Д. Ҳадисы и хадисная литература // Ислам (историографические очерки) / Под общей редакцией С.М.Прозорова, – М.: Наука, 1991.
8. Kamali M.H. Hadith methodology. Authenticity, Compilation, Classification and Criticism of Hadith. – Kuala Lumpur: Ilmiah publishers, 2002.

### REJA:

1. Mustaqil O‘zbekistonda hadisshunoslik.
2. Sharqda hadis ilmining o‘rganilishi.
3. G‘arbda hadislarning o‘rganila boshlanishi.
4. Yevropada hadisshunoslik bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar.

 **Tayanch iboralar:** *Movarounnahr, Shosh, musulmon an’anasi, G‘arb uyg ‘onish davri, hadislarni tanqidiy o‘rganish, Muhammadiy tadqiqotlar, Konkordans, muxtasar.*

 **1. Mustaqil O‘zbekistonda hadisshunoslik.** Yurtimiz mustaqillikka erishgandan buyon respublikamizda madaniy merosni, o‘tmishdagi allomalar ijodini o‘rganish orqali milliy qadriyatlarni tiklashga katta e’tibor berilmoqda. Ilgari o‘rganilmagan olimlar hayoti va ijodi, asarlari tadqiq etila boshlandi. Boshqa sohalar namoyandalari qatori muhaddislar faoliyati va ularning asarlari tadqiq etilib kelinmoqda.

Yurtimiz olimlari tomonidan hadisshunoslik sohasida amalga oshirilayotgan ishlar beqiyosdir. O‘tmishda bizning yurtimizdan minglab muhaddislar yetishib chiqqanlarki, ularning merosini o‘rganish bo‘yicha hozirda qilinayotgan tadqiqotlar diqqatga sazovor. O‘zbekistonda muhaddislar merosini o‘rganish ko‘zga ko‘ringan olim, din arbobi, 1957–1982-yillarda O‘rtta Osiyo va Qozog‘iston musulmonlari diniy idorasi raisi, muftiy lavozimida ishlagan Ziyovuddin ibn Eshon Boboxon (1908–1982) tomonidan rivojlantirila boshlagan edi. Bu olim va jamoat arbobi o‘z otasi, 1943–1957-yillarda diniy idorani tashkil etib, yurtimizda islom ilmlarining qayta tiklanishiga asos solgan Eshon Boboxon Abdumajidxon o‘g‘lining ishlarini davom ettirdi.

Ziyovuddin ibn Eshon Boboxon 1969-yilda Toshkentda Imom Buxoriy nomidagi Islom institutini tashkil etib, unga bevosita rahbarlik qildi. Uning sa’y-harakatlari bilan 1945-yilda Buxorodagi Mir Arab madrasasi faoliyati qayta tiklandi. Sobiq Sovet Ittifoqi va bir qancha musulmon mamlakatlarida o‘tkazilgan yirik xalqaro diniy anjumanlarning tashkilotchisi yoki faol ishtirokchisi sifatida qatnashgan edi. 1976-yili Makkada masjidlar bo‘yicha Butunjahon oliy kengashi a’zosi etib saylandi.

Ziyovuddinxon diniy merosni keng targ‘ib va tashviq qilishdan tashqari ilmiy, diniy-ma’rifiy faoliyat bilan ham shug‘ullangan. Ibn Sinoning gigienaga oid kitobini o‘zbek va rus tillariga o‘girgan (Abu Ali ibn Sina, Traktat po ggiene, T., 1982). Ziyovuddinxonning «Diyorimizda islom va musulmonlar» asarida (1979, rus tilida) islom dinining mohiyati ochib berilgan, islom barcha zamon va xalqlar uchun salohiyatlidir din ekanligi, uning tamoyillari hamma yaxshi niyatli kishilarning orzu-umidlari bilan hamohang ekanligi ko‘rsatilgan.

Futuhiy taxallusi bilan she’lar bitgan Ziyovuddinxon xalqlar o‘rtasida tinchlikni saqlash, yer yuzida do’stlik va hamjihatlikni mustahkamlash ishiga katta hissa qo‘shgani uchun Iordaniya, Suriya, Marokash va Misr Arab Respublikasining oliv ordenlari bilan taqdirlangan. 1998-yilda olim tavalludining 90 yilligiga bag‘ishlab Toshkentda xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o‘tkazildi. 1982-yilda vafot etgan ushbu olim va jamoat arbobi Toshkentdagagi Qaffol Shoshiy maqbarasi yonidagi qabrular majmuasida otalari Eshon Boboxon yoniga dafn etilgan.

1943-yilda tashkil etilgan va yillar davomida turli nomlar (O‘rta Osiyo va Qozog‘iston musulmonlari diniy boshqarmasi, O‘rta Osiyo musulmonlari diniy idorasi) bilan atalgan va hozirda «O‘zbekiston musulmonlari idorasi»ning uch oylik jurnali «Sovet Sharqi musulmonlari» 1968-yidan chop etila boshladi. Bu jurnal sahifalarida muhaddislar va hadislari haqidagi ayrim maqolalar berilardi. Ammo ular eski o‘zbek yozuvida hamda arab tilida chop etilar va mahalliy aholi uchun tushunarli emasdi. Mustaqillik davrida bu jurnal «Movarounnahr musulmonlari» va keyinchalik «Hidoyat» nomi bilan chop etila boshladi. Ushbu jurnal hozirgi kunda o‘z sahifalarida islom ilmlari va ulamolari haqidagi, jumladan hadis va muhaddislarga oid maqolalarni muntazam berib bormoqda.



### *Mustaqillik davrida hadisshunoslikka oid tadqiqotlar keng ko‘lamda amalga oshirila boshlandi*

Mustaqillik davrida Shamsuddin Boboxonov, shayx Abdulaziz Mansur kabi olimlar tomonidan amalga oshirilgan ishlar e’tiborga molik. Odobaxloq, maishiy hayot masalalariga oid hadislarni o‘z ichiga olgan «Ming bir hadis» kitobi (Ming bir hadis / Arabchadan A.Mansurov tarjimasi. Mas’ul muharrir N.Ibrohimov. 2 jildli. – T.: O‘zbek maskani, 1991)

arabcha matn va o‘zbek tilidagi tarjimani o‘z ichiga olgan. Harakatlar bilan berilgan arabcha matn mutaxassislarning hadislardan ilmiy maqsadlarda foydalanishlari uchun qulaylik yaratishi bilan birga, qavs ichida shartli belgilar bilan berilgan roviylarning nomlari rivoyatlarning ishonchlilik darajasini aniqlashga yordam beradi. Ushbu to‘plamdagagi hadisi shariflar Imom Buxoriy, Muslim, Abu Dovud, Termiziy, Nasoiy, Ibn Mojja, Ahmad, Hokim, Ibn Hibbon, Tabaroniy, Said ibn Mansur, Ibn Abi Shayba, Abdurrazzoq Abu Ya’lo, Dorqutniy, Daylamiy, Abu Naim, Bayhaqiy, Ibn Adiy, Aqiyliy, Xatib kabi islom dunyosida mashhur muhaddislarning turli nomdagagi to‘plamlaridan terib olingan.

Xususan, professor Ubaydulla Uvatovning «Movarounnahr va Xuroson olimlarining hadis ilmi rivojida tutgan o‘rni (Al-Buxoriy, Muslim, At-Termiziy)» mavzuidagi doktorlik dissertasiyasi va bu izlanishlar natijasida chop ettirgan ko‘plab kitob, risola va maqolalari hadis ilmi va muhaddislarning sharaflı xizmatlarini yoritishga bag‘ishlangan.

Akademik Ne’matulla Ibrohimov va shoир Mirzo Kenjabek tahriri ostida tarjimonlar Zokirjon Ismoil, Xoja Muzaffar Nabixon o‘g‘li, Xoja Baxtiyor Nabixon o‘g‘li, Rahmatulloh qori Qosim o‘g‘li, Abdulg‘ani Abdulloh kabi tarjimonlar tomonidan Imom Buxoriyning asari o‘zbek tiliga tarjima qilindi. Olimlar tomonidan nashr ettirilgan Imom Buxoriyning «al-Jome as-sahih» (Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. al-Jomi as-sahih (ishonarli to‘plam): 4 jildli. – T.: Qomuslar bosh tahririyati, 1991-1997), «Al-Adab al-mufrad» (Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Al-Adab al-mufrad. – T.: O‘zbekiston, 1990. – 197 b.) kitoblari xalqimizga hadis ilmi bo‘yicha zaruriy ma’lumotlarni berdi.

Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf tomonidan chop ettirilgan ko‘p jildli «Hadis va hayot» kitobi hayotiy hadislarni o‘ziga jam qilish bilan birga hadis ilmi, uning tarixi, yirik muhaddislar va ularning asarlari haqidagi keng ma’lumotlarni o‘zida jam qilgan. 2004-yildan boshlab jild raqamlari bo‘yicha emas, balki hadis mavzularining dolzarbligi navbatli bo‘yicha nashr etib borilgan 39 jilddan iborat bu kitobda hadislar sharh va izohlar bilan keltirilgan.

Oxirgi yillarda amalga oshirilgan ishlar qatorida Shayx Abdulaziz Mansur tomonidan Imom Buxoriyning «Sahih al-Buxoriy» (Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Sahih al-Buxoriy: 2 jildli. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008) nomli o‘zbek tilidagi nashrini ta’kidlash lozim.

Keyinchalik bu sohada izlanish olib borgan yosh tadqiqotchilardan B.Eshonjonovning «IX asr Mavarounnahr madaniy hayotida Imom al-Buxoriyning mavqeい va uning «al-Jomi’ as-sahih» asaridagi fiqhiy masalalar», D.Rahimjonovning «Abu Hafs an-Nasafiyining «Kitob al-qand fi ma’rifat ‘ulamo’ Samarqand» asari – Samarqandda hadis ilmi tarixi bo‘yicha muhim manba», D.Muratovning «Abdulloh as-Subazmuniyning «Kashf al-osor» asari – hadis ilmiga oid manba», M.Alimovaning «Imom ad-Dorimiyning hadis ilmi rivojiga qo‘shgan hissasi» mavzuidagi nomzodlik dissertasiyalari bevosita hadis ilmi tarixi, yurtimiz allomalarining bu fan sohasiga qo‘shgan hissalarini yoritishga bag‘ishlangan.

Shu bilan bir qatorda, Abdulhakim Shar’iy Jo‘zjoniyning «Islom huquqshunosligi va hanafiy mazhabи taraqqiyotida O‘rtta Osiyo faqihlarining o‘rni», A.Mo‘minovning «Hanafiy ulamolarning markaziy Mavarounnahr shaharlari hayotida tutgan o‘rni va roli (II– VII/VIII– XIII asrlar)» mavzuidagi doktorlik, N.Muhamedovning «Shosh vohasi olimlarining islom ilmlarida tutgan o‘rni (X–XII asrlar)», I.Usmonovning «al-Hakim at-Termiziyning «Navodir al-usul» asari – hadis va tasavvuf ilmiga oid muhim manba», A.G‘.Abdullaevning «Abu-l-Lays as-Samarqandiyning Mavarounnahr tafsirshunosligida tutgan o‘rni», S.Oqilovning «Abu-l-Mu’in an-Nasafiy va uning moturidiya ta’limoti rivojiga qo‘shgan hissasi («Tabsiratu-l-adilla» asari asosida)», Sh.Ziyodovning «Abu Mansur al-Moturidiy yozma merosi va uning «Kitab at-tavilot» asari», Z.Najmiddinovning «Abu Zayd ad-Dabusiy merosining Mavarounnahrda fiqh ilmi rivojida tutgan o‘rni», R.Matibaevaning «Abu-l-Muayyad al-Makkiy al-Xorazmiyning «Manoqib Abi Hanifa» asari – hanafiylik bo‘yicha nodir manba» kabi nomzodlik dissertasiyalarda ham hadis ilmi bilan bog‘liq masalalar yoritilgan.

Shamsuddin Boboxonov ham ilk bora O‘zbekistonda muhaddislarning merosidan «bir shingil»ini rus tiliga tarjima qilgan va rus tilidagi «Buyuk muhaddislар xalqlar orasidagi do‘stlik va tinchlik haqida» («Velikie muxaddisi o mire i drujbe mejdu narodami») asarida keltirib o‘tgan. Bundan tashqari, «al-Adab al-mufrad» asarini o‘zbek tiliga tarjima qilib nashr ettirdi hamda tarjimaning kirish qismida asar bo‘yicha batatsil ma’lumotlar berib o‘tdi.

Mazkur tadqiqotlar bilan chegaralanmay, muhaddislар merosini o‘rganish hali davom etmoqda. Chunki ular umuminsoniy qadriyatlar va boy ma’naviy merosni o‘zida mujassam etgan.

 **2. Sharqda hadis ilmining o‘rganilishi.** Muhaddislar asrlar mobaynida hadis ilmiga oid eskirmaydigan asarlar yaratib, kelajak avlod uchun meros qilib qoldirganlar. Hayotlarini ilm talabiga bag‘ishlab, maqsadga erishish uchun, hatto xordiq chiqarish, uxlash damlarida ham hadislarni jamlash va saralash fikri bilan band bo‘lganlar. Masalan, Shayx Abdussalom Muborakfuriyning (1870-1924) «Siyrat al-Imom al-Buxoriy» («Imom Buxoriy siyrati») asarida rivoyat qilinishicha, Imom Buxoriyning kotibi uning hadis ilmiga bo‘lgan ishtiyoqini tavsiflab shunday yozadi: «Agarda Imom Buxoriy bilan safarga chiqsak, yo‘l yarmida kechga yaqin birorta xonadonda tunash uchun qolar edik. O‘scha kechasi Imom Buxoriy 15 martadan 20 martagacha turib, sham yoqib, yodiga tushgan hadisni yozib, keyin yana yotardi».

Hozirgi kundagi hadisshunoslikka oid tadqiqotlar ustida so‘z borar ekan, ularga asos bo‘lgan asarlar va ularning mualliflari to‘g‘risida to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiq. Hadis ilmi undagi tushunchalar, istilohlarni sharhlash bo‘yicha ko‘plab ulamolar mehnat qilganlar. Jumladan, Abu Mahmud Romahurmuziy (vaf. 320/932 y.) «Mustalah ul-hadis» («Hadis istilohlari») sohasida kitob yozgan ulamolar ichida eng birinchilardan hisoblanadi. Undan keyingi mualliflardan Hokim Abu Abdulloh Nisoburiy (vaf. 261/875 y.) «Ma’rifat ‘ulum al-hadis» kitobini yozdi. Xatib Abu Bakr Bag‘dodiy (vaf. 463/1071 y.) «al-Kifoya», Qozi Iyoz (vaf. 544/1149 y.) «al-Ilmo» («Ko‘rsatma»), Ibn Saloh Dimashqiy (vaf. 704/1305 y.) «Muqaddimat Ibn Saloh» («Ibn Saloh Muqaddimasi»), Ibn Kasir Dimashqiy (vaf. 774/1373 y.) «al-Bois al-hasis ixtisor ‘ulum al-hadis» («Hadis ilmlarini tez tushunish bo‘yicha muxtasar kitob»), Ibn Hajar Asqaloniy (vaf. 852/1448 y.) «Nuxbatul fikar» («Tanlangan fikrlar») nomli kitoblarni yozdilar.

Zamonaviy olimlar ham bu sohada faol shug‘ullanmoqdalar, jumladan, doktor Mahmud Tahhonning «Taysir mustalah al-hadis» («Hadis istilohlarini osonlashtirish»), Abdurahmon Itrning «Maolim as-sunna an-nabaviya» («Payg‘ambar sunnati alomatlari»), doktor Nuriddin Itrning «Manhaj an-naqd fi ulum al-hadis» («Hadis ilmlarini tanqidiy o‘rganish uslubi») va boshqa asarlarni misol qilib keltirish mumkin.

Hadis ilmi tarixi bo‘yicha ham hozirda ko‘plab olimlar tadqiqotlar olib borib o‘z asarlarini yaratmoqdalar. Masalan, Muhammad Abu Zahvning «al-Hadis va al-muhaddisin» («Hadis va muhaddislar»), Muhammad Ijoj Xatibning «as-Sunna qabla at-tadvin» («Tadvindan avvalgi sunnat») kabi asarlari bunga dalildir.

Hadis ilmi tarixida «an'anaviy» muhaddislardan tashqari, biror mazhabga tegishli olimlar ham hadis jamlaganlar. Bu olimlar faqat o'z mazhablarida dalil sifatida ishlatiladigan hadislarni jamlab, ularni yaxlit holga keltirganlar. Jumladan, hanafiy olimlari o'z mazhablariga oid hadislarni, sahoba va tobiylardan qolgan «osor»lar (yodgorlik, rivoyat, so'z) va boshqa rivoyatlarni maxsus kitoblarga jamlaganlar. Ulardan Imom Abu Hanifaning shogirdi Abu Yusufning (vaf. 182/798 y.) «al-Osor», yana bir shogirdi Imom Muhammad Shayboniyning (vaf. 189/804 y.) «Kitob al-osor», Imom Abu Ja'far Ahmad ibn Muhammad Tahoviyning (vaf. 321/933 y.) «Mushkil al-osor» («Osor muammolari»), «Sharh mushkil al-osor» («Osor muammolarining sharhi»), «Sharh maoniy al-osor» («Osor ma'nolari sharhi»), Abdulloh as-Subazmuniyning (vaf. 340/952 y.) «Musnad Abi Hanifa» («Abu Hanifa Musnadi») kabi kitoblarini misol tariqasida keltirish mumkin.

Hadis ilmi tadrijiy ravishda bosqichma-bosqich avval fiqhning bir sohasi sifatida, keyinchalik esa alohida fan sifatida taraqqiyoti etdi. Hijriy uchinchi asrda mazkur ilm o'z taraqqiyoti cho'qqisiga chiqib, bu borada ko'plab olimlar faoliyat yuritdilar. Keyingi asr muhaddislari oldingi olimlarning ishlarini tartibga solib, ularning asarlarida kelgan roviylar borasida o'z fikr va mulohazalarini bildirib o'tganlar. Muhaddislarning barcha uslublarini o'rganish ilmi – «ulum al-hadis» paydo bo'lib, u rivojlangandan so'ng muhaddislarning asarlaridan foydalanish va ularni tushunish ancha takomillashdi va yengillashdi.



### ***Hijriy uchinchi asr hadis ilmi taraqqiyotining cho'qqisi – «oltin asri» deb nom oldi***

Muhaddislar tomonidan amalga oshirilgan ishlar keyingi tadqiqotchilar tomonidan chuqur o'rganilgan. Masalan, Shayx Abdussalom Muborakfuriy «Siyrat al-Imom al-Buxoriy» («Imom Buxoriy hayoti») asarida faqat Imom Buxoriy «Sahih»iga bag'ishlangan arab tilidagi sharh va hoshiyalarning 107 tasini, fors va urdu tillaridagi sharh va tarjimalardan 38 tasini keltirib o'tgan. Bunda Muborakfuriy hayotlik vaqtida faqat Sharq mamlakatlarida amalga oshirilgan ishlarni keltirgan. Biroq olimning vafotidan keyingi davrda, hozirgacha bo'lgan muddat ichida amalga oshirilgan tarjima, sharh va tadqiqotlar qo'shilsa, ularning sanog'i yanada ortadi.

Jumladan, «Sahih»ning fransuz, nemis, ingliz, rus va o‘zbek tillaridagi tarjimalarini hamda unga doir tadqiqotlarni qo‘shib hisoblanadigan bo‘lsa, Imom Buxoriyning mazkur asariga bag‘ishlangan ishlardan oshib ketadi. Bu faqat Imom Buxoriy «Sahih»i bilan bog‘liq fikrlar edi, xolos. Boshqa muhaddislarning hadis ilmidagi meroslari bo‘yicha qilingan ishlarni ham hisoblansa, ular juda katta hajmi tashkil etadi.

Hadis ilmi, muhaddislarning hayoti va ilmiy faoliyati bo‘yicha turk olimlari ham qator ishlarni amalga oshirdilar. Ulardan doktor Mujteba Ugurning «Hadis istilohlarining ensiklopedik lug‘ati» («Doç. Dr. Mücteba Uğur. Ansiklopedik hadis terimleri sözlüğü. Ankara: Türkiye Diyanet vakfi yayinlari, 1992), doktor, professor Talat Kochyigitning «Hadis asoslari» (Prof. Dr. Talât Koçyigit. Hadis usûlü. Ankara: Türkiye Diyanet vakfi yayinlari, 2004) kitoblarini misol tariqasida keltirish mumkin. Mazkur nashrlar hadis ilmi bo‘yicha qo‘llanma va qomusiy lug‘atlar tarzda tuzilgan.

 **3. G‘arbda hadislarning o‘rganila boshlanishi.** Yevropada hadis ilmi tarixini o‘rganish XIX asrning ikkinchi yarmida rivojlana boshladi. Sohaga oid ilk tadqiqotlar I.Golsier, D.G.Pfan-Myuller, G.X.Yeynboll, N.Y.Kulson kabi olimlar tomonidan amalga oshirildi. Qur’oni karimning xorijiy tillarga tarjima qilinishi hadislар ustida tadqiqot olib borishga yo‘l ochdi. Buning natijasida esa, hadislар nafaqat chet tillariga tarjima qilindi, balki ular g‘arb hadisshunoslari tomonidan chuqr tadqiq etilib, tizimlashtirilgan holda o‘rganildi va ularning sa’y-harakatlari tufayli g‘arbda hadis manbalari vujudga keldi.

G‘arb sharqshunoslari Qur’onning muhimligini shak-shubhasiz tan oladilar, lekin sunnaning ahamiyati haqida so‘z ketganda ularda bunga bir oz shubha bilan qarash holati mavjud. 13 asr davomida sunnat nafaqat muhaddislар, balki XIX asrdan boshlab sharqshunos va dinshunoslар tomonidan shubha ostiga olindi. Yevropada hadis ilmi bilan shug‘ullangan tadqiqotchilar haqida qimmatli asar yaratgan Sankt-Petrburglik olim D.V.Ermakov qayd qilishicha, hadisshunoslik sohasi islomshunoslikka oid fanlar ichida eng kam o‘rganilgan yo‘nalishdir.

Qayd etish lozimki, yevropalik qator olimlar o‘rtasida an‘anaviy tus olgan tanqidiy hadisshunoslikni har doim ham haqqoniy (ob’ektiv) deb baho berib bo‘lmaydi. Bu haqda taniqli olim I.Goldsierning qator ilmiy izlanishlarida ham qayd etilgan. O‘ziga xos nozik jihatlariga ega bo‘lgan bu ilm tarixini o‘rganishda alohida xolislik bilan yondashish talab qilinadi. Hadisshunoslik o‘zining ilk davridan e’tiboran, hadis manbalariga tanqidiy

qarash va ularning ishonchlilagini isnod orqali aniqlash yo‘lini tanladi. Ayni vaqtida ta’kidlash joizki, A.Shprenger va U.Muir kabi olimlar hadis adabiyotining rivojlainishi haqida yetarli darajada to‘la tasavvurga ega bo‘lmay turib, uning biryoqlamaligi haqida xulosa chiqardilar. XIX asrning ikkinchi yarmida hadislар tarqalishining qonuniyatlari haqida so‘z yuritilib, uning huquqiy va diniy-siyosiy faoliyat bilan bog‘liqligi A.Fon Kremer, K.Sruk-Xyurgrone tadqiqotlari tomonidan ta’kidlandi.

Mazkur davrda G‘arbda hadisshunoslik sohasida talay ishlar amalga oshirildi. Masalan, Gustav Veyl (1808-1889) «Xalifalar tarixi» («Geschichte der Chaliphen»), Alois Shprenger (1813-1893) «Muhammadning hayoti va ta’limoti» («Das Leben und die Lehre des Mohammad»), Reynxart Dozi (1820-1883) «Islomiyat tarixi» («Het Islamisme»), Ignas Goldsier (1850-1921) «Muhammadiy tadqiqotlar» («Muhammedanische Studien», «Muslim Studies») va boshqa sharqshunoslар o‘z asarlarida hadis ilmi borasida fikr va mulohazalarini bildirganlar.

Mazkur mualliflar muayyan muhaddis yoki uning merosiga alohida asar bitmagan bo‘lsalar-da, umumiyl holda ularning hadis ilmidagi faoliyatlar bo‘yicha tahlillarni amalga oshirganlar. XX asrda hadis borasida ko‘zga ko‘ringan sharqshunoslardan biri gollandiyalik A.Vensink (1882-1939) «Konkordans» («Concordans») loyihasida ishtirok etib, «To‘qqizta ishonchli to‘plam» («as-Sihoh at-tis’ा») fihristini tuzishda qatnashdi. Bundan tashqari, manbashunos K.Brokkelman, F.Sezgin va boshqa olimlar ham muhaddislar va ularning asarlar haqida qimmatli ma’lumotlar berganlarki, ular hanuzgacha o‘z qiymatini yo‘qotgani yo‘q.



*1882-1939 yillarda Yevropada «as-Sihoh at-tis’ा» fihristini tuzish bo‘yicha «Konkordans» («Concordans») loyihasi tashkil etilgan.*

G‘arb hadisshunoslari muhaddislarning merosini asosan tanqidiy o‘rganganlar. Masalan, G.Veyl, A.Shprenger, V.Muir, R.Dozi, I.Goldsier kabi tadqiqotchilar Imom Buxoriy hadislarini o‘rganishda ilk muhaddislar kabi isnodga emas, balki davriylikka ko‘proq e’tibor bergenlar. Ya’ni biror bir hadis qaysi davrda dolzarb ahamiyatga ega bo‘lsa, o‘sha davrda to‘qilgan degan xulosani chiqarganlar. Darhaqiqat, islam tarixida turli davrlarda hadis to‘qish holatlari ko‘p bo‘lgan. Muhaddislar faoliyati ham

shu sababli jadallahsgan edi. Ular ham bu usuldan foydalanganlar. Ammo hadis ilmida boshqa usullar kabi bu yondashuv, ya’ni hadisning qaysi davrda ko‘p tarqalganiga qarab o‘sha davrning mahsuli deb baho berishni ham mutlaq haqiqat deb qabul qilib bo‘lmaydi.

V.Rozen o‘z asarida I.Goldsierning tadqiqoti orqali Imom Buxoriy, Muslim va boshqa muhaddislarning asarlari G‘arb arabshunoslari uchun haqiqiy ma’noga ega bo‘lganini ta’kidlab o‘tgan. Yana bir olim D.Margolius (1858– 1940) esa Imom Buxoriyning hadislarga e’tibori kuchli va ularni jamlashda ehtiyyotkor bo‘lganligini ta’kidlagan.

Shu bilan birga, Ye.Levi-Provansal, A.Minyan, J.Buske, V.Marse, S.Noy, A.Xarli, J.Makdonald va boshqalar muhaddislarning asarlari ustida tadqiqot va tarjimalarni amalga oshirganlar. Umuman olganda, I.Goldsier, G.Yeynboll, A.Vensink, A.Gayyom kabi tadqiqotchilar asarlari orqali Payg‘ambar hadislari haqidagi ma’lumotlar Yevropaga kirib bordi.

XIX asrda Xristian teologiyasining rivojlanishi Iso Masihning hayotini tarixiy-tanqidiy va injilni manba sifatida tahliliy o‘rganish kabi muhim omillar Yevropa dinshunos va sharqshunoslar tomonidan musulmonlarning diniy manbalarini o‘rganishga tutki bo‘lib xizmat qildi.

Payg‘ambar Muhammad s.a.v.ning hayot yo‘li va faoliyatini o‘rgangan yevropalik olimlar hadisshunoslik sohasiga qiziqa boshladilar. Chunki ular Qur’ondan keyingi o‘rnida turuvchi hadislarning Payg‘ambar (s.a.v.) hayoti va ilk islom tarixi haqidagi ishonchli manba ekanini anglab yetdilar. Yevropalik olimlarning shunday fikrga kelishlari hadislarni o‘rganib tadqiq etishni taqozo etardi. Bu esa o‘z navbatida ilk islom davridagi diniy-huquqiy fikrlarni, diniy maktablarning ta’lim-tarbiya jarayonini o‘rganishda hadisshunoslik muhim manba hisoblanishi ko‘plab tadqiqotlarning amalga oshirilishiga sabab bo‘ldi. XIX asrning oxirida hadisshunoslikka oid qator nashrlar chop etildi.

Hadislarning ilk islom davrida asosan og‘zaki yetkazilishi va yozma ravishda uzatishning qisman amalga oshirilishi yevropalik tadqiqotchilarda hadislarning tarixiy ishonchliligiga nisbatan shubha uyg‘otdi. Ularning fikricha, III/IX asrlarda va undan keyin musulmon olamida tarqalgan hadislarning aksariyat qismi o‘ylab topilgan.

Hozirda rossiyalik olimlar ham Imom Buxoriyning merosi ustida izlanishlar olib bormoqdalar. Masalan, Vladimir Abdulla Nirsha tomonidan Imom Buxoriyning «al-Jomi as-sahih» asarining muxtsasar shakli (muallif Ahmad ibn Abdullatif az-Zubaydiy) ikki jilda tarjima qilinib, 2002-yilda nashr qilindi va bu rus tilidagi ilk katta tarjima hisoblanadi. Shuningdek, boshqa muhaddislarning asarlari ham rus tiliga tarjima qilinmoqda.

Hozirgi kunda Rossiya Federasiyasida hadisshunoslikka oid tadqiqotlar Fan va ta’lim vazirligiga qarashli Sankt-Peterburg davlat universiteti, shuningdek, Osiyo va Afrika mamlakatlari institutida olib borilmoqda.

 **4. Yevropada hadisshunoslik bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar.** Yevropa hadisshunosligida asta-sekin hadis matnshunosligining manbalarini yaratish, konkordanslar, ya’ni 9 ta sahif to‘plamni yagona kitob holatiga keltirish, hadis matnlariga doir adabiyotlarni tarjima qilish va ularni nashr etish ishlari yuzaga keldi.

G‘arb hadisshunosligi tomonidan bosib o‘tilgan yana bir muhim qadam, bu yirik hadis to‘plamlarining bir joyga yig‘ilishi, hadis matnlarining alifbo tarzidagi ko‘rsatkichlari va hadislarning Yevropa tillarga tarjima qilinishi bo‘ldi. Hadis matnshunosligi o‘ziga xos xususiyatlarga ega. G‘arb hadisshunosligida turli xildagi hadislар majmualari, tanqidiy yondashuv bo‘yicha qilingan ishlar va hadislarga oid majmualar yirik adabiy to‘plamni tashkil etdi. Hadisshunoslik tadqiqotlari, har qanday boshqa sohadagi kabi ishonchli ma’lumotlar apparatiga ega bo‘lishi kerak edi va bu apparat o‘z o‘rnida jiddiy matnshunoslik va manbashunoslik yo‘nalishlariga tayangan bo‘lishi kerak edi. Bunday apparatning yaratilishiga hadis adabiyotlarining rivojlanishi to‘g‘risida ocherk yozgan I.Goldsier tamal toshini qo‘ydi. V.R.Rozen so‘zlariga ko‘ra: «... ushbu ocherk yuzaga kelishidan oldin Imom Buxoriy, Imom Muslim, Imom Abu Dovud va boshqalarning to‘plamlari mohiyatan deyarli barcha arabshunoslар uchun quruq bir gapdek edi. Endilikda esa ularning har biri alohida tarzda oshib berildi va yoritildi».

Taniqli olmon islomshunos olimi K.Brokkelman tomonidan yaratilgan hadisshunoslikka doir asarlar ilm ahliga ma’lum bo‘lgan hadis to‘plamlarini o‘rganishda sezilarli rol o‘ynadi. K.Brokkelmanning o‘z davriga nisbatan hadis adabiyotlari bo‘yicha to‘laroq ma’lumotlarni chop etishi hadis to‘plamlarini o‘rganishga bo‘lgan yondashuv sifatini o‘zgartirdi.

Hadis matnshunosligi apparatining yaratilishi va rivojlanishidagi katta yutuqlardan yana biri bu to‘qqizta ishonchli to‘plamni mujassamlashtirgan «Konkordans» asari ustida olib borilgan ish edi. Loyiha muallifi A.Y.Vensink 1916-yilda «as-Sihoh as-sitta»dagi bir xil mavzuga oid hadislarning alifbo ko‘rsatgichlarini yaratish g‘oyasi bilan chiqdi. Bunday ishning zarurati hadis matnlarini o‘rganishning ortda qolayotganligida edi. A.Y.Vensinkning fikricha, hadis bu islomning aqidaviy-huquqiy tizimi shakllanishini o‘rganadigan asosiy manbadir. Shuningdek bu ishda, isnod va matndagi atoqli nomlar, ya’ni roviylarning ismlari, geografik joy nomlari va Qur’on

oyatlari ko‘rsatgichlarini yaratish ham ko‘zda tutilgan edi. Hadis ilmiga oid ushbu yirik ishni amalga oshirishda dunyoning turli ilmiy markazlaridan taniqli olimlar, jumladan I.Yu.Krachkovskiy, A.E.Shmidt kabi yirik rossiyalik olimlar ham ishtirok etdilar.

Asarning birinchi jildi ustidagi faoliyat juda ko‘p mutaxassislarni o‘z atrofiga yig‘di va juda qisqa muddatda nihoyasiga yetdi. Konkordansning birinchi jildi 1936-yil dunyo yuzini ko‘rdi. 1939-yil A.Y.Vensink vafotidan keyin ishni Y.Mensing davom ettirdi. 1969-yilda esa bu ishni Y.Brugman o‘z qo‘liga oldi. Asarning Qur’on oyatlari, geografik joy nomlari, isnoddagi roviylar ismlari ko‘rsatgichlari mavjud bo‘lgan so‘nggi sakkizinchı jildi 1988-yil nashr etildi.

Konkordans ustidagi dastlabki ishlar hadis ilmining turli qirralarini ochib, hadis materiallarini turli yo‘nalish bo‘yicha o‘rganish imkoniyatini berdi. Konkordansning yuzaga kelishi hadisshunoslikdagi ishonarli matnlarni tayyorlash to‘g‘risidagi muammoni o‘rtaga tashladi. Matnlarga doir qiyinchiliklar ishning boshlanishidayoq yuzaga chiqdi. Ma’lum bo‘lishicha, hadisshunoslikda faqatgina bitta majmuuga, ya’ni Imom Buxoriyning «as-Sahih»iga yozilgan tanqidiy nashrgina mavjud edi.

Hidis matnlarini o‘zlashtirish darajasining muhim ko‘rsatkichi, bu ulardagi tarjimaning sifatidir. Imom Buxoriyning «al-Jome’ as-sahih» asari dunyo tillariga, xususan ingliz, fransuz va nemis tillariga tarjima qilingan.

«Al-Jome’ as-sahih» asari haqida yevropaliklar ancha oldin eshitgan bo‘lsalarda, uni g‘arb tillariga tarjima qilish XIX asrning o‘rtalaridan boshlandi. Birinchilardan bo‘lib K.Brokelman, U.Pirson, F.Sezgin kabi yevropalik olimlar «al-Jome’ as-sahih» asarining arabcha matni asosida dastlabki ilmiy maqolalarini e’lon qildilar.

Ingliz tiliga mazkur asarni birinchi tarjima qilgan olim Kreyzon bo‘lib, bu tarjima 1879-yilda Belk shahrida o‘n jidda nashr qilingan. Buxoriyning bu asarini 1935-yilda islom dinini qabul qilgan Muhammad Asad nomini olgan nemis olimi muxtasar izoh va hoshiyalari bilan ikki jidda nashr ettirgan. Mazkur tarjima haqida ko‘pgina e’tiborli Hindistondagi islom jurnallarida olimlar o‘zlarining iliq fikr-mulohazalarini bildirganlar. «Al-Jome’ as-sahih»ni Doktor Muhammad Muhsinxon ham (4-nashr, 1977-79 yillar) tarjima qilgan. Bu tarjimaga ko‘plab olimlar taqriz tarzida o‘z yozma fikrlarini e’lon qilganlar. Shulardan biri islomshunos, Amerika Vanderbilt universitetining ingliz tili o‘qituvchisi Shakir Nasif al-Ubaydiy shunday deydi: «Men ushbu tarjimaning ma’lum qismi bilan tanishib

chiqdim. Tarjimon «al-Jome’ as-sahih» asarini ingliz tiliga o‘girishda sodda, keng qamrovli, murakkab bo‘limgan usulda uning ma’nolarini ochib berishda muvaffaqiyatga erishgan. Tarjimon hadislarni tanlashda turli olimlar tomonidan turlicha talqin etilganlari orasidan eng ishonchlilarini tanlab olgan».



### ***1879 yilda «Al-Jome’ as-Sahih»ning dastlabki inglizcha to‘liq tarjimasi Kreyzon tomonidan amalga oshirildi.***

Albatta, boshqa tillarga tarjima qilingan hadislarni sifatiga ham katta e’tibor berilgan va shundan e’tiborga molik deb topilganlardan biri bu Parij sharq tillari maktabi o‘qituvchisi (hozirgi Sharq tillari va sivilizasiyalari milliy instituti - INALKO), sharqshunos olim Oktav Uda o‘zining shogirdi Uilyam Marse bilan hamkorlikda fransuz tiliga qilgan tarjimasidir (1320-1334/1903-1916).

Bu nashr to‘rt jild – 3000 sahifadan iborat edi. Oktav Uda asli jazoirlik bo‘lib, keyinchalik Parijda faoliyat yuritadi. Fransuz olimi o‘qituvchilik bilan birga Qur’oni karim va hadislarni chuqur o‘rgangan. Hozirgi kunda ham uning ko‘plab ilmiy asarlari Inalko kutubxonasida saqlanadi. Oktav Uda Arab xalqlarining urf-odatlarini o‘rganishda «al-Jome’ as-sahih» asaridan ko‘p foydalangan.

Oktav Udaning shogirdi Uilyam Marse (1288-1375/1871-1956) huquqshunos bo‘lib, fiqh ilmini chuqur o‘rgangan va shu sohada doktorlik ishini yoqlagan. Oktav Uda kabi u ham arab tilining turli shevalarini o‘rgandi. Uning dastlabki ishi Imom Navaviyning (631-676/1233-1277) «Tahzib al-asmo‘ va-l-lug‘ot» asarining fransuz tiliga tarjimasi bo‘lib, bu asar Imom Buxoriy haqidagi manbalardan biridir. Tarjima qilish jarayonida olim Imom Buxoriyning hayoti va faoliyatiga qiziqib qoladi va (1903-1975) yillarda «al-Jome’ as-sahih»ni tarjima qilishda Oktav Udagaga yaqindan yordam beradi.

1928-yilda fransuz islomshunosi Levi Provansal Parijda to‘rt jilddan iborat tarjimani nashr etdi. Pokistonlik islomshunos, professor Muhammad Hamidulloh (1908-2002) bu tarjimani tekshirib uning to‘rtadan bir qismi ustida tadqiqot qila olgan edi. U asosan Turkiya va Amerikada faoliyat yuritib kelgan va 2002-yilda Amerikaning Florida shtatida vafot etgan.

Nemis olimi Ludolf Krel 1284-1325/1868-1907-yillarda «al-Jome’ as-sahih»ning uch jildini arabcha matni va nemischa izohlari bilan Leydenda

nashr etdi. Krel vafotidan so‘ng uning leydenlik shogirdi T.V.Yeynbol ushbu asarning to‘rtinchi jildini nashr ettirdi.

Lydolf Krel (1852-1901) «Al-Jome’ as-sahih»ning nemischa tarjimasini amalga oshirdi. Nemis islomshunos olimasi Anna Marii Shimmel (1922-2003) fikriga ko‘ra, mazkur asar tarjimasi va izohlarini tuzish Krelning doktorlik ilmiy tadqiqoti edi. Olim «al-Jome’ as-sahih» asari ustida 20 yil mehnat qiladi va Germaniya hukumatining yordami bilan 1862-1867-yillarda mazkur asarning nemis va arab tilidagi uch jildini nashr qiladi. Ludolf Krel vafotidan keyin uning ishini Yeynbol davom ettirdi va asarning to‘rtinchi jildini 1852-yilda Bombeyda, 1853-yilda Dehlida bosmadan chiqardi.

1923-yilda A.X.Xarli Umar ibn Abdulazizga nisbat beriladigan kichik «Musnad»ning ingliz tilidagi tarjimasini nashr etdi. Keyingi yili Imom Buxoriy «as-Sahih»ining kichik bir fragmenti («Kitob al-qadar») ning A. Giyyom tomonidan qilingan tarjimasi paydo bo‘ldi. 1964-yilda islom esxatalogiyasi tadqiqotchisi J.Makdonald nashr qilinmagan hadis to‘plamlarining esxatalogik bo‘limlari tarjimasini e’lon qildi. Yevropa tarjimalarining bu ro‘yxatni hadislar yoki hadis to‘plamlarining tarjimalari ustida olib borilayotgan tadqiqot bilan birga davom ettirilishi mumkin. «Al-Jomi as-sahih»ning so‘nggi yillardagi tarjimasi 70-yillarning o‘rtalarida italiyalik olim S.Noya tomonidan amalga oshirildi.

Islomshunos I.Goldsier shunday degan edi: «Hadis Qur’oni karimdan keyin ikkinchi o‘rinda turuvchi musulmon dinshunosligi va huquqini o‘rgatuvchi manba bo‘lishiga qaramasdan, milliondan ortiq musulmon aholisi bo‘lgan shunday ulkan imperiyada shu paytgacha ingliz tilida hadis adabiyotini tushuntirib beruvchi birorta asar yaratilmaganiga hayronman».

Hozirgacha qilingan izlanishlar natijasida yana bir bora aytib o‘tish kerakki, Imom al-Buxoriy va uning avlodlarimizga meros qoldirgan asarlari, ayniqsa «al-Jomi as-sahih» asari nafaqat Sharq olami, balki G‘arbda ham ko‘plab olimlarning diqqat markazida turgan asarlardan ekan.

Tarjimalarning salmoqli qismi Sharq adabiyotiga tegishlidir. Ular orasida M.Hidoyat Husaynning (1933-1934) Imom Termiziy «Konkordans»i bo‘yicha qilgan ishi (1976 y.). Abdulhamid Siddiqiyning Imom Muslim «as-Sahih»i tarjimasi (1982 y.), Imom Buxoriy «as-Sahih»i matnining tarjimasi va izohi (Muhsinxon, 4-nashr, 1977-79 yillar), Molik ibn Anas «Muvatto»sining tarjimalari ajralib turadi.

Yevropa va sharq tarjimalari yondashuvda farqlansa-da, ularni birlashtirib turuvchi narsa bu ulardagi an'anaviy sharhlarga tayanadigan filologik tarjima uslubidir.

Zamonaviy hadisshunoslikning asosiy vazifalaridan biri bu hadis tarjimalari uchun ishonchli bo'lgan tarixiy-filologik yondashuvni ishlab chiqishdan iborat. Bu masala 80–90-yillar davomida faoliik va samara bilan olib borilayotgan tadqiqot ishlari orqali qisman hal etilgan. Hadis adabiyotlarini davrlashtirish va stratifikasiyalash bo'yicha ham bir qancha ijobjiy ishlar amalga oshirildi.

### HADIS

قَالَ رَسُولُ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُمَّ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ: طَلَبُ الْعِلْمِ فَرِيْضَةٌ عَلَى كُلِّ مُسْلِمٍ

Rasululloh s.a.v. aytdilar: Ilm talab qilish har bir  
musulmonga farzdir



### Mavzu bo'yicha savollar

1. Mustaqil O'zbekistonda hadislarni o'rganish bo'yicha qanday ishlar amalga oshirilgan?
2. Sharq hadisshunoslari va ularning tadqiqotlari haqida qanday ma'lumotga egasiz?
3. G'arb hadisshunoslaridan kimlarni bilasiz va ularning qanday asarlari mavjud?
4. Hadislarni o'rganishda qanday yondashuvlar bor edi?
5. G'arbda hadislarni qanday davrlarga bo'lib o'rganilgan?
6. «Konkordans» loyihasini amalga oshirishdan ko'zlangan asosiy maqsad nima edi?
7. Yevropa sharqshunoslari tomonidan tadqiq qilingan hadisshunoslikning dolzarb masalalari haqida nimalarni bilasiz?
8. «Al-Jomi as-sahih»ning nemis tiliga qilingan tarjimalariga oid qanday ma'lumotlarga egasiz?



### Topshiriqlar

1. Mavzuni o'qib chiqing va unda kelgan tadqiqotchi olimlar nomlarini esda saqlang.
2. Mustaqil O'zbekistonda hadisshunoslik bo'yicha amalga oshirilgan ishlarni sanang.

3. Musulmon mualliflari tomonidan amalga oshirilgan sanang.
4. G‘arbda hadislarni o‘rganishning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlang.
5. Yevropada hadisshunoslik bo‘yicha qilingan ishlarni nomma-nom ayting.

### **Mustaqil ish mavzulari**

1. So‘nggi yillarda chop etilgan o‘zbek tilidagi hadis kitoblari.
2. Yevropada hadisshunoslikka oid o‘rganilayotgan dolzarb mavzular.
3. Rossiyadagi hadislarni o‘rganish markazlari va ularning nashrlari.
4. Yevropa islomshunoslida I.Goldsierning tutgan o‘rni.



### **Adabiyotlar**

1. Раҳимжонов Д., Муратов Д. Ҳадисшунослик (ўқув қўлланма). – Т.: ТИУ нашриёт-матбаа бирлашмаси. 2010.
2. Абу Ҳафс Умар ибн Мухаммад ан-Насафий. ал-Қанд фий зикри уламои Самарқанд (Самарқанд уламолари хотирасига доир қанд(дек ширин китоб) / Арабчадан қисқартириб таржима қўлувчилар: Усмонхон Темурхон ўғли ва Бахтиёр Набиҳон ўғли. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2001.
3. Алимов У. Суннат ва ҳадис. – Т.: Шарқ, 2012.
4. Жўзжоний А. Ислом ҳуқуқшунослиги ва ҳанафий мазҳаби тараққиётида Ўрта Осиё факихларининг ўрни: тарих фан. док. дис... автореф. – Т.: Тошкент ислом университети, 2005.
5. Матибаева Р. Абу-л-Муайяд ал-Хоразмийнинг «Маноқиб Аби Ҳанифа» асари – ҳанафийлик бўйича нодир манба: тарих фан. ном. дис... автореф. – Т.: Тошкент ислом университети, 2009.
6. Раҳимжонов Д. Абу Ҳафс ан-Насафийнинг «Китоб ал-қанд фи маърифат уламо Самарқанд» асари – Самарқандда ҳадис илми тарихи бўйича муҳим манба. Тарих фанлари номзоди дис. ... автореф. – Т.: Тошкент ислом университети, 2003.
7. Уватов У. Мовароуннахр ва Ҳуросон олимларининг ҳадис илми ривожида тутган ўрни (Ал-Бухорий, Муслим, Ат-Термизий): тарих фанлари доктори... дис. автореф. – Т.: Тошкент ислом университети, 2002.
8. Эшонжонов Б. IX аср Мовароуннахр маданий ҳаётида Имом ал-Бухорийнинг мавқеи ва унинг «ал-Жоми’ ас-саҳиҳ» асаридаги фикҳий масалалар: тарих фан. ном. дис... автореф. – Т.: Тошкент ислом университети, 2001.

9. Mavsu'at al-hadis ash-sharif. – Shirkat Saxr li-baromij al-hosiba. – 1991-1996 (CD-ROM).
10. Abd al-Hadi al-Fadli. Introduction to Hadith. Translated by Nazmina Virjee. ICAS press. 2002.
11. Amini M.T. Textual critical Study of Hadith. Delhi. Idarah-i adabiyat-i Delli. 1997.
12. Goldziher I. Muslim studies (muhammedanische studien). Volume two. London. George allen & unwin ltd. 1969. Translated from the german by c. R. Barber and s. M. Stern.
13. Juynboll G.h.A. Studies on the Origins and Uses of Islamic Hadith. – Burlington: Variorum. 1996.

**REJA:**

1. Hadisning ilk davri.
2. Ilk islam davrida hadislarning tarqalishi.
3. Hadislarning rivoyat qilinishida ayollarning o‘rnii.
4. Hadislarning tarqalishida diplomatik aloqalarning o‘rnii.

 **Tayanch iboralar:** *johiliyat, hajjat al-vado, mo‘minlarning onalari, mutavotir, vahiy, tadvin, om va xos, mutlaq va gumon*

 **1. Hadisning ilk davri.** Islom tarixida «Johiliyat davri» deb nom olgan Arabiston yarim orolidagi VII asrning boshlari arafasida bu o‘lkada qabilalarning o‘zaro bosqinchilik yurishlari, o‘zlariga or va faqirlik keltiradi deb bilib qizlarni tiriklayin ko‘mish, ichkilikbozlik, qimorbozlikka ruju qo‘yish kabi salbiy holatlar mavjud edi. Umuman olganda, boshboshdoqlik, tartibsizlik hukm surar edi. Bu tartibsizliklar natijasida kuchlilar kuchsizlar ustidan zo‘ravonlik qilar edi. Qabilalar orasini murosaga keltirib turuvchi hokim ham, qozi ham yo‘q edi. O‘lkada muttasil urushlar tufayli qon to‘kilishidan charchagan aholi bu ishlarni tartibga solinishiga muhtoj edi. Payg‘ambar alayhissalom hadislarining asosiy qismi bunday ijtimoiy holatni isloh qilishga qaratilgani ham beziz emas.

Yozuv madaniyat belgilariidan hisoblanadi. U rivojlangan jamiyatning mehnat mahsulidir. Shuning uchun ham o‘tgan xalqlar ilk davrlardayok yozuvni ijod qilganlar. Badaviy arablar esa yozuvni ancha kech boshlaganlar. Arab xalqi sahro hayotiga o‘rgangani uchun, ular o‘qish va yozishni bilmas edilar. Arablarning ham bir oz madaniyatga erishgan qabilalari, jumladan, yamanliklar yozuvni o‘zlashtirgan bo‘lib, ularning yozuvi «Xattal-musnad al-himyariy» deb nomlangan. Lekin bu yozuvni yamanliklarning hammasi emas, ba’zi xos odamlargina bilardilar. Yaman bilan al-Hiyra (Kufa shahri yaqinidagi bir shahar) o‘rtasida siyosiy va savdo-sotiq aloqalari mavjud bo‘lgani uchun, himyariy yozuv Iroqqa ham yetib borgan va «Xattu-l-jazm» deb atalgan. Chunki himyoriy musnad alifbosidan o‘zlashtirib olingan edi. Bu alifbo Makkaga ham yetib kelgan. Aytishlariga qaraganda, bu xatni Harb ibn Umayya olib kelgan.

Keyinchalik bu xat turi Makkada ommalashib, uni ba’zi bir qurayshliklar o‘rganib oldilar. Badaviy (ko‘chmanchi) arablar esa yozmas, balki buni o‘z sha’nlariga tushadigan dog‘ deb bilar edilar. Bu esa Qur’oni karim va Nabiy

(s.a.v.) hadislarini yodlash omillaridan biri bo‘ldi. Oz sonli odamlargina bu yozuvdan foydalana olganlar. Natijada musulmonlar orasida o‘qish va yozish ancha qiyin ish sanalardi. Hatto Qur’onda ham Alloh ularni shunday nomlaydi: «**U (Alloh) omiylar (savodsiz kishilar) orasiga o‘zlaridan bo‘lgan, ularga (Uning) oyatlarini tilovat qiladigan, ularni (shirk va jaholatdan) poklaydigan hamda ularga Kitob (Qur’on) va Hikmat (hadis)ni o‘rgatadigan (bir) payg‘ambarni (Muhammadni) yuborgan zotdir»** (Juma, 2).

Arablar o‘rtasida yozuvning keng tarqalmagani sababli ular ko‘proq xotiraga suyanishlariga to‘g‘ri kelardi. Zero, o‘sha davrda arablarda katta hajimdagi doston va she’rlarni yod olib, xotirada saqlash xalq orasida keng tarqalgan va kishilar o‘zlarining bu qobiliyatlari bilan faxrlanar edilar. Bu kabi xotira mashqlari uning yanada kuchayishiga sabab bo‘lgan edi. Shuning uchun ham ilk islom davrida hadislarni yod olib, ularni xatga tushirmaganlar.

Mazkuz davrda Makkada o‘n yetti kishi yozishni bilgan. Ular – Umar ibn Xattob, Ali ibn Abu Tolib, Usmon ibn Affon, Abu Ubayda ibn Jarroh, ayollardan Hafsa bint Umar, Ummu Kulsum va boshqalar. Madinada esa Avs va Xazraj orasidagi bir necha kishi yoza olar edi. Ulardan Sa‘d ibn Uboda, Ubay ibn Ka‘b, Zayd ibn Sobit va boshqalarni sanab o‘tish mumkin.

Ilk davrda hadislarning yozma ravishda jamlanmaganiga yana bir sabab yozish qurollari keng tarqalmaganida edi. Islomning ilk davrida hadislар Qur’oni karimga aralashib ketishidan ehtiyyot qilish niyatida ham yozma qayd qilinmagan. Sahobalar Payg‘ambar (s.a.v.)dan hadislarni goh og‘zaki bayon etishlari, goh biror ishni qilishlari yoki biror ishni ma’qullashlarining shohidi bo‘lish bilan o‘rganganlar.

Qur’on oyatlari va hadislarni aralashtirib yuborish hamda birlamchi muqaddas manbaga o‘zgarishlar kirib ketishi ehtimoli borligi uchun sunnatni yozib, qayd qilib borish avvaliga man etilgan. Abu Sa‘id Xudriy rivoyat qilgan hadisda Rasululloh (s.a.v.) shunday degan edilar: «Menden Qur’ondan boshqa narsani yozib olmang. Kimki, menden Qur’ondan boshqa narsani yozib olgan bo‘lsa, uni albatta o‘chirib tashlasin!» (Imom Muslim rivoyati).

Sahobalarda hadislarni yodlab, xato qilmagan holda boshqalarga o‘rgatish salohiyati bor edi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, yozuv qurollarining, savodli kishilarining kamligi hamda xotiraning kuchliligi ilk islom davrida hadislarni kam yozish sabablaridan biri bo‘lgan.

Qur’oni karim ilk nozil bo‘lish davrida yozuv qurollari taraqqiy etmagani sababli sura va oyatlar kotiblar tomonidan mato parchalari, suyaklar, xurmo po‘stlog‘i va silliq toshlarga yozilar edi. Turli holatlarda murakkab savollarga javob tariqasida nozil qilingan Qur’on oyatlari Rasulullohning (s.a.v.) vahiy kotibiga: «Falon joyiga yozib qo‘y!» – degan buyruqlariga binoan xatga tushirilar edi.

Biroq, keyinchalik Rasululloh (s.a.v.)ning ko‘rsatmalariga binoan ayrim sahobalar hadislarni yozib borganlar. Masalan, bir rivoyatda aytishicha, Makka fath qilingan kun aytilgan xutbani eshitgan Abu Shoh uni yozib berishlarini iltimos qilganda, Rasululloh (s.a.v.): «Abu Shohga yozib beringlar!» deganlar. Bu Rasululloh tomonidan hadislarni yozishga berilgan ijozat deb qabul qilindi.

Sahoba Abdullah ibn Amr (rz.a.) aytadi: «Men Rasululloh (s.a.v.)dan eshitgan har bir narsani yodlash uchun yozib yurardim. Qurayshliklar mena «sen Rasululloh (s.a.v.)dan eshitgan har bir narsani yozib yurasan, Rasululloh ham inson, u g‘azablanganda ham, xursand bo‘lganda ham gapiradi» deyishdi. Yozishdan to‘xtadim va buni Rasulullohga eslatganimda «Jonim qo‘lida bo‘lgan zot nomi bilan qasamki, mendan haqdan boshqasi chiqmaydi» dedilar. Bu so‘z zamirida ham hadislarni yozishga ruxsat berilganini anglash mumkin.

Ilk yozma hadis to‘plamlari sifatida qayd etish lozimki, Rasulullohning xos kotiblarida sahifalar, ya’ni sahobalar yozib yurgan varaqlar bo‘lgan. Ular ko‘pchilik kishilar orasida tarqalmagan hamda umumiy tadvin qilinmagan, ya’ni kitobga jamlanmagan. Jobir ibn Abdullah, Sa’d ibn Uboda, Samrat ibn Jundub, Ali ibn Abu Tolib, Abdullah ibn Abbos, Abdullah ibn Amr ibn Os kabi sahobalarning hadislari yozilgan sahifalari bo‘lgan. Shuningdek, Payg‘ambar (s.a.v.) tomonlaridan turli joylardagi kishilarga yozilgan maktublar ham hadislardan iborat sahifalar hisoblanadi. Manbalardagi xabarlarga ko‘ra, kotiblarning soni taxminan 40 tacha kishi bo‘lib, ular turli hollarda, ya’ni shartnomalar tuzish, qurbanliklar qilish kabi holatlarda hadis yozib borganlar.



*Qur’oni karim ilk nozil bo‘lish davrida yozuv qurollari taraqqiy etmagani bois, sura va oyatlar 40 ga yaqin kotiblar tomonidan mato parchalari, suyaklar, xurmo po‘stlog‘i va silliq toshlarga yozilgan.*

Imom Muslimning Abu Said Xudriy (rz.a.)dan rivoyat qilgan hadisda «Rasululloh yozishdan qaytardilar» deyilgan bo‘lsa, Imom Buxoriyning Abu Hurayra (rz.a.)dan rivoyat qilgan hadisda «Rasululloh yozishga buyurdilar» deyilgan. Ko‘rinishdan bu ikki hadis bir-birini inkor etadiganga o‘xshaydi. Ammo davr jihatidan olib qaralsa, avvalgi hadis ilgariroq va keyingisi kechroq aytilgan. Shuning uchun ham keyingi hadis avvalgisining hukmini nasx, ya’ni bekor qiladi. Bu ikki xillikni yana quyidagicha izohlash mumkin:

1. Hadislarni yozishni man etish avvalroq, ya’ni Qur’on oyatlari nozil bo‘lib turgan davrda bo‘lib, oyat bilan hadis aralashib ketishining oldi olingen. Hadisni yozishga ijozat esa, keyinroq bo‘lgan.

2. Qur’on oyatlari bilan hadis bir sahifaga yozilsa, ular orasida o‘xhashlik paydo bo‘lib, aralashib ketish xavfi bor edi. Ammo alohida sahifalarga yozilganda, o‘xhashlik xavfi yo‘q bo‘lgani uchun yozishga ijozat berilgan.

3. «Odamlar yozuvga suyanib, hifzni, ya’ni xotirada saqlashni unutmasinlar», degan maqsadda hadislarni yozishdan qaytarilgan. Keyinroq, bu xavf bartaraf bo‘lgandan so‘ng yozuvga ijozat berilgan va bu avvalgi hadisning hukmini nasx qilgan.

Umuman olganda, sahobalar tomonidan hadislarni tadvin qilinmagan bo‘lsa ham, ammo ba’zi sahobalar yozib olganlar. Rasululloh (s.a.v.) o‘zлari hayotlik paytlarida faqat Abdulloh ibn Amrga emas, balki barcha sahobalarga ham hadislarni yozishga izn bergenlar.

Sahobalarning hadislarni bilish darajalari ham turlicha bo‘lgan. Ular orasida yozishni biladiganlari va bilmaydiganlari, Rasululloh huzuriga ko‘p qatnaydiganlari yoki kam qatnaydiganlari bo‘lgan. Masalan, Imom Buxoriyning Abu Hurayradan rivoyat qilishicha: «Rasululloh (s.a.v.) as’hobi orasida mendan ko‘p hadis biladigani yo‘q, faqat Abdulloh ibn Amr bundan mustasno, chunki u yozib borardi, men esa yozmasdim», degan (Imom Buxoriy rivoyati).

Sahobalar Rasululloh huzurida ko‘p yo kam bo‘lishlariga qarab ham u kishining aytayotgan gaplarini tushunganlar. Hadislardagi «nosix» va «mansux»ni, «omm» va «xos»ni, «mutlaq» va «gumon»ni, «mujmal» va «batafsil»ni ham turlicha anglaganlar. Agar ular biror masalada ixtilof qilsalar, darhol Rasulullohga murojaat qilib, savollariga javob olish imkoniyatiga ega edilar. Mazkur omillar ilk davrda hadisning alohida ilm darajasida o‘rganishga ehtiyoj qoldirmagan.



**2. Ilk islom davrida hadislarning tarqalishi.** Payg‘ambar (s.a.v.) Qur’oni karim hukmlarini va o‘z sunnatlarini sahobalarga o‘rgatish va tushuntirishda o‘sha davr ta’limining barcha uslublaridan foydalandilar. O‘sha davrda madrasalar yoki alohida bilim berishga mo‘ljallangan o‘quv binolari bo‘lmagan. Bu ishni masjid bajargan. Muhammad payg‘ambar (s.a.v.) masjidda imom, mudarris, xatib, qozi va muftiy vazifasini bajarganlar.

Haftaning muayyan kunlarida sahobalarga ta’lim-tarbiya va din haqidagi bilimlarni oson va tinglovchilarga malol kelmaydigan tarzda o‘rgatar edilar. Masalan, hadisda «Alloh taolo meni qo‘pol qilib emas, muallim va yengillatuvchi qilib yuborgan», deyilgan (Imom Muslim rivoyati). Xatib sifatida esa ma’ruza qilib insonlarni hidoyatga chaqirar, muftiy sifatida muammoli masalalarga fatvo berar edilar. Ba’zi hollarda, Rasululloh (s.a.v.)ning o‘zлari sahobalardan fatvoni so‘rab fatvo aytar, biror narsa haqida so‘rab o‘zлari javob berar, biror masala yuzasidan to‘xtab qolsalar, Allohnинг ko‘rsatmasi tushguncha sukut saqlar, hukm kelgandan keyin uni tushuntirar edilar. Masalan, hadisda «Payg‘ambar (s.a.v.) barcha oziq tishli yirtqichlarni yeyishdan qaytardilar», deyilgan (Imom Buxoriy va Muslim rivoyati). Qozi bo‘lib odamlar orasida hukm chiqarib bergenlar. Bunga misol tariqasida «zihor» haqidagi oyatning nozil bo‘lishi sabablarini keltirish mumkin (Mujodala, 1-4).

Muhammad payg‘ambar (s.a.v.) har bir ishda namuna ko‘rsatish yo‘li bilan sahobalarga ta’lim berar edilar. U kishi kibr-havosi baland, o‘z ummatidan ajralib qolgan sulton emas, balki ular orasida yurib insoniy fazilatlarga chaqiruvchi hadislarni tarqatganlar. Oilada ota va er, qo‘shni, maslahatchi, jamaa sardori va jamiyatdagi insonga xos barcha vazifalarni bajarib, ular orqali hadislarni o‘rgatganlar. Kasallarni borib ko‘rar, janozalarida qatnashar, odamlarning muammolarini yechib berar, nizolarini bartaraf qilar, ixtiloflarini kelishtirar edilar, sahobalar esa bu yo‘llar ila hadislarni uning barcha ko‘rsatmalarini quloqlariga quyib, qalblari bilan his etib o‘rganganlar.

Sahobalar Rasulullohning har qanday ko‘rsatmalarini turli holatlarda bo‘lishlaridan qat’i nazar, ixtilof qilmasdan qabul qilishar edi. Dunyoviy ishlarda Payg‘ambar (s.a.v.) sahobalar bilan maslahat qilar, ularning fikrlariga qo‘shilar edilar. Shu bilan birga ular Payg‘ambar (s.a.v.) suhbatlarida kerakli narsalarni so‘rab olar, maslahatlashar edilar. Ba’zi sahobalar o‘z qo‘shnisi bilan kelishib olib, navbatma-navbat Payg‘ambar (s.a.v.) majlislarida bo‘lib, yangi eshitganini bir-birlariga yetkazar edilar.

Imom Buxoriy rivoyatiga ko‘ra, sahoba Umar ibn Xattob qo‘shnisi bilan kelishib shunday qilar edilar.

Sahobalar Payg‘ambar (s.a.v.)dan hadis o‘rganish maqsadida uzoq joylardan kerakli masala yuzasidan Madinaga kelib ketishar edi. Imom Buxoriy «al-Jomi as-sahih»ning ilm kitobida rivoyat qilgan hadisda Uqba ibn Hars sahoba Abu Ihobning qiziga uylandi. Shunda bir xotin kelib, Uqbaga: «Men seni ham, sen uylanayotgan qizni ham emizganman», – dedi. «Men sizning meni emizganingizni bilmasman, menga aytgan ham emassiz», – dedi Uqba. Shundan so‘ng Uqba Madinaga, Rasulullohning huzurlariga borib, bu to‘g‘rida so‘radi. Rasululloh (s.a.v.): «Qanday xotin qilasan, razoi emikdosh singling deb senga aytibdi-ku axir!?» – dedilar. Ajratib qo‘ydilar, qiz boshqa erga tegib ketdi.

Agar Rasuli akram (s.a.v.) biror o‘ta muhim narsaning xabarini bersalar, uni uch marta yoki odamlar tushunib olishlari uchun undanda ortiq takrorlar edilar.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Payg‘ambar (s.a.v.) majlislari hech qachon izdoshlarining e’tiboridan chetda qolmas, ularda ham diniy ham dunyoviy masalalar hal qilinardi. Chunki diniy masalalarning aksariyati hadislardan iborat bo‘lgan.

 **3. Hadislarning rivoyat qilinishida ayollarning o‘rni.** Payg‘ambar (s.a.v.)ning majlislari faqat erkaklardan iborat bo‘lmay, balki ko‘pgina ayollar ham majlisda hozir bo‘lib hadislarni eshitganlar. Hayit namozi kabi ommaviy tadbir yoki bayramlarda ayollar jamoat bo‘lib Payg‘ambar (s.a.v.) ma’ruzalarini eshitish uchun masjidga chiqqanlar. Payg‘ambar (s.a.v.) hayit kuni oldingi safdag‘i erkaklarga xutba qilib bo‘lganlaridan so‘ng orqa tarafga, ya’ni ayollar tomoniga o‘tib so‘zlar edilar. Va’z-nasihat xutbalari erkaklarga ko‘p bo‘lar, ayollar esa orqa qatorda aksariyat hollarda eshitmasdan qolardilar. So‘ng ular Payg‘ambar (s.a.v.)ga vakillar yuborib, ayollarga ham bir kunni ajratib xutba qilishlarini talab qilishdi. Mana shundan so‘ng ayollarga alohida xutba o‘qiladigan bo‘lgan.

Rasululloh (s.a.v.)ning ayollar bilan bunday ilmiy majlislari kam bo‘lgani uchun, ayollar ko‘p shar‘iy masalalarni ochiq-oydin bilishga qiziqib, u kishining huzurlariga bir necha ayolni elchi tariqasida yuborar, ular kerakli zarur masalalarga oydinlik kiritib, yaxshi tushunib boshqalarga ham tushuntirib berardilar. Ba’zi ayollar esa ularning javoblariga qoniqmasdan o‘zлari Rasululloh (s.a.v.) huzurlariga borardilar, ilm o‘rganishda ayollarga xos bo‘lgan ba’zi masalalarni ochiq-oydin so‘rardilar.

Biroq bu kabi savol-javoblarning barchasi ham xossatan ayollar masalalariga bag‘ishlanmagan bo‘lib, ko‘pincha ijtimoiy-axloqiy mavzuda bo‘lar edi. Ayniqsa, ayollar o‘zlariga tegishli bo‘lgan narsalarni uyalmasdan, «dinda (ilm olishda) hayo yo‘q», degan qoidaga asoslanib, «Ey Rasululloh (s.a.v.) Alloh haqiqatni aytishdan hayo qilmaydi» (Imom Buxoriy rivoyati) der edilar va o‘z hojatlarini aytib, so‘rab masalaning javobini bilib olar edilar. Sahobiya ayollarning ko‘pchiligi ilm olish yo‘lida g‘ayratli edilar va ularga hech narsa bu yo‘lda to‘sqinlik qilmasdi. Hatto mana shunday jur’atli ayollar haqida Oisha (rz.a.): «Ansorlarning ayollari qanday yaxshi, din ilmini o‘rganishda ular hayo qilib o‘tirmaydilar», deb maqtov so‘zlarini aytganlar.

Shuningdek, Rasulullohning ayollari oilada u kishi bilan birga bo‘lib, er-xotin orasidagi munosabatlar bilan bog‘liq masalalarni o‘rganganlar va boshqalarga yetkazganlar, ayollar bilan maslahatlashib, ulardagi muammolardan boxabar bo‘lganlar. Ayniqsa, bu ishda Rasulullohning ayollari Oisha (r.a.) alohida o‘rin tutadi. U Rasulullohdan o‘z o‘tkir zehni va fahmi bilan zaruriy masalalarni so‘rab olgan, o‘rni kelganda Rasululloh bilan munoqasha qilgan. Qur‘on oyatlari va hadislarni ko‘p hollarda sharhlab ma’nosini tushuntirib berishni talab qilgan. Qiziqqan masalani oxirigacha aniq bilib olishga intilgan.

Hadisda Ibn Abu Mulayka aytadi: «Rasululloh (s.a.v.)ning ayollari Oysha (rz.a.) o‘zi bilmagan nimani eshitsa, to uni batatsil bilmagunicha Rasululloh (s.a.v.)ga murojaat qilaverar edi. Rasululloh (s.a.v.): «Kim hisob qilinsa azoblanadi», dedilar. Oysha (rz.a.): «Ey Allohning Rasuli, Alloh taolo: «Yaqinda ular yengil hisob qilinur», demaganmi?», deb e’tiroz bildirdilar. Rasululloh (s.a.v.): «Bu (yengil hisob qilinishi itoatli mo‘min uchun) obro‘, ammo kimning hisobi qattiq qilinsa, u halok bo‘ladi», deb javob bergenlar (Imom Buxoriy rivoyati).

Payg‘ambar (s.a.v.)dan keyin sahabalar g‘usl, hayz va shunga o‘xshash narsalar xususida bahs qilib qolishsa, darhol «mo‘minlar onalari», ya’ni Payg‘ambarning ayollari huzurlariga borishar va ulardan kerakli javobni olib qaytar edilar. Rasululloh (s.a.v.)dan hayo qilib masala so‘ray olmagan ayollar uchun esa «ummahot al-mu’minin» («mo‘minlar onalari»), ya’ni Payg‘ambar (s.a.v.)ning turmush o‘rtoqlari ustozlik qilganlar.

 **4. Hadislarning tarqalishida diplomatik aloqalarning o‘rni.** Rasululloh boshchiligidagi musulmonlarning Madina shahar-davlati tashkil topganidan so‘ng bu joy islom dinining markaziga aylandi. Aynan mana

shu yerda ko‘plab sunnat amallar joriy bo‘ldi. Lekin hali Hijoz mintaqasida musulmonlar bilan muxolif bo‘lgan qabilalar, makkaliklar orasida tez-tez davom etib turgan janglar islom dinining, shuningdek, sunnatning o‘lkada keng tarqalishiga to‘sqinlik qilardi. Hijratning oltinchi yilida (627 y.) madinaliklarning makkaliklar bilan tuzgan Hudaybiya sulhi o‘lkadagi boshqa arab qabilalari orasida ham hadislarning keng tarqalishiga imkon yaratdi.

Turli o‘lka podshohlariga yozilgan maktublar o‘sha joylarga ilk bora yetib borgan hadislar hisoblanadi. Muhammad payg‘ambar (s.a.v.) tomonlaridan atrofdagi mamlakatlarning podshohlariga maktublar yo‘llandi, shuningdek, Yaman, Bahrayn, Yamoma, Hazramavt, Ummon va boshqa arab shaharlaridagi islomni qabul qilgan qabilalarga muallimlik qilish uchun elchilar yuborildi. Bu elchilar, mahalliy aholiga avvalambor Qur’on va sunnatni o‘rgatgan bo‘lsalar, ikkinchidan Arabiston yarim orolidagi musulmonlar orasida hadislarning tarqalishiga sabab bo‘ldilar. Sahobalarning boshqa yurtlarga islom dinini o‘rgatish uchun jo‘natilishi o‘sha joylarga hadislarning tarqalishini boshlab berdi.

Payg‘ambar alayhis-salom elchilikning dinni tarqalishidagi ahamiyatini yaxshi bilganliklari sababli bu vazifaga o‘zлari ishongan, taqvosi, odobi, ilmi yuqori saviyali, chirolyi ma’ruzalar bilan dinni tushuntiradigan sahobalarni tanlab, ularga mahalliy holat haqida ma’lumot berib, ular bilan muomala madaniyatini o‘rgatar edilar. Din arkonlari haqida xabar berishda asta-sekin, bosqichma-bosqich tushuntirish lozimligini ta’kidlar edlilar.

Yamanga Mu’oz ibn Jabalni yuborayotib: «Sen ahli kitob bo‘lgan qavmga ketyapsan. Ularga borib Alloh taolo musulmonlarga besh vaqt namoz o‘qishni farz qilganini ayt. Ular senga itoat qilsalar, Alloh ramazon ro‘zasini tutishni ham farz qilganini ayt. Ular senga yana itoat qilsalar, Alloh yo‘lga qodir bo‘lgan musulmonlarga Baytullohni haj qilish ham farz qilinganini ayt. Bunga ham rozi bo‘lsalar, mollaringizdan zakot farz qilingan, boylaringizdan olib kambag‘ allaringizga beriladi, deb ayt» – deb o‘rgatdilar. Rasululloh (s.a.v.)dan topshiriqni olgan sahaba borgan joyida u zot aytgan gaplarning aynini takrorlar, vazifasini bajarishga kirishar, shu tariqa Payg‘ambar (s.a.v.)ning hadislari yangi musulmonlar orasida keng tarqalishiga sabab bo‘lardi.

Hudaybiya sulhidan so‘ng boshqa arab qabilalari Rasululloh (s.a.v.) ning olib borayotgan ishi bilan qiziqib qoldilar. Bir tomondan Payg‘ambar (s.a.v.) turli joylarga elchilar jo‘natgan bo‘lsalar, boshqa tomondan turli qabilalardan ham elchilar kela boshladи. Ayniqsa, hijratning 8-9-yillarida

(mil. 629-630 yillar) Rasululloh (s.a.v.) Makka fathi, Hunayn va Tabuk janglaridan g‘alaba bilan qaytishlari atrofdagi mamlakatlarni vahimaga soldi. Arab jazirasidagi ba‘zi qabilalarning islomga qiziqishi ortdi. Chunki eng kuchli va ko‘zga ko‘ringan Makkadagi Quraysh qabilasining islom dinini qabul qilishi musulmonlar mavqeining ancha yuqori ekanini ko‘rsatar edi. Natijada bunday yuksak obro‘ga ega bo‘lgan Payg‘ambar bilan muloqot qilish, uni ziyorat qilish ishtiyoqida qabilalar guruh-guruh bo‘lib va yakka-yakka holda ham Madina sari yo‘l oldilar. Bu esa sunnatning atrofdagi qabilalarga yanada kengroq tarqalishiga zamin yaratdi.

Sahobalar Yaman, Bahrayn, Yamoma, Hadramavt, Ummon va boshqa arab mamlakatlariiga bordilar. Ular Arabiston yarim oroli bo‘ylab aholiga hadislarni tarqatdilar.

Payg‘ambar va musulmonlarning nufuzi ortishi bilan Arabiston yarim orolining turli chekkalaridan sahaba bo‘lish maqsadida arab qabilalaridan vakillar kela boshladilar. Ular islom haqidagi bilimlarni va dinni birinchi manba, ya’ni «Payg‘ambardan qabul qilish»ni xohlardilar. Shunday qilib, to‘qqizinchi hijriy yili (mil. 630 y.) turli qabilalardan ko‘plab vakillar kelgan yil bo‘ldi. Bu vakillar Payg‘ambardan o‘zlaridagi mavjud ijtimoiy sohadagi muammolarga yechim topish, diniy-huquqiy masalalarni o‘rganish maqsadida kelgan edilar. Payg‘ambar ularga turli masalalar haqida gapirar, savollariga javob berar, xutba qilib ularga yo‘l ko‘rsatar edi. Ular o‘rgangan narsalarini qaytganlaridan so‘ng o‘z qabiladoshlariga o‘rgatar edilar. Vakillarning kelishi ham ilk davrdagi hadislarning tarqalishida katta iz qoldirdi.

Madinaga hijrat qilib kelganlar soni haddan ortiq ko‘p bo‘lgani uchun, tarixda hijratning 9-yili (mil. 630 y.) elchilar yili, deb nomlandi.

Rasulullohga kelgan elchilarning ko‘pligiga qaramay, sahabalar bu elchilarning qaysi qabiladan kelgani, ularga qanday mav’iza qilingani, nima haqda gapirilgani, qanday savol-javob bo‘lganini yodda saqlab qolgan edilar. Masalan, Banu Sa’d ibn Bakr qabilasidan Zammom ibn Sa’laba 9/630 yilda elchi bo‘lib keldi. U Madinaga kelganda, Rasululloh (s.a.v.) sahabalar orasida o‘tirgan edilar. Zammom:

– Qaysi biringiz Abdulmuttalibning o‘g‘lisiz?! – deb so‘radi. Sahobalar Rasululloh (s.a.v.)ni ko‘rsatishdi. Rasululloh (s.a.v.)ga qarab, – Ey Muhammad, elching bizga xabar qilishicha, seni Alloh yuborgan emish, to‘g‘rimi? – deb so‘radi. Rasululloh (s.a.v.):

– Rost aytibdi, – dedilar.

– Sendan oldingi-yu, sendan keyingilarning Parvardigori haqqi-a?

- Alloh haqqi rost.
- Alloh haqqi, senga bir kecha-kunduzda besh vaqt namoz o‘qishni Alloh buyurdimi?
- Alloh haqqi rost.
- Alloh haqqi, boylarimizning molidan olib, kambag‘allarga berishni ham senga Alloh buyurdimi?
- Alloh haqqi rost.
- Alloh haqqi, o‘n ikki oydan Ramazon oyi ro‘zasini tutishni Alloh buyurdimi?
- Alloh haqqi, rost.
- Alloh haqqi, yo‘lga qodir bo‘lgan odam Baytullohni haj qilishini Alloh buyurdimi?
- Alloh haqqi, rost. – Shunda Zammom:
- Men Allohga imon keltirdim, sizni tasdiq etdim. Men Zammom ibn Sa’labaman, – deb islom dininin qabul qildi va qaytib borib, o‘z qabilasini islomga kiritdi.

Yana bir misol Abdul-Qays qabilasidan elchilar kelishdi va Rasululloh (s.a.v.)ga:

Biz Sizning ziyyoratingizga faqat urush harom qilingan oylardagina kela olamiz. Chunki, oramizni Mudar qabilasi to‘sib turadi. Shuning uchun bizga shunday muhim amallarni buyuring-ki, qolgan qavmimizga o‘rgataylik va jannatga kiraylik, – deyishdi.

Rasululloh ularni to‘rt narsaga buyurdilar: Allohdan o‘zga iloh yo‘q va Muhammad (s.a.v.) Allohnинг elchisi, deb imon keltirish, namoz o‘qish, ramazon ro‘zasini tutish, o‘ljadan beshdan birini berish. Hamda to‘rt narsadan qaytardilar: ko‘za, qovoq, yog‘ochdan ichi o‘yib ishlangan idish va meshdan (ya’ni mazkur idishlarda saqlab, achitib ichiladigan mast qiluvchi ichimliklar iste’molidan) va dedilar: «Shularni yodda saqlanglar va orqangizda qolganlar (qavmingiz)ga yetkazinglar!» (Imom Buxoriy, Imon kitobi).



### ***Islom tarixida hijratning 9-yili (mil. 630-y.) elchilar yili, deb nomlandi.***

Shunday qilib, atrof qabilalardan, mamlakatlardan Rasulullohning ziyyoratlariga kelgan elchilar ham, atrofga yuborilgan elchilar ham Payg‘ambar (s.a.v.) sunnatlarini tarqalishida muhim ahamiyat kasb etganlar.

«Hajjatul vido» («Vidolashuv haji») deb nom olgan Payg‘ambarning oxirgi hajlari asnosida qilingan xutbada ko‘plab kishilar hadislarni bevosita eshitdilar va sahaba maqomini oldilar. Mazkur marosimda yuz ming atrofida kishi qatnashgani haqida xabar beriladi. Bu xutba katta matnni o‘z ichiga olgan bo‘lib, juda ko‘p isnod orqali rivoyat qilingan va u mutavotir, ya‘ni eng sahih hadislardan hisoblanadi. O‘sha kuni odamlar ko‘pligidan Robi ibn Umayya ibn Xalaf kabi sahabalar Rasulullohning gaplarini uzoqroqdagilarga yetkazib turganlar.

Xulosa qilib aytish mumkinki, ilk islom davrida hadislarning tarqalishida elchilarning xizmatlari katta bo‘ldi.

## HADIS

قَالَ رَسُولُ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ: ... وَلَا تَحَاسِدُوا وَلَا تَبَاغِضُوا وَلَا تَقْاطِعُوا وَلَا تَدَأْبُرُوا  
وَكُونُوا عِبَادُ اللَّهِ إِخْرَانًا كَمَا أَمْرَكُ اللَّهُ

Rasululloh s.a.v. aytdilar: ... Bir-birlaringiz bilan o‘zaro hasadgo‘ylik bug‘zu adovatda bo‘lmanglar. Oralaringizdagi aloqani uzmanglar va arazlashib yurmanglar. Alloh, buyurgandek uning o‘zaro do‘sit va birodar bandalari bo‘linglar.



### Mavzu bo‘yicha savollar

1. «Xattu-l-jazm» haqida nimalarni bilasiz?
2. Ilk islom davrida hadislarni yozma jamlashga e’tibor berilmaganining sababi nimada edi?
3. Tadvin qilishda yuzaga kelgan ixtilofli vaziyatlar qanday izohlangan?
4. Hadislar qanday uslublar orqali tarqatildi?
5. Qaysi sahabalar hadislarni birinchi bo‘lib yozishni boshlaganlar?
6. Payg‘ambar (s.a.v.) majlislari haqida nimalarni bilasiz?
7. Birinchi bo‘lib hadis rivoyat qilgan ayollardan kimlarni ayta olasiz?
8. Payg‘ambar (s.a.v.) sunnatlarining tarqalishida elchilar qanday ahamiyat kasb etganlar?



### Topshiriqlar

1. Makka va madinaliklar orasida yozishni bilgan kishilarni ayting.
2. Rasululloh (s.a.v.)ning jamiyatdagi vazifalarini tushuntiring.
3. «Mo‘minlar onalari»ning sunnatni tarqalishidagi roli haqida so‘zlab bering.
4. Hadislarni tarqatishda sahabalarning o‘rnini tushuntiring.

## **Mustaqil ish mavzulari**

1. Ilk islom davri tarixiga oid hadislar tahlili.
2. Rasululloh (s.a.v.)ning jamiyatdagi vazifalari asosida rivoyat qilingan hadislar.
3. Ahmad ibn Hanbalning «Musnad» asarida keltirilgan sahoba ayollar rivoyatlari.
4. Hadislarni o‘rganish va o‘rgatishda sahobalarning tutgan o‘rni.

## **Adabiyotlar**

1. Ислом тарихи / А. Ҳасанов, Н. Комилов, У. Уватов, А. Азимов, Д. Раҳимжонов, Қ. Зоҳидов – Т.: Тошкент ислом университети, 2008.
2. Абу Исо ат-Термизий. Аш-Шамойил ан-Набавия / Таржимон У. Уватов. – Т.: 1993.
3. Guillaume A. The traditions of islam. An introduction to the study of the Hadith literature. – London: Clarendon press, 1924.
4. Зоҳидов Қ. Илк ислом давлатчилиги ва унинг шаклланиш жараёнлари: тарих фан. ном. дис... автореф. – Т.: Тошкент ислом университети, 2005.
5. Ибн Ҳишом ал-Маъфирий, Абдулмалик. As-Siyra an-nabaviyya. 2 жилдли. (Пайғамбар (а.с.)нинг тарих ва ҳаёт йўллари). – Т.: Шарқ, 2011.
6. Ibn Hishom. As-Siyra an-nabaviyya. – Bayrut: Dor at-tiros al-arabiyy, 1997.
7. Muhammad Iqoj al-Xatib. As-Sunna qabla at-tadvin. Dor al-fikr, 1993.
8. Muhammad Matar Zahroniy. Tadvin as-sunna an-nabaviyya. – Ar-Riyod: Dor al-minhoj, 1426/2005.

### REJA:

1. Hadislarga bo'lgan ehtiyojning ortishi.
2. Soxta hadislarning paydo bo'lishi.
3. Hadis ilmi markazlari.
4. Ilk ko'zga ko'rningan hadis roviylari

 **Tayanch iboralar:** *sahoba, tobiyy, ridda, taba'a tobi'iy, roviy, rivoyat, soxta hadis, munofiqlik harakatlari*

 **1. Hadislarga bo'lgan ehtiyojning ortishi.** Payg'ambar vafotlaridan keyinoq musulmonlarning orasida hadislarning ahamiyati ortib ketdi. Bunga asosiy sabablardan biri musulmonlar boshlig'i tomonidan o'zidan keyin kim o'rribosar bo'lishi haqida aniq ko'rsatma berilmaganida edi. Sahobalar endi biror bir kishining o'rribosar bo'lishi lozimligiga ishora qiluvchi so'z bormi degan fikrda hadislarga muhtoj edilar. Payg'ambar (s.a.v.) vafotlaridan oldin sahoba Abu Bakr Siddiqning namozda imom bo'lishiga buyurgan edilar. Bu esa ushbu sahabaning Payg'ambar o'rribosari bo'lishi mumkinligiga ishora sifatida qabul qilindi. Abu Bakr Siddiq bu mansabga tayinlandi va masala o'z yechimini topdi.

Hadislarga ehtiyojni orttirgan keyingi masala «ridda» (dindan qaytish) harakatlari bo'ldi. Abu Bakr (r.a.) xalifalik vazifasini qabul qilmasdan turib, ko'plab qabilalar Payg'ambar o'limidan xabar topgach, «ixloslari qaytib», islom dinidan chiqqa boshladilar. Abu Bakr Siddiq ularga qarata «Kimki Muhammadga sig'ingan bo'lsa u o'ldi, kimki uning Rabbisi Allohga sig'ingan bo'lsa, u doimo tirikdir», deb musulmonlar orasidagi birlikni saqlab qolishga kirishdi.

Dindan qaytishning asosiy sabablardan biri iqtisodiy masala, ya'ni zakot berishdan bosh tortish edi. Zakot esa o'sha davrda «Baytul mol»ni to'ldirar edi. Abu Bakr Siddiq o'z faoliyati davomida «ridda» harakatlariga barham berdi va isyon ko'targan qabilalarni qayta bo'ysundirdi.

Abu Bakr va Umar davrlarida yosh bo'lgan sahabalar vaqt o'tishi bilan ulg'ayib, ilmlarini yanada kengaytirdilar va o'zlaridan keyingi avlodga, tobiiylargacha, islomni yangi qabul qilgan xalqlarga hadislardan bilganlarini o'rgatdilar. Sahobalar Payg'ambarga qanday intilgan bo'lsalar, tobiiylar ham ularning ilmlarini olishga, Qur'on va hadis haqidagi bilimlarni o'rganishga

shunday harakat qildilar va o‘zlaridan paydo bo‘lgan diniy masalalarga javoblar oldilar.

Rasululloh davrida turli fitnalarning tarqalishi va soxta hadis to‘qishning imkoniyati deyarli yo‘q edi. Bunga sabab bir tomondan Payg‘ambarning tirik ekani bo‘lsa, ikkinchidan vahiy nozil bo‘lib, yolg‘onchilarning nayrangi fosh bo‘lishidan qo‘rqishlarda edi.

Payg‘ambar davrlarida ham diniy masalalarda ayrim savol va muammolar paydo bo‘lar edi. Ammo ular o‘z joyida yechimini topib bartaraf etilardi. Bunga sahabalardan Umar ibn Xattob bilan Hishom ibn Hakamning orasida bo‘lib o‘tgan voqeani misol qilib keltirish mumkin. Unga ko‘ra, Umar ibn Xattob sahaba Hishomning «Furqon» surasini o‘zidan boshqacha qilib o‘qiyotganini eshitib qolgach, uni Rasululloh huzuriga olib keladi va «Bu Qur’oni karimni mendan boshqacha qilib o‘qimoqda», deydi. Rasululloh ularning ikkalasiga tortishgan oyatlarini o‘qitib ko‘radilar. So‘ng Qur’on yetti harfda nozil bo‘lgani va ularning barchasi ham to‘g‘ri ekani haqida xabar beradilar.

Abu Bakr Siddiq odamlar orasidagi birlikni saqlab qolgan bo‘lsa, Umar ibn Xattob esa fitnalarning tarqalishini bartaraf etdi. U Payg‘ambardan biror hadis aytuvchi kishi o‘z so‘ziga ishonchi komil bo‘lmasa hech narsa aytmasligiga chaqirdi. Umar ibn Xattob bu qoidaga amal qilmagan kishilarni qattiq jazolardi. Bu davrda hadislar ko‘p rivoyat qilinishining oldi olingan edi. Agar hadislar ko‘plab rivoyat qilinaversa, o‘sha jamiyatdagi g‘araz niyatli fitnachi va buzg‘unchi munofiqlar soxta hadislarni ham muomalaga kiritib yuborishlari ehtimolini kuchaytirar edi. Bundan tashqari, sahabalarning o‘zları ham xato va gunoh mas’uliyatidan qo‘rqib, hadislarni kam rivoyat qilishga harakat qilganlar. Shu omillar mazkur davrda soxta hadislarning ko‘payishi oldini olgan.

Biroq Usmon va Ali xalifalik davrlarida vaziyat o‘zgardi. Fath etilgan va islom kirib borgan yerlardan markazga, ya’ni Makka va Madinaga kelayotgan tobiylarning talablaridan kelib chiqqan holda hadislar rivoyatiga keng yo‘l ochildi. Bundan foydalangan munofiqlar turli ig‘volarni amalga oshirib musulmon jamoasi orasida nizo chiqarish harakatida bo‘ldilar.

Rasululloh (s.a.v.) o‘z zamонларидаги hadislarni yozishга izn bergen bo‘lishlariga qaramay, ular ilk islom davrida bir qator sabablarga ko‘ra juda kam holatlarda yozilgan. Payg‘ambar vafotlaridan so‘ng sahabalar Qur’oni karimni kitob holida jamlashga asosiy e’tiborni qaratdilar. Ammo hadislarni ham xuddi shuningdek yaxlit to‘plam holiga keltirmagan edilar.

Darhaqiqat, ilk islom davriga oid hadislar yozilgan, lekin kitob shaklini olmagan turli xildagi sahifalar va maktublar ham bo‘lgan. Sahifa egalari bo‘lgan sahabalar ularni boshqalarga rivoyat qilib yurar edilar. Shuningdek, sahabalarning o‘zaro yozishmalari ham o‘zlarida hadislarni mujassam etgan. Masalan, Abu Bakr Bahrayndagi omili (ish yurituvchisi) Anas ibn Molikka Rasululloh (s.a.v.) musulmonlarga buyurgan sadaqaning farzlar haqida yozilgan xatni yubordi.



*Xalifa Umar davrida fitnachi va buzg‘unchi munofiqlar soxta hadislarni ham muomalaga kiritib yuborishlari ehtimoli bo‘lgani bois, hadislar kam rivoyat qilingan bo‘lsa, Usmon va Ali davrlarida fath etilib, islom kirib borgan yerlardan Makka va Madinaga kelayotgan tobiylarning talablaridan kelib chiqqan holda hadislar rivoyatiga keng yo‘l ochildi.*

Umar ibn Xattobning Kufadagi omili Utba ibn Farqadga yo‘llagan maktubida Rasulullohning «Ipakni bu dunyoda faqat oxiratda nasibasi yo‘q kishi kiyadi, lekin bu (ozgina) miqdordagisi undan istisno» degan hadislarini yozgan edi. Ibn Mas’udda ham Rasulullohdan rivoyat qilingan hadislar yozilgan kitob bor edi. Sahoba Abdulloh ibn Mas’udning o‘g‘li Abdurahmon ham bir kitobni ko‘rsatib, u otasining o‘z qo‘li bilan yozgan xati ekaniga qasam ichgani haqida ham rivoyat mavjud.

Anas ibn Molik esa kishilarga ko‘p sahifali kitoblarini olib chiqib: «Bu men Rasululloh (s.a.v.)dan eshitib, yozib olgan va u zotga ko‘rsatgan hadislardir», degan edi. Muoviya ibn Abu Sufyon ham Mug‘ira ibn Sho‘baga: «Menga Rasulullohdan eshitganlaringdan biror narsa yozib ber», deganida, Mug‘ira: «U zot mish-mishdan, ko‘p savoldan va molni bekorga surf qilishdan qaytardilar», degan hadisni yozib bergen.

Mazkur rivoyatlar sahabalar hadislarni o‘zaro rivoyat qilish bilan birga ularni yozib yurganliklariga dalil bo‘ladi. Lekin shunday bo‘lsada, sahabalar davrida hadislar ommaviy tarzda yozilmaganligi sabablaridan biri sahabalar hadislarni to‘la yod olgan bo‘lib, yozishga ortiqcha ehtiyoj bo‘limganligida edi. Vaqt o‘tishi bilan hadislarga bo‘lgan ehtiyoj ortib bordi.

 **2. Soxta hadislarning paydo bo‘lishi.** Musulmonlarga rahbarlik Usmon ibn Affon qo‘liga o‘tgach davlat yerlari kengaydi. Bu davrga kelib «munofiqlik harakatlari» avj ola boshladи. Bunday kishilar tashqi

ko‘inishdan obro‘li, o‘z nufuziga ega bo‘lsalar-da, xalq orasida zimdan dushmanlik faoliyatini olib borar edilar. Bu harakatlar natijasida yolg‘on hadislarning to‘qilishiga zamin paydo bo‘la boshladi. Ana shu davrdan boshlab soxta hadislarning tarqalishi avj ola boshladi.

Oxir-oqibat ig‘vo va fitnalar Usmon ibn Affonning o‘ldirilishigacha borib yetdi. Ali ibn Abu Tolib rahbarligi davrida bu kabi fitnalar yanada rivojlandi. Yangi guruhlar chiqib, firqalarga bo‘linish boshlandi. Bu esa alohida firqa va guruhlarning manfaatlariga xizmat qiluvchi hadislarning to‘qilishiga olib keldi.

Usmon va Ali davrlarida islom dinini yangi qabul qilgan musulmon aholining talab va ehtiyojlari natijasida Makka va Madinaga kelayotgan tobiyylarning soni ortdi. Hadislar rivoyatiga keng yo‘l ochildi. Bundan foydalangan munofiqlar o‘z g‘arazli maqsadlariga erishish ilinjida turli iddaolarini soxta hadislarni to‘qish orqali rivojlantirdilar. Ali ibn Abu Tolibning o‘limi ham ana shu fitnalarning natijasi edi.

Manbalarning guvohlik berishicha, hijratning birinchi qirq yili mobaynida sunnat sof holda saqlangan, unga xato aralashmagan, yolg‘onlar to‘qilmagan, siyosiy g‘arazlardan xoli bo‘lgan, shuningdek, musulmonlar turli toifalarga bo‘linmagan, fitnalar avj olmagan davr bo‘lgan. Keyinchalik siyosiy voqealar tufayli musulmonlar orasida firqa va oqimlarga bo‘linish yuzaga keldi. Tabiiyki, har bir jamoa o‘z g‘oyalarini islomning birlamchi manbalari – Qur‘on va hadislar bilan quvvatlamoqchi bo‘ldilar.

Ba‘zi jamoalar Qur‘on oyatlari va hadislarni o‘zlariga moslab ta‘vil qila boshladilar. Hatto o‘z mazhablariga muvofiq hadis bo‘lmasa, Rasululloh (s.a.v.) tillaridan o‘z da‘volarini isbotlovchi hadislarni to‘qidilar. Mana shundan yolg‘on hadis to‘qish kelib chiqdi. Sahih hadislar bilan **mavzu‘**, hadislar aralashtirib yuborildi. Birinchi **mavzu‘** hadislar ayrim kishilarning fazilatlarini orttirib ko‘rsatishga oid edi. Turli firqalar vakillari o‘z yo‘lboshchilarini boshqa firqa rahnamolaridan ustun qo‘yish uchun uning fazilatlari haqidagi hadislarni to‘qiy boshladilar.

Rasululloh (s.a.v.) hadislarini roviylar tomonidan yod olinishi, muhaddislar tomonidan yozma holga keltirilishi, ularni jamlash va sof holida saqlab qolishga katta yordam berdi. Ammo o‘scha davrda yolg‘onchi, fitnachi kishilar va guruhlarning soxta hadislarni to‘qib chiqarishlari, qadimiy rivoyatlarni odamlarga hadis o‘rnida talqin qilishlari natijasida xalq orasida bid‘at va xurofotlar kuchayib bordi.

Hijriy ikkinchi asrning birinchi yarmida Abbosiylar amalda xalifalik maqomini boshqarayotgan Umaviylarni xalifalik taxtidan ag‘darishga harakat qildilar. Buning uchun ular «yashirin da‘vat»ga asosiy e‘tiborni qaratdilar. Abbosiylar o‘n ikki naqib (rahbar) boshchiligidagi yetmish kishidan iborat da‘vatchilar guruhini tuzib, islom dunyosining markaziy shaharlarida avval tijoratchilar orasida, keyin esa haj ziyoratiga kelgan hojilar orasida da‘vatni kuchaytirdilar. Ular umaviylar xalifaligini qoraladilar va agar xalifalik Rasululloh (s.a.v.)ning avlodlaridan bo‘lmish Abbosiylar qo‘liga o‘tsa, islom ham, ijtimoiy hayot ham gullab-yashnashini ta’kidladilar.



*Usmon ibn Affon hamda Ali ibn Abu Tolib davrlaridagi  
«munofiqlik harakatlari» soxta hadislarning ko‘payishiga  
dastlabki sabab bo‘lgan.*

127/745 yilda umaviylar davlatining inqirozga yuz tutishi va Abbosiylar xalifaligining tashkil topishi davrida ham hadislar siyosiy maqsadda foydalanildi. Bunda siyosiy guruhlар o‘z maqsadlariga muvofiq kelmagan hadislar mazmunini yashirdilar, maqsadga muvofiq qilib o‘zgartirdilar va Umaviylar xalifaligini qoralaydigan, ulardan odamlarning ixlosini qaytaruvchi mazmundagi hadislarni to‘qib tarqatdilar. O‘z navbatida odamlarda Abbosiylar xalifaligiga nisbatan xayrixohlik kayfiyatini uyg‘otuvchi bu sulola hukmronligining yuzaga chiqishi haqida bashorat berilgan hadislarni ham to‘qiy boshladilar.

Mazkur mazmundagi to‘qima hadislarning birida aytilishicha, go‘yo Rasululloh (s.a.v.) shunday deganlar: «Men Banu Umayyani Yer yuzining hamma joyidagi minbarlarda ko‘rdim. Ular sizlarga xo‘jayin bo‘lib oladilar. Ular yomonlikni kuchaytiruvchilardir». Shu ma’nodagi yana bir to‘qima hadisda go‘yo Rasululloh aytadilar: «Banu Umayya xalifalik qilgan har bir kun evaziga Abbas avlodlari ikki kun xalifalik qiladi. Bir oy evaziga ikki oy xalifalikda turishadi» yoki «Men Marvon avlodlarining minbarimni egallab olganlarini ko‘rdim. Undan ranjidim. Abbas avlodlarining minbarimni egallab olganlarini ko‘rdim va bu meni xursand qildi».

To‘qima hadislar orasida ba’zan Abbosiylar xalifaligini madh etib va quvvatlab hadislar to‘qilgan bo‘lsa, ba’zan uni qoralab hadislar to‘qildi. Shunday to‘qima hadislardan biri Sa‘id ibn Musayyabga nisbat berilgan hadisdir. Unda shunday rivoyat qilinadi: «Birin-ketin Xurosон shaharlari fath

etilganda Umar ibn al-Xattob (rz.a.) qattiq yig‘ladilar. Shunda Abdurrahmon ibn Avf Xalifaga: «Nega yig‘laysiz, Alloh taolo sizga shunday fathni tuyassar qildiku?!» – deganlarida, xalifa: «Nima uchun yig‘lamayin, koshkiydi, men bilan ular orasida olovdan dengiz bo‘lsa! Men Rasululloh (s.a.v.)dan shunday deganlarini eshitganman: «Agar Abbas avlodlariga Xuroson burgutlarining bayroqlari kelsa, ular islomni yo‘qotish uchun keladilar. Kimki o‘sha bayroqlar ostida bo‘lsa, Qiyomat kunida unga mening shafoatim nasib etmaydi».

Ba’zan to‘qima hadislar orasida islom ta’limotiga umuman zid bo‘lgan halolni harom, haromni esa halol degan hadislar ham bor ediki, bu kabi rivoyatlar dinda e’tiqodsizlikka, mulhidlikka (dinsizlik, xudosizlikka) ham sabab bo‘lishi mumkin edi. Islom tarixida «zindiqlar» (*ko‘pl. az-zanodiq*) deb nomlangan dinda fitnachilik, buzz‘unchilikni keltirib chiqarish bilan shug‘ullangan guruhlar tomonidan ana shunday soxta hadislar ko‘plab muomalaga kiritilgan.

Abbosiylar davrida faoliyat ko‘rsatgan zindiqlar zohiran o‘zlarini musulmon ko‘rsatsalar-da, majusiylar diniga, xususan moniylik diniga e’tiqod qilganlar. Keyinchalik bu nom keng ma’noda ishlatila boshlab, umuman dinsiz, mulhid, din buzuvchilar va fitnachilarga nisbatan ham qo‘llanilgan.

Muhaddislardan huzurida katta hadislar majmuasi yig‘ildi, turli sanad yo‘llari aniqlandi. Natijada Rasululloh (s.a.v.) hadislarini darajama-daraja tanlash, sanad roviylari tarixini aniqlash, to‘qilgan hadislardan tozalash imkoniyati paydo bo‘idi. Bu haqda Abu Dovud Sijistoniy o‘zining Makka ahliga risolasida shunday degan edi: «Sufyon, Vaki’ va unga o‘xshash ulamolar qattiq jiddu jahd qilib hadislarni tekshirdilar va bor-yo‘g‘i har mingta hadisdan bitta marfu’, muttasil sifatlari hadisni aniqladilar».

Sufyon Savriy aytadi: «Men hadislarni uch vajhdan yozib olishni yoqtiraman: a) ba’zi hadislarni din sifatida amal qilish uchun; b) ba’zi hadislarni yozib olaman va uni tashlab ham yubormayman, unga amal ham qilmayman; v) ba’zi zaif roviylarning hadislarini faqat bilib qo‘yish uchun yozaman, ammo e’tibor qilmayman. Imom Avzoiy (vaf. 156/773 y.) aytadilar: «Olinmaydigan hadislarni ham olinadigan hadislar kabi o‘rgan!»

Ko‘rinib turibdiki, muhaddis va tanqidchi olimlar hadislarni yozib olishda o‘ta hushyorlikka rioya qilganlar. Har bir aytilgan hadisni sinchiklab, matnini, roviysini, sanadini aniq tekshirib yozganlar, ozgina shubha tug‘ilsa tark etganlar. Shuning uchun zindiqlardan biri: «Men Rasululloh (s.a.v.)ning nomlaridan mingta yolg‘on hadisni to‘qib xalq orasiga tarqatib qo‘yanman», – deganda Xalifa Horun Rashid: «Ey Allohnning dushmani, sen kim bo‘libsan,

Abu Is’hoq Fazoriy va Abdulloh ibn Muborak kabi ulamolarimiz sahif hadislar orasidan sen to‘qigan yolg‘onlarni harfma-harf tekshirib, ajratib oladilar!» – degan.



*Islom tarixida dinda fitnachilik, buzg‘unchilikni keltirib chiqarish bilan shug‘ullangan «zindiqlar» (ko‘pl. az-zanodiqa) tomonidan ko‘plab soxta hadislar muomalaga kiritilgan.*

 **3. Hadis ilmi markazlari.** Sahobalar turli joylarga ko‘chib ketib, u yerlarda uzoq muddat yashab qolganliklari sababli o‘sha o‘lkalar Qur‘on va hadislarni tarqatish markazlari bo‘lib qoldi. Bunga Madina, Makka, Kufa, Basra, Shom, Misr kabi yirik shahar va o‘lkalarni misol qilib keltirish mumkin.

Madina – Payg‘ambar (s.a.v.) va muhajirlar hijrat qilgan shahar. Rasululloh bu yerda Makkaga qaraganda ko‘proq hadis aytganlar. Chunki ko‘pgina islom diniga oid ijtimoiy tartib, qonun-qoidalar hijratdan keyin joriy bo‘lgan. Muhajirlar bu shaharda yashashga moyil bo‘lib, hatto Makkaga qaytishni ham ma’qul ko‘rmaganlar. Masalan, sahoba Muhammad ibn Umar «Badr jangida ishtirok etgan muhajirlarning Makkaga qaytganlarini bilmaymiz», degan. Rasululloh vafotlaridan keyin esa Madina ilk musulmon shahar-davlatining poytaxti, sunnaning ona shahri bo‘lib qoldi.

Keyinchalik ham turli yerlardan ilm talabida, ya’ni hadislarni o‘rganish uchun safarga chiqqan kishilar uchun Madinaga kelish «vojib», ya’ni zaruriy talablardan biriga aylandi. Bu shahardan keyinchalik Said ibn Musayyab, Urva ibn Zubayr ibn Avvom, Ibn Shihob Zuhriy, Ubaydulloh ibn Abdulloh ibn Utba, Solim ibn Abdulloh ibn Umar, Qosim ibn Muhammad ibn Abu Bakr, Nofe’ kabi hadis hofizlaridan iborat tobiiyalar guruhi yetishib chiqib, ular hadis ilmi tarixida katta iz qoldirdilar.

Makka shahri payg‘ambarlikning ilk davri bilan bog‘liq bo‘lsa-da, hadis ilmi bo‘yicha Madinadan keyingi o‘rinda turadi. Makka fathidan keyin sahoba Muoz ibn Jabal Rasululloh tomonlaridan shu yerda din ilmlarini shahar aholisiga o‘rgatishi uchun o‘rinbosar qilib qoldirildi. Muoz ibn Jabal yosh madinalik ansorlardan bo‘lsa-da, Qur‘on va hadisni, diniy bilimlarni yaxshi biladigan, intiluvchan yigit edi. Keyinchalik Abdulloh ibn Abbas ham Basradan Makkaga qaytib keladi. Shuningdek, bu yerda qori sahobalardan Abdulloh ibn Soib Maxzumi, Itob ibn Asid, Hakam ibn Abu Os, Usmon ibn Talha va boshqalar hadislarni tarqatish ishlari bilan

shug‘ullanganlar. Abdulloh ibn Abbasning harakati tufayli Mujohid ibn Jabr, Ikrima, Ato ibn Abu Raboh kabi tobiiyalar yetishib chiqqanlar.

Kufa shahri Eron, Xuroson tomonlarga harbiy yurish olib borish uchun musulmon qo‘sinchilarining tayanch markazi hisoblangan. Bu shaharga ko‘plab sahabalar kelib o‘rnashib qolganlar va shu yerda vafot etganlar. Bu yerga kelgan hadis bilimdonlarining ko‘zga ko‘ringanlaridan Abdulloh ibn Mas’ud bor edi. Bundan tashqari, Sa’d ibn Abu Vaqqos, Said ibn Zayd, Salmon Forisiy, Huzayfa ibn Yamon, Ammor ibn Yosir, Abu Muso Ash’ariy, Baro ibn Ozib, Abu Tufayl kabi juda ko‘plab sahabalarni sanab o‘tish mumkin. Bu shaharda ilmi ko‘pligi va uzoq qolib ketganligi uchun boshqaruv Abdulloh ibn Mas’udda bo‘ldi. Bu sahabaning qo‘lida Masruq ibn Ajda’ Hamadoniy, Ubayda ibn Amr Salmoniy, Asvad ibn Yazid Naxaiy, mashhur qozi Shurayh ibn Horis Kindiy, Ibrohim ibn Yazid Naxaiy, Said ibn Jubayr, Omir ibn Shurahbil Sha’biy kabi tobiiylardan hisoblangan hofiz imomlar yetishib chiqqanlar.

Basra shahrida Anas ibn Molik asosiy hadis rahnamolaridan edi. Shuningdek, Abdulloh ibn Abbas (Makkaga qaytguncha), Utba ibn G‘azvon, Imron ibn Husayn, Abu Barza Aslamiy, Ma’qal ibn Yasor, Abu Bakra kabi sahabalar yashaganlar va hadislarni tarqatganlar. Ularning shogirdlaridan 500 ta sahabani ko‘rgan Hasan Basriy hamda Abu Oliya Rofe’ ibn Mihron, Muhammad ibn Sirin, Qatoda ibn Diomata Davsiy kabi ko‘plab tobiylarning nomlarini keltirish mumkin.

Shom diyori musulmonlar tomonidan fath etilgandan so‘ng asosiy aholi islom dinini qabul qildi. Xalifalar ham bu o‘lkaga alohida e’tibor berib, ko‘zga ko‘ringan sahabalarni u yerga din ishlarini o‘rgatish uchun jo‘natganlar. Jumladan, bu yerga ham Muoz ibn Jabal xuddi Yamanga va Makkaga borgani singari din ishlarini o‘rgatish uchun kelgan. Shuningdek, bu o‘lkada faqih kishilardan sanalgan Uboda ibn Somit, faqih sahabaldardan Abu Dardo Ansoriylar ham din ilmlarini tarqatgan olimlardan hisoblanadilar. Mazkur uch sahaba bu o‘lkada hadis ilmi rivojlanishida muhim o‘rin tutganlar. Bulardan tashqari ko‘plab sahabalar Shomda faoliyat olib borganlar. Shomlik mashhur tobiiylardan Abu Idris Hulvoniy, Qabisa ibn Zuayb, Makhul ibn Abu Muslim va boshqalarning nomlarini keltirish mumkin.

Misrga islom dini kirib kelishi bilan bu yerga ham ko‘plab sahabalar, shuningdek, boshqa ilmlar qatorida hadislar kirib keldi. Bu o‘lkaga kelgan mashhur sahabalar orasida Abu Hurayra tomonidan eng ko‘p hadis

biluvchi kishi deb e’tirof etilgan Abu Abdulloh ibn Amr ibn Os ham bor edi. Shuningdek, Uqba ibn Omir Juhaniy, Xorija ibn Huzofa, Abdulloh ibn Sa’d, Muhmiya ibn Juz, Abdulloh ibn Horis, Muoz ibn Anas Juhaniy kabi bir yuz qirqdan ortiq sahabalar Misr ahliga saboq bergenlar. Ularning mehnati natijasida Misr muftisi bo‘lgan Abu Xayr Marsad ibn Abdulloh, shuningdek, Yazid ibn Habib kabi buyuk tobiyalar yetishib chiqqanlar.



### ***Hijriy I asrda Madina, Makka, Kufa, Basra, Shom, Misr kabi yirik shahar va o‘lkalar hadis ilmining asosiy markazlari bo‘lgan.***

Mazkur mintaqalar hadislarning eng ko‘p tarqalgan joylari bo‘lib, ulardan tashqari Marokash, Ispaniya, Yaman, Kavkaz, Qazvin (Kaspiy dengizining janubiy va g‘arbiy sohil tomoni) va Xurosonda ham bu ilm keng yoyildi.

**Umuman olganda, mazkur o‘lkalarga borib hadislarni tarqatgan sahabalar faqat shu ilmni emas, balki boshqa sohalar bo‘yicha ham saboq bergenlar. Mazkur mintaqalarga borgan sahabalarning ilm darajalari turli bo‘lgani uchun ham keyinchalik mazkur o‘lkalarda fiqh ilmining har xil darajada rivojlanishiga sabab bo‘lgan.**

 **4. Ilk ko‘zga ko‘ringan hadis roviylari.** Islom tarixida ilk roviylar sahabalar hisoblanadi. «Sahoba» so‘zi arab tilida «suhbatdosh», «safdosh», «tarafdar», «hamroh» kabi ma’nolarni bildiradi. Hadis istilohida «sahoba» so‘ziga «Rasulullohni ko‘rib, imon keltirgan va musulmonlik holida vafot etgan kishi» deb ta’rif beriladi. Payg‘ambar (s.a.v.)ni tushida ko‘rgan kishi sahaba bo‘lmaydi. Shuningdek, hali balog‘atga yetmagan bo‘lsa-da, gapga tushunib unga javob bera oladigan yosh bola ham sahaba hisoblangan. Masalan, Rasulullohni o‘zlarining o‘sprinlik chog‘ida ko‘rgan Ali ibn Abu Tolibning o‘g‘illari Hasan va Husayn hamda Mahmud ibn Rabi’ kabi insonlar ham sahabalar qatorida zikr etiladi.

Ulamolar orasida «Farishtalardan ham sahabalar bo‘lganmi yoki yo‘qmi» ekani xususida ayrim ixtilofli fikrlar bor edi. Ulardan ba’zilari «bor» desalar, boshqalar «yo‘q» deganlar. «Jinlardan sahabalar bo‘lgani» haqida Subkiy o‘z fikrini bildirib: «Nabiy (s.a.v.) ins va jinlarga yuborilgan bo‘lib, ul zotning payg‘ambarlik risolati barcha uchun edi», degan.

Hadis ilmida kishining sahaba bo‘lgan yoki bo‘lmaganini bilish muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, hadis isnodida kelgan birinchi tabaqa roviyning

Payg‘ambar (s.a.v.)dan hadis rivoyat qila olish ehtimoli qay darajada ekanini bilish rivoyatning ishonchlilagini belgilaydigan omillardan biri hisoblanadi.

Kishining sahobaligiga dalil bo‘la oladigan xususiyatlarning muhimlari quyidagilar:

1) uning sahobaligi mutavotir va hammaga ma’lum bo‘lsa. Masalan, «asharai mubashshara», ya’ni: to‘rt xalifa, Sa’d ibn Zayd, Talha ibn Ubaydulloh, Zubayr ibn Avvom, Abdurahmon ibn Abu Vaqqos, Abdurahmon ibn Avf va Abu Ubayda Omir ibn Jarroh kabi sahobalar.

2) Kishining sahobaligi mutavotir bo‘lmasa-da, mashhur bo‘lsa. Masalan, Zimom ibn Sa’laba, Ukkosha ibn Muhammadi kabi.

3) Mashhur sahobaning boshqa bir kishining sahaba ekanini ta’kidlashi. Abu Muso Ash’ariyning Humoma ibn Abu Humoma Davsiyning sahaba bo‘lganini zikr etib o‘tgani bunga misol bo‘ladi.

4) Ishonchli tobiiylarning xabari orqali.

5) Adolat egasi bo‘lgan ishonchli kishi ehtimol qilish mumkin bo‘lgan muddat ichida sahobalikni da’vo qilgan bo‘lsa, uning sahobaligi ham qabul qilinadi.

Payg‘ambar (s.a.v.) vafotlaridan so‘ng 100 yildan keyin yashagan kishilarning ham sahobalik da’volarini ulamolar qabul qilmaganlar. Chunki Imom Muslim rivoyat qilgan bir hadisda aytilishicha Rasululloh «Bugun bir tirik inson yo‘qli, yuz yil o‘tgandan so‘ng hayot bo‘lsa», deganlar. Shunga binoan hijriy 110 (mil. 729) yilgacha ulamolar tomonidan sahobalarning yashashlari mumkin bo‘lgan davr sifatida tan olinadi. Shuning uchun ham olimlar hijriy 200 (mil. 816) yildan so‘ng yashagan Ja’far ibn Nastur Ruminiyning hamda 333/945 yilda vafot etgan Sarbotak Hindiyning sahobalik da’volarini qabul qilmaydilar.

Qur’on oyatlari va qator hadislarda sahabalar eng yaxshi insonlar qatorida zikr etilgan. Shu sababli ham islom aqidasida sahabalar haqida yomon fikr bildirgan va ulardan ayb-nuqson topishga uringan kishi zindiq hisoblangan. Sahobalar turli shaharlarga tarqalib ketgani va ularning sonlarini juda aniq tarzda bilish qiyin bo‘lgani uchun tarix kitoblarida ularning soni haqida aniq bir ma’lumot keltirilmaydi. Biroq manbalarda Rasululloh vafot etgan vaqtlarida sahabalar soni bir yuz o‘n to‘rt mingta bo‘lgani haqida ma’lumot beriladi.

Sahobalar asri ularning so‘nggisi bo‘lgan Abu Tufayl Omir ibn Vosila Laysiy Kinoniyning 110/728 yilda Makkada vafot etishi bilan nihoyasiga

yetgan. Shuningdek, Mahmud ibn Robi hijriy 99 yili Madinada, Anas ibn Molik 93 yili Basrada, Abdulloh ibn Busr 96 yili Shomda, Abdulloh ibn Horis 86 yili Misrda, Abdulloh ibn Abu Avfo 86 yili Kufada vafot etgan oxirgi sahobalardir.

Rasulullohdan eng ko‘p rivoyat keltirgan yetti sahoba (arab. «aksar as-sahoba hadisan») quyidagilardir:

- 1) Abu Hurayra (5374 ta hadis rivoyat qilgan);
- 2) Abdulloh ibn Umar (2630);
- 3) Anas ibn Molik (2286);
- 4) Oisha bint Abu Bakr (2210);
- 5) Abdulloh ibn Abbas (1660);
- 6) Jobir ibn Abdulloh (1540);
- 7) Abu Said Xudriy (1170).

Shuningdek, ularga nisbatan rivoyat qilgan hadislarning soniga qarab, «as’hab al-uluf» («minglab hadis egalari»), «as’hab al-alfayn» («ikki ming hadis egalari») va «as’hab al-alf» (ming hadis egalari) atamalari ham ishlatilgan. Rasulullohdan mingdan ortiq hadis rivoyat qilgan sahobaga «mukassirun» («ko‘p rivoyat qilganlar») atamasi ishlatiladi.

Sahobalarning qanchalik ko‘p hadis rivoyat qilishlariga quyidagi omillar sabab bo‘lgan: a) ko‘p vaqt Rasululloh bilan birga bo‘lganliklari; b) u kishi bilan bir yerda yashaganliklari; v) hadislarni yozib borishlari; g) sahobaning haqqiga Rasulullohning hadislarni eslab qolishi uchun qilgan duolari; d) Payg‘ambar (s.a.v.)dan keyin uzoq umr ko‘rganliklari; ye) davlat ishlarida ishlama ganliklari hamda Madina va Makkadan tashqariga chiqib, boshqa xalqlarga hadislarni o‘rgatish imkoniyatiga ko‘proq ega bo‘lganliklari va boshqalar.



*Ulamolar hijriy 110 (mil. 729) yilgacha bo‘lgan muddatni sahobalarning yashashlari mumkin bo‘lgan davr sifatida tan olganlar.*

Sahobalar orasida yuzdan ortiq hadis rivoyat qilganlariga «as’hab al-mi’ya» («yuzta hadis egalari»), «as’hab al-miatayn» («ikki yuz hadis egalari») va «as’hab al-miiyn» («yuzlab hadis egalari») atamalari ham qo‘llaniladi. Masalan, Sahl ibn Sa’d 188 ta hadis rivoyat qilgan, Uboda ibn Somit 181 ta, Abu Zarr G‘iforiy 286 ta, Sa’dni Abu Vaqqos 270 ta, Abdulloh ibn Mas’ud 848 ta, Abdulloh ibn Amr ibn Os 700ta va boshqa

ko‘plab sahabalar yuzdan ortiq hadis aytganlar. Bu sahabalarga mingtadan kam hadis rivoyat qilgani uchun «muqillun» («kam rivoyat qilganlar») atamasi ishlatalidi.

Sahobaneni hadislarni kam rivoyat qilish sabablari quyidagilar hisoblanadi: a) Rasululloh (s.a.v.)dan uzoqroq joyda yashaganliklari; ba’zi sahabalar Payg‘ambar (s.a.v.)ni faqat bir yoki ikki marotaba ko‘rgan; b) Payg‘ambar (s.a.v.) bilan juda kam vaqt birga bo‘lganliklari; ayrim sahabalar bir joyda yashasalar-da, biror ish bilan mashg‘ul bo‘lganlar; v) hadislarni yozib bormay, xotiraga tayanganliklari; g) Rasululloh (s.a.v.) vafotlaridan keyin qisqa umr ko‘rganliklari; d) davlat ishlarida ishlab Madina va Makkadan tashqariga chiqish va boshqalarga hadis aytish imkoniyatining cheklanganligi; ye) ba’zi sahabalarning ko‘p hadis aytishdan tiyilib, faqat so‘ralgandagina hadis aytganliklari va boshqalar.

Sahobalar orasida Qur’on va hadis ilmlarini yaxshi bilib, ko‘plab fatvo bergenlari ham bo‘lgan. Ulardan Abdulloh ibn Abbos, Umar ibn Xattob, Ali ibn Abu Tolib, Ubay ibn Ka’b, Zayd ibn Sobit, Abdulloh ibn Mas’ud va Abu Dardolarga nisbatan «aksar as-sahoba fatvan» («eng ko‘p fatvo bergen sahaba») atamasi ishlataligan.

Sahobalarning hammallari Qur’oni karim va Rasululloh (s.a.v.)ning e’tiroflariga ko‘ra «odil» («adolatli», «rostgo‘y») kishilar bo‘lib, rivoyat qilgan hadislari «maqbul» hisoblanadi.

**Sahobalar Rasululloh (s.a.v.)ning oldilarida ko‘p yo kam bo‘lishlariga qarab ham u kishining aytayotgan gaplarini turli darajada tushunganlar. Hadislardagi nosix va mansuxni, omm va xosni, mutlaq va gumonni, mujmal va batafsilni ham har xil anglaganlar.**

Shulardan kelib chiqib aytish mumkinki, sahabalarning hadis borasidagi bilimlari turlicha bo‘lgan hamda ular hadis rivoyat qilishda ham har xil maqomga ega bo‘lganlar. Ularning rivoyatlaridagi tafovutlarni quyidagicha izohlash va sanab o‘tish mumkin:

1) Davlat ishlari va urushlar ko‘plab sahabalarga hadis o‘rganish va rivoyat qilish imkoniyatini bermagan. Bunga to‘rt xalifa, Talha, Zubayr kabi sahabalarni misol qilib keltirish mumkin. Aksincha, bunday ishlar bilan shug‘ullanmagan Abu Hurayra, Oisha, Ibn Umar va boshqalar ko‘plab hadis o‘rganib, rivoyat qilganlar.

2) Rasululloh bilan uzoq vaqt hamroh bo‘lib yurish, ularning xizmatini qilish, u kishining vafotlaridan so‘ng esa boshqa joylarga borib-kelishlari

oson bo‘lgan sahabalar. Ular Abdulloh ibn Mas’ud, Jobir ibn Abdulloh, Anas ibn Molik kabilardir.

3) Hodisa va ehtiyojlarning yangilanib turganligi din ahkomlarini bayon qilish sabablaridan bo‘lgan. Turli hodisalarga berilgan shar’iy hukmlarni bilish ishtiyoqi hadislar rivoyatini ko‘paytirgan.

4) Hadislarni yodlashdagi quvvai hofizalari va hadislarni yozib borish rivoyatlarni ko‘paytirish omillaridan bo‘lgan. Bunga Abu Hurayraning xotirasi kuchliligi va Abdulloh ibn Amrning yozib borishini sanab o‘tish mumkin.

5) Ko‘pgina sahabalar hadis rivoyat qilishdagi mas’uliyatni e’tiborga olib, hadis lafzini Payg‘ambar (s.a.v.) aytganlaridek ado eta olmaslikdan qo‘rqib rivoyatlarni kamaytirganlar.

Xulosa qilib aytish mumkinki, hijriy birinchi asrda hadislar asosan, og‘zaki rivoyat qilindi. Ammo oz miqdorda bo‘lsa-da, ularni yozib borganlar ham bor edi. Vaqt o‘tishi bilan yangi savol va muammolarning paydo bo‘lishi hadislarga bo‘lgan talabning ortishiga va natijada hadislarning kengroq miqyosda o‘rganilishiga olib keldi..

## HADIS

قالَ النَّبِيُّ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ:  
كُلُّوْ وَأَشْرِبُوا وَتَصَدَّقُوا وَالْبُسُوا فِي عَيْنِ إِسْرَافٍ وَلَا مَخْيَلَةٍ

Nabiy s.a.v. aytdilar: Yenglar, ichinglar, sadaqa qilinglar, ammo isrofgarchilik va faxrga o‘tmanglar.



### Mavzu bo‘yicha savollar

1. Nima uchun Payg‘ambar (s.a.v.) vafotlaridan keyin hadislarni o‘rganishga ehtiyoj ortib ketdi?
2. Sixta hadislarning paydo bo‘lishiga qanday omillar sabab bo‘ldi?
3. Qanday ilk hadis markazlarini bilasiz?
4. Qaysi sahaba va tobiylar Misrda islom dinining tarqalishida asosiy o‘rin tutganlar?
5. Sahobalarga xos bo‘lgan qanday muhim xususiyatlarni ayta olasiz?
6. Sahobalarning ko‘p yoki kam hadis rivoyat qilishlari nimalarga bog‘liq bo‘lgan?
7. Qaysi sahabalar ko‘p fatvo berish orqali mashhur bo‘lganlar?
8. Hadislarni rivoyat qilishda yuzaga kelgan tafovutlar haqida nimalarni bilasiz?



## Topshiriqlar

1. Rasululloh (s.a.v.) davrida hadislarning yozilganiga misollar keltiriring.
2. Payg‘ambar (s.a.v.) vafotidan keyin hadislarga bo‘lgan munosabatni tushuntiring.
3. Hadislarning tarqalishiga oid geografik ma’lumotlarni jamlang.
4. Sahobalar haqida ta’lif etilgan asarlar bilan tanishing.

## Mustaqil ish mavzulari

1. Imom Ahmad ibn Hanbalning «Musnad» asarida Abdulloh ibn Amr ibn Os rivoyat qilgan hadislar.
2. Soxta hadislarning paydo bo‘lish sabablari.
3. Ilk islom davrida hadislarning tarqalishi. (Imom Termiziyning «Ilal» kitobi)
4. «Al-Isoba fiy tamyiz as-sahoba» asarida zikr etilgan sahabalar.



## Adabiyotlar

1. Алимов У. Суннат ва ҳадис. – Т.: Шарқ, 2012.
2. Имоми Аъзам асарлари / Таржимон ва нашрга тайёрловчи. Абдурашид қори Баҳромов. – Т.: Мовароуннахр, 2003.
3. Матибаева Р. Абу Ҳанифа маноқиблари // Тошкент ислом университети илмий-таҳлилий аҳбороти. – Тошкент, 2008. – № 2.
4. Матибаева Р. Имом Абу Ҳанифа ва билиш назарияси // Маънавий ва диний етуклик – давр талаби. Тўплам. – Т.: Тошкент ислом университети, 2009.
5. Обидов Р. Суннат, ҳадис ва муҳаддислар. – Т.: Мовароуннахр, 2012.
6. Ibn al-Asir. Usd al-g‘oba fi ma’rifat as-sahoba. – Bayrut. Dor al-kutub al-ilmiya, 1996.
7. Ibn Hajar al-Asqaloniy. Al-Isoba fi tamyiz as-sahoba. – Bayrut. Dor al-kutub al-ilmiya, 1995.
8. Muhammad Abu Zahv. Al-Hadis va al-muhaddisin. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya, 1984.
9. Muhammad Mustafo Ammora. Javohir al-Buxoriy va sharh al-Qastaloniy. – Bayrut: Al-Maktaba al-islomiyya, nashr yili ko’rsatilmagan.

### РЕЖА:

1. Hadislarni yozma jamlashga e'tiborning qaratilishi.
2. Ilk hadis to'plamlari.
3. Hijriy ikkinchi asrda yashagan muhaddislar.

 **Tayanch iboralar:** *Тақрир, Муснад, Таъвин, Набавий суннат, Умавий, Муснад.*

 **1. Hadislarni yozma jamlashga e'tiborning qaratilishi.**  
 Payg'ambar (s.a.v.) hayotlik davrida hadislarning yozma jamlanishidan ko'ra og'zaki rivoyat qilish birinchi o'rinda turgan bo'lsa, «al-Xulafo ar-roshidun» davrida va undan keyin ularni yozuvga tushirish dolzarb masalaga aylandi.

Imom Bayhaqiy «al-Madxal» («Kirish») kitobida Urva ibn Zubayrdan shunday rivoyatni keltiradi: «Xalifa Umar (rz.a.) sunnatni yozdirishni xohladi va sahobalardan maslahat so'radi. Sahobalarining barchalari bir ovozdan bu ishni ma'qulladilar. Xalifa Umar (rz.a.) bir oycha istixora qildi. Bir kuni tongda turib, Alloh bildirgan ilhom bilan sahobalarga dedi: «Men sunnatni tadvin qilishni niyat qilgan edim. Sizlardan avval o'tgan qavm kitoblar yozib, unga mukkalaridan ketganlarini va Allohnинг kitobini unutganlarini eslab qoldim. Shuning uchun men Allohnинг Kitobiga o'xshatib boshqa biror narsani yozdirishni hech qachon istamayman!»

Umar ibn Xattob tomonidan bildirilgan bunday fikr va qat'iyat o'sha davr uchun juda manfaatlifi edi. Musulmon xalqlari orasida Qur'on bilan sunnatning aralashib ketish xavfining oldi olindi. Buning natijasida Qur'on oyatlari yozma holda, hadislari esa xotiralarda aralashmay saqlandi. «Al-Xulafo ar-roshidun»larning keyingilari ham, Umar ibn Xattobning yo'lidan borib, hadislarni yozishga kirishmadilar. Shunday qilib, hijriy birinchi asrning oxiriga qadar bu ish amalga oshirilmadi.

Hijriy I asr oxirida hadislarning yo'qolib ketishiga olib keluvchi qator omillar yuzaga keldi:

1. Hadisni yaxshi va ko'p biladigan sahobalar va tobiylar birin-ketin vafot eta boshladilar.
2. Xorijiyalar, rofiziylar kabi firqalar tomonidan ko'plab hadislari to'qildi.
3. Ilk islom davridagi xotirada saqlash an'analari yo'qolib bordi.

Umaviy xalifalardan ayniqsa Umar ibn Abdulaziz (99-102/717-720) hadislarni yozma holda jamlashga alohida e'tibor qaratdi. U Madina volisi hamda qozisi bo'lgan Abu Bakr ibn Hazmga «Rasulullohning hadislarini jamlab yozgin, chunki men ulamolar vafot etib, hadis bilimi yo'qolib ketishidan qo'rqaman», degan mazmunda maktub yozdi va unga Umra bint Abdurrahmon Ansoriya hamda Qosim ibn Muhammad ibn Abu Bakr bilgan hadislarni yozib olishni amr qildi. Shuningdek, u islom dini tarqalgan markaziy shaharlar hokimlariga ham, o'sha shaharda yashaydigan ulamolarga hadislarni yozib jamlashni buyurdi.

Bu haqda Hofiz Ibn Hajar Asqaloniy «Fath al-Borii» asarining «Ilm» bobida shunday yozadi: «Xalifa Umar ibn Abdulazizning buyrug'i bilan birinchi asr oxirida tobiyy ulamolar orasida birinchi bo'lib Ibn Shihob Zuhriy hadislarni tadvin qildi. Undan keyin tadvin ishlari yanada rivojlandi. Shundan so'ng hadislarni tasnif qilish ishlari boshlandi. Shu tariqa, Allohga shukrki, ko'p yaxshiliklar bo'ldi».

Muhammad ibn Shihob Zuhriy hadislarni yozib olish va jamlashga buyurilgan ilk ulamolardan biri edi. Sunnatni yozma tarzda jamlashga amr etish bilan umaviy xalifa Umar ibn Abdulaziz muhim va mas'uliyatli ishni boshlash sharafiga ega bo'lgan bo'lsa, hadislarni tartib bilan jamlab yozishga birinchi qo'l urgan inson Ibn Shihob Zuhriy bo'ldi. Shu vaqtidan boshlab ulamolardan Ibn Jurayj (vaf. 150/767 y.) Makkada, Ibn Is'hoq (vaf. 151/768 y.) va Imam Molik ibn Anas (vaf. 179/795 y.) Madinada, Rubay' ibn Subayh (vaf. 160/777 y.), Said ibn Abu Aruba (vaf. 156/773 y.) va Hammod ibn Salama (vaf. 176/792 y.) Basrada, Sufyon Savriy (vaf. 161/778 y.) Kufada, Avzo'iy (vaf. 156/773 y.) Shomda, Hushaym (vaf. 188/804 y.) Vositda, Mu'ammar (vaf. 153/770 y.) Yamanda, Jarir ibn Abdulhamid (vaf. 188/804 y.) Rayda, Abdulloh ibn Muborak (vaf. 181/797 y.) Xurosonda hadislarni jamlab yozishga kirishdilar.

Bu ulamolarning barchalari bir davrda yashagan zamondosh bo'lganlar. Ammo ulardan qaysi birlari avvalroq hadis to'plashni boshlaganliklarini aniqlash qiyin. Shunday bo'lsa-da, makkalik muhaddis Ibn Jurayjning oldinroq yashagani e'tiborga olinsa, u Ibn Shihob Zuhriydan keyin ikkinchi bo'lib hadis to'plagan olim ekani ma'lum bo'ldi.

Ulardan keyin ham ko'plab ulamolar, shuningdek, Sufyon ibn Uyayna, Lays ibn Sa'd va Shu'ba ibn Hajjojar hadis yozish va devon tuzishga kirishdilar. Ularning bu yo'ldagi usullari shunday ediki, ular bir-biriga mutanosib hadislarni bob-bob qilib jamlardilar, keyin boblarni birin-ketin

qo'shib, bitta kitobga aylantirdilar. Ularning orasida sahobalarning so'zлari ham, tobiylarning fatvolari ham aralashib ketgan edi.



**Xalifa Umar ibn Abdulazizning buyrug'i bilan hijriy I asr oxirida  
tobiyy ulamolar orasida bиринчи bo'lib Ibn Shihob Zuhriy  
hadislarni tadvin qildi.**

Bu hadis majmualari deyarli yo'qolib ketgan bo'lib, ularning ba'zilargina saqlanib qolgan. Jumladan, Imom Abu Hanifaning shogirdlari va as'hoblari tomonidan yozilgan «Musnad»lar, Imom Molikning «al-Muvatto», Imom Shofe'iyning «Musnad» va Imom Muhammad Shayboniyning (vaf. 179/795 y.) ba'zi asarlari saqlanib qolgan. Ibn Shihob Zuhriy va boshqa ulamolarning hadis to'plamlari bizgacha yetib kelmagan bo'lsa ham, ular rivoyat qilgan hadislari va o'zlarining roviy sifatidagi nomlari keyingi tuzilgan hadis kitoblarida saqlanib qolgan.

 **2. Ilk hadis to'plamlari.** Muhammad (s.a.v.) vafotlaridan so'ng turli urushlar natijasida Qur'oni karim jamlanganidek hadislarni ham yagona kitobga jamlash imkonini bo'lmadi. Shuni ham aytish kerakki, o'sha davrga oid hadislar yozilgan, lekin kitob shaklini olmagan turli xatlar ham topilgan. Ularni sahobalar o'zaro rivoyat qilib yurar edilar. Masalan, Abu Bakr Bahrayndagi omili (boshqaruvchisi) Anas ibn Molikka Rasululloh musulmonlarga buyurgan sadaqanining farzlari yozilgan xatni yubordi. Bu xat Rasululloh tomonidan yozdirib yo'llangan sadaqalar to'g'risidagi maktubining bir nusxasi edi.

Ibn Mas'udda Rasulullohdan rivoyat qilingan hadislar yozilgan kitob bor edi. Mis'ar Ma'andan rivoyat qilib aytadi: «Menga Abdurrahmon ibn Abdulloh ibn Mas'ud bir kitobni ko'rsatdi va bu kitob otasining o'z qo'shi bilan yozgan xati ekanligiga qasam ichdi» dedi. Anas ibn Molik esa kishilarga ko'p sahifalik kitoblarini olib chiqib: «Bu men Rasulullohdan eshitib, yozib olgan va u zotga ko'rsatgan hadislardir» der edi. Muoviya ibn Abu Sufyon Mug'ira ibn Sho'baga: «Menga Rasulullohdan eshitganlaringdan biror narsa yozib ber», dedi. Mug'ira: «U zot mish-mishdan, ko'p savoldan va molni bekorga sarf qilishdan qaytardilar», degan hadisni yozib berdi.

Mazkur rivoyatlar sahobalar hadislarni yozib, o'zaro rivoyat qilib yurganliklariga dalil bo'la oladi.

Sahobalarning yana bir jihat shunda ediki, ular Rasulullohni kam va ko'p ko'rganliklariga qarab ham hadislarni ko'p yoki kam bilganlar. Biroq

Payg‘ambarni ko‘p ko‘rgan sahoba hadislarni ko‘proq rivoyat qilgan degan xulosaga kelmaslik kerak. Masalan, to‘rt xalifa Payg‘ambar yonida doimiy hamroh bo‘lgan bo‘lsalar-da, Rasululloh vafotlaridan keyin davlat ishlari bilan band bo‘lganliklari uchun kamroq hadis rivoyat qilganlar. Chunonchi Abdulloh ibn Zubayr otasidan «Rasulullohdan falonchi va falonchi kabi hadis aytganingizni eshitmaganman», deganda otasi «biroq men ularning orasini ajratmayman, lekin Rasulullohdan «Kim mening nomimdan qasddan yolg‘on hadis aytsa, o‘ziga do‘zaxdan joy tayyorlayversin» deganlarini eshitganman», degan.

Zayd ibn Arqamga bizga hadis aytинг, deyilganda, u «Yoshimiz katta bo‘lib esimizdan chiqaradigan bo‘lib qoldik, Rasulullohdan kelgan hadis kuchli narsa», deb hadis aytishdan tiyilgan (Imom Ibn Moja). Soib ibn Yazid: «Abdurahmon ibn Avf, Talha ibn Ubaydulloh, Miqdod va Sa’d ibn Moliklar bilan hamsuhbat bo‘ldim, ularning birortasi Payg‘ambar (s.a.v.)dan hadis aytganini eshitmadim, faqatgina Talhaning Uhud kuni haqida gapi rayotganini eshitdim», degan (Imom Buxoriy rivoyati). Sha’biy: «Ibn Umar majlisida bir yil o‘tirdim, biroq Rasulullohdan biror narsa gapirganini eshitmadim», degan (Imom Ibn Moja). Demak, Rasulullohdan hadis aytishda sahabalar ham munofiqlarning hiylalari oldini olish uchun, ham hadis aytish mas’uliyatli ish bo‘lgani uchun kam rivoyat qilganlar. Shuningdek, ba’zi o‘rinlarda sahabalar hadis aytish jiddiy ish bo‘lgani uchun ham buning o‘rniga o‘zlarining fatvolari bilan javob bergenlar.

Ilk yozilgan hadis to‘plamlaridan biri Imom Molik ibn Anas ibn Abu Omir Asbahiyning (93-179/712-795) «al-Muvatto» kitobi edi. Imom Molik Yamandagi «Zu Asbah» qabilasidan chiqqan edi. U umaviy xalifa Valid ibn Abdulmalik davrida Madinada tug‘ilib, umrining oxirigacha shu shahardan tashqariga chiqmagan. Ba’zi ulamolarning fikricha, Imom Molikning bobosi Molik ibn Abu Omir Asbahiy tobiylardan bo‘lib, sahabalardan Umar ibn Xattob, Talha ibn Ubaydulloh, Oisha bint Abu Bakr, Abu Hurayra, Usmon ibn Affonlardan hadis rivoyat qilgan.

Abu Ja’far Tabariyning rivoyatiga ko‘ra, Molik ibn Abu Omir xalifa Usmon davrida mus’haf yozuvchi kotib bo‘lgan. Imom Molikning ustozи bo‘lgan Ibn Shihob Zuhriy undan hadis rivoyat qilgan. Imom Molik o‘z ilmini Madina ulamolaridan olgan. U dastlab Abdurrahmon ibn Hurmuz huzurida uzoq vaqt ilm o‘rgandi. Shuningdek, hadis ilmini Ibn Umarning mavlolari Nofe’dan, Ibn Shihob Zuhriydan, fiqh ilmini esa Rabiy'a ibn Abdurrahmondan oldi. Natijada hadis va fiqh ilmining bilimdoni bo‘ldi.

Imom Molikdan misrlik, iskandariyalik, afrikalik, andaluslik, tunislik va boshqa ulamolar hadis ilmini o'rganganlar. Imom Molik xalifa Horun ar-Rashid davrida 179/795 yilda Madinai munavvarada vafot etgan va «Baqi» qabristoniga dafn etilgan.

Abbosiyl xalifa Abu Ja'far Mansur muhaddis Imom Molikka o'zi yod bilgan hadislarni jamlab bir devon tuzishga amr qildi. Imom Molik qirq yil davomida hadislar, sahobalarning so'zlarini va tobiyilarning fatvolarini jamlab kitob yozdi va uni «al-Muvatto» deb nomladi. Jaloliddin Suyutiyl «al-Muvattoga sharh» kitobining muqaddimasida rivoyat qilgan hadisda Imom Avzo'iy shunday deydi: «Biz «al-Muvatto»ni qirq kunda yodlab, Imom Molikka aytib berdik. Imom Molik bizga dedi: «Men qirq yilda yozgan kitobni sizlar qirq kunda bilib oldilaringizmi? Juda qisqa vaqtدا o'zlashtirib olibsizlar».

Imom Molik o'zining «al-Muvatto» nomli to'plamida har bir mavzuning muqaddimasida hadisni keltirib, undan keyin mazkur mavzu bo'yicha sahobadan, keyin esa tobiyyidan kelgan asarlarni zikr etadi. «Al-Muvatto»da roviylarning asosiy qismi Madina ahlidan hisoblanadi. Chunki Imom Molik Madinadan chetga hech qachon chiqmagan. Ba'zi rivoyatlar orasida amal qilinishi lozim bo'lgan hukmlar, ba'zida esa Madinai munavvarada sodir bo'lgan jamoat ishlari haqida ham zikr etilgan. Imom Molikning hadis tanlashdagi usullarini kuzatgan kishi hadislar matniga va sanadlariga juda katta e'tibor berganligining guvohi bo'ladi. Buni juda ko'p avvalgi va keyingi muhaddis ulamolar tasdiq etganlar.

«Al-Muvatto» buyuk va sinchkov muhaddisning qirq yillik mashaqqatli mehnatining samarasini edi. Ammo ba'zi mualliflar o'z asarlarida bu asarga tanqidiy fikr ham bildirganlar. Jumladan, Hofiz Ibn Hajar Asqaloniy: «Imom Molikning kitobi, uning va unga ergashuvchilarning nazdidagina sahihdir. Zero ular **mursal**, **munqati'** va boshqa nuqsonli hadislarni ham hujjat qilsa bo'laveradi, degan e'tiqoddalar», deb tanqid qiladi. Boshqa ulamolar esa «al-Muvatto»ning barcha hadislarini sahih, roviylarning sanadlarini **muttasil** ekanligiga ittifoq qilganlar. Roviylar Imom Molikning hayotlik vaqtlaridayoq «al-Muvatto»ning hadislarini qo'lma-qo'l qilishib, uning sanadlaridagi uzilishlarni bartaraf etganlar. Ular orasida Imom Molikning saboqdosh do'sti Sufyon Savriy, Sufyon ibn Uyayna, Ibn Abu Zi'b va boshqa ulamolar ham bo'lganlar.

«Al-Muvatto»ning qo'lyozma nusxalari ko'p bo'lib, ulardan eng mashhurlari o'ttizta. Imom Suyutiyning fikricha, bu qo'lyozmalar orasidan

o‘n to‘rttasi mashhur ulamolar orqali yetib kelgan. Ulardan keyin quyidagi nusxalar tanlangan:

- 1) Yahyo ibn Yahyo al-Laysiy al-Andalusiyning nusxasi.
- 2) Madina qozisi Abu Mus’ab Ahmad ibn Abu Bakr Qosimning nusxasi.
- 3) Imom Abu Hanifaning shogirdi Imom Muhammad ibn Hasan Shayboniy nusxasi.

Imom Molikning «al-Muvatto»siga juda ko‘plab sharhlar yozilgan. Jumladan:

1) Hofiz Abu Umar ibn Abdulbar an-Numayriy al-Qurtubiyning (vaf. 463/1071 y.) ikkita sharhi: 1. «At-Tamhid limo fi-l-Muvatto mina-l-maoniyl va-l-asonid» («Muvattodagi ma’nolar va sanadlar taqdimi»); 2. «Kitob al-istizkor fi sharh mazohib ulamo al-amsor» («Turli shahar ulamolari mazhablarini izohlashda eslatma»).

2) Jaloliddin Suyutiyning (vaf. 911/1505 y.) «Kashf al-Mug‘atto fi sharh al-Muvatto» («Muvatto sharhida yashirin ma’nolarning ochilishi») nomli sharhi.

3) Muhammad ibn Abdulboqiy Molikiy Zarqoniy Misriyining (vaf. 1014/1605 y.) 3 jildlik sharhi.

4) Qutbiddin Ahmad ibn Abdurrahim Muhaddis Hanafiy Dehlaviyning (vaf. 1176/1763 y.) ikkita sharhi. Ulardan biri fors tilida bo‘lib, uning nomi «al-Mustafa» («Tanlangan»).

Shuningdek, «al-Muvatto» bir necha ulamolar tomonidan muxtasar qilingan. Jumladan:

1. Imom Abu Sulaymon al-Xitobiy (vaf. 288/901 y.);
2. Abul Valid al-Bojiy (vaf. 474/1082 y.);
3. Ibn Rashiq al-Qirvoniy (vaf. 456/1064 y.);
4. Ibn Abdulbar Abul Qosim Abdurrahmon al-G‘ofiqiy al-Javhariy (vaf. 385/995 y.).

Imom Shofe’iyning (150-204/767-820) musnad kitobi ham ilk yozilgan hadis to‘plamlaridan biridir. Bu olimning to‘liq ismi Imom Abu Abdulloh Muhammad ibn Idris al-Qurashiy al-Hoshimiyy al-Muttalibiy ibn al-Abbos ibn Usmon ibn Shofe’ bo‘lib, u Falastinning G‘azo viloyatida 150/767 yilda, ayni Imom Abu Hanifa vafot etgan yilda tug‘ilgan. Imom Shofe’iy ikki yoshlik chog‘ida uning otasi Idris vafot etdi. Onasi ikki yoshli go‘dakni ajdodlarining yurti bo‘lgan Makkaga olib bordi. Imom Shofe’iy bu shaharda o‘n yil yashadi, Qur’onni yod oldi, arab lug‘ati va she’rlarini o‘rgandi. Makka muftiysi Muslim ibn Xolid Zanjiydan fiqh va hadis ilmini ta’lim

oldi. 15 yoshli Imom Shofe’iyga Makka muftiysi tomonidan fatvo berish huquqi berilgan edi.

Imom Shofe’iy Makkadan Madinaga bordi va bu hadis ilmi markazidagi Imom Molik ibn Anasdan fiqh ilmini, keyin «al-Muvatto»ni to‘liq yod oldi. Imom Shofe’iy Sufyon ibn Uyayna, Fuzayl ibn Iyoz, amakisi Muhammad ibn Shofe’ va boshqa muhaddis ulamolardan ham hadis o‘rgandi.

Imom Shofe’iy Madinai munavvaraga kelganiga o‘n uch yil bo‘lganda, Yaman qozisi Mus’ab ibn Abdulloh al-Qurashiying iltimosi bilan xalifa Horun ar-Rashid Imom Shofe’yni Yaman viloyatlaridan bo‘lgan Najronga hokim etib tayinladi. Oradan ko‘p o‘tmay ig‘vogarlar xalifaga «Imom Shofe’iy xalifalik maqomini ko‘zlayapti» degan gapni yetkazdilar. 184/800 yilda xalifa Imom Shofe’yni Bag‘dodga chaqirtirdi. 33 yoshga to‘lgan Imom Shofe’iy bilan Muhammad ibn Hasan Shayboniy o‘rtasida Xalifa Horun ar-Rashid huzurida munozara bo‘lib o‘tdi. Muhammad ibn Hasan Imom Shofe’iy haqidagi xabar ig‘vogarlarning tuhmati ekanini bildi. Muhammad ibn Hasan Imom Shofe’yni juda yuqori darajada izzat-ikrom qildi, uyida mehmon qildi. Imom Shofe’iy Muhammad ibn Hasandan hadis va Iroq fuqaholarining yozgan fiqhiy asarlarini ham yozib oldi, so‘ng Makkaga qaytdi.

187/803 yilda Ahmad ibn Hanbal Makkada, 195/811 yilda Bag‘dodda Imom Shofe’iy bilan uchrashgan va shogird sifatida fiqh, usul, Qur’onning nosix va mansux oyatlari haqidagi bilimlarni o‘rgandi.

Imom Shofe’iy fiqh, hadis va usulda yetuk imom, mustaqil «mutlaq mujtahid» darajasiga erishdi. Hijozliklar va iroqliklar fiqhini birlashtirdi. Imom Shofe’iy «ar-Risola» nomli usul al-fiqhga doir kitobini yozgan edi. Uning mazhabdagisi usullari, ya’ni asoslari to‘rtta bo‘lib, ular: *Qur’on, sunnat, ijmo‘, qiyosdir*. Imom Abu Hanifa va Imom Molik fikrlariga zid ravishda *istehsonga* amal qilishni tark qilgan. Madina ahlining amali, deb hujjat qilishni inkor etgan va Bag‘dod ahlining «Sunnat yordamchisi» degan maqtoviga sazovor bo‘lgan.

Muhammad ibn Idris Shofe’iy Bag‘dodda o‘zi asos solgan mazhabini quvvatlovchi «al-Hujjat» nomli hadis kitobini yozdi. Imom Shofe’iyning iroqlik shogirdlaridan to‘rt kishi: Ahmad ibn Hanbal, Abu Savr, Za’faroniy va Karobisiy bu kitobni ustozlaridan eshitib rivoyat qilganlar.

200/816 yilda Imom Shofe’iy Misrga ko‘chdi. Bu yerda hijozlik, iroqlik muhaddis va faqihlardan o‘rgangan rivoyatlarini jamlab «al-Umm» («Ona»)

nomli hadis kitobini yozdi va ushbu kitobga asoslanib, avvalgi fiqhiy mazhabini yangiladi. Imom Shofe’iyning bu yerda tuzgan yangi mazhabini va yangi fatvolarini ham misrlik shogirdlaridan to‘rt kishi: Abu Ibrohim Ismoil ibn Yahyo al-Muzaniy (vaf. 264/878 y.), Abu Ya’qub Yusuf ibn Yahyo al-Buvaytiy (vaf. 231/846 y.), Rabi’ Jiyziy va Abu Muhammad Rabi’ ibn Sulaymon ibn Abduljabbor Murodiy (vaf. 270/884 y.) rivoyat qilganlar.

Imom Shofe’iy 204/820 yil, rajab oyining juma kuni 54 yoshida Misrda vafot etdi.

Imom Shofe’iyning shogirdlari Abu Ya’qub Yusuf ibn Yahyo Buvayti aytadi: «Men Imom Shofe’iyning shunday deganini eshitganman: «Hadis ulamolari bilan ko‘proq hamsuhbat bo‘linglar, chunki ular odamlarning rostgo‘yrog‘idir».

Muhammad ibn Hasan aytadi: «Hadis ulamolari bir kun gapirishsa ham, Imom Shofe’iyning tillari bilan gapirishadi». Za’faroniy aytadi: «Hadis ulamolari uyquda edilar, Imom Shofe’iy ularni uyg‘otib qo‘ydi». Imom Shofe’iy shunday degan: «Agar huzurlaringizda Rasulullohdan rivoyat qilingan sahih hadis bo‘lsa, mening qavlimni tark qilinglar va o‘scha hadis bilan fatvo beringlar va o‘sanga amal qilinglar. Agar sizlar eshitmasangizlar ham, men aytgan bo‘laman».

Xulosa qilib aytish mumkinki, Imom Shofe’iy usul al-fiqhda birinchilardan bo‘lib kitob yozgan mujtahid olim edi. Shuningdek, u usul as-sunna va hadis rivoyat qilish qonunlari, hadis ulamolari uchun hadislarni jamlab devon qilish usullari bayon qilingan birinchi ilmiy kitobning muallifi ham edi.

 **3. Hijriy ikkinchi asrda yashagan muhaddislar.** Imom Hofiz Abu Ahmad Abdulloh ibn Adiy Jurjoniy (277-365/890-976) o‘zining «al-Komil fi du‘afو ar-rijol» asarida hijriy ikkinchi asr boshlarida hadislarni saralash, yodlash, yozib olish va devon tuzishda fidoiylik qilgan bir nechta muhaddis ulamolar haqidagi ma’lumotlarni keltirgan. Jumladan, shunday deydi: «Ikkinchi asr boshlarida tobiyi ulamolar orasida hadisni yodlay olmaydigan, yodlaganini chalkashtirib, *marfu’* hadisni *mursal*, *mavqufn* *marfu’* qilib rivoyat qiladigan Abu Horun al-Abdariy (vaf. 143/760 y.) kabi zaiflari bor edi. 150/767 yillarda bir toifa ulamolar orasida «ta’dil» va «tajrih» so‘zлari tez-tez tilga olinadigan bo‘ldi. Muhaddislardan A’mash (vaf. 128/746 y.) bir jamoani zaif deb, boshqasini ishonchli deb baho berdilar. Sho‘ba (vaf. 160/777 y.) roviylarni qattiq tekshirib, faqat ishonchli roviylardan hadis rivoyat qildilar. Yana o‘scha davrda gapi o‘tadigan ishonchli, sinchkov

ulamolar sirasiga Muammar (vaf. 153/770 y.), Hishom Dastuvoyi (vaf. 154/771 y.), Avzoiy (vaf. 156/773 y.), Sufyon Savriy (vaf. 161/778 y.), Ibn Mojishun (vaf. 213/828 y.). Hammod ibn Salama (vaf. 167/784 y.) va Lays ibn Sa'd (vaf. 175/791 y.) kiradilar. Bular hadis va rivoyat ilmining birinchi tabaqa ulamolari bo'lganlar.

Ulardan biroz keyin, ya'ni hijriy ikkinchi asrning ikkinchi yarmida muhaddislarning ikkinchi tabaqa ulamolari faoliyat ko'rsatdilar. Ular jumlasiga Abdulloh ibn Muborak Marvaziy (vaf. 181/797 y.), Hushaym ibn Bashir (vaf. 188/804 y.), Abu Is'hoq Fazoriy (vaf. 185/801 y.), Muofiy ibn Imron Mavsiliy (vaf. 185/801 y.), Bishr ibn Mufazzal (vaf. 186/802 y.), Ibn Uyayna (vaf. 197/813 y.) kiradilar.

Ayni shu zamonda muhaddislarning uchinchi tabaqa ulamolari, shu jumladan Ibn Aliya (vaf. 193/809 y.), Ibn Vahb (vaf. 197/813 y.), Vaki' ibn Jarroh (vaf. 197/813 y.) mashhur bo'lib tanildilar. Bu davrda ikki hofiz muhaddis, «hujjat» laqabini olgan Yahyo ibn Said Qatton (vaf. 189/805 y.) va Abdurrahmon ibn Mahdiy (vaf. 198/814 y.) odamlarni barcha roviylarga ishonavermasdan, ularning ishonchli yoki ishonchsizini aniqlashga chaqirdilar. Natijada bu ikki olim xalq ishonchini qozondi va ular tasdiq qilgan roviy ishonchli, ular tasdiq qilmaganlari esa ishonchsizga hisoblanardi.

Mazkur davrda yashagan, taba'a tobe'inlardan bo'lgan Abu Said Yahyo ibn Said ibn Farrux Tamimiyy Qatton (120-198/738-814) buyuk imom va ulug' muhaddislardan sanaladi. Yahyo ibn Soib Ansoriy, Ibn Jurayj, Said ibn Abu Aruba, Savriy, Ibn Uyayna, Molik ibn Anas, Shu'ba va boshqa ko'plab muhaddis ulamolardan hadislarni o'rgangan. Undan esa, Sufyon ibn Uyayna, Sufyon Savriy, Ahmad ibn Hanbal, Yahyo ibn Muin, Ali ibn Madaniy, Is'hoq ibn Rohuvayh, Ibn Mahdiy, Abu Ubayd Qosim ibn Salom va boshqalar shogird sifatida hadis o'rganganlar. Ulamolar bir ovozdan u haqda hadis ilmi peshvolaridan, ko'p hadis yodlagan, chuqr ilmli, taqvodor, pok va ishonchli, rostgo'y inson ekanini aytganlar.

Yana taba'a tobe'in muhaddis ulamolaridan biri Abu Sufyon Vaki' ibn Jarroh ibn Malih ibn Adiy (127-197/745-813) edi. U hofiz va muhaddis bo'lib, hadis, fiqh va boshqa ilmlar sohasida Kufa ahlining imomi bo'lgan. Iroqning Kufa shahrida tavallud topgan. Hadis ilmini A'mash, Hishom ibn Urva, Abdulloh ibn Avn, Hanzala ibn Abu Sufyon, Ibn Jurayj, Sharik ibn Abdulloh, Avzo'iy, Sufyon Savriy, Sufyon ibn Uyayna kabi tobe'inlardan olgan. Ulamolar Vaki'ning ko'p hadis yodlagan hadis ilmi olimlaridan biri

ekaniga, o‘zining taqvodor, pok, ishonchli va rostgo‘y inson ekanligiga ittifoq qilganlar.

Zamondoshlari bu olimning ilmda, hifzda, sanadlarni keltirishda, boblarni yodda saqlashda unga yetadigani yo‘q, deb ta’kidlaganlar. Hadis bilan birga fiqh ilmini ham chuqur bilar, birov haqida g‘iybat qilmaydigan inson bo‘lgan. Ibn Mu’in aytadi: «Men Vaki’ ibn Jarrohdan boshqa Alloh uchun hadis so‘zlaydigan biror kishini ko‘rmadim. Men uchun u Sufyondan ham, Ibn Mahdiydan ham, Abu Nuaymdan ham mahbubroqdir. Uning yodlash qobiliyati ham yaxshi. U o‘z zamonasida Avzo‘iy kabi buyuklar qatorida edi».

Sufyon Savriy nomi bilan tanilgan Abu Abdulloh Sufyon ibn Sa’id ibn Masruq Savriy Kufiy (97-161/716-778) Kufada tug‘ilgan taba‘a tobe‘iynlardan biridir. Hadis ilmini Abu Is’hoq Subay’iydan, Abdulmalik ibn Umayrdan, Amr ibn Murra va boshqa tobiyy ulamolar jamoasidan o‘rgangan. Sufyon Savriydan esa tobe‘iy ulamolardan bo‘lgan Muhammad ibn Ajlon va A’mash, taba‘a tobe‘iylardan Muammar, Avzoiy, Molik, Ibn Uyayna, Shu’ba, Fuzayl ibn Iyoz, Abdulloh ibn Muborak, Vaki’ ibn Jarroh, Abu Nuaym, Yahyo ibn Qatton va boshqa mashhur imomlar hadis rivoyat qilganlar. Ulamolar Sufyonning hadis ilmida yuksak daraja sohibi ekanligi, fiqhda ijтиҳоди, zuhd va taqvoda namunaligi, kamtarona hayot kechirishi, haqiqatni gapirishi va boshqa fazilatlar egasi ekanligiga ittifoq qilganlar. Abu Osim Savriyning hadis rivoyatida «amir al-muminin» bo‘lganini aytadi.

Abdulloh ibn Muborak: «Men bir ming bir yuz shayx haqida yozdim. Ammo Savriydan ko‘ra yaxshirog‘ini yozmadim». Yahyo ibn Muin aytadi: «Kim Savriyning so‘ziga xilof so‘zni aysa, albatta Savriyning so‘zi haq». Ibn Mahdiy aytadi: «Savriydan ko‘ra yaxshiroq hadis yodlovchini ko‘rmadim». Ibn Uyayna aytadi: «Ibn Abbos, Sha’biy, Savriy o‘z zamonasining beqiyos bilimdonlari edilar», degan. Yana: «Men Savriyning g‘ulomlaridanman. Halol va haromni u kishidan ko‘ra yaxshiroq biladigan odamni ko‘rmadim», degan. Avzo‘iy, u kishining oldida ulamolar ketayotgani haqida gapirliganda, shunday degan: «Ha, ulardan odamlar jonu dil bilan quloq soladiganlari qolmadi, faqat Savriy qoldi». Abbas Davriy aytadi: «Ibn Mu’in o‘z zamonasida hech bir narsada hech kimni Savriydan muqaddam qo‘ymas edi».

Savriy o‘sha davrda asos solingan va ergashilgan olti fiqhiy mazhab asoschilaridan biri edi. Qolgan beshtasi – Abu Hanifa, Molik ibn Anas, Muhammad ibn Idris Shofi’iy, Ahmad ibn Hanbal, Abu Amr Avzoiy edilar. Sufyon Savriy 161/778 yilda Iroqning Basra shahrida vafot etdi.

Ulardan tashqari Sufyon ibn Uyayna (vaf. 197/813 y.), Abu Bistom Sho‘ba ibn Hajjoj ibn Vard Atkiy Azdiy Vositiy Basriy (vaf. 160/777 y.), Abu Said Abdurrahmon ibn Mahdiy ibn Hasson ibn Abdurrahmon Anbariy Basriy Lu'luiy (vaf. 198/814 y.), Abu Amr Abdurrahmon ibn Amr Shomiy Dimashqiy (vaf. 157/774 y.), Abu-l-Horis Lays ibn Sa'd ibn Abdurrahmon Fahmiy Misriy (vaf. 165/782y.) va boshqalar ham ana shu davrda yashab hadis ilmi bilan shug‘ullanganlar.

Bu davrda yana boshqa ko‘plab muhaddislar yetishib chiqqanlar. Ularning asosiy xizmatlari hadislarning kelgusi avlodga yetib kelishiga qo‘shgan ulkan hissalari edi.

### HADIS

عَنْ عَبْدِ اللَّهِ بْنِ مَسْعُودٍ قَالَ أَخْذَ عَالِمًا أَوْ مُتَعَلِّمًا أَوْ مُسْتَمِعًا وَلَا تَكُنْ الرَّابِعُ فَتَهَاكَ  
Abdulloh ibn Mas’ud aytadi: Olim bo‘l, yoki ta’lim oluvchi  
va yo tinglovchi bo‘l, ammo to‘rtinchisi bo‘Imaginki, halok  
bo‘lursan.



### Mavzu bo‘yicha savollar

1. Qaysi xalifa davrida hadislarni yozma ravishda jamlashga katta e’tibor qaratildi?
2. Hadislarni jamlashda Ibn Shihob Zuhriy qanday o‘rin tutgan?
3. Birinchi hadis to‘plamlarining yozilish tartibi qanday bo‘lgan?
4. Eng birinchi hadis to‘plamlari qaysilar?
5. Birinchi hadis to‘plamlari mualliflaridan kimlarni bilasiz?
6. Imom Molik haqida qanday ma’lumotlarga egasiz?
7. Imom Shofe’iy biografiyasiga oid nimalarni bilasiz?



### Topshiriqlar

1. Ilk hadisga oid jamlangan to‘plamlar ro‘yxatini tuzing.
2. Imom A’zam Abu Hanifaning hadis ilmi rivojidagi hissasini ko‘rsatib bering.
3. Imom Molikning hayoti va «Muvatto» asari haqida ma’lumot bering.
4. Hadis roviylari orasida Sufyon Savriyning tutgan o‘rnini yoriting.

## **Mustaqil ish mavzulari:**

1. Imom A'zam, Imom Molik va Imom Shofiiyning ohod xabar haqidagi fikrlari.
2. Musnad hadis to‘plamlari.
3. Imom Molikning «Muvatto» asariga yozilgan sharhlar.
4. Imom Shofeiyning fiqh ilmi rivojida tutgan o‘rnii.

## **Adabiyotlar**

1. Раҳимжонов Д., Муратов Д. Ҳадисшунослик (ўкув қўлланма). – Т.: ТИУ нашриёт-матбаа бирлашмаси. 2010.
2. Уватов У. Донолардан сабоклар: – Т.: Абдулла Қодирий номидаги Халқ мероси нашриёти, 1994.
3. Уватов У. Иймон нури. – Т.: Ёзувчи, 1996.
4. Большаков О.Г. История Халифата. 1. Ислам в Аравии (570-633). М., 1989.
5. Ибн Аби Шайба. Мусаннаф. – Байрут. Дор ал-фикр, 1998.
6. Molik ibn Anas. Al-Muvatto. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya. Nashr yili ko‘rsatilmagan.
7. Harald Motzki. Hadith. Origins and Developments. — (The Formation of the Classical Islamic World). – Burlington: Ashgate, 2004.
8. Juynboll G.H.A. Muslim tradition. – London: Cambridge university press. 1983.

**REJA:**

1. Hadis ilmining shakllanishi
2. Hadislarni tanqidiy o‘rganish.
3. Ishonchli hadis to‘plamlari tasnifi.
4. Buyuk muhaddislar va ularning asarlari.

 **Tayanch iboralar:** *muhaddis, hadis ilmi, as-Sihoh as-sitta, al-Kutub at-tis'a, Jome', Sunan, Musannaf, Isnod, Sulosiyot, Qussoz.*

 **1. Hadis ilmining shakllanishi.** III/IX asr hadis ilmi tarixida oltin davr hisoblanadi. Chunonchi VIII asrning o‘rtalaridan boshlab tobora rivojlangan hadis ilmi bilan keyingi ikki-uch asr davomida to‘rt yuzdan ziyod mualliflar shug‘ullandilar. Hattoki, bu davrda hadislarni ishonchli manbalarga asoslanib, maromiga yetkazib ilmiy ravishda tartibga solish olimlar orasida eng sevimli, zaruriy mashg‘ulot darajasigacha yetdi. Shuningdek, bu asrda to‘plangan hadislар ilmiy nuqtai nazardan muayyan qonun-qoidalarga tayangan holda tartibga tushirildi. Hijriy ikkinchi asrda hadis fiqh ilmining bir bo‘lagi sifatida o‘rganilgan bo‘lsa, uchinchi asrga kelib, alohida soha bo‘lib ajralib chiqди va mustahkam asosga ega bo‘lgan mustaqil ilm sifatida qaror topdi. Hadis ilmining fiqh ilmidan alohida fan sifatidagi farqini birinchi bo‘lib Imom Shofiy ko‘rsatib berdi.

III/IX asrda hadislarni o‘rganib, ularni sahih va zaifga ajratgan, tadvin qilib kitoblarga jamlagan olimlarni to‘laqonli «muhaddis», ya’ni «hadis ilmi» bilimdoni deyish mumkin. Darhaqiqat, hadislarning bu davrga yetib kelishida ilk roviylarning xizmatlari beqiyoz. Ammo, ular asosan, hadislarni yodlash, jamlash, rivoyat qilish bilan shug‘ullangan edilar. III/IX asrga kelib hadislarni o‘rganishga ehtiyoj, shu bilan birga, soxta hadislarning ko‘payib ketishi hadisning alohida «hadis ilmi» sifatida shakllanishiga olib keldi. Mazkur ilm bilan shug‘ullangan olimlar «muhaddis» deb ataldi.

Islom dini turli o‘lkalarga yoyilgach, ajam xalqlarida hadislар va shar’iy ahkomlarni bilish hamda ular vositasida Qur’oni karim ma’nolarini tushunishga ehtiyoj kuchaydi. Shu sababli hadis aytuvchilarni izlab topish, ularni aniqlash maqsadida turli o‘lkalarga har xil safarlar ko‘paydi. Vaqt o‘tishi bilan hadis rivoyat qiluvchi kishilarning ko‘pligidan ularni aniq bilish, sanadini tekshirish, ular o‘rtasidagi tafovutlarni aniqlab, to‘g‘riligiga ishonch hosil qilish kabi qator masalalarni o‘rganadigan maxsus ilm

— «ulum al-hadis» ya’ni «hadis ilmlari» paydo bo‘ldi. Hadis ilmining shakllanish va rivojlanish tarixining asosiy davri namoyandalari – taba’ a tobiyinlar tabaqasiga mansub muhaddislar hadislarni to‘plab, kitoblar holiga keltirdilar. Chunki islom davlatining chegarasi kengayib borishi bilan turli xalqlar, dinlar, mazhablar, millat va elatlar vakillari islomni qabul qildilar. Albatta, ularning yodlash qobiliyati, arab tilini bilish darajasi, e’tiqodi va boshqa omillar dinni tushunishda qiyinchilik tug‘dirar edi. Bundan tashqari siyosiy fitnalar chiqib, turli janjallar boshlandi, xilma-xil firqalar yuzaga keldi. Orada ham qurolli, ham fikriy, ham g‘oyaviy kurashlar avj oldi. Har taraf o‘zining haqligini isbotlashda turli vositalardan foydalanib, Qur’on va Sunnatdan dalil keltirishga urinar edi. Bunday hollarda nohaq tomon Qur’onni botil ta’vil qilishga va ichidan to‘qib chiqargan gapni *hadis*, deb yolg‘on da’vo qilishga o‘ta boshladi. Ulamolar bunday soxta hadislarni *mavzu’* (soxta, to‘qilgan) hadis deb atadilar.

Hijriy III asrga kelib nizolar yanada kuchaydi, ayniqsa, Xalifa Ma’mun davri (813-833)da fikr, nazariya erkinligiga imkoniyat yaratilishi natijasida mutakallimlar, mo‘taziliylar va muhaddislar orasidagi kurashlar avj olib ketdi. Ma’mun bir tomondan ilmni yuksaltirgan, qarama-qarshi guruh ulamolarini ayrim aqidaviy va imomatga bog‘liq masalalarda bir to‘xtamga kelishlariga ko‘ndirgan bo‘lsa-da, ba’zi masalalarda mo‘taziliylar fikriga qo‘shilardi. Uning 827 yili Qur’onning yaratilganligi (maxluq) borasidagi fikrga qo‘shilishi, 833 yili Bag‘dod hokimiga yuborilgan maktubida din arboblarini imtihon qildirish (mihna), Qur’onni «maxluq» demagan ulamolarni kofir sanab, fatvo chiqarish va rivoyat qilishlarini ta’qiqlash, ularni qamoqqa olish, hatto o‘ldirish haqida bergen farmoni muhaddislar hayoti va faoliyatiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Bu hol keyingi xalifalar – Mo‘tasim (833-842) va Vosiq (842-847)lar zamonida ham keskin tus olgan. Bu holatni o‘rtas asr Yevropasidagi inkvizisiyaga qiyos qilish mumkin. Lekin vaqt o‘tishi bilan, Vosiq xalifaligining so‘nggi yillarda bu masala ijobji hal bo‘lib, Mutavakkil ibn Mu’tasim 847 yili taxtga o‘tirgan vaqtdan boshlab mihna bekor qilinib, muhaddislarga munosib e’tibor berila boshlandi. Movarounnahrlik muhaddislarning ham Bag‘dodga chaqirilib, mihna qildirilishlari haqida manbalarda ma’lumotlar mavjud. Ammo Imom ad-Dorimiyning bu davrdagi faoliyati, so‘roqqa tortilishi haqida aniq ma’lumot topilmadi. Faqat turkiyalik tadqiqotchi Abdulloh Aydinli: «Zamonasining muhim siyosiy va e’tiqodiy masalalaridan biri bo‘lgan «Qur’on maxluqmi yo maxluq emasmi?» mavzuisida u ham imtihon qilindi, xato javob berishdan ochdi», deb ta’kidlaydi.

Shuningdek, bu davrda o‘zini ahli hadis toifasiga mansub biluvchi, aslida hadislar aytishni kasb qilib olgan, shariat hukmlaridan bexabar bo‘lgan, Muhammad Abu Zahv iborasi bilan aytganda, «sergap-vaysaqi va firibgar qissachi (*qussos*)lar guruhi» ham faoliyat ko‘rsatgan. Qissachilar aytayotgan hadislari haqida to‘liq ma’lumotga ega emasliklari, shar’iy hukm so‘ralganda aniq javob bermay, shariatga zid fatvo berishlari bilan tanilganlar. Manbalarda ularga nisbatan «o‘tin ortilgan eshaklar» degan ibora ishlatilgan. Qussoslarga nisbatan aytilgan ba’zi fikrlar, gohida noo‘rin muhaddislar sha’niga tegib o‘tgan. Ammo muhaddislar sahoba, tobiyy va ulardan keyingi salaflarning yo‘lida yurishgan, hadis rivoyat qilganda ehtiyotkor, sobit bo‘lganlar. Matnlarning zohiri bilan kifoyalanib, ommaga sharhlarni ohib bermaganlar, fahmlari yetmagan narsalarga aralashmaganlar. Demak, ahli hadisga nisbatan aytilgan turli ta’nalar buyuk imom, hofiz muhaddislarga emas, balki qussoslarga nisbatan ishlatilgan. Ko‘pchilik olimlar to‘qima hadislar siyosiy ixtiloflar natijasida yuzaga kelgan bo‘lsa, xalq orasida qussoslar orqali tarqalganligini bildiradilar.

Muhaddislar Payg‘ambar (s.a.v.)ning sunnatlarini asl holida kelajak avlodga yetkazish uchun ishonchli, adolatli rivoyatlarni olib, uni sof holda, har qanday soxtaliklardan xoli bo‘lgan holda to‘pladilar. Ular hadislarni «*sanad*» (isnod) va «*matn*» qismlariga bo‘lib o‘rgandilar. «*Sanad*» so‘zi arab tilida «*suyanchiq*», istilohda «hadis matniga olib boruvchi yo‘l», «roviyalar zanjiri» degan ma’noni anglatadi. Isnodda rivoyat qiluvchi (roviy)larning ismlari (gohida *kunya*, *laqablari*) ketma-ket kelib, oxiri shu hadisni rivoyat qilgan shaxs bilan yakun topadi. M., «*Menga falonchi, u uni falonchidan, u falonchidan, ... u esa falonchidan quyidagini xabar qildi:*». Isnodni tekshirishda har bir roviyning hayot yo‘llari, nasl-nasabлari, imon-e’tiqodi, islam diniga nechog‘li amal qilishi, adolatligi, zehn-idrok darajasi va boshqa ko‘plab sifatlari puxta o‘rganib chiqilgan. Isnodsiz hech qanday hadis qabul qilinmagan. Bu borada Muhammad ibn Sirinning: «Sizlar to‘playotgan narsalaringiz bu dindir. Shuning uchun sizlar diningizni kimdan olayotganligingiz haqida o‘ylab ko‘ring!», Abdulloh ibn al-Muborakning: «Isnod – dinning bir bo‘lagidir. Agar isnod bo‘lmasganda edi, kim nimani xohlasa gapiraverardi» so‘zлari fikrimizning yaqqol dalilidir.



**«*Sanad*» so‘zi arab tilida «*suyanchiq*», istilohda «hadis matniga olib boruvchi yo‘l», «roviyalar zanjiri» degan ma’noni anglatadi.**

Hadisning *matni* o‘rganilgan. Bunda uning lafzi va ma’nosи, Qur’onga zid kelmasligi, shunga o‘xshash boshqa rivoyatlar bilan solishtirilganda mos tushishi (mos tushmasa boshqa kuchli roviyning hadisi olingan), matnning to‘g‘riligiga ishonch hosil qilingandan keyin muhaddis uni qabul qilgan.

Hadis ilmlari asosan 7 yo‘nalishda rivojlandi:

1-Hadislarni, roviylarini adolat va zabt jihatidan saralash ilmi (ilm al-jarh va-t-ta’dil);

2-hadis roviylarini bilish ilmi (ilm rijol al-hadis);

3-hadislarning ixtilofli jihatlarini o‘rganuvchi ilm (ilm muxtalif al-hadis);

4-illatli hadislarni bilish ilmi (ilm ilal al-hadis);

5-rivoyati bitta roviy bilan yolg‘izlanib qolgan hadislarni bilish ilmi (ilm g‘arib al-hadis);

6-bir shar’iy hukm kelgan hadisni boshqa biri bilan amali to‘xtatilishini o‘rganuvchi ilm (ilm nosix al-hadis va mansuxuhu);

7-hadislarning vorid bo‘lishi sabablarini bilish ilmi (ilm asbab vurud al-hadis).

 **2. Hadislarni tanqidiy o‘rganish.** Ilk islom davrlaridan boshlaboq soxta hadislar sonining tobora ko‘payib ketishi musulmon olimlari oldiga ularga nisbatan tanqidiy yondashish zaruratini qo‘ydi. Bu, albatta, musulmon olimlari e’tiboridan chetda qolmadni va ular o‘ziga xos, avvalgi roviylardan farqli hadislarni tanqidiy o‘rganish uslubini ishlab chiqdilar.

Muhaddislar hadis ilmlarini mukammal egallab, ushbu ilmlarni rivojiga katta hissa qo‘shdilar. Imom Muslim o‘zining «al-Jome’ as-sahih» asarining muqaddima qismida ustozni Imom Dorimiyning: «Agar roviy ishonchli (*siqa*), zabtli (muhaddis shartlarini to‘liq qamrab olgan), taqvodor (*muttaqin*) bo‘lsagina, undan hadisni qabul qiling!» deb aytgan so‘zlarini keltiradi. Odatda roviylar o‘zlarining bir guruh shogirdlariga hadislarni rivoyat qilganlar. Bir necha hadislar bilan qiyoslaganda isnodi va matni aniq kelgan hadisni rivoyat qilgan roviylarni eng ishonchli (*siqa*), aniq va bexato rivoyat qiluvchi (*sobit, zabit*), eng yaxshi eslash qobiliyatiga ega bo‘lgan (*hofiz*) kabi sifatlar bilan tavsiflaganlar. Isnoddagi roviylar odil (*odil*) – dinning barcha ko‘rsatmalariga aniq amal qilishi bilan shuhrat qozongan, xolis niyatli, vazmin, eng ustivor maqsadi ulug‘ ajrlar olish umidida hadisni yoyishi va sunnati aniq hamda bexato yetkaza olish qobiliyatiga ega bo‘lishi, arab tilini yaxshi bilishi va boshqa shu kabi hislatlar sohibi bo‘lishi talab qilingan. Ushbu talablardan ayrimlari bajarilmagan holatda hadisning ishonchlilik darajasi kamaygan. Ba’zan roviyning sihhatiga shubha bo‘lsa,

qo'shimcha talab bilan e'tiborga olingen. Jumladan, buyuk muhaddis Zakariyo ibn Adiy o'z shogirdlariga Baqiyya (vaf.197/813 y.) ismli roviydan faqat u taniqli (ishonchli, mashhur) roviylardan rivoyat qilsagina xabarini qabul qilishni, agar tanilmagan roviylardan bo'lsa, yozmaslikni uqtirgan. Ismoil ibn Ayyosh (vaf. 181/798 y.)dan esa umuman hadis rivoyatini qabul qilishdan qaytargan. Bu esa muhaddislardan hadislarni har tomonlama o'rGANIB, saralangan holda o'z asarlariga qayd etishni talab etgan.

II/VIII asr oxiri – III/IX asr boshlarida hadis ilmida roviy ahvolini o'rGANUVCHI «Ilm ar-rijol» sohasi keng rivojlandi. Mazkur soha har bir muhaddisdan roviylarning silsilasini juda aniq va mukammal o'rGANISH talab qildi. Xususan, silsiladagi har bir roviy alohida ob'ekt sifatida olinib, butun hayoti diqqat bilan o'rGANildi va ma'lumot to'plandi. Hadis roviysi kimligini bilmasdan turib undan hadis rivoyat qilish mumkin bo'lмаган. Muhaddisdan ismlar, kunyalar, laqablar, nasablar, tug'ilgan va vafot sanalarini juda yaxshi bilish talab qilindi. Ali ibn al-Madiniy (vaf.233/848 y.) ham bu ilm haqida: «Roviyarlari bilish ilmi – bu hadis ilmining yarmiga teng», deb bejiz ta'rif bermagan.

Keyingi davrda hadis ilmi sohalari ichida asosiy hisoblangan «ilm ar-rijol» bo'yicha bir qancha asarlar yozildi. Lays ibn Sa'd (vaf.175/792 y.), Ibn al-Muborak (vaf.181/798 y.), Zamra ibn Robi'a (vaf.202/818 y.), Fazl ibn Dakin (vaf.218/833 y.), Imom Buxoriy, Termiziyy va boshqa muhaddislар bu sohada asarlar ta'lif etdilar. Yana bir guruh muhaddislар «ilm ar-rijol» bo'yicha maxsus asar yozmasalar-da, o'zlarining hadis to'plamlarida bu sohaga oid o'z fikrlarini bildirib o'tadilar. Bunda asosan tobiylarning tarixiga katta e'tibor berilgan. Jumladan, Imom Dorimiy «Sunan»ida hadis isnodida keltirilgan ismning yo to'liq shakli, yoki u haqda qo'shimcha ma'lumot bergen, yo bo'lmasa hadisda keltirilgan ismdagi xatolikni ko'rsatish, uni to'g'rilash, to'ldirish uchun aniqlik kiritgan. Masalan, «Abu Nu'aym: Ubaydulloh ibn Rifo'a – Ismoil ibn Ubayd ibn Rifo'adir, deb aytgan», «Abu al-Havro (as-Sa'diy)ning ismi Rabi'a ibn Shaybon», «Abdulhamid ibn Zayd ibn Abdurahmon ibn Zayd ibn al-Xattob, u Umar ibn Abdulazizning Kufadagi valisi bo'lган», tarzidagi roviylar tarixiga oid izohlarni hadis matnidan so'ng keltirib o'tadi.

Imom Muslim esa biron bir hadis qabul qilishda roviylar zamondosh, ya'ni bir vaqtda yashab, uchrashib ko'rishishlari mumkin bo'lsa yetarli, deb hisoblagan. U ham ustozlaridan hadis ilmining jarh va ta'dil, ilm ar-rijol sohalari bo'yicha tahsil olib, o'z bilimlarini «al-Jome' as-sahih»

asarida keltirib o‘tgan. Jumladan, «Abu Nu’aym (vaf. 218/833 y.): «Mu’allo ibn Urfon menga Abu Voil (vaf. 82/701 y.)ning: «Sifinda Ibn Mas’ud bizga qarshi chiqdi», deb aytdi. Shunda men (Abu Nu’aym): «Siz uni qayta tirilgan deb o‘ylayapsizmi?», deb javob qaytardim». Ma’lumki, sahaba Abdulloh ibn Mas’ud Madinada hijriy 32 (653) yilda vafot etgan bo‘lib, Siffin jangi esa hijriy 37 (658) yilda bo‘lib o‘tgan. Demak, rivoyat to‘qima bo‘lib, undagi keltirilgan ma’lumot uydirmadir. Shuning uchun ham muhaddislardan hadis ilmlarining barchasini mukammal egallash, ayniqsa, hadis isnodini aniq bilish talab etilgan. Shunga ko‘ra, hadislarni saralash asosan ularning *isnodlari* bo‘yicha olib borilgan. Isnodni tanqidiy o‘rganish uslubi statistik tadqiqotlarga o‘xshash bo‘lib, muhaddis bir hadisning barcha mashhur variantlarini to‘plab, so‘ngra ularning isnodlarini qiyoslabgina, aniq bir xulosaga kelgan.

 **3. Ishonchli hadis to‘plamlari tasnifi.** II/VIII asrning ikkinchi yarmi – III/IX asrning boshlarida islam dunyosida qisqa, muayyan mavzulardagi hadis to‘plamlarini yozish avj oldi. Bu shu davrning diniy-siyosiy muhiti va huquqiy holatining talabi edi. Chunki turli firqalar o‘rtasidagi mafkuraviy kurashlarning avj organligi turli darajadagi soxta hadislarning ko‘payishiga olib keldi. Bu esa muhaddis-olimlar oldiga katta mas’uliyatli vazifani – sahib hadislarni ajratib berishni qo‘ydi. Muhaddislar sahobalarning so‘zlarini hamda tobiylarning fatvolari bilan qo‘shib qayd etilgan kitoblardagi hadislarni saralashga, ularni sahib va zaif darajalarini o‘rganishga e’tibor qaratdilar. Imom Muslim «Sahih»ida Ibn Sirindan quyidagi ma’lumotni keltiradi: «Avvallari isnod to‘g‘risida so‘ralmasdi. Fitna boshlangandan keyin esa har bir roviydan (o‘zidan) ilgari kimlar rivoyat qilganligini so‘rash boshlandi».

IX asrda hadis to‘plamlari har bir sahaba rivoyat qilgan hadislarni alohida tartibda berilgan *musnad* uslubida yozilgan. Hadislар mavzu bo‘yicha kelmagani uchun bir necha to‘plamlarni ko‘rib chiqish kerak bo‘lardi. Musnad kitoblarida taloq, nikoh haqidagi hadis, ro‘za yoki zakot haqidagi hadis bilan bir o‘rinda kelishi mumkin. Chunki bunday to‘plamlarda roviy, ya’ni rivoyat qiluvchi sahaba e’tiborga olinadi. Avval bir sahaba qancha hadis rivoyat qilgan bo‘lsa, barchasi birin-ketin keltiriladi. Keyin ikkinchi sahabaga o‘tilib, u kishi rivoyat qilgan hadislarni keltiriladi. Hadislар tartibi rivoyat qiluvchi sahobalarning islam dinini qabul qilgan davrlariga qarab yoki alifbo tartibida bo‘lishi mumkin. Sahobalar tartib bo‘yicha joylashtirilganda, avval o‘nta «*jannatiy*» deb bashorat qilinganlar

(*asharai mubashshara*), ulardan keyin «Badr jangi»da qatnashganlar, so‘ng «Hudaybiya sulhi» qatnashchilari, keyin Hudaybiya bilan Makka aholisi islomga kirgunga qadar o‘tganlar, so‘ng Makka fath etilganda islomga kirganlar undan keyin kichik sahabalar va nihoyat roviya ayollarning nomlari beriladi. Ahmad ibn Hanbalning (vaf. 241/855 y.) «Musna d» to‘plami mazkur uslubda yozilgan bo‘lib, uning ushbu asaridagi huquqiy qarashlari, qavllari va fatvolari shaxsiy mazhabi hanbaliylikda namoyon bo‘lgan. U hadis to‘plash niyatida Hijoz, Yaman, Kufa va Basraga ko‘p sayohat qilib, 700 roviydan 40000 dan ortiq hadisni jamlagan «Musnad al-Imom Ahmad» asarini yaratgan. Muhaddislar musnad kitoblarida roviylar nomini alifbo tartibi bo‘yicha joylashtirib, hadislarni isnodlari bilan keltirilgan holda ham to‘plaganlar. Musnadlarni bu uslubda Is’hoq ibn Rohuvayh (161-238/777-854), Usmon ibn Abu Shayba (159-235/775-851), Imom at-Tabaroniy (vaf. 290/903 y.) va boshqalar ta’lif etganlar.

Molikiy mazhabi asoschisi Molik ibn Anas (713-795) o‘zining «al-Muvatto» («Ommaviy, barchaga tushunarli» ma’nosida) asarini hadislarni muayyan fiqhiy mavzular bo‘yicha joylashtirish tartibi bilan tuzgan. Payg‘ambar, sahabalar va tobiylarning fiqhga oid qarashlari, qarorlari va qavllarini asarida jamlangan. U bir nechta matnlarda tarqatilgan, biroq hozirga qadar Abu Hanifaning shogirdi Muhammad ibn Hasan Shayboniy va Yahyo Laysiy (vaf. 234/848 y.)ning rivoyatlari hamda ularga yozilgan izohlar yetib kelgan hamda tunislik Ali ibn Ziyod (vaf. 184/800 y.), Abdulloh ibn Vahb Qurashiy (197/813 y.) talqinidagi nusxaning qismlari saqlanib qolgan. Molikning «Muvatto»siga o‘sha davrning ulamolari yuksak ta’rif berib, uni Qur‘ondan keyingi eng sahih kitob, deb tavsiflaganlar. Ushbu asar keyingi davrda yozilgan hadis to‘plamlariga bir namuna bo‘ldi.

IX asr mavjud hadis to‘plamlarni qayta ishlangan holda ularni turli mavzulardagi boblar bo‘yicha tasnif qilib, *musannaflar* yozish davri bo‘ldi. Bu esa hadislardan foydalanish uchun ancha qulaylik tug‘dirdi. Islom olamida shunday musannaflardan oltitasi alohida e’tiborga molik sanaladi. Eng katta obro‘ga ega bo‘lgan *sahih hadislar* to‘plamlari Imom Buxoriy (194-256/810-870) va Imom Muslim (206-261/821-875), «ikki shayx» (*ash-shayxon*)ning «al-Jomi’ as-sahih» to‘plamlaridir. Bu kitoblar o‘z ichiga biografik ma’lumotlar, Qur‘on oyatlariga tafsirlar, diniy qonun-qoidalar, ijtimoiy va shaxsiy axloq mezonlarini ham qamrab oldi. Ularning ishonchilik darajasi boshqa to‘plamlardan ko‘ra ancha yuqori hisoblanadi. Ushbu asarlar yaratilgan davrga qadar *sahih* so‘zi faqat isnodlarning eng

ishonchli darajasini sifatlashdagina ishlatilgan bo‘lsa, keyinchalik bu ibora hadis to‘plamlariga nisbatan qo‘llanila boshlandi. Keyingi davrlarda olimlar ikki shayxning rivoyatlari eng ishonchli bo‘lganligi bois, hadislarni rivoyat qilganlarida «*Buxoriy rivoyati*», «*Muslim rivoyati*», «*Muttafaqun alayhi*» iboralarini qo‘llab, hadisni sahihligini ifodalaganlar. Har ikki asar deyarli bir xil hajmda bo‘lib, Imom Buxoriy o‘z «*Sahih*»ida 7275 ta hadisni (takrorsiz 4000 hadis) 97 bob(kitob)da keltirsa, Muslim 4000 hadisni 54 bob (kitob) da keltiradi. Ikki asarning farqli tomonlari bilan birga umumiy, o‘xhash jihatlari mavjud. Imom Buxoriy Muslim rivoyat qilmagan 434 roviydan hadis rivoyat qilgan bo‘lsa, Muslim Buxoriyda uchramagan 625 roviydan hadislar rivoyat qildi. Ularning maqsadi barcha hadislarni yig‘ishdan iborat bo‘lmay, faqat sahif hadislarni jamlashdan iborat edi. Ulardan keyin ham hadislarni to‘plash borasida ko‘pgina ishlar olib borildi.

Hadis to‘plamlarining tasniflashning yana bir usuli – «*Sunan*»dir. Bu yo‘nalishdagi asarlarda nafaqat sahif hadislar, balki xasan hadislar ham keltiriladi. Muhaddislar «*Sunan*»larda har bir hadisning darajalarini ko‘rsatibgina qolmay, balki ularni fiqhiy boblarga ajratadilar. Hadislar deyarli biror fiqhiy mazhab yoki fikr aralashtirilmagan holda boblarga bo‘lib joylashtirilgan bo‘ladi. Misol uchun, «*Tahorat kitobi*»ga tahoratga tegishli hadislar jamlangan. «*Kitob as-salot*»da esa namozga tegishli hadislar keltiriladi va hokazo. Bu yo‘nalishda Abu Dovud Sulaymon ibn Ash‘as Sijistoniy (vaf. 275/888 y.) «*Sunan*» yozishni boshlab bergen. Asarda 281 roviyidan 2 767 ta hadis rivoyat qilingan bo‘lib, uning muallifi Abu Dovud isnodlarni chuqur tadqiq qilib hadis o‘rgangan roviy – Shu’badan rivoyat qilingan hadislar bilimdoni sifatida tanilgan. Ushbu asar keyingi davrlar mobaynida asosan hadislarni qiyosiy tahlil qilishda katta ahamiyat kasb etdi. Shuningdek, Abu Dovud, Imom Dorimiy va Buxoriylarning shogirdi Muhammad ibn Iso Termizi (209-279/824-892) o‘zining «*Sunan*»iga xalifalikning turli huquqiy maktablari vakillari o‘rtasidagi bahs-munozaralarda keng foydalilanigan hadislarni jamlagan. U hadis isnodlarini tanqidiy o‘rganib, ularni quyidagicha tasniflaydi: *sahih; hasan; hasan sahih; g‘arib; zaif* va h.k.

Ahmad ibn Shuayb Nasoiy (215-303/830-915) esa «*Sunan*» asarida isnoddagi roviylar haqidagi ma’lumotlar bilan hadislarning turli matnlariga e’tibor berdi. Ba’zi o‘rinlarda hadis roviylari va matnlariga o‘z bahosini berib o‘tishi, turli qarashlarga ega bo‘lgan hadislarni o‘zarо taqqoslab ko‘rsata olganligi uning asarining ilmiy qiymatini oshiradi. Abu Abdulloh

Muhammad ibn Yazid ibn Moja ar-Rabi'iy al-Qazviniy (209-273/ 824-886)ning «Sunan»i esa mashhur ishonchli hadis to‘plamlari tarkibiga keyinroq kiritilgan. Chunki unda ishonchli bo‘Imagan, birovlarning ismlarini o‘zlashtirgan roviylarning ham hadislari jamlangan, lekin ularning ba’zilari keyingi davrlarda o‘zini ishonchliligiga erishdi. Sunan usulida yozilgan ushbu to‘rt kitob Imom Buxoriy va Imom Muslimning «al-Jome’ as-sahih»lariga qo‘silib, «*Olti sahib*»ni tashkil etgan.

Yana bu muhaddislar qatorida Abdulloh ibn Abdurrahmon Dorimiyy Samarqandiyni (181/798-255/869) ham aytib o‘tish lozim. U Imom Buxoriyning ustozlaridan biri bo‘lib, «Sunan ad-Dorimiyy» asarini Somoniylardan Samarqand amiri Ahmad ibn Yahyo ibn Asad davrida yozib tugatdi. Ba’zi olimlar Imom Dorimiyyning «Sunan» asarini «as-Sihoh as-sitta» kitoblari jumlasiga kiritish fikrida bo‘lganlar. Ular Imom Dorimiyyining kitobida keltirilgan hadislar Ibn Mojaning «Sunan»idagilarga nisbatan ishonchliroq, Ibn Moja o‘z asarini Imom Dorimiyydan keyin yozgan, «Sunan ad-Dorimiyy»dagi hadislar isnodida roviylarning soni kamroq, ya’ni sanadi qisqa va boshqa shu kabi izohlarni bergenlar. Biroq Imom Dorimiyyining «Sunan» asari olimlar tomonidan yuqoridaq olti sahib kitoblar, shuningdek, Malik ibn Anasning «al-Muvatto‘», Ahmad ibn Hanbalning «Musnad»i bilan bir qatorda «To‘qqiz ishonchli hadis to‘plamlari» («*al-Kutub at-tis’ a*» yoki «*as-Sihoh at-tis’ a*») ichida ishonchli to‘plam sifatida tan olindi.



*Sihoh tis’ a - to‘qqiz ishonchli hadislar to‘plamlari. Ularga Islom ahli va ulamolari tomonidan eng ishonchli deb topilgan hadislar to‘plamlari – Imom Buxoriy, Imom Muslim, Imom Termiziyy, Imom Abu Dovud, Imom Nasoiy, Ibn Moja, Ahmad ibn Hanbal, Molik ibn Anas, Imom Dorimiylarning asarlari kiritilgan.*

Ahli kalom va ahli hadis o‘rtasida mavjud bo‘lgan turli ixtilofli vaziyatlarda qo‘llanilgan hadislarni o‘zida jam etgan – Imom ash-Shofe’iy va Ali ibn Madiniylarning «Ixtilofal-hadis» asarlari, Ibn Qutaybaning «Ta’vil muxtalaf al-hadis fi raddi ala a’do al-hadis» kabi asarlari kiradi. Bundan tashqari an’anaviy islom tarafdorlari bo‘lgan muhaddislar mo‘tazila, jahmiya va boshqa aqidaviy oqimlargacha qarshi raddiya sifatida o‘z asarlarini yaratdilar. Jumladan, Ahmad ibn Hanbal, Usmon ibn Sa’id Dorimiyy, Abdurahmon ibn Abu Hotamlar «ar-Raddu ala-l-jahmiya» nomli asarlarini yozdilar.

Ushbu to‘plamlardan tashqari muhaddislar tomonidan yana bir uslubda yozilgan asarlar turi ham yuzaga keldi-ki, u faqat shu asrga xos va mos bo‘lgan. Bu turdagи asarlar «Sulosiyoot» («Uchliklar») nomi bilan atalgan. «Sulosiyoot»larda o‘z nomidan kelib chiqib, faqat uch roviylar tomonidan rivoyat qilingan hadislar jamlangan. Bunda asar muallifi (muhaddis) hamda Rasululloh (s.a.v.) o‘rtasidagi roviylarning soni uch kishidan iborat bo‘lgan. Bu uslubda Imom Dorimiy, Imom Buxoriy, Abu Is’hoq, Abd ibn Humayd, Imom Termiziy kabi muhaddislar asar ta’lif etganlar.

Shunday qilib, avvalgi davrlarda keng tarqalgan, soxta mafkuralarni tarqatish, g‘arazli maqsadlarda to‘qilgan soxta hadislar III/IX asrga kelib isnod va matn qismlari bo‘yicha chuqur o‘rganilib, turli darajalar bo‘yicha saralandi.

IX asr – hadis ilmining «oltin asri»ga aylandi. Hadislarning «musnad», «jome» va «sunan» shaklidagi katta hadis to‘plamlari, o‘zida ko‘plab hadislarni jamlagan tarixiy-biografik uslubdagi, shuningdek, fiqhiy, aqidaviy hadislarni o‘zida mujassam etgan alohida asarlar ham yaratila boshlandi. Hadis to‘plamlarini tuzish bo‘yicha yangi bir uslub – uch roviysi (*sulosiyot*) hadislarni alohida to‘plam qilishga asos solindi.

Movarounnahrlik muhaddislardan Imom Buxoriy va Imom Termiziylar islom olamida e’tirof etilgan «olti sahib» hadis to‘plamlari mualliflari bo‘ldilar. Imom Dorimiyning «Sunan» asari o‘zining qiymati jihatidan ulardan kam bo‘lмаган. Ushbu asar II/VIII asrning ikkinchi yarmi-III/IX asrning boshlaridagi diniy-siyosiy muhit va huquqiy holatning talabi sifatida yuzaga keldi. U islom dunyosida turli firqalarning mafkuraviy kurashlari avj olishi natijasida tarqalgan soxta hadislardan sahihlarini ajratib berish maqsadida tuzildi.

Hijriy uchinchi asrda quyidagi muhaddislar faoliyat ko‘rsatdilar:

**a) musnad uslubida:**

1. Said ibn Mansur Marvaziy (vaf. 227/842 y.).
2. Abu Bakr ibn Abdulloh ibn Abu Shayba (vaf. 235/850 y.).
3. Abu Bakr Ahmad ibn Amr Bazzor (vaf. 229/844 y.).
4. Abu Abdurahmon Baqiy ibn Maxlad Andalusiy (vaf. 276/889 y.).
5. Abu Said Usmon ibn Said Dorimiy (vaf. 280/893 y.).
6. Abu Muhammad Abd ibn Humayd ibn Nasr Keshshiy (vaf. 249/863 y.).
7. Abu Muhammad Horis ibn Muhammad ibn Abu Usoma Tamimiy (vaf. 282/895 y.).
8. Abu Abdulloh Ahmad ibn Hanbal Shayboniy (vaf. 240/855 y.).

**b) sahib uslubida:**

1. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil Buxoriy (vaf. 256/870 y.).
2. Muslim ibn Hajjoj Qushayriy (vaf. 261/875 y.).

**v) sunan uslubida:**

1. Abu Dovud Sulaymon ibn Ash’as Sijistoniy (vaf. 275/888 y.).
2. Abu Iso Muhammad ibn Iso Termiziy (vaf. 279/892 y.).
3. Abu Abdurahmon Ahmad ibn Shu’ayb Nasoiiy (vaf. 303/916 y.).
4. Abu Abdulloh Muhammad ibn Yazid ibn Moja Qazviniy (vaf. 273/886 y.).

Mazkur to‘plamlar orasida «Sahih» va «Sunan» kitoblari alohida ahamiyatga ega.

 **4. Buyuk muhaddislar va ularning asarlari.** Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil Buxoriy (vaf. 256/870 y.) hadislarning faqat sahihlarini birinchi to‘plagan kishi, «Muhaddislar imomi» nomi bilan mashhur. Imom Buxoriy hadislarni jamlash borasida yangi uslubni yo‘lga qo‘ydi. U faqat sahib hadislarni jamladi hamda mavzularni boblarga ajratdi. O‘z asarini «al-Jome’ al-musnad as-sahih al-muxtasar min umur Rasulillah (s.a.v.) va sunanihi va ayyamihi» deb nomladi. Bu asar qisqacha qilib «al-Jome’ as-sahih» deyiladi.

«As-Sihoh as-sitta» «olti ishonchli» to‘plamning avvalida turuvchi Imom Buxoriyning Sahih uslubidagi kitobi ko‘pchilik muhaddislar uchun o‘rnak bo‘ldi va keyingi to‘plamlarning jamlanishiga turtki berdi. Buxoriy yo‘lidan borib yana bir sahib to‘plamni jamlagan Muslim ibn Hajjoj o‘zini Imom Buxoriyning shogirdi deb bilishi mazkur fikrning dalilidir. Imom Buxoriy nafaqat ilmda boshqalarga o‘rnak bo‘ldi, balki olim o‘zining hayot tarzi bilan ham ko‘pchilikka namuna bo‘larli darajadagi fazilatlar sohibi edi.

Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil Buxoriy (810– 870) manbalarda «Muhaddislar imomi», «Hadis ilmining sultonii» deb ham yuritiladi. Uning otasi Ismoil o‘z davrining yetuk muhaddislaridan, imom Molik ibn Anasning shogirdi va as’holalaridan biri bo‘lib, tijorat ishlari bilan shug‘ullanar edi. Onasi taqvodor, diyonatli, oqila ayol edi. Otasi vafot etgach, uning tarbiyasi validasi zimmasiga tushadi. Muhammad ibn Ismoil 5–6 yoshidan islom ilmlarini, hadislarni o‘rganishga va yodlashga kirishadi. Taniqli muhaddislar Doxiliy, Muhammad ibn Salom Boykandiy, Muhammad ibn Yusuf Beykandiy, Abdulloh ibn Muhammad Masnadiy va boshqalardan saboq olgan.

Muhaddislar safarga chiqishdan oldin o‘z yurtidagi roviylardan birorta ham hadis qoldirmasdan yozib olgan bo‘lishi va shundan keyingina boshqa shahar yoki mamlakatga safarga otlanishi mumkin edi. Buxoriy 16 yoshga yetguncha, o‘z yurtidagi mashoyixlardan hadis eshitib, yozib olib, musulmon dunyosining turli viloyatlari tomon yo‘l oladi. 825 yili Buxoriy onasi va akasi Ahmad bilan Makkaga kelib, haj ibodatini ado etadi. Onasi va akasini Buxoroga qaytarib, o‘zi Makkada qoladi. Bu yerda faoliyat ko‘rsatayotgan mashoyixlarning ilmiy yig‘inida qatnashadi. 827 yili Madinaga boradi. Madinadagi mashhur ulamolardan Ibrohim ibn Munzir, Mutrif ibn Abdulloh, Ibrohim ibn Hamza va boshqalar bilan muloqotda bo‘lib, ulardan hadislarni o‘rganadi.

Bu vaqtida Rasululloh sahabalarining izdoshlari, ya’ni hadis roviylari turli mamlakatlarga tarqab ketgan edilar. Shunday sharoitda hadislarni to‘plash turli shahar va mamlakatlarga borishni taqozo qilar edi. Imom Buxoriy Hijoz, Makka, Madina, Toif, Jiddaga qilgan ilmiy safarlarini olti yil davom etgan. So‘ng olim Basra, Kufa va Bag‘ dodga safar qiladi. Shom va Misrga o‘tadi. Bundan tashqari Xuroson, Marv, Balx, Hirot, Nishopur, Ray, Jibol kabi shaharlarda bo‘lib, bu shaharlardagi olimlardan saboq oldi va hadislarni to‘pladi.

Xorijiy yurtlardagi safardan keyin Buxoroga qaytgach, bu yerda hadis ilmini o‘rgata boshlaydi. Muhaddisning bu sa‘y-harakatlari Buxoro hukmdori Xolid ibn Ahmad Zuhliyga xush kelmaydi. Shu sababli Buxoriy o‘z ona yurtini tark etib, Poykendga, keyin esa, Samarqand yaqinidagi Xartang qishlog‘iga kelib yashashga majbur bo‘ladi.

Buxoriy butun faoliyati davomida ilm kishilarini ma’naviy va moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatladi. Tijorat qilib topgan oylik daromadidan besh yuz dirhamdan faqiru miskin va talabalarga sarfladi. Shaxsiy hayotida ortiqcha dabdbaba va sarf-xarajatlarga yo‘l qo‘ymaydi. Buxoriy umr bo‘yi hadislarni to‘plash va tizimga solish bilan shug‘ullanib, ularni sahih va g‘ayri sahihga ajratishida roviylarning hayotlari, yashash joylari, tug‘ilgan va vafot etgan sanalari, bir-birlari bilan qilgan o‘zaro muloqotlarini o‘rganish bilan bog‘liq holda olib boradi. Olimning ta’kidlashicha, u jami 600 ming hadisni yoddan bilar edi.

Buxoriy 20 dan ortiq kitob tasnif etdi. Ulardan ayrimlari bugungi kunga qadar yetib keldi. Buxoriyning «al-Jome’ as-sahih» («Ishonchli to‘plam») deb nomlangan hadislarni to‘plami bir qancha xorijiy tillarga tarjima qilindi. Shu jumladan, bu asar o‘zbek tiliga ham tarjima qilinib, 1991–1996-yillarda 4 jildda, 2008-yilda 2 jildda nashr etildi.

Buxoriy yaratgan «al-Adab al-mufrad» («Adab durdonalari») asari katta tarbiyaviy ahamiyatga molik benazir to‘plamdir. 1322 hadis va xabar jamlangan bu asar dunyoda ko‘p marotaba chop etildi. Uning o‘zbekcha tarjimasi 1990-yil Toshkentda nashr qilindi. Buxoriyning hadis roviylari kunyalariga bag‘ishlangan «Kitob al-kunya» («Kunyalar haqida kitob») 1940-yilda Hindistonda, uning roviylar tarjimai hollariga bag‘ishlangan «At-Tarix al-kabir» («Katta tarix») kitobi esa Turkiyada 9 jildda nashr qilindi. Asar qo‘lyozmasining ba‘zi qismlari Haydarobod kutubxonasida saqlanadi. Shuningdek, «at-Tarix as-sag‘ir» («Kichik tarix») ham hadis tarixiga oid qimmatli asar hisoblanadi. U Hindiston va Qohirada chop qilindi. Buxoriy «Kitob al-favoid» («Foydali ashyolar haqida kitob»), «Al-Jome’ al-kabir» («Katta to‘plam»), «Xalq af’ol al-ibod» («Alloh bandalari ishlarining tabiatи»), «al-Musnad al-kabir» («Katta musnad»), «at-Tafsir al-kabir» («Katta tafsir»), «Kitob al-hiba» («Xayr-ehson haqida kitob») kabi asarlarni yaratdi. Imom Buxoriy asarlarining ba‘zilari bizgacha yetib kelmagan, ba‘zilari jahonning turli mamlakatlardagi kutubxonalarida saqlanayotgani haqida ma’lumotlar bor.

Buxoriyning boshqa asarlari orasida «Tafsir al-Qur’on» («Qur’on tafsiri») kitobini ham alohida ta‘kidlash kerak. Buxoriy asarlari musulmon dunyosining barcha madrasa va dorilfununlarida Payg‘ambar sunnatlari bo‘yicha asosiy darslik, qo‘llanma hisoblanadi.

Istiqlol sharofati bilan o‘zbek xalqi azaliy qadriyatları qatori Buxoriyning o‘lmas merosidan ham bahramand bo‘lish imkoniyatiga ega bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Buyuk muhaddis imom al-Buxoriy tavalludining 1225 (hijriy hisobda) yilligini nishonlash haqida»gi qarori (1997-yil 29 aprel) asosida Samarqandda yubiley tantanalari bo‘lib o‘tdi. «Imom al-Buxoriy va uning dunyo madaniyatida tutgan o‘rnii» mavzuida xalqaro konferensiya o‘tkazildi. Alloma dafn etilgan qadimiy Xartang qishlog‘ida ulkan yodgorlik majmui ochildi. Hozirgi kunda bu yerda Imom Buxoriy xalqaro markazi faoliyat yuritib kelmoqda. Markaz tomonidan chop etilayotgan «Imom al-Buxoriy saboqlari» nomli jurnalda olim hayoti va ijodi bilan bir qatorda yurtimiz olimlari qoldirgan ulkan ma’naviy meros yoritib kelinmoqda.

O‘zbekistonda Buxoriy xotirasi munosib tarzda abadiylashtirildi. Toshkent islam institutiga Imom Buxoriy nomi berilgdi. Uning hayoti va ijodiga bag‘ishlab bir necha tillarda kitob-albom, hujjatli va badiiy filmlar yaratildi.

Abul Husayn Muslim ibn Hajjoj ibn Varad ibn Kushoz Qushayriy Nisoburiy (821– 875) Imom Buxoriyning shogirdlaridan bo‘lib, undan keyin ustozи ishini davom ettirdi. Hadis ilmining zabardast olimi Imom Muslim fiqh ilmidan ham yaxshi xabardor edi. 12 yoshida hadis ilmini o‘rganishga kirishadi. Muslim ibn Hajjoj shu maqsadda ko‘p mamlakatlarga sayohat qiladi. Jumladan, Hijoz, Misr, Suriya, Irokda bo‘ladi. Ulamolarning qayd etishlaricha, u 300 mingdan ziyod hadislarni ko‘zdan kechirib, shundan faqatgina 12 mingtasini ishonchli (sahih) deb topadi va o‘zining «al-Jome’ as-sahih» asariga kiritadi. Bu kitob ahli sunna nazdida «ikki sahihning biri» deb ta‘vil qilingan. Bu asar olti ishonchli hadis to‘plamlarining ikkinchisidir. Imom Muslim bundan tashqari «al-Musnad al-kabir», «al-Asmo va-l-kuno», «al-Ilal», «Kitob avlod as-sahoba» kabi asarlar yozadi.

«As-Sihoh as-sitta» («Oltita sahih») kitobning qolgan to‘rtasini tuzgan Imom Abu Dovud (vaf. 275/888 y.), Imom Abu Iso Termiziy (vaf. 279/892 y.), Imom Nasoiy (vaf. 303/ 916 y.), Imom Ibn Moja (vaf. 273/887 y.) kabi olimlar «Sunan» uslubida asar yozib hadis ilmida o‘chmas iz qoldirdilar. «Sunan» uslubidagi asarlar fiqhiy tartibda bo‘lib, asosan fiqhga oid hadislarni o‘zida jamlagan.

Abu Dovud nomi bilan mashhur muhaddis Sulaymon ibn Ash’as ibn Is’hoq ibn Bashir ibn Shaddod ibn Amr Azdiy Sijistoniy (817– 888/889) yoshligidan hadis ilmini ishtiyoq bilan o‘rganadi. O‘smirlik chog‘laridayoq hadis to‘plash niyatida sayohatga chiqib, Xuroson, Iroq, Suriya, Misr, Hijoz kabi yurtlarda bo‘ladi. U Imom Buxoriy, Ahmad ibn Hanbal, Qutayba ibn Said, Abu Iso Termiziy kabi bir qancha ko‘zga ko‘ringan muhaddislar bilan uchrashadi. Abul Faraj ibn Javziyning guvohlik berishicha, u hadislarni naql qilish va ularning sabablarini ko‘rsatish bo‘yicha muhaddis ulamolarning eng ulug‘laridan biri sanaladi. Abu Dovud o‘zining aytishicha, 500 ming hadis yozib olgan. Shulardan 4800 tasini ma’lum bir shartlar asosida ajratib, «Sunan» nomi ila mashhur hadislar to‘plamini tuzadi. Bu to‘plam sahihligi jihatidan Imom Buxoriy va Muslim asarlardan keyingi o‘rinda turadi. Abu Dovud umrining so‘nggi yillarini Bag‘dodda o‘tkazadi va Basrada vafot etadi. Uning «Nosix al-Qur’on va mansuxuh» («Qur’onning nasx qiluvchi va qilingan oyatlari») va «Daloil al-nubuvvat» («Payg‘ambarlik dalillari») nomli asarlari ham bor. Ibn Nadim uning «Kitob ixtilof al-masohif» («Ilk mus’haflar (Qur’on qo‘lyozmalari)ning bir-biridan farqi haqida kitob») asarini eslatib o‘tadi. Olimning asarlari «ahli sunna val-jamoa»ning muhim manbalaridan hisoblanganligi uchun azaldan Movarounnahrda ham keng tarqaldi.

Abu Iso Muhammad ibn Iso ibn Savra ibn Muso ibn Zahhok Sulamiy Bug‘iy Termiziy (824/825–892) – yana bir «Sunan» to‘plamini tuzgan olim. Bu muhaddis olim Termiz yaqinidagi Bug‘ qishlog‘ida tug‘ildi. Yoshlik chog‘laridan ilmga katta qiziqish va ishtivoq ko‘rsatdi. Samarqand, Buxoro, Marv va boshqa shaharlardagi mashhur ulamo va muhaddislar asarlarini o‘rgana boshladi. Termiziy hadis o‘rganish va ularni yig‘ish uchun 20 yil o‘zga yurtlarda bo‘ldi. Nishopurda Imom Buxoriy bilan uchrashib, ko‘p hadislar xususida fikr almashdi. Bu uchrashuv va buyuk muhaddis bilan besh yil birgalikda yashab, hamsuhbat bo‘lishi Termiziy hayotida katta ahamiyatga ega bo‘ldi, «Sunani Termiziy» asarining yaratilishida muhim omil bo‘lib xizmat qildi. Bu asar sahih hadislarni o‘zida mujassam qilgani uchun «al-Jomi’ as-sahih» («Ishonarli to‘plam») deb ham yuritiladi.

Imom Termiziy hadisning sahihligini aniqlashda yana bir bosqichga ko‘tarildi. Agar Imom Buxoriy har bir hadisning ishonchligini belgilashda barchadan ustun bo‘lsa, Termiziy hadisning darajasini aniqlashda «sahih»dan keyin «hasan» bosqichini ham kiritdi. «Hasan» zaif bo‘lmasa-da, sahihdan darajasi pastroq hadislarga nisbatan berilgan bahodir. U hadislarning shariat qonunshunosligiga taalluqli bo‘lgan jihatlarini ham ko‘rsatdi. Olim Imom Muslim va Imom Abu Dovudlar bilan ham suhbatda bo‘ldi.

Termiziy «Sunan»dan tashqari «Shamoili Nabaviya» («Payg‘ ambar alayhissalomning shakl va sifatlari»), «Kitob az-zuhd» («Zohidlik kitobi»), «Asmo as-sahoba» («Sahobalarning ismlari»), «al-Asmo va-l-kuno» («Ismlar va kunyalar»), «Kitobu-l-ilal» («Illatlar kitobi») va boshqa asarlar yozdi. Termiziying «Shamoili Nabaviya» («Shamoili Muhammadiya», Toshkent, 1991), «Sunani Termiziy» (Toshkent, 1999) kitoblari o‘zbek tilida chop etildi. Muhaddis fiqhga oid kitob ham yozgan, lekin u bugungi kunga qadar yetib kelmagan hisoblanadi. 1990-yilda Imom Termiziy tavalludining 1200-yilligi O‘zbekistonda keng nishonlandi.

Imom Nasoiy nomi bilan tanilgan Abu Abdurrahmon Ahmad ibn Ali ibn Shuayb ibn Ali ibn Sinon ibn Bahr Xurosoniy (827–915) «as-Sunan al-kubro» asari olti ishonchli to‘plam ichida o‘ziga xos o‘ringa ega. Bu to‘plam «Sunan an-Nasoiy» («Nasoiyning Sunani») nomi bilan ham mashhur. Imom Nasoiy hijriy 214–215 (milodiy 829–830) yillarda Xurosonning Marv shahri yaqinidagi Naso shahrida tug‘ilgan.

Imom Nasoiy islom ilmlarini chuqur egallagan, minglab hadislarni yoddan bilgan o‘z davrining peshqadam olimlaridan biri bo‘lgan. 15 yoshligidayoq Qutayba ibn Said Bohiliyning huzuriga borib, hadis

o‘rgana boshlagan. U yerda bir yilu ikki oy istiqomat qilib, so‘ngra hadis yig‘ish maqsadida o‘zga o‘lkalarga safar qilgan. U Xurosonning ko‘plab shaharlarida hamda Iroq, Hijoz, Shom, Misr kabi mamlakatlarda bo‘lib, Is’hoq ibn Rohuvayh, Sulaymon ibn Ash’as, Mahmud ibn Muso, Ahmad ibn Abdo va boshqalardan hadis o‘rgangan.

Imom Nasoiyning xotirasi kuchli bo‘lgan. U Qur’oni karimni yoddan bilgувчи bir guruh hofizlar bilan yaqin muloqotda bo‘lgan. Imom Nasoiy nihoyatda taqvodor bo‘lgan va eshitgan hadislarining manbalariga juda katta mas’uliyat bilan yondoshgan. U, odatda, hadislarni bayon etishda, roviylarni zikr qilganda «bizga falonchining xabar berishicha» yoki «bizga falonchining hikoya qilishicha», degan tartibga rioya qilgan. Biroq Horis ibn Miskindan rivoyat qilingan hadislar «al-Horis ibn Miskin o‘qigan narsadan eshitishimcha» iborasi bilan boshlangan. Rivoyat qilishlaricha, Imom Nasoiy bilan Horis o‘rtasidagi munosabatlar unchalik ham yaxshi bo‘lмаган. Bunga Horisning tabiatidagi ayrim illatlar sabab bo‘lgan. Shunga qaramay, Nasoiyda hadis to‘plash ishtiyobi ustun kelib, Horis hadis aytgan davralardan voz kechmagan. Uning tabiatidagi shaxsiy adovatlarga berilmaslik, ilmiy haqiqatni aniqlash yo‘lida o‘zni fido qilish fazilati ibratlı ahamiyatga ega.

Nasoiyning «Sunan» asari ikki «Ishonchlik» («Sahih») to‘plamdan keyingi o‘ringa qo‘yilgan. To‘plamdagи hadislarning barchasi sahib ekanligi, ravon va sodda tilda ifoda etilganligi sababli ayrim mag‘ribliklar uni hatto Buxoriy to‘plamidan ham afzal ko‘rgan degan fikrlar bor. Bu Imom Nasoiyning «Sunan»i o‘z davrida nihoyatda obro‘li bo‘lganligidan dalolat beradi. Ba’zi shayxlar Imom Nasoiyni islom olamidagi musanniflarning eng ishonchlisi deb hisoblaganlar.

Sayyid Jamoliddinning xabar berishicha, Nasoiy tuzgan «Eng katta Sunan» («as-Sunan al-Qubro») asarining ilk hajmi juda katta bo‘lgan. Darhaqiqat bu asar, umuman islom tarixidagi eng katta to‘plam hisoblanadi. Ibn Asirning xabar berishicha, o‘sha davr hukmdorlaridan biri Nasoiyning bu to‘plamga kiritilgan hadislarning barchasi sahib yoki sahib emasligini so‘raganda, u to‘plamdagи hadislarning hammasi ham sahib emasligini aytgan. Shunda amir sahib hadislarni to‘plamdan ajratib olishni buyurgan. Shu tariqa «Tanlangan hadislar» (Al-Mujtabo) deb nom olgan to‘plam vujudga kelgan.

Imom Nasoiyning «Eng katta Sunna», «Tanlangan hadislar» («Al-Mujtabo»), «Zaif va to‘plamga kiritilmagan hadislar» («Az-Zuafo val-

Matrukun») kabi asarlari ma'lum. «Tanlangan hadislar»ga bir nechta sharhlar yozilgan. Ularning eng mashhuri Sirojiddin Umar ibn Ali ibn Mulkon Shofe'iy, Jaloliddin Abdurahmon ibn Abu Bakr Suyutiy yozgan sharhlar hisoblanadi.

Imom Nasoiy qator shogirdlarni tarbiyalab voyaga yetkazgan. Ularning orasida Abu Bashran Dulabiy, Abdulqosim Tabroniy, Imom Abu Ja'far Tahoviylar, Muhammad ibn Horun ibn Shu'ayb, Hofiz Abu Bakr ibn Is'hoq Soniy va boshqalar bor.

Imom Nasoiyning vafot etishiga sabab qilib u bilan yuz bergen bir voqeа keltiriladi. Xabar berishlaricha, Imom Nasoiy Misrdan chiqib, Shomga kelganida, bir davrada undan Muoviyha haqida so'raganlar. U esa bunga javoban xalifalikka Muoviyadan ko'ra Ali avlodlari munosibroq degan fikrni bildirgan. Shunga Muoviyta tarafдорлари uni kaltaklab, masjiddan quvib chiqqanganlar. Nasoiy ana shu jarohatlar asoratidan Ramla shahrida vafot etgan. Ammo yana bir boshqa, ya'ni Hofiz Doraqutniy rivoyat qilgan xabarga ko'ra, bu voqeа Damashqda sodir bo'lgan va Imom Nasoiy Muoviyha haqidagi mazkur savolga «uning qorni to'ymaslik xislatidan boshqa fazilatini bilmayman» deya javob bergen. Shu bois olomon tomonidan kaltaklangan Nasoiy Makkaga olib borib qo'yishlarini so'ragan. Makkaga yetib borgach, 303/915 yilda vafot etgan va shu yerga dafn etilgan.

Ibn Moja nomi bilan mashhur Abu Abdulloh Muhammad ibn Yazid ibn Moja Qazviniy (vaf. 273/886 y.) ham «Sunan» asarini yozgan muhaddislardan biri hisoblanadi. 209/824 yilda tavallud topgan bu olimning yurti, ya'ni Qazvin Isfahondagi kichik shaharlardan biri edi. Uni «Bob al-jannat» («Jannah eshigii») deb ham atardilar. U yerdan turli sohalarda ko'plab olimlar yetishib chiqqanlar. Ibn Moja o'z zamondoshlari Imom Buxoriy, Muslim, Termiziyy, Nasoiy, Abu Dovud rivoyat qilgan ustozlardan, jumladan, Abu Umar Nasr ibn Ali Jahdamiy Azdiydan hadislar rivoyat qilgan. Ibn Mojadan Xuroson va Movarounnahring ko'plab muhaddislari hadis ilmini o'rgandilar.

Muhammad ibn Mojaning ikkita akasi bo'lib, olim oilada eng kichigi edi. Yoshligidan ilm va ma'rifikatga chanqoq bo'lgan Ibn Moja hadis va rivoyat ilmiga mehr qo'yadi. U o'z savodini Qazvin shahrida chiqqangan. Uning birinchi ustozи Ali ibn Muhammad Tanofasiy bo'lib, o'z davrining mashhur kishilaridan bo'lgan. Muhammad ilm o'rganish istagida turli xil, jumladan, Iroq, Hijoz, Shom, Misr, Kufa, Basra yurtlariga safar qiladi. Ushbu safarlari davomida ko'pgina mashhur muhaddislari bilan uchrashadi,

ular bilan muloqotda bo‘lib, ulardan ilm o‘rganadi. Uning hadis ilmidagi ustozlaridan Abu Bakr ibn Abi Shayba, Muhammad ibn Abdulloh ibn Numayr, Hishom ibn Ammor, Ahmad ibn Azhar kabi o‘z davrining taniqli olimlarini aytib o‘tish mumkin. Muhammad o‘zining o‘tkir zehni bilan tez orada nom qozona boshladi. Uning ilmining kuchliliginini ta’riflab, Abu Ya’lo Xalil Qazviniy shunday deydi: «Ibn Mojaning zehni nihoyatda o‘tkir edi. U hadislarni tanlashda ehtiyyotkorlik bilan ish tutar edi». Ibn Kasirning ta’riflashicha: «Agarda kimki Ibn Mojaning ilmini tekshirmoqchi bo‘lsa, uning yozgan mashhur «Sunan» kitobini o‘qisin shunda hammasi ayon bo‘ladi».

Muhammad Ibn Mojaning mashhur «Sunan» asaridan tashqari «Tafsir al-Qur’on al-karim», «Kitob at-tarix» nomli qimmatli asarlari ham bor. Alloma o‘zining Tarix kitobida sahobalar davridan to o‘zining davrigacha bo‘lgan roviylar tarixini bayon qilgan. Uning eng asosiy «Sunan» kitobi esa barcha ulamolar tomonidan yuqori baholanib, olti sahih kitoblar ichidan o‘rin olgan. U o‘zining «Sunan» kitobini bob va bo‘limlarga ajratgan. Asar 32 ta bo‘limdan iborat. Asarda, shuningdek, 1500 ta bob ajratilgan bo‘lib, jami 4000 ta hadis kitobda mujassam etilgan. Allomaning ushbu asari fiqhiy qoidalar asosida joylashtirilgan bo‘lib, kitobning birinchi bobi «Payg‘ambar sunnatiga ergashish» deb nomlangan. Unda qimmatli va ibratli hadislар keltirilgan.

Allomaning «Sunan» kitobi o‘zining mashhurligi bilan olti sahih kitoblar qatoridan joy oldi. Lekin shuni ham aytib o‘tish kerakki, ba’zi ulamolar ana shu olti sahih kitoblar orasida Ibn Moja kitobining o‘rniga Molik ibn Anasning «Muvatto» kitobi bo‘lishi kerak degan fikrlarni ham bildirishgan. Ular Imom Molikning kitobini Muhammad Ibn Mojaning kitobidan hadislarning sahihligi bo‘yicha ustun qo‘yishadi.

Ba’zi olimlarning yozishicha, Ibn Mojaning «Sunan» kitobida sahih, hasan va zaif hadislар ham bor. Ushbu kitobning beshta mashhur kitoblar ichidan farqi shuki, undagi zaif hadislarni ajratib yozilganidadir.

Mashhur muhaddis olim Muhammad ibn Yazid ibn Moja 273/886 yili dushanba kuni 64 yoshida vafot etgan va akalari Abu Bakr, Abu Abdulloh va o‘g‘li Abdullohlar ishtirokida dafn etilgan. Ibn Mojaning janozasini akasi Abu Bakr o‘qigan.

Allomaning shogirdlari ham ko‘p bo‘lib, ulardan Muhammad ibn Iso Abhariy, Abu Toyyib Ahmad ibn Rux Bag‘dodiy, Ahmad ibn Muhammad ibn Hakim Madiniylarni keltirish mumkin. Ko‘pgina mashhur ulamolar

Ibn Mojani ta’riflab shunday deyishgan: «Ibn Moja o‘z davrining mashhur kishilaridan bo‘lgan, uning axloq-odobi, xulq-atvori hammaga o‘rnak bo‘lgan. U Qazvin shahrining xofizi va mashhur imomi bo‘lgan. Va’daga vafo qiluvchi, iymonli, adolatli va mehr-muruvvatlik ajoyib inson edi».

Ibn Mojaning «Sunan» kitobini qimmatli ekanini ta’kidlab ko‘pgina mashhur olimlar unga sharh yozganlar. Jumladan, Jaloliddin Suyutiy o‘zining asarga bag‘ishlab yozgan sharhida qimmatli fikrlar bildirgan.

## HADIS

وَقَالَ النَّبِيُّ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ: قَيِّدُوا الْعِلْمَ بِالْكِتَابِ

**Nabiy s.a.v. aytdilar: Ilmni yozib qo‘yish bilan bog‘lab olinglar.**



### Mavzu bo‘yicha savollar

1. Hadis ilmining «oltin asri» deb nom berilgan davrning mazmun mohiyatini yorituvchi qanday ma’lumotlarga egasiz?
2. Bu davrda faoliyat yuritgan movarounnahrlik muhaddislardan kimlarni bilasiz?
3. Hadis ilmlari asosan qaysi yo‘nalishlarda rivojlangan?
4. Hadisshunoslikda «qussoslar» atamasi kimlarga nisbatan qo‘llanilgan?
5. «Ilm ar-rijol» haqida nimalarni bilasiz?
6. «Olti ishonchli» va «To‘qqiz kitob» o‘rtasida qanday farqlar mavjud?
7. Imam Buxoriyning qanday asarlarini bilasiz?
8. Imam Termiziy hadis ilmi rivojida qanday o‘rin tutgan?



### Topshiriqlar

1. Movarounnahrlik muhaddislarning hadis ilmi rivojiga qo‘shgan hissalari aytib bering.
2. «Jome’» va «Sunan» uslubida yozilgan asarlarning o‘ziga xos jihatlarini tushuntirib bering.
3. «As-Sihoh as-sitta» to‘plamlari ichida Ibn Moja «Sunan» asarining tutgan o‘rni haqida gapiring.
4. «Sahih»lardan boshqa ishonchli to‘plamlarni sanang.

## **Mustaqil ish mavzulari**

1. Imam Buxoriyning «al-Jome’ as-Sahih» asariga yozilgan sharhlar.
2. Imam Dorimiy va uning «Sunan» asari.
3. Sulosiyyot turkumidagi hadis to‘plamlari.
4. Imam Nasoiyning hadis ilmi rivojida tutgan o‘rnii.



## **Adabiyotlar**

1. Алимова М. Имом ад-Доримиининг ҳадис илми ривожига кўшган ҳиссаси: тарих фан. ном. дис... автореф. – Т.: Тошкент ислом университети, 2009.
2. Имом ат-Термизий. Сунани Термизий. – Т. 1. – Т.: Қомус, 1998.
3. Муборакфурый. Сийрат ал-Имом ал-Бухорий / таржимон У.Уватов. – Т.: ТИУ, 2008.
4. Уватов У. Ал-Ҳаким ат-Термизий. – Т.: 2001.
5. Уватов У. Буюк мұхаддислар: Имом ал-Бухорий, Имом Мұслим Имом ат-Термизий. – Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 1998.
6. Уватов У. Буюк мұхаддислар: Имом ал-Бухорий, Имом Мұслим Имом ат-Термизий. – Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 1998.
7. Уватов У. Икки буюк донишманд. – Т.: Шарқ, 2005.
8. Уватов У. Имом ал-Бухорий ҳәти. – Т.: 1998.
9. Сахих аль-Бухари. Перевод: Владимир Абдулла Нирша. – Т. I. 1-е изд. – М.: Благотворительный фонд «Ибрагим бин Абдулазиз аль Ибрагим», 2002.
10. Уватов У. Мұслим ибн ал-Ҳажжож. Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги ҳалқ мероси нашриёти, 1995.
11. Уватов У. Мұслим ибн Ҳажжож. – Т.: А.Қодирий, 1995. – 64 б.
12. Уватов У. Мұхаддислар имоми. – Т.: Маънавият, 1998.
13. Abu Dovud at-Tayolisiy. Musnad Abi Dovud at-tayolisiy. – Bayrut: Dor al-ma’rifa, 1982.
14. Abu Dovud. Sunan Abi Dovud. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya. 1996.

### REJA:

1. Hadis ilmlarining takomillashuvi.
2. Mavjud hadislarning qayta tartiblanishi.
3. To‘plamlardagi ziyoda hadislarning alohida jamlanishi.
4. Hadis isnodlarini o‘rganishga oid asarlar.
5. Mo‘g‘ullar yurishidan keyingi davrda hadis ilmining holati.

 **Tayanch iboralar:** *salb yurishlari, Baytul-Maqdis, tadrijiy, mavo 'iz, atrof, xotimatul-huffoz, naqqod, vazzoiy*

 **1. Hadis ilmlarining takomillashuvi.** Hijriy IV asrning boshlarida (milodiy X asr) Abbosiylar davlati o‘z qudratini yo‘qotib, asta-sekin kichik davlatlarga bo‘linib keta boshladi. Bundan foydalangan Andalus (Ispaniya) mamlakatidagi umaviylar sulolasining davomchisi Abdurrahmon Nosir (300-350/912-961) 325/937 yilda davlat hokimiyatini yangi bosqichga ko‘tardi. U o‘zini «Amirul mu‘minin» deb e’lon qildi. Shimoliy Afrikada mustaqil Fotimiylar davlati, Yamanda Zaydiy shilarining mustaqil davlati vujudga keldi. Ayni shu davrda, ya’ni V/XI asr oxirlarida Yevropada «Salb yurishlari» boshlandi va bu harakat 490/1097-yilda Baytul Maqdisni egalladi. Atobekiya davlati kuchayib, sharqu g‘arbni larzaga soldi, Misrga qilingan hujum natijasida Fotimiylar davlati qulab, Mahmud Nuruddin boshchiligidagi Misr yana Abbosiylar davlati viloyatlaridan biriga aylandi, salb urushi ham to‘xtadi. Bu ishda Mahmud Nuruddinga, uning ziyrak va tadbirkor lashkarboshilaridan biri Salohiddin Ayyubiyning xizmati katta bo‘ldi.

Sharqda Xorazmshoh Muhammad ibn Takish juda katta va kuchli davlat tuzib, atrofdagi barcha podshohliklarni o‘ziga birlashtirdi. XIII asrga kelib Chingizzon qo‘sishnlari Markaziy Osiyo hududiga va musulmon mamlakatlariga hujum qilib, Xorazmshoh yurtini vayron qildi. Bu harbiy yurishlar natijasida ko‘plab xalqlar o‘ldirilib, qo‘sish qisqa muddatda Bag‘dodga yetib bordi va 656/1258-yilda Xalifani qatl qilib, Abbosiylar xalifaligini butunlay tugatdi.

E’tiborlisi shundaki, Sharq va G‘arb dunyosida turli urushlar ketayotgan notinch vaziyatda ham, muhaddislarning ilm talabidagi harakatlari to‘xtab qolmadi. Ular bir mamlakatdan boshqasiga safar qilib, turli ustozlardan

hadis ilmini o‘rganishardi. Ulamolar o‘zaro ilmiy bahs va munozaralar o‘tkazib, asarlarini yozishda davom etdilar. Hadis isnodlarini tahlil etish, ularni sharhlash, rivoyat ilmini rivojlantirish bilan shug‘llandilar. Shu tariqa roviylarning tarjimai hollari, tanlangan hadislarning matnlari, illatlarini yoritib beruvchi asarlar yuzaga keldi.

Hadislarning bu zaylda qayta tartibga solish, ya’ni tadvin etish ishlarining rivojlanishi tasodifan emas, balki tadrijiy ravishda amalga oshirildi. IV asr ulamolari hadis tadvinida III asr ulamolariga taqlid qilmadilar, balki ularga nisbatan mustaqil yo‘l tutdilar va hadis ilmi rivojiga o‘ziga xos, munosib hissa qo‘shdilar.

Abu Abdulloh Muhammad ibn Abdulloh Hokim Nisoburiy (321-405/933-1014) to‘rtinchi hijriy asrda hadis ilmi bo‘yicha faoliyat yuritib, katta ilmiy-ma’naviy meros qoldirgan ulamolardan biri bo‘ldi. U «Ibn al-Bay» («Savdo farzandi») laqabi bilan tanilgan, «al-Mustadrak ‘ala-s-sahihayn» («Ikki sahihga to‘ldirish») kitobining muallifidir. Hokimning bu kitobidan tashqari o‘z shahri muhaddis va roviylari haqidagi «Ta’rix Naysobur» («Nishapur tarixi»), shuningdek, «al-Amoliy» («Immlolar»), «al-Madxal ilo ‘ilm as-sahih» («Sahih ilmiga kirish»), «Tarojum ash-shuyux» («Ustozlar tarjimai hollari»), «Fado‘il ash-Shofi’iy» («Shofiy fazilatlari»), «Ma‘rifatu ulum al-hadis» («Hadis ilmlarini bilish») va boshqa asarları 1500 juzga yetgan. Hokim Nisoburiy Iroq va Hijozga ikki martadan safar qilib, u yerdagı Shayxlar bilan muzokara qilgan, Hofizlar bilan uchrashgan. U 359/970 yilda Nishapur qozisi bo‘lgan va 405/1014-yilda vafot etgan.

Imom Doraqutniy nomi bilan mashhur Hofiz Abul Hasan Ali ibn Umar ibn Ahmad ibn Mahdiy ibn Mas’ud ibn Dinor Bag‘dodiy Doraqutniy (305-385/917-995) ham hijriy to‘rtinchi asrda faoliyat ko‘rsatgan muhaddislardandir. U hadis ilmida «amiru-l-mu’minin fi-l-hadis» darajasiga yetgan bo‘lib, mukammal devon tuzgan, hadis ilmining barcha qirralarini ifoda etgan, tahlil qilgan va illatlarni aniqlashda alohida zakovat ko‘rsatgan. Hadislarning sahihi bilan g‘ayrisahihini ajratishda o‘z davrining peshvosi bo‘lgan. Rivoyat qilgan hadislardagi isnodlari keng ulamolar jamoasini o‘z ichiga olgan. Doruqutniy «al-Ilzomot» («Zaruriy narsalar») nomli «mustadrak» (to‘ldiruvchi) janridagi kitobni yozgan. Shuningdek, uning «as-Sunan» kitobi ham mavjud bo‘lib, Shamsulhaq Abu Tiyb Muhammad ibn Ahmad ibn Ali Obodiy tomonidan Hindistonda tanqidiy matni nashr etilgan. Shuningdek, «al-Ilal bayyana fihi-s-savob mina-d-daxal» («To‘g‘ri bilan

noaniqlik bayon qilib berilgan illatlar kitobi») va «al-Ifrod» («Yagonalash») kitoblari ham Doruqutniyning ilmiy meroslaridan sanaladi. Doruqutniy yoshligidan o‘ta farosatlari va zehni o‘tkir bo‘lgan. Ibn Javziy aytadi: «Ulamolar uning hadisni yaxshi bilishi, qiroat ilmlarini egallaganligi, nahv, fiqh va she’riyat ilmida ham yetuk ekanligiga, aqidasi mustahkam,adolatli, tengsiz ulamo ekanligiga ittifoq qilganlar». Imom Doruqutniy haqida maqtovli so‘zlar behisob. U 385/995 yilda vafot etgan.

Bu davrda faoliyat yuritgan muhaddislardan yana biri Ibn Hibbon nomi bilan mashhur Hofiz Jalil Abu Hotim Muhammad ibn Ahmad ibn Hibbon ibn Mu‘oz ibn Muabbad Bustiy Tamimi (vaf. 354/965 y.) ko‘p diyorlarga safar qilib, juda ko‘p shayxlardan hadis eshitgan. O‘z zamonasining eng ko‘p safar qilgan ilm tolibiga aylangan. Ibn Sam’oniy shunday deydi: «Abu Hotim o‘z asrining imomi edi. Iskandariya bilan Shosh orasida juda ko‘p marta qatnagan». Hokim aytadi: «Fiqh, hadis, lug‘at va va‘z ilmlarini o‘zida mukammal jamlagan edi. Muhaddislarning oqillaridan edi». Xatib Bag‘dodiy aytadi: «Abu Hotim fozil va ishonchli edi. Uning ko‘p asarlari bo‘lib, «al-Anvo‘ va-t-taqosim» («Turlar va taqsimotlar») deb nomlangan sahif musnad uning qalamiga mansubdir. U Iskandariya bilan Shosh orasida mingga yaqin shayxdan hadis eshitib yozib olganini aytadi».

Ibn Hibbonning «Al-Anvo‘ va-t-Taqosim» kitobi boshqa musnadlarga o‘xshagan boblarga ajratilgan va sanadlarga asoslanib tartiblangan emas, balki o‘ziga xos usulda yozilgan. Muallif bu kitobni besh qismga bo‘lgan, ularni «al-Avomir» («Buyruqlar»), «an-Navohiy» («Taqiqlar»), «al-Axbor» («Xabarlar»), «al-Ibohot» («Halol qilingan narsalar»), «Af‘ol an-Nabiy» («Nabiy fe’llari»), deb nomlangan. Har bir qism o‘z navbatida bir necha fasllarga bo‘lingan. Shuning uchun hadislarni tushunishdagi qiyinchilik juda oson hal qilingan. Bu kitobni keyingi ulamolardan Alouddin Ali ibn Bulbon Forsiy (vaf. 937/1531 y.) boblarga ajratgan va «al-Ihsan fi taqrib Sahih Ibn Hibbon» («Ibn Hibbon Sahihiga chiroylı yaqinlashish») deb nomlangan.

Ulamolar aytadilar: «Ikki Shayxning sahihlaridan keyin uchinchi o‘ringa Ibn Xuzaymaning sahihi qo‘yilgan. Ibn Hibbon hadislarni sahilga ajratishda biroz yengillikka yo‘l qo‘ygan. Lekin uning yengillikka yo‘l qo‘yishi Hokimnikidan kamroqdir. Hozimiy aytadi: «Ibn Hibbon hadis tanlashda Hokimdan ko‘ra imkonliroqdir».

Ibn Hibbonning hadis tanlashda yengillikka yo‘l qo‘yishiga sabab, u shunday derdi: «Kimki munkar-al-hadis bo‘lsa, uni adolatli deyish mumkin bo‘lmaydi, magar biroz tekshirishdan so‘ng bo‘lishi mumkin. Agar roviy

munkar hadislarni rivoyat qiluvchi bo‘lsa va xabarlarda ishonchli roviylarga muvofiq kelsa, u adolatli, rivoyati maqbul bo‘lishi mumkin. Chunki odamlar ko‘pchilikning gapiga ko‘ra salohiyatlari va adolatli bo‘lsa va ulardan munkar ish sodir bo‘lib qolsa, ularga mashhurlik hukmi beriladi. Ammo johil kimsalardan faqat zaif roviylar hadis rivoyat qilsalar, bunday roviylar har qanday holda ham «matruk» («hadislari tark etilgan») dirlar.

Imom Tabaroniy nomi bilan tanilgan Abulqosim Sulaymon ibn Ahmad Tabaroniy (vaf. 360/970 y.) uchta mu’jam: «al-Kabir» («Katta»), «as-Sag‘ir» («Kichik»), «al-Avsat» («O‘rta») asarlarini yozgan. «Al-Mu’jam al-kabir»da Abu Hurayradan boshqa hamma sahobalar rivoyat qilgan hadislar alifbo tartibida joylashtirilgan. Aytishlaricha, «al-Mu’jam al-kabir»da 520 000 ta hadis jamlangan. Asarga ko‘ra olimning shayxlari 2 000 kishiga yaqin. Imom Tabaroniy rivoyat qilgan hadislari va shayxlari ko‘pligidan, o‘zidan keyin yashagan shayxlardan ham hadislar rivoyat qilgan. Hadislar orasida juda ajoyib va g‘aroyiblari ko‘pdir. Bu kitobda barcha nafis, aziz va munkar hadislari jamlangan.

Ammo «al-Mu’jam as-sag‘ir» bir mujalladdan iborat bo‘lib, unda ba‘zi shayxlarning har biridan bittadan, ba‘zilaridan esa ikkitadan mukammal sanadlari bilan hadis rivoyat qilingan. Rivoyat qilgan shayxlarning soni mingta, rivoyat qilgan hadislarning soni bir yarim mingtadir.

Bu davrda Abu Muhammad Qosim ibn Asbag‘ ibn Muhammad ibn Yusuf Bayoniy Molikiy (vaf. 340/951 y.), Andalusning Qurtuba (Kordova) shahridan o‘ttiz mil masofada joylashgan Bayona qishlog‘idan bo‘lib, u «as-Sahih al-muntaqo» («Sof sahih») nomli kitob yozgan.

Abu Ali Said ibn Usmon ibn Sa‘id ibn Sakan Bag‘dodiy (vaf. 353/964 y.) Misrda istiqomat qilgan va u ham «as-Sahih al-Muntaqo» («Sof sahih») nomli kitob yozgan. Bu kitobning ikkinchi nomi «as-Sunan as-sihoh al-ma’sura ani-n-Nabiy» («Nabiydan tanlangan sahih sunnatlar») deb nomlanadi. Muallif bu kitobni ehtiyoj sezilishi mumkin bo‘lgan barcha boblarga ajratib yozgan. Shu bilan birga kitobning oxirida o‘z nazdida sahih sanalgan hadislarni isnodsiz holda qo‘srimcha sifatida keltirgan. Abu Ali Bag‘dodiy aytadi: «Men kitobimda mujmal holda keltirgan hadislarni ulamolar tomonidan sahihligiga ijmo‘ qilingan hadislardir. Agar qaysi hadisdan keyin nomlari tilga olingan imomlardan birortasi ixtiyor qilgan narsani zikr qilgan bo‘lsam, u zikr qilgan narsani qabuliga va uni faqat o‘sha imom ixtiyor qilganiga hujjat keltirdim. Agar hadis rivoyat qiluvchilardan birortasini yolg‘iz o‘zini zikr qilgan bo‘lsam, uning sababini bayon qildim va uning yolg‘iz roviyatlari kanligiga dalil keltirdim».

Abu Ja’far Ahmad ibn Muhammad Tahoviy (vaf. 321/933 y.) «Ma’oni al-osor» («Asarlar, ya’ni hadislар ma’nolari») kitobini yozgan. Bu kitob ulamolar huzurida juda katta qadr va qimmatga ega. Unda zikr qilinishicha, Tahoviyning shogirdlari undan shariat ahkomlari haqida hadislardan iborat bir majmua kitob yozishni iltimos qildilar. Zero, bu davrda «mulhid va zindiq bo‘lgan ilmsiz johillar ahkomlarning «nosix»i nima, «mansux»i qaysi, tushunmasdan musulmonlar e’tiqodini va amalini qaytarishga urinmoqda edilar». Tahoviy ushbu kitobni yozib, uni boblarga ajratdi. Har bir bobda hukmlarning nosix va mansuxini, ulamolarning ta’villarini, sahih rivoyatga dalil keltirish qoidalarini bayon etdi.



#### ***IV asr ulamolari hadislар tadvинida mustaqil yo‘l tutdilar va hadis ilmi rivojiga o‘ziga xos, munosib hissa qo‘shadilar.***

 **2. Mavjud hadislarning qayta tartiblanishi.** Hijriy uchinchi va to‘rtinchи asr (milodiy IX-X asrlar) hadis ilmida juda katta rivojlanish yuz berdi. Bu davrda olamshumul ahamiyatga ega bo‘lgan «Sahih», «Sunan», «Jomi», «Mustadrak», «Mustaxraj» kabi og‘zaki hadislarni yozma ravishda o‘zida mujassam qilgan hadis to‘plamlari yaratildi. Ammo IV/X asr oxiridan boshlab bu sohada avvalgidek yirik to‘plamlarni yaratish ishlari kamaydi. Hadis ilmi ulamolarining endigi asosiy vazifalari – jamlangan hadislarni mavzular bo‘yicha qayta tartiblash va shu yo‘l bilan yangi to‘plamlarni tuzishdan iborat bo‘lib qoldi. Jumladan, mualliflar mavjud sahihlarni jamlash, sharplash, to‘ldirish ishlari bilan mashq‘ul bo‘ldilar.

Ikki sahih, ya’ni Imom Buxoriy va Imom Muslimlarning «Sahih» asarlarini jamlash ishlari amalga oshirildi. Bu sohada Ibn al-Furot nomi bilan tanilgan (vaf. 414/1023 y.) Ismoil ibn Ahmad birinchilardan bo‘ldi. Keyinchalik bu ishni Muhammad ibn Nasr Humaydiy Andalusiy (vaf. 488/1095 y.) davom ettirdi. U o‘z kitobiga ikki «Sahih»ni jamlash bilan birga ularda mavjud bo‘limgan ziyoda hadislarni ham qo‘shdi. Shk kabi to‘plamni yaratgan Husayn ibn Mas‘ud Bag‘aviy (vaf. 516/1122 y.), Muhammad ibn Abdulhaq Ashbiliy (vaf. 582/1186 y.), Ahmad ibn Muhammad Qurtubiylar (vaf. 642/1245 y.) ana shunday mualliflardan edilar.

«As-Sihoh as-sitta» («Olti ishonchli to‘plam») kitoblarini jamlash ham ana shu davrda amalga oshirildi. Ahmad ibn Razin ibn Muoviya Abdariy Saraxsiy (vaf. 535/1141 y.) «Tajrid as-sihoh» nomli kitobiga olti sahih

to‘plam hadislarini jamladi. Ammo bu kitob yaxshi tartiblanmaganligi va ba’zi «matruk» (tark etilgan) hadislar ham aralashib qolgani uchun ko‘ngildagidek chiqmagan. Keyinchalik Ibnul Asir Jazariy nomi bilan mashhur Abu Saodat Muborak ibn Muhammad Shofe’iy (vaf. 606/1210 y.) bu kitobni qayta tahrir qilib, yangidan tartibladi. Undagi asl sahif to‘plamlardan tushib qolgan hadislarni qayta yozib to‘ldirdi, tushunish qiyin jumla va hadislarni sharhladi, hadislar isnodlarini qisqartirdi, roviylardan faqat sahoba yoki tobiyylarning o‘zini qoldirdi. Shuningdek, hadis qaysi sahihdan olinganini, ya’ni manbasini zikr qildi. Sahoba va tobiyylarning so‘zlarini faqat zarur bo‘lgan joydagina qoldirdi, kitob boblarini alifbo bo‘yicha tartibladi va uni «Jomi’ al-usul li-ahodis ar-Rasul» («Rasul hadislariga asoslarni jamlovchi») deb nomladi. Shundan so‘ng bu asar o‘quvchi uchun qulay va qiyinni oson qiluvchi mukammal bir kitobga aylandi. «Jome’-al-Usul» kitobi Muhammad ibn Marvaziy (vaf. 682/1283 y.), Hibatulloh ibn Abdurrahim Hamaviy (vaf. 718/1318 y.) va Abdurrahmon ibn Ali Shayboniy Zubaydiy (vaf. 944/1538 y.) tomonlaridan muxtasar qilingan.

«Olti sahif» kitoblaridagi hadislarni jamlash boshqa mualliflar tomonidan ham amalga oshirilgan. Jumladan, Ibn al-Xarrot nomi bilan tanilgan Abdulhaq ibn Abdurrahmon Ashbiliy (vaf. 582/1186 y.) ham ana shunday ishni amalga oshirgan.



### ***Ibn al-Furot (vaf. 414/1023 y.) birinchilardan bo‘lib Imom Buxoriy va Imom Muslimlarning «Sahih»larini jamladi.***

Mazkur davrda turli kitoblardan olingan hadislarni jamlash ishlari ham amalga oshirildi. Imom Husayn ibn Mas’ud Bag‘aviy (vaf. 516/1122 y.) «Masobih as-sunna» («Sunnat chiroqlari») 4484 ta sahif va hasan hadislarni jamlagan. Bag‘aviy «sahih» deganda Ikki Shayx yoki ulardan biri rivoyat qilgan hadisni, «hasan» deganda esa Abu Dovud, Imom Termiziy va boshqa muhaddislar rivoyat qilgan hadisni nazarda tutadi. Agar hadislar orasida zaif yoki g‘aribi bo‘lsa, uni ochiq bayon etadi. Inkor etilgan (munkar) va to‘qima (mavdu’) hadislardan birorta ham qo‘shmagan. Bu kitob ulamolar orasida alohida ahamiyatga ega hisoblanadi. Shuningdek asarga ko‘plab sharhlar ham yozilgan. Uni Muhammad ibn Abdulloh Xatib Tabriziy (vaf. 740/1339-40 y.) qayta ishlab, boblariga izoh bergen, hadisni rivoyat qilgan

sahoba va hadis olingen kitob haqida tushunchalar bergen, sahih va hasan hadislar yozilgan har bir bobga uchinchi faslni ziyoda qilgan. Xatib Tabriziy kitobini 737/1337-yilda nihoyasiga yetkazgan va uni «Mishkot al-masobih» («Chiroqlar tokchasi») deb nomlagan. «Mishkot»ga ko‘plab ulamolar sharh yozganlar. Ulardan biri ulug‘ mufassir va muhaddis Qozi Nosiriddin Abdulloh ibn Umar Bayzoviydir (vaf. 685/1286 y.).

Abul Faraj Abdurrahmon ibn Ali Javziy (vaf. 597h.) «Jome’-al-masonid va-l-alqob» kitobiga Ikki Shayx «Sahih»larini, Imom Ahmad ibn Hanbal «Musnad»ini, Termiziy «Jomi» asarini jamladi. Bu kitobni Abul Abbas Ahmad ibn Abdulloh Makkiy Tabariy (vaf. 964/1557 y.) tartiblagan.

Imom Hofiz Hasan ibn Ahmad Samarcandiy (vaf. 491h.) «Bahr al-asnid» nomli kitob yozib, unda yuz ming hadisni jamlagan, ularni sharhlab va tartibga solgan. Ulamolar bu kitobga «Islom olamida bunga o‘xshash kitob yo‘q», deb baho bergenlar.

Hukmga oid hadislarni tanlab yozish ishlari amalga oshirildi. Imom Hofiz Abdulg‘ani ibn Abdulvohid Maqdisiy Dimashqiy (vaf. 600/1204 y.) o‘zining «Umdat al-ahkom» («Hukmlar ustuni») kitobida Imom Buxoriy va Imom Muslim bir xil (bi-l-ittifoq) rivoyat qilgan ahkom hadislарini jam qilgan. Uni Ibn Daqiqul Iyd ismli olim sharhlagan. «Umdat al-ahkom» kitobi sharhi bilan birga Misrda to‘rt juz kitob holida nashr qilingan.

Ahkom, ya’ni hukmlarga oid hadislar faqih ulamolar orasida mashhur bo‘lib, ammo ulardan ilm toliblari foydalanishi qiyin edi. Chunki, ular hadis kitoblarida yozilgan minglab hadislarning orasida yoki faqihlarning bir necha jildlik kitoblari orasida yotar edi. Buning ustiga ularning isnodlari uzun bo‘lganidan talaba o‘zi qidirgan hadisni topishi mushkul. Shu sababli ulamolar turli kitoblardan ahkom hadislарini terib olib, ularning ma’nosи ham, sanadi ham mashhur bo‘lgani uchun sanadlarini qisqartirib, bir kitobga jamlaganlar.

Hofiz Xarrot Abu Muhammad Abdulhaq Ashbiliy (vaf. 582/1186 y.) «al-Ahkom as-sug‘ro» («Kichik hukmlar») nomli hadis kitobini jam qilgan. U shunday deydi: «Men bu kitobda Rasululloh sallallohu alayhi va sallamdan rivoyat qilingan tarqoq hadislarni bir joyga jamladim. Bu hadislar shariat hukmlari, halol, harom va ba’zi buyurish va qaytarish mavzularida bo‘lib, ummatni hidoyatga boshlovchilari va peshvolari bo‘lgan Abu Ubaydulloh Molik ibn Anas, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil Buxoriy, Abul Husayn Muslim ibn Hajjoj Qushayriy Nisoburiy, «Olti sahih»ning qolgan mualliflari va boshqa hadis kitoblaridan olib jamladim».

Ana shunday asarlardan biri Ibn Daqiq al-Iyd (vaf. 702/1303 y.) tomonidan yozilgan «al-Ilmom fi ahodiys al-ahkom» («Hukmga oid hadislar bilan tanishtirish») kitobidir. Unda muallif hukmga oid hadislarning matnlarini sanadlarini tushirib qoldirgan holda jamlagan. Zaruriy o'rnlarda muallif hadislarga sharh ham yozgan. Bu sharhlar nihoyasiga yetkazilmagan bo'lsa-da, kitobning hajmi beqiyos katta. Chunki, kitobda fiqhiy foydali maslahatlar, oyat va hadislardan olingen hukm va xulosalar juda ko'p.

Zayniddin Abu Fazl Abdurrahim ibn Husayn Iroqiy (725-806/1325-1404) ham bu usulda asar yozgan. Uning «Taqrivbal-Asonid va tartiybal-Masonid» kitobida o'zining o'g'li Abu Zar'a uchun ahkom hadislarni jamlagan. Iroqiy o'zining xutbasida shunday deydi: «Men o'g'lim Abu Zar'a uchun muxtasar bir kitobga mashhur imomlarning rivoyati asosida sanadlari muttasil bo'lgan ahkom hadislarni jamlab berishni iroda qildim. Tolibi hadis hadislardan bir nechtasini sanadlari bilan yodlab olmasa, unga qattiq ayb sanaladi. Zero muzokara va dalil keltirish vaqtida katta kitoblarni varaqlab yurishdan va asl manbaga murojaat qilishdan xoli bo'ladi. Men bu davrda sanadlar juda uzun bo'lgani uchun ularni yodlab olish qiyinligini ko'rib va mutaqaddimlarning sanadlarini qisqartirish tolibga ancha yengillik keltirishini bilib, aslida sanadlari juda ham sahif bo'lgan bir nechta hadislarning sanadlarini qisqartirib jamlamoqni istadim».

Iroqiy keyin hadis kitoblaridan hadislarni qanday tanlab olgani va naql qilganini bayon etadi. Bu kitob juda boblari ko'p bo'lgan katta hajmli kitobdir. Uni muallifning o'zi sharh qilib, sharhining muqaddimasida roviylarning va kitob asnosida zikr etilgan odamlarning tarjimai hollarini umumiy foyda bo'lsin, deb keltirgan. Ammo bu sharh nihoyasiga yetmagan. Keyinchalik muallifning o'g'li Abu Zar'a (vaf. 826/1423 y.) sharhni nihoyasiga yetkizgan va unga «Tarth at-tasrib fi sharh at-taqrib» («Taqriv kitobini sharhlash bo'yicha fikr tashlash») deb nom qo'ygan.

Hukmga oid hadislarni o'zida mujassam qilgan yana bir asar Ibn Hajar Asqaloniy (vaf. 852/1448 y.) tomonidan yozilgan «Bulug' al-marom min ahodis al-ahkom» («Hukmga oid hadislardan maromga yetish») nomli kitobdir. Unda 1400 ta ahkom hadislari jamlangan. Bu kitob bir mujalladli holda Misrda nashr etilgan. Unga bir qator ulamolar sharh yozganlar. Jumladan, Muhammad ibn Ismoil San'oniy (vaf. 1182/1768 y.) «Subul as-salom» («Tinchlik yo'llari») nomli to'rt juzli sharh yozgan bo'lib, bu kitob Misrda nashr etilgan. Hadis ilmi bo'yicha yetuk olimlardan biri bo'lgan

Fozil Siddiqxon (vaf. 1307/1890 y.) «Fath al-allom» («Barcha narsani biluvchi Allohning ochishi, bildirishi») nomli sharhi Misrda nashr etilgan.

Hofiz Hujjat Abdulazim ibn Abdulqaviy ibn Abdulloh Munziriy (vaf. 656/1258 y.) «at-Targ‘ib va-t-tarhib» («Targ‘ib etish va qaytarish») nomli kitobni yozgan. U hadislarni jamlash, ularning darajasini bayon etishda eng yaxshi kitob deb tan olingan. Unga hozirgi zamondagi ulamolar, ma’ruzachilar katta e’tibor qaratganlar. Bu kitob ham Misrda bir necha marta nashr etilgan.

Bir mazmundagi hadislar alohida to‘plamlarga jamlandi. Bu davrda bir guruh muhaddislar «Kutub al-atrof» («Mavzudosh hadislar kitoblari») to‘plamlarini tuza boshladilar. Buning ma’nosи shuki, bir muhaddis hadislardan birining bir jihatini tanlaydi va hadis kitoblaridan shu jihatga aloqador hadislarni jam qiladi. Bunday hadislar barcha sahihlar, musnadlar, sunanlardan olinishi mumkin, ba’zan maxsus bir kitob ichidagi hadislardan terib olinishi mumkin.

Quyidagi mualliflar «Atrof as-sahihayn» to‘plamini tuzganlar:

- Hofiz Ibrohim ibn Muhammad Dimashqiy (vaf. 400/1010 y.);
- Abu Muhammad Xalaf ibn Muhammad Vositiy (vaf. 401/1011 y.);
- Abu Nuaym Ahmad ibn Abdulloh Isfahoniy (vaf. 430/1039 y.);

Shuningdek, qolgan sahih kitoblariga ham qator «atrof»lar tuzildi.  
Jumladan:

- Ibn Asokir nomi bilan mashhur Abul Qosim Ali ibn Hasan Dimashqiy (vaf. 571/1176 y.) «Atrof as-Sunan al-arba‘a» («To‘rt Sunan atrofi») nomli alifbo tartibidagi uch jildli kitobni yozgan. Bu kitob «al-Ashrof ‘alo ma’rifat al-atrof» («Atrofni bilish bo‘yicha sharaflı so‘zlar») nomi bilan ham yuritiladi;

- Muhammad ibn Tohir Maqdisiy (vaf. 507/1114 y.) «Atrof al-kutub as-sitta» («Olti kitob atroflari») kitobini yozdi. Bu kitobda xato va noaniqliklar ko‘p va tartib yo‘q bo‘lgani uchun, Hofiz Shamsuddin Muhammad ibn Ali ibn Husayn Husayniy Dimashqiy (vaf. 765/1364 y.) uni chiroyli qilib tartibga solgan.

Hijriy VI asrning oxiri va V asrning boshlarida (X-XI asrlar) ulamolar o‘rtasida urf bo‘lganidek, keyingi davrlarda ham «Kutub al-atrof» asarlarini yozish ishlari davom etdi. Ko‘plab ulamolar shu sohanasi rivojlantirdilar.  
Jumladan:

- Hofiz Ibn Hajar Asqaloniy «Athof al-mahara bi-atrof al-ashara» («O‘n to‘plamga atrof yozish bo‘yicha mohir ulamolarning tuhfaları») nomli

sakkiz jildli kitob yozgan. Bunda o‘nta to‘plam – «al-Muvatto», «Musnad ash-Shofi’iy», «Musnad Ahmad», «Musnad ad-Dorimiy», «Muntaqo Ibn al-Jorud», «Sahih Ibn Hibbon», «Mustadrak al-Hokim», «Mustaxraj Abu Avona», «Sharh Ma’oni-l-osor», «Sunan ad-Doruqutniy» asarlarini qamrab olgan;

– Ibn Hajar Asqaloniy «Athof al-mahara» kitobidaga o‘nta muhaddis orasidan Imom Ahmadning musnadidan olingen atrof hadislarni ajratib alohida ikki mujalladli kitob qildi va uni «Itrof al-Musnad al-mu’talliy bi-atrof al-Musnad al-Hanbaliy» («Hanbalning Musnadi atroflari bilan illatli musndlarni dalillash») deb nomladi;

– Ibn Hajar Asqaloniy Hofiz Ziyo Maqdisiyuning «al-Ahodis al-muxtora» («Tanlangan hadislari») kitobidan ham atrof hadislarni ajratib olib bir katta kitobga jamlagan. Shuningdek, u «Musnad al-Firdavs» kitobining atroflarini ham jamlagan;

– Abu Fazl Iroqiy Ibn Hibbonning «Sahih»idagi atrof hadislarni bir kitobga jam qilgan;

– Shahobuddin Abul Abbas Ahmad ibn Abu Bakr Kinoniy Busiriy Shofe’iy (vaf. 840/1437 y.) ham «Atrof al-Masonid al-ashara» («O‘nta Musnad atroflari») nomli kitobiga «Musnad Abu Dovud», «Musnad Abu Bakr al-Humaydiy», «Musnad Musaddad», «Musnad Muhammad ibn Yahyo al-Adniy», «Musnad Is’hoq ibn Rohuvayh», «Musnad Ibn Abu Shayba», «Musnad Ahmad ibn Muni»», «Musnad Abd ibn Humayd», «Musnad Abu Usoma al-Horis», «Musnad Abu Ya’lo al-Mavsiy» kitoblaridan atrof hadislarni olib jamlagan.

 **3. To‘plamlardagi ziyoda hadislarning alohida jamlanishi.** Ulamolar hadis ilmiga qiziqqan ilm toliblariga yanada oson bo‘lishi uchun, avvalgi ulamolarning yozgan kitoblarini «tartib», «tahzib» (tozalash), «intiqo» (soflash) va «taxrij» (isnodlarini keltirish) qilishdan tashqari, o‘zlarining bilimlarini va san’atlarini ko‘rsatish uchun hadis kitoblarini «Zavo‘id» («Ziyodalar», «Qo‘sishchilar») tarzida ham jamlaganlar.

Ma’lumki, har bir musannif o‘z kitobiga barcha hadislarni krita olmaydi. Chunki, hadislар dengiz misol tunganmasdir. Har bir musannif imkonи boricha ulardan oladi. Shuning uchun ham musanniflarning kitoblari uzun, qisqa, ko‘p, oz bo‘ladi. Keyingi davr musanniflari ikki yoki undan ko‘p muhaddislarning kitoblarini olib, bir-biriga taqqoslab, ikkinchi kitobda mavjud bo‘lgan, ammo birinchi kitobda keltirilmagan qo‘sishchalar hadislarni bitta kitobga jamlab, «Zavo‘id» nomi bilan jamlaganlar. Bu kabi to‘plamlar bir necha turli kitoblarni o‘z ichiga olgan.

Hofiz Shahobiddin Ahmad ibn Abu Bakr ibn Ismoil ibn Salim Busiriy (vaf. 840/1437 y.) qalamiga mansub uchta kitob mavjud:

- «Zavo‘id Sunan Ibn Moja ala-l-kutub al-xamsa»;
- «Zavo‘id as-Sunan al-kubro li-l-Bayhaqiy ala-l-kutub as-sitta».
- «Ithof al-mahara bi-zavoid al-masonid al-ashara». Bu asar quyidagi o‘nta muallif musnadlarini o‘z ichiga oladi: Abu Dovud Tayolisiy, Humaydiy, Musaddad, Ibn Abu Amr, Is’hoq ibn Rohavayh, Abu Bakr ibn Abu Shayba, Ahmad ibn Muni’, Abd ibn Humayd, Horis ibn Muhammad ibn Abu Usoma va Abu Ya’lo Mavsiliy.

Hofiz Ibn Hajar Asqaloniyning «Kitob al-matolib al-oliya bi-zavoid al-masonid as-samoniya» («Sakkiz musnad qo‘sishimchalariga yuqori talablar») kitobi bo‘lib, undagi «al-Masonid as-samoniya» («Sakkiz musnad») deganda Ibn Abu Umar Adaniy, Abu Bakr Humaydiy, Musaddad, Tayolisiy, Ibn Muni’, Ibn Abu Shayba, Abd ibn Humayd va Horisning musnadlari nazarda tutilgan. Ibn Hajarning Bazzor, Ahmad musnadlariga yozgan «Zavo‘id ala-l-kutub as-sitta» («Olti kitobga zavoid») asari ham mavjud.

«Zavo‘id» asarlar bir muallif tomonidan bir necha turda ham yozilgan. Masalan, Hofiz Nuruddin Abul Husayn Ali ibn Abu Bakr ibn Sulaymon Haysamiy Misriy (vaf. 807/1405 y.) Ahmad ibn Hanbalning «Musnad» asaridan «Olti Ishonchli to‘plam»da kelmagan hadislarni jamlab, unga «Zavo‘id Musnad Ahmad ala-l-kutub as-sitta» («Ahmad Musnadining olti kitobga qilgan qo‘sishimchalarini») deb nom bergan. Shuningdek, Haysamiy «Olti ishonchli to‘plam»ga kirmagan qo‘sishimcha hadislarni jamlashda davom etib, «Zavo‘id Musnad al-Bazzor ala-l-kutub as-sitta» («al-Bazzor Musnadining olti kitobga qilgan qo‘sishimchalarini») to‘plamini tuzdi. Bu kitobning ikkinchi nomi «al-Bahr az-zaxxor fi zavoid Musnad al-Bazzor» («al-Bazzor Musnadi qo‘sishimchalarini o‘zida zaxira qilgan dengiz») deb ataladi.

Hofiz Nuruddin Haysamiy mazkur asarlar bilan cheklanmadi. U keyingi muhaddislarning asarlaridagi «Olti ishonchli to‘plam»ga kirmagan hadislarni qidirishda davom etdi. Haysamiyning «Zavo‘id Musnad Abu Ya’lo al-Mavsiliy ala-l-kutub as-sitta» («Abu Ya’lo al-Mavsiliy Musnadidan olti kitobga ziyodalar») asari bir jilddan iborat. Keyingi asar «Zavo‘id al-Mu’jam al-kabir li-t-Tabaroniy ala-l-kutub as-sitta» («at-Tabaroniy al-Mu’jam al-kabir asaridan olti kitobga ziyodalar») deb nomlanib, Haysamiy unda Imom Tabaroniyning «al-Mu’jam al-kabir» («Katta qomus») asarida kelgan «Olti ishonchli to‘plam»dan tashqari hadislarni jamlagan. Shunga

o‘xshash asar «al-Badr al-munir fi zavo‘id al-Mu’jam al-kabir» («al-Mu’jam al-kabir ziyodalari bo‘yicha yorqin to‘lin oy») nom bilan atalib, avvalgi kitobni to‘Idiradi va u uch mujalladdan iborat. Haysamiyning «Zavo‘id al-Mu’jam al-avsat va-l-asg‘ar li-t-Tabaroniy ala-l-kutubis-sitta» («Tabaroniying o‘rtacha va kichik qomuslaridagi olti kitobga ziyodalar») kitobi ikki mujallad bo‘lib, u «Majma’ al-bahrayn fi zavo‘id al-mu’jamayn» («Ikki qomus ziyodalari bo‘yicha ikki dengizning tutashuvi») deb ham ataladi.

Mazkur «Zavo‘id»larning muallifi Hofiz Nuriddin hadis ilmini o‘rganishda o‘z zamondoshi, hadis ilmining yetuk namoyandalaridan biri – Hofiz Abul Fazl Iroqiy (725-806/1325-1404) bilan ilmiy hamkorlikda bo‘lgan. Shuningdek, Haysamiy uning kuyovi va shogirdi edi.

Hofiz Nuriddin keyinchalik o‘zining mazkur «Zavo‘id» kitoblarini katta bir majmua qilib jamladi va unga «Majma’ az-Zavo‘id va manba’ al-favoid» («Ziyodalar majmuasi va foydalar manbai») deb nom berdi. Muallif bu majmuada isnodlarni qisqartirdi, hadislarning sahihini, hasanini va zaifini ajrattdi. Kitob foydalanishga qulay ajoyib bir majmua bo‘ldiki, bugungi kungacha ham undan o‘quvchilar foydalanib keladi.

Hofiz Nuriddinning yana bir kitobi Ibn Hibbon «Sahihi» asarining Ikki Shayx «Sahih»lariga yozilgan «Zavo‘id»i bo‘lib, uning nomi «Mavrid az-zam’on ila zavo‘idi Ibn Hibbon» («Ibn Hibbon zavo‘idiga chanqoq odamning keladigan joyi») deb ataladi.

Yuqorida «Zavo‘id» janridagi asarlarga ayrim misollar keltirildi. Ammo ulardan tashqari boshqa mualliflar ham ana shu janrda ko‘plab to‘plamlar tuzgan.

Hadis kitoblarini bir to‘plamga jamlash kabi ulkan ishlar amalgalashirildi. Ulamolar avvalgi mualliflarning kitoblaridan foydalangan holda sahihlardagi hadislarni bir to‘plamga jamlash, turli kitoblardan tanlab olingan hadislarni birlashtirish, bir mavzudagi hadislarni jamlash va «Zavo‘id» hadislarni ajratishdan tashqari turli hadis majmu’alarini bir kitobga jamlash bilan ham shug‘ullanganlar. Bunday kitoblarni «al-Javomi’ al-’omma» («Umumiy jome’lar») deb yuritilgan.

O‘nta to‘plamni o‘zida mujassam qilgan ana shunday asarlardan biri Ibn Kasirning «Jome’ al-masonid va-s-sunan al-hodiy li-aqvam as-sunan» («Eng to‘g‘ri sunnatga boshlovchi musnad va sunanlar to‘plami») nomli kitobi edi. Ibn Kasir nomi bilan mashhur ushbu olimning to‘liq ismi – Hofiz Ismoil ibn Umar Qurashiy Dimashqiy (vaf. 774/1372 y.) bo‘lib, mazkur

asarda ikki «Sahih», Abu Dovud, Nasoiy, Termiziy, Ibn Mojja «Sunanlar»i, Imom Ahmad, Bazzor, Abu Ya’lo «Musnad»lari, Tabaroniyning «al-Mu’jam al-kabir» asarlarini bir kitobga jamlagan.

Hofiz Abdurrahmon ibn Abu Bakr Suyutiyning (vaf. 911/1505 y.) «Jam’ al-javomi» («To‘plamlar majmuasi») kitobi «Olti sahih» va boshqa majmualarni o‘z ichiga olgan. Suyuti Rasululloh (s.a.v.)dan rivoyat qilingan hadislarning barchasini bir kitobga jamlashni niyat qilgan edi. Ammo u kitobini nihoyasiga yetkaza olmay vafot etdi. Bu kitobda zaif hadislar bilan birga, ko‘plab to‘qima hadislar mayjud bo‘lgani uchun, uni Alouddin Ali ibn Husom Hindiy (vaf. 975/1567 y.) o‘zining «Kanz al-ummol fi sunan al-aqvol va-l-af’ol» («So‘z va fe’lga oid doimiy amaldagi hadislar xazinasi») nomli kitobida zaif va to‘qima hadislardan tozalab, tartibga solgan. Keyin u «Muntaxab kanz al-ummol» («Kanz al-ummol saylanmasi»)da uni muxtasar qilgan. Alouddin Hindiyning «Kanz al-ummol» kitobi ham, uning muxtasari ham Hindistonda nashr etilgan. Mazkur kitob Suyutiyning o‘zi tomonidan ham muxtasar qilingan bo‘lib, uni «al-Jome’ as-sag‘ir fi hadis al-Bashiyr an-Nazir» («Xursandchilik va qo‘rqtish xabarini beruvchi kishining hadislari bo‘yicha kichik to‘plam») deb nomlagan.

 **4. Hadis isnodlarini o‘rganishga oid asarlar.** BBa’zi musanniflar o‘zlarining turli islom ilmlariga xos, masalan, aqoid, fiqh, usul, tafsir, hadislar sharhi, tasavvuf va lug‘at kitoblarida dalil keltirish, isbotlash maqsadida hadislar keltiradilar va ularning olingan manba nomiga ishora qilish bilan kifoyalanadilar. Bunda hadislarning matnlarini ham, isnodlarini ham tahlil qilishga, sahihlarini zaiflaridan ajratib ko‘rsatilmaydi. Shu sababli ba’zi muhaddis hofizlar mazkur mualliflar kitoblarida foydalangan hadislarni to‘plamlardan ajratib olib, alohida bir kitobga jamladilar va ularni tahlil qilib berdilar. Jumladan, Hofiz Abu Muhammad Jamoliddin Abdulloh ibn Yusuf ibn Muhammad Hanafiy Zayla’iy (vaf. 762/ 1361 y.) Mahmud Zamaxshariyning «al-Kashshof» tafsiridan manbasiga ishora qilingan «marfu’» hadislarni bir kitobga jamladi va ularning isnodlarini bayon etdi.

Jamoliddin Zaylaiy Hofiz Zayniddin Iroqiy bilan birga hadis to‘plamlarini ko‘rib chiqib, mutolaa qildilar. Iroqiy Imom G‘azzoliyning «Ihyo‘ ulum ad-din» («Din ilmlarini tiriltirish») kitobida keltirgan hadislarni va Imom Termiziy «Sunan»ining har bir bobida ishora qilgan hadislarni «taxrij» qildi. Zaylaiy esa «al-Kashshof»ning hadislарини va Burhoniddin Marg‘инониyning «al-Hidoya» asarida keltirgan hadislarni taxrij qildi.

Hofiz Ibn Hajar Asqaloniy ham Zayla’iyning taxrijini qisqartirdi va unga Zaylaiy e’tibor qilmagan «marfu’» hadislarni ziyoda qildi va unga «al-Kofiy ash-shof fi taxrij ahodis al-Kashshof» («al-Kashshof hadislarni taxrij qilish bo‘yicha kifoya qiluvchi kitob») deb nom berdi. Bu kitob «al-Kashshof»ning oxirgi juzi bilan birga Misrda nashr etilgan. Ibn Hajar Asqaloniy Imom Navaviyning «al-Azkor» («Zikrlar») va «al-Arba’in» («Qirqlik») kitoblaridagi hadislarni taxrij qilgan. «Al-Masobih», «al-Mishkot» kitoblaridagi hadislarni ham taxrij qilib, unga «Hidoyat ar-ruvot ilo taxrij ahodis al-Masobih va-l-Mishkot» («Roviyarlarni al-Masobih va al-Mishkot hadislarni to‘g‘ri taxrij qilishga boshlash») deb nom bergan.

Isnodlarni tahlil etish ishlari davom etib, Shayx Muhaddis Abdurrauf Munoviy va Shayx Muhammad Himmatzoda ibn Hasan Himmatzoda (vaf. 1175/1762 y.) «Tuhfat ar-roviy fi ahodis al-Bayzoviy» («al-Bayzoviy hadislardagi roviylarni tuhfa qilish») nomli kitobida Qozi Bayzoviy tafsirida kelgan hadislarni alohida jamlab, ularning sahih va zaifini ajratib berdi.

Hofiz Suyutiy (vaf. 911/1505 y.) Qozi Iyozning (vaf. 544/1149 y.) «ash-Shifo» kitobidagi hadislarni «taxrij» qilib, uni «Manohil as-safo fi taxrij ahodis ash-Shifo» («ash-Shifodagi hadislarni taxrij qilish bo‘yicha sof suvloq») deb nomlagan.

Hadis isnodlarini aniqlash bo‘yicha Tojiddin Subkiy (727-771/1327-1370) ham faoliyat ko‘rsatgan bo‘lib, u Qozi Bayzoviyning (vaf. 685/1286 y.) «Minhoj al-usul» («Usul ad-din, ya’ni aqida ilmining dasturi, yo‘li») kitobidagi hadislarni «taxrij» qilgan. Shuningdek, Hofiz Zayniddin Iroqiy (725-806/1325-1404) ham mazkur «al-Minhoj» asaridagi hadislarni taxrij qilgan.

Ibn Hajar Asqaloniy, Ibn Mulaqqin, Muhammad ibn Ahmad ibn Abdulhodiy Maqdisiylar (vaf. 724/1324 y.) ham Ibn Hojibning «usul» ilmiga oid «al-Muxtasar» asaridagi hadislarni taxrij qilganlar.

Jamoliddin Zayla’iy hanafiy mazhabi bo‘yicha yozilgan «al-Hidoya» hadislarni taxrij qilgan va «Nasb ar-roya li-ahodis al-Hidoya» («al-Hidoya asaridagi hadislari uchun bayroq o‘rnatish») deb nom bergan. Bu kitob Misrda nashr etilgan. Zayla’iyning mazkur kitobidan «al-Hidoya»ning juda ko‘p shorihlari foydalanganlar. Jumladan Ibn Hajar Asqaloniy o‘zining «Tarix»ida Zayla’iyni: «Hadis matnnini, roviylarning ismlarini, hadisning «furu’» («sohalar»)ini bilishda dengiz misolidir», – deb ta’riflagan. Ibn Hajarning «ad-Diroya fi muntaxab taxriji ahodis al-Hidoya» («al-Hidoya

hadislari taxriji saylanmasini bilish») nomli kitobi 1350/1931-yilda Dehlida nashr etilgan. Shuningdek, Zayniddin Iroqiy ham Imom G‘azzoliyning «Ihyo ulum ad-din» («Din ilmlarini tiriltirish») kitobidagi hadislarni taxrij qilgan.

Turli ilmiy kitoblardagi hadislarni «taxrij» qilib tuzilgan asarlarda muhaddislar faqihlar hujjat sifatida keltirgan hadislarning sahihi va zaifini ajratib bergenlar. Bundan maqsad odamlar mualliflar keltirgan hadislarning barchasiga ko‘r-ko‘rona ergashib, amal qilib ketavermay, ularga tanqidiy yondashishga chaqirish edi.



*Jamoliddin Zayla’iy (vaf. 762/ 1361 y.) «al-Hidoya»da keltirilgan hadislарини taxrij qilib, «Nasb ar-roya li-ahodis al-Hidoya» nomli asar yozdi.*

Xalq orasida og‘zaki tarqalgan hadislarni «taxrij» qilish ishlari amalga oshirildi. Ba’zan hadis ilmidan bexabar kishilar turli mazmundagi gaplarni «Rasululloh hadislari», deb hadis sifatida talqin qila boshladilar. Bu «hadislар»ning ba’zilari sahih, ba’zilari zaif, yana ba’zilari esa to‘qima hadislар edi. Odamlarning orasida tarqalgan va hadis deb nomlangan shunday gaplarni muhaddis ulamolar e’tibordan chetda qoldirmaganlar va beparvo bo‘lmaganlar. Uлarni jamlab, alohida kitoblarga yozganlar va tahlil asnosida sahihlarini zaiflaridan ajratib bergenlar.

Ana shunday asarlardan biri Hofiz Shamsiddin Muhammad ibn Abdurrahmon Saxoviyning (831-902/1428-1497) «al-Maqosid al-hasana fi-l-ahodis al-mushtahira ala-l-alsina» («Tillarda mashhur bo‘lgan ko‘pgina hadislар bo‘yicha chiroyli maqsadlar») nomli kitobida omma xalq tilidan ko‘p eshitiladigan hadislarni jamlab, tahlil qilgan. Bu kitobni Saxoviyning shogirdi Abdurrahmon ibn Diyba’ Shayboniy muxtasar qilgan va unga «Tamyiz at-tayyib mina-l-xabis fimo yaduru ala-l-alsinati mina-l-hadis» («Tillarda aylanadigan hadislarning yaxshisini yomonidan ajratish») deb nom bergen. Keyinchalik ushbu «al-Maqosid al-hasana» boshqa mualliflar tomonidan muxtasar qilinib, «ad-Durrat al-lomi’ a fi bayon kasirin mina-l-ahodis ash-sho‘i’ a» («Ko‘pgina keng tarqalgan hadislarni bayon qilish bo‘yicha yarqiroq durdona») deb nom bergen.

Mazkur yo‘nalishda qalam tebratgan Shayx Izzuddin Muhammad ibn Ahmad Xaliliy (vaf. 1057/1647 y.) o‘zining «Tas’hil as-subul ilo kashf al-iltibos ammo dora mina-l-ahodis bayna-n-nos» («Odamlar orasida

aylangan hadislardan noaniqlikni ketkazishga olib boradigan yo‘llarni osonlashtirish») deb nomlagan.

Odamlar orasida og‘zaki ravishda tarqalgan turli to‘qima hadislar haqida kengroq tushunchaga ega bo‘lish, sahib hadislarni ulardan ajratib olish uchun ushbu yo‘nalishda qilingan ishlardan voqif bo‘lish juda foydali va zaruriyidir. Ana shunday ishlardan biri Hofiz Ismoil ibn Muhammad Ajluniy (vaf. 1162/1749 y.) tomonidan yozilgan «Kashf al-xafo va muzil al-albosamma-shtahara mina-l-ahodis alo alsinat an-nos» («Odamlar tillarida mashhur bo‘lgan hadislardan qorong‘ulikni ochish va noaniqlikni tugatish») nomli kitobi edi. Bu asar Saxoviyning «al-Maqosid al-hasana» kitobidan muxtasar qilib yozilgan va boshqa kitoblardan olingan hadislar bilan to‘ldirilgan. Bu kitob ulamolar orasida mashhur va juda foydali manba hisoblanadi. Bu asar ikki jildli qilib Misrda nashr etilgan.

 **5. Mo‘g‘ullar yurishidan keyingi davrda hadis ilmining holati.** AAbbosiylar xalifaligi 1258-yildagi mo‘g‘ullarning bosqinchilik yurishlari natijasida qulatildi. Mo‘g‘ullar avval Halabga, keyin Damashqqa hujum qilib, dahshatli qirg‘in-barot urushlarini olib bordilar. Bu paytda Misrni poytaxt qilgan Ayyubiylar davlati ham inqirozga yuz tutib, uning o‘rnini mamluklar davlati egallagan edi. Mo‘g‘ullarga mamluklar qarshi chiqdilar va «Ayni Jolut» degan joyda yuzma-yuz jang bo‘lib, mo‘g‘ullar yengilib ortga qochedilar. Abbosiy mamluklaridan bo‘lgan podshoh Zohir Beybars (1260-1277) taxtga o‘tirdi. Abbosiylarning yangi poytaxti Qohira shahri bo‘ldi. Biroq hukmronlik mamluklar qo‘lida bo‘lib, «xalifa» deb e’lon qilingan mu’tasim ularning qo‘lida bir qo‘g‘irchoq edi.

VII/XIII asr nihoyasida barbarlar hukmron bo‘lib turgan Mag‘rib mamlakatidan boshqa barcha musulmon o‘lkalari ustidan turklar o‘z hukmronliklarini o‘tkaza boshladilar. VIII/XIV asr boshida Usmoniyalar davlatining asoschisi Usmon Kajaq saljuqiylar davlatini yo‘q qilib, usmoniy turklar davlatini barpo qildi va bu davlatning hududi asta-sekin kengayib, mamluklar davlatini va uning atrofidagi barcha davlatlarni qo‘lga kiritib, hatto Konstantinopol (Istanbul) ham fath etildi. Misrdagi abbosiylar hukmronligi yo‘q qilinib, IX/XV asr o‘rtalarida poytaxt Istanbulga ko‘chirildi va Turk sultonni o‘zini musulmonlarning xalifasi deb e’lon qildi. Misr usmoniyalar davlatining bir viloyatiga aylantirildi. Natijada bu yerdagi ilmiy markazlar faoliyatini susaydi. Bu davrga kelib hadis ilmlarini o‘rganish,

ilm talabida safar qilish, ustoz-shogird munosabatlarini davom ettirish imkoniyatlari kamaydi.

Ammo hadis ilmi ulamolari orasida bu ilm uchun fidoyi bo‘lgan olimlar ham bor edi. Ulardan biri hadis bo‘yicha bir qator kitoblar mualifi Hofiz Abul Fazl Imom Zayniddin Abdurrahim ibn Husayn Iroqiy Isriy (vaf. 806/1404 y.) turli shaharlarga safar qilib, hadis yozish majlislarini tashkil etdi. Ko‘plab muhaddislar uning rivoyatlarini yozib oldilar. Manbalarda ta’kidlanishicha, Iroqiy ilm toliblariga turli shaharlarda 400 dan ortiq marotaba imlo, ya’ni hadis yozish majlislarini o’tkazgan. Uning shogirdi Ibn Hajar Asqaloniy shunday yozadi: «Ustoz hadis imlosi majlisini hijriy 796 (mil. 1394) yilda boshlagan edi. Uning sababi bilan Alloh Sunnatni qayta tiriltirdi. U odamlar bilan to‘rt yuz (400) martadan ko‘proq majlis o’tkazib, hammasida minglab tahzib, tahrir qilingan, dolzarb mavzulardagi hadislarni yozdirdi».

Fidoi olimlardan yana biri Shahobiddin Abul Fazl Ahmad ibn Ali ibn Muhammad ibn Muhammad ibn Ali ibn Hajar Asqaloniy Misriy (vaf. 852/1448 y.) edi. Jaloluddin Suyutiy muhaddis Ibn Hajar Asqaloniyning hadis ilmidagi maqomiga katta baho berib va undan keyingi davrda bu ilmning pasayish davri bo‘lganini ta’kidlab shunday deydi: «Ibn Hajar bilan (hadis ilmi talabidagi) safar ham, peshvolik ham nihoyasiga yetgan. Uning davrida undan boshqa muhaddis bo‘limgan. U hadis ilmi sohasida juda ko‘p kitob yozgan. Ilm toliblariga esa mingdan ortiq majlis o’tkazib, hadislarni yozdirgan».



*Ibn Hajar Asqaloniy (vaf. 852/1448 y.) - hadis ilmiga oid ko‘plab kitob yozgan, mingdan ortiq majlis o’tkazib, ularda toliblarga hadislardan saboq bergan o‘z davrining buyuk muhaddisisidir.*

Hadis ilmining yana bir fidoysi – Ibn Hajar Asqaloniyning shogirdi Hofiz Saxoviy (vaf. 902/1497 y.) bo‘lib, u o‘zining «Fathal-Mug‘is bi-sharh alfiyat al-hadis» («Hadis mingtaligining sharhi bo‘yicha Yordam beruvchining ochishi») kitobida shunday yozadi: «Men Makka va Qohiraning ko‘p joylarida hozirgacha 600 dan ortiq majlis o’tkazib, ilm toliblariga hadis yozdirdim».

Ammo hadis ilmini tarqatishning bu usuli avvalgi asrlardagi kabi keng yoyilmadi. Bu davrda ulamolar butun e’tiborlarini avvalgi kitoblarni jamlash, muxtasar qilish, sharplash, isnodalrini aniqlash kabi ishlarga qaratdilar.

## ХАДИС

قَالَ رَسُولُ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ:

آفَةُ الْعِلْمِ النَّسِيَانُ وَإِضَاعَتُهُ أَنْ تُحَدَّثَ بِهِ غَيْرُ أَهْلِهِ

**Rasululloh (s.a.v.) aytadilar: Ilmning ofati – unutish va uni ilmiga rag‘bati bo‘limgan kishilarga o‘rgatish esa uni zoe qilishdir.**



### Mavzu bo‘yicha savollar

1. Hijriy III va IV asrlarda hadis ilmining holati orasida qanday farq mavjud?
2. Ibn Hibbon ishonchli hadislarni saralashda qanday uslublarni ilgari surgan?
3. Hadis ilmida turg‘unlik davrining yuzaga kelish sabablari nimada?
4. Sunnani «tadvin» qilish jarayonida hadis ilmida qanday yo‘nalishlar shakllandi?
5. Hukmlarga oid hadislар jamlangan asarlardan qaysilarini bilasiz?
6. Ibn Hajar Asqaloniy hadis ilmiga qanday hissa qo‘shgan?
7. XV asrda faoliyat yuritgan muhaddislardan kimlarning nomlarini aytا olasiz?



### Topshiriqlar

1. To‘rtinchi asr muhaddis ulamolarining «o‘ziga xos mustaqil yo‘l tutib, hadis ilmi rivojiga munosib hissa qo‘shdilar», – deyilgan jumlaning mohiyatini yoritib bering.
2. «Zavo‘id» to‘plamlarining o‘ziga xos jihatlari haqidа ma’lumot to‘plang.
3. Mo‘g‘ullar yurishi arafasida musulmon olamidagi ijtimoiy vaziyatni aniqlang.

### Mustaqil ish mavzulari

1. «Mavzu» hadislarning paydo bo‘lishi va ko‘payish sabablari.
2. Hadislarni «taxrij» qilishga oid asarlar.
3. Hofiz Ibn Hajar Asqaloniy va uning ilmiy merosi.
4. X asrda Movarounnahrda hadis ilmining rivoji.




1. Абу Лайс Ас-Самарқандий, Ал-Фақих. Танбехул-Ғоғилийн (Ғафлатдан уйғотиш). – Т. III. – Т.: Мовароуннахр, 2003.
2. Абу Тоҳирхожа. Самария // Абу Тоҳирхожа. Самария. Наршахий. Бухоро тарихи. Баёний. Шажараи Хоразмшохий. Ибрат. Фарғона тарихи. – Т.: Камалак, 1991.
3. Зиёдов Ш. Абу Мансур ал-Мотуридий ёзма мероси ва унинг «Китаб ат-та’вилот» асари: фалс. фан. ном. дис... автореф. – Т.: Тошкент ислом университети, 2003.
4. Муратов Д. Абдуллоҳ ас-Субазмунийнинг «Қашғ ал-осор» асари ҳадис илмига оид манба. Номзодлик диссертацияси. – Т.: 2008.
5. Оқилов С. Абу-л-Муъин ан-Насафий ва унинг Мотуридия таълимоти ривожига қўшган ҳиссаси («Табсирату-л-адилла» асари асосида). Тарих фанлари номзоди ... дис. автореф. – Т.: Тошкент ислом университети, 2005.
6. Раҳимжонов Д. Абу Ҳафс Насафий. – Т.: Тошкент ислом университети нашриёт-матбаа бирлашмаси, 2010.
7. Мустафо ал-Буғи. Комментария 40 хадис имам ан-Навави / перевод Владимир Абдулла Нирша. – Казань: 2004.
8. Усмонов И.С. Ал-Ҳаким ат-Термизийнинг «Наводир ал-усул» асари ҳадис ва тасаввуф илмига оид муҳим манба. Тарих фанлари номзоди ... дис. автореф.– Т.: Тошкент ислом университети, 2006.
9. Iyod ibn Muso. Sharh sahib Muslim. – Bayrut: Dor al-vafo, yili ko‘rsatilmagan.
10. Ibn Moja. Sunan. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya, 1998.
11. Badr ad-Din al-Ayniy. Umdat al-qoriy sharh sahib al-Buxoriy. – Bayrut. Dor ihyo at-tiros al-arabiyy, nashr yili yo‘q.

### REJA:

1. Mintaqaga islomning kirib kelishi.
2. Mintaqaga hadislarning kirib kelishi.
3. Muomalada bo‘lgan hadis mavzulari.
4. Ilk muhaddis ulamolar.

 **Tayanch iboralar:** *Markaziy Osiyo, Shohi Zinda, Said ibn Usmon, Tabariy, Xuroson, rihla, Muntaxab, Kitob al-qand.*

 **1. Mintaqaga islomning kirib kelishi.** AArablar kelishidan avval Markaziy Osiyo aholisi turli tabaqa va kasb-kor egalaridan iborat edi. Bu shaharda hunarmandchilikning turli sohalari va savdo-sotiq ming yillar davomida taraqqiy etib kelgan. Bu hudud qadimiy davlatchilik hamda boy moddiy va ma’naviy madaniyatga ega bo‘lgan. Iqtisodiyotning umumiy rivojlanishi qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishi, hunarmandchilik, shahar qurilishi va tashqi savdo-sotiqda aks etdi. Bu hududda o‘ziga xos so‘g’d yozuvi mayjud bo‘lib, san’at, keramika, me’morlik, rassomlik, musiqa madaniyatlari rivojlanganligi unda savdogarlar, turli san’at namoyandalari va ziyorilar istiqomat qilganligidan darak beradi.



Mintaqada «Movarounnahr» deb atalgan, markaziy shaharlari Samarqand va Buxoro bo‘lgan hudud turli ilmlar qatori hadis ilmining ham rivojlanishida asosiy o‘rinni egallaydi. Zero bu hudud qadimdan yirik iqtisodiy-madaniy markazlardan biri edi. So‘g‘dliklarning karvonlari Xitoy, Mongoliya, Hindiston, Eron, Suriya, Misr, Vizantiya shaharlariga qatnar edi. Mahalliy aholi dunyo savdo-sotiq munosabatlarda katta mavqeni egallagan edi. Xitoyni Yevropa shaharlari bilan bog‘lovchi Buyuk Ipak Yo‘li aynan mana shu hududdan o‘tar edi. Natijada Movarounnahrning tashqi dunyo bilan aloqalari mustahkamlanib, ilm-fanning taraqqiy etishiga puxta zamin tayyorladi.

VII asr ikkinchi yarmida Eronda Sosoniylar sulolasiga (224– 651) qulaganidan so‘ng arablar Marvni egalladilar va shu yerdan turib Amudaryo ortidagi yerkarda, ya’ni Movarounnahrga yurishlarni amalga oshirdilar. Bir-birlari bilan dushmanlik kayfiyatida bo‘lgan hukmron doiralar bu harakatlarda o‘z zaifliklarini ko‘rsatib qo‘ydilar. Hokimiyatdan norozi bo‘lgan ba’zi dehqonlar arablardan yordam kutib, ular tarafiga o‘tdilar. Qolgan dehqonlar o‘z hokimiyatlarini himoya qilish uchun kurashga otlandilar. Xuddi shu paytda mahalliy jamiyatdagi turli tabaqalar orasidagi birlikning yo‘qligi yaqqol sezilib qoldi.

Arab qo‘shinlari Movarounnahr hududlarida VII asr o‘rtalaridayoq paydo bo‘lishiga qaramasdan, islom dinining markaziy shahar – Samarqandga kirib kelishi bevosita arablarning shu yerga kirib kelib, yashashi bilan bog‘liq. 60 yil davom etgan urushlari (644– 704) mobaynida arablar 18 yil Amudaryo ortiga yurish qildilar, qolgan 42 yil ichida esa o‘zaro ichki muammolar va qabilaviy nizolarni bartaraf etish bilan mashg‘ul bo‘ldilar. Bu davrdagi harbiy faollilik Umaviylar ichki siyosiy hayoti bilan bog‘liq bo‘ldi: Markaziy Osiyo uchun nisbatan tinch bo‘lgan yillar arab qabilalari orasidagi o‘zaro munosabatlarning keskinlashgan davriga to‘g‘ri kelsa, arab qo‘shinlarining faollahuv yillari esa davlatdagi vaziyatning barqaror bo‘lgan davrida yuz berdi. Keltirilgan dalillardan nafaqat mahalliy aholi, balki arablar orasida ham mazkur davrda o‘zaro ziddiyatlarning mavjud bo‘lganligini ko‘rish mumkin.

Movarounnahrga birinchilardan bo‘lib kirgan xalifa Muoviyaning Xurosondagi voliysi Abu Usmon Said ibn Usmon ibn Affon (vaf. 675 yildan keyin) Samarqand darvozasi oldida turganida uning yoniga Xurosondon Payg‘ambar amakivachchalaridan bo‘lgan Abu Ja‘far Qusam ibn Abbos yetib keldi. Said ibn Usmon uni izzat ikrom bilan qarshi oldi. Qusam

Samarqandni istilo etishda Saidga hamroh bo‘ldi. Usrushanaga yetganlarida Qusam vafot etdi. Mazkur ikki kishi manbalarda Movarounnahrga ilk kirgan sahoba va tobiylardan, ya’ni hadislarni bu hududga olib kelgan kishilar sifatida zikr etiladi.



**Xurosون voliysi Abu Usmon Said ibn Usmon ibn Affon hamda  
Payg’ambar amakivachchasi Abu Ja’far Qusam ibn Abbas  
hadislarni Movarounnahrga olib kelgan kishilardir.**

Abu Ja’far Tabariyning yozishicha, Movarounnahr hududida uyushgan holda arablarga qarshi kurash olib borishga harakat qilingan. Arablar yurishlardan so‘ng Marvga qaytganlarida, markaziy osiyolik hukmdorlar Xorazm yaqinida yig‘ilib, bir-birlariga qarshi hujum qilmaslik haqida majburiyat olishar edi. Mahalliy aholi arablar hukmronligini qarshiliksiz osongina qabul qilmadilar. Arab qo‘shinlariga tashqaridan kelgan yot kuchlar sifatida qarab, ularga qarshi kurashdilar. Bu kurashlar manbalarda mahalliy qo‘zg‘olonlar sifatida zikr etiladi.

704 yilda Xurosonga Hajjoj ibn Yusufning o‘ng qo‘li bo‘lgan Qutayba ibn Muslim (704-715) noib sifatida keldi. Qutayba birinchi bo‘lib Movarounnahrda arablar hokimiyatini o‘rnatdi. Qutayba o‘zi fath etgan yerlarda, jumladan, Samarqand va Buxoroda masjidlar qurdirdi. Ko‘pincha mahalliy aholining eski ibodatxonaları masjidlarga aylantirilar edi.

So‘g‘dlar hukmdori Tarxun Samarqandda arablar bilan suhh tuzdi va o‘lpon to‘lashga hamda garovga o‘z odamlarini yuborishga rozilik berdi. Hukmdorning bunday yo‘l tutishi so‘g‘dliklarga yoqmadи va ular uning o‘rniga ukasi G‘urakni (710-737) ixshid (podshoh) qilib saylashdi. Keyinchilik G‘urak ham Qutayba bilan suhh tuzdi.

Samarqand aholisining tarkibi Qutayba bilan kirgan arab qo‘shinlari va ular bilan birqalikda Movarounnahr va Xurosondan kelgan harbiylar hisobiga ham turli etnik guruhlar bilan boyidi. Buni quyidagi faktdan ham ko‘rish mumkin: 710 yili Qutayba 20 ming sonli o‘z qo‘shinini ukasi Abdurrahmon ibn Muslim boshchiligida Samarqandni zabit etish uchun yubordi. O‘zi esa uning ketidan asosiy qo‘shin bilan olg‘a yurdi. Uning qo‘shinida arablardan tashqari xorazmliklar va buxoroliklar ham bor edi. 712-13 yili ana shunday yurishlarining biri davomida Buxoro, Kesh, Nasaf, Xorazmdan unga 20 ming jangchi yetkazib berishni talab qilgan. Shunday qilib arab qo‘shinlarining safi ularga qo‘shilgan yerli aholining hisobiga ham

kengayib borar edi. Abu Hafs an-Nasafiy Samarqanddag'i ilk muhaddislar qatorida Qutaybaning ukasi Abdurrahmon ibn Muslimning tarjimai holini ham keltiradi. Abdurrahmon arablardan eng birinchi Samarqand amiri bo'ldi.

Umaviylar hukmronligiga chek qo'ygan Abu Muslim harakati (747–749) Mavarounnahr tarixida katta o'rinni egallaydi. Abu Muslimning kelib chiqishi arab manbalarida aniq ko'rsatilmagan. O'sha davrda: «Arablarning boshqa xalqlardan va boshqa xalqlarning arablardan ustunligi yo'qdir, magar ustunligi taqvoga ko'radir», degan hadisning keng tarqalgani ushbu zamonda arablar va arab bo'lmanan musulmonlar mavqelarining tenglashuviga bo'lgan intilishlarning kuchli bo'lganidan darak beradi.

Abu Muslimning xalifa tomonidan xiyonatkorona o'ldirilishidan so'ng mahalliy aholining nazarida u xalqparvar qahramonga aylana boshladi. Tarixchi olim Abu Hafs Nasafiy (1068–1142) o'zining «Kitob al-qand» asarida uning nomini «Sohib ad-davla Abu Muslim Abd ar-Rahmon ibn Muslim ibn Shanfiruz al-Marvaziy» deb muhaddislar qatorida hurmat bilan tilga olishi XII asrda uning Samarqand muhitida obro'si baland bo'lganligidan darak beradi. O'sha davrda muhaddislik nafaqat ilm sohasi, balki yuksak martaba va ko'pchilik intiladigan mansab darajasiga ko'tarilgan edi. Shu sababli ham yuqori lavozimli kishilar bitta bo'lsa-da, hadis rivoyat qilishga, o'z nomlarining muhaddislar qatorida sanalishiga intilganlar.

Abu Muslimning qatl etilishi Xuroson va Mavarounnahrda norozi guruhlar va diniy-ijtimoiy harakatlarning yashirinib yotgan cho'g'larining gulxanga aylanishiga sabab bo'ldi. VIII asrda bo'lib o'tgan qo'zg'olonlarni ozuqalantirgan o'sha davrdagi mazdakiylik, hurramiylik, muxammira va mubayyida g'oyalalarini hisobga olmay turib voqealarni to'g'ri tushunish mumkin emas. Bu kabi oqimlarning mafkuralari o'sha davrda to'qilgan soxta hadislarda aks etgan. Ular rivoyat qilgan nafaqat yolg'on hadislar, balki ishonchli hadislarda ham bu guruhlarning maqsad va mohiyatlarini ko'rish mumkin.

VIII asrda bu hududga kirib kela boshlagan islom dini IX va X asrlarga kelib ancha muqim o'rashdi. Avvalda qurolli to'qnashuvlar ko'rinishida bo'lgan ziddiyatlar endi ilohiyot, shuningdek hadis sohalariga ko'chgan edi. Arablar orasida o'z manfaatlarini ko'zlab, mahalliy aholi an'analarini qoralovchi hadislarni to'qish mayli kuchli bo'lgan bo'lsa, mahalliy aholi o'z qarashlari va urf-odatlarini himoya qilib hadis aytganlar.

 **2. Mintaqaga hadislarning kirib kelishi.** Muhaddislar faoliyati, ya’ni hadislarni yig‘ish maqsadida «rihla», ya’ni safarga chiqishlari VII asrda juda kam yuz beradigan voqealardan edi. Isnodlarning tarkibini tahlil qilishning ko‘rsatishicha, VIII asrdan boshlabgina muhaddislarning hadis talabida faol harakatlari boshlanganligini va turli shaharlardagi hadis markazlari orasida bog‘lanish paydo bo‘lganligini ko‘rsatadi. Chunki hijriy birinchi asrning oxirgi uch o‘n yilligida (690-720) islom olamining alohida ma’muriy markazlarida hadisga bo‘lgan qiziqish orta bordi. Shu jumladan, Movarounnahrda ham hadis ilmining paydo bo‘lishi undan avval bo‘lishi mumkin emas. Ammo Movarounnahr hadis ilmining vakillari o‘z o‘tmishdoshlari sifatida bu mintaqaga ilk kirib kelgan arab sarkardalari va ular bilan birga kelgan sahoba va tobiytlarni mintaqadagi ilk muhaddislar qatorida nomlarini va rivoyat qilgan hadislarini keltiradilar. Masalan, Abu Hafs Nasafiy Said ibn Janoh Buxoriyning «Kitob al-qibla» asari vositasida Movarounnahrga 674– 675 yilda kirib kelgan to‘qqiz kishining nomini keltiradi:

1. Said ibn Usmon ibn Affon;
2. Qusam ibn al-Abbos;
3. Abu-l-Oliya Rufay ibn Mihron;
4. Muhammad ibn Vosi’;
5. Burd (Anas ibn Molikning mavlosi);
6. ad-Dahhok ibn Muzohim;
7. al-Lays ibn Abi Sulayym;
8. Ziyod ibn Mihron;
9. Xulayd ibn Hasson.

Said ibn Usmon umaviy xalifa Muoviya ibn Abi Sufyonning Xurosonga tayinlagan voliysi bo‘lib, 674– 75 yilda u Samarcandga qilingan yurishda qo‘shinga rahbarlik qildi. Said ibn Usmonning xalifa Muoviya tarafidan Xurosonga voliy etib jo‘natilishiga sabab umaviy xalifa uni poytaxtdan uzoqlashtirishni ko‘zlagani edi. Chunki Muoviya o‘g‘li Yazidni o‘ziga valiahd qilib tayinlaganida Madina ahli bu qarordan norozi bo‘lib, «Yazid bunga erisha olmaydi, undan (Muoviyadan) keyin amir Saiddir», degan mazmundagi she’rni aytadilar. Shundan so‘ng Said xalifalikka da’vogarlik qilmasligi uchun Muoviya uni Xurosonga voliy qilib yubordi. Abu Hafs Nasafiy Said ibn Usmonning hadisilmiga aloqadorligini ko‘rsatish maqsadida uning Marv masjididagi minbardan turib xutbada o‘z otasi Usmon ibn Affondan eshitgan ikki hadisni rivoyat qilganligini keltiradi. Ammo Said ibn Usmon muhaddis sifatida o‘lkada faoliyat olib bormagan.

Abu Ja'far Qusam ibn Abbos (vaf. 676 y.) Samarqandga qilingan yurish davrida Said ibn Usmon yonida bo'lgan. Payg'ambarga amakivachcha bo'lmish bu sahobaning Samarqanddag'i taqdiri haqida xalq orasida turli rivoyatlar mavjud. Ulardan biriga ko'ra, bu sahoba kofirlardan qochib, uning qarshisida mo'jizali tarzda ochilgan qoyaga (yana bir rivoyatga ko'ra chohnga) kirib g'oyib bo'lgan. Ammo tadqiqotchilar orasida «Shohi zinda» ziyyaratgohi o'rniда islomdan oldin ham muqaddas hisoblangan joy bo'lgan, Qusam ibn alAbbosning yaqinlari bo'lmish Abbosiylar davrida esa unga alohida e'tibor qaratilib, mashhur ziyyaratgohga aylantirilgan bo'lishi kerak, degan fikrlar ham mavjud. Nasafiy bu sahoba rivoyat qilgan ikki hadisni keltiradi. Ulardan biri: «Fazlu karam va adolatni Allohning rahmdil bandalaridan talab qilinglar, shunda ularning panohida kun kechirasizlar», ma'nosidagi hadis.

Qusam ibn Abbos maqbarasi yoniga keyinchalik xalq orasida alohida hurmatga loyiq kishilar dafn etilganlar. Jumladan, Samarqandda yashagan Tohir ibn Yunus Foniy (vaf. 1125 y.), Samarqandda Qodirxon davrida xatiblik qilgan Abu Muhammad Abdurahmon ibn Yahyo Jikiliy (vaf. 1122 y.), Umar ibn Muhammad Xabboz (vaf. 1129 y.) kabi muhaddislarning qabrlari Qusam mozori atrofidan joy oldi. Shu joyda Qusam ibn Abbos madrasasiga asos solindi va bu madrasa keyinchalik muhim hadis markazlaridan biriga aylandi.

Abul Oliya Rufay ibn Mihron (vaf. 712 y.) Said ibn Usmon bilan birgalikda Amudaryoni birinchilardan bo'lib kechib o'tgan basralik tobiyillardan edi. Said ibn Usmon Abul Oliyaga yuqori baho beradi. Bir rivoyatga ko'ra, Abul Oliya Jayhun ortida birinchi bo'lib azon aytgan va Said uning «Abu-l-Oliya» kunyasini «Oliylik» va «Rufay» ismini «Ulug'lik» deb ta'birlab, uning ism va kunyasini yaxshilikning nishonasi deb bilgan. Abu Bakr xalifaligi davrida islomni qabul qilgan bu shaxs vositasida Anas ibn Molik va Savbon ibn Nahshal kabi sahobalardan hadis rivoyat qilinadi. Chunonchi, u quyidagi hadisini rivoyat qilgan: «Kim menga hech kimdan hech narsa so'ramaslikka kafolat bersa, men unga jannatning kafolatini beraman».

Abul Oliyadagi zohidlarga xos vazminlik o'zi rivoyat qilgan hadisdan va u haqda aytilgan xabarlardan ham bilinib turadi. Aytishlaricha, Basrada fitna chiqqan paytda Abul Oliya shahardan qochib chiqmoqchi bo'ladi. Shunda uning qulog'iga «Ey mutavakkil» («Allohga tavakkul qiluvchi»), degan ovoz eshitiladi. Bundan ta'sirlangan Abul Oliya o'z vatanida qolishga qaror qiladi.

Hadis roviylari – sahoba va tobiyalar harbiy yurishlar davomida qo'shin boshliqlarining yonida turuvchi maslahatchilari sifatida birinchilar safida yangi yerlarga kirib borardilar. Manbada kelishicha, Muhammad ibn Vose' ana shunday maqomda bo'lgan. U Said ibn Usmon bilan Samarqandga kelgan va keyinchalik Qutayba ibn Muslimning yonida turgan safdoshlaridan bo'lgan. Chunki Qutayba u haqda shunday deydi: «Qachonki boshimga bir mushkul ish tushganida, men Muhammad ibn Vosi'ga murojaat qilsam, uning duosining sharofati bilan Alloh mushkulimni oson qiladi».

Burd ismli tobiyy Anas ibn Molikning mavlosi edi. Burdning shaxsi Samarqandni ulug'lovchi hadislar bilan bog'liq bo'lGANI uchun «Muntaxab»ning muallifi Muhammad ibn Abduljalil Samarqandiy uning nomini asarning boshida «Samarqandning fazilatlari haqidagi» qismida keltirgan.

Samarqandga birinchi kirgan arab sarkardalari Movarounnahrni fath etish maqsadida kelgan edilar. Ularning ko'pchiligi tobiyillardan bo'lib, Payg'ambar haqida bilganlarini atrofdagilarga gapirib bergen bo'lishlari mumkin. Yuqorida nomlari zikr etilgan shaxslarning Movarounnahrda bo'lganligi haqidagi rivoyatlar keyingi davr muhaddislari tomonidan islomning boshqa yo'naliш olimlari bilan munozaralarda o'z an'analarining qadimiyligini isbotlash uchun xizmat qilgan. Mazkur shaxslarning Samarqandda bo'lganliklari epizodik yoki afsonaviy xarakterga ega ekanligi yuqoridagi misollardan ko'rinish turibdi.

Darhaqiqat, Samarqandga hadis elementlarining kirib kelishi shaharda muqim holda yashay boshlagan arab-musulmonlar jamoasi bilan bevosita bog'liq. 712 yili Qutayba ibn Muslim arab qo'shinlarini Samarqand aholisining uylarida joylashtirdi. Samarqand ixshidi G'urak shahristonni arab gornizoniga bo'shatib berdi va o'zining qarorgohini Ishtixon shahriga ko'chirdi.

Abu Hafs Nasafiy «Kitob al-qand» asarida Movarounnahrga birinchilardan kirgan kishilar rivoyat qilgan bir qator hadislarni keltirib, ularning bu yerdagi ilk muhaddislardan ekanini isbotlamoqchi bo'ladi. Ulardan birida Usmon ibn Affondan shunday hadis rivoyat qilinadi: «Rasululloh qachon qabrga qarasalar yoki nomini tilga olsalar, yig'lar edilar. Biz u kishidan «Ey Rasululloh, siz nima uchun do'zaxni, oxiratni zikr etasiz, ammo yig'lamaysiz, lekin qachon qabrni zikr etsangiz, darhol yig'lashga tushasiz?» deb so'radik. Shunda Rasululloh: «Ey Usmon, men ko'rgan narsalar ichida qabrdan ko'ra dahshatlirog'i yo'q. Chunki u – dunyo

manzillarining eng oxirgisi. Kim unda baxtli bo‘lsa, undan keyin ham baxtli bo‘ladi, kim unda baxtiqaro bo‘lsa, undan keyin ham baxtsiz bo‘ladi. U yerda har bir kishiga ertayu kech o‘zining boradigan joyi – jannat yoki do‘zax ko‘rsatib turiladi».

Samarqandda ilk davrda arab sarkardalari marfu’ hadislardan ko‘ra ko‘proq sahoba, tobiyi, xalifa, hokimlarning so‘zlarini xabar sifatida rivoyat qiladilar. Yoki bu tarixiy shaxslarning so‘zлari hikmatli maqollar sifatida rivoyat qilinadi.

Abu Hafs Nasafiy o‘zining «Kitob al-qand» asarida ilk davrda Movarounnahrga kirgan va muhaddislik faoliyatini olib borgan Balx, Nishapur, Marv, umuman Xuroson yoki Arab mamlakatlaridan kelgan ko‘plab kishilar haqida xabar beradi. Bundan kelib chiqadiki, hadis ilmining mintaqaga kirib kelishida tashqi aloqalarning o‘rnini katta bo‘lgan. Bu yerdagi muhaddislarning ko‘pchiligi faqat hadis ilmi bilan cheklanmay, adab ilmi va she’riyat sohalarida ham samarali faoliyat yuritganlar.



*Hadis roviylari – sahoba va tobiyilar harbiy yurishlar davomida qo’shin boshliqlarining yonida turuvchi maslahatchilari sifatida birinchilar safida yangi hududlarga kirib borganlar.*

 **3. Muomalada bo‘lgan hadis mavzulari.** Ilk muhaddislarning hayoti timsolida o‘sha davrda turli guruuhlar o‘rtasidagi kechgan kurashlarni ko‘rishimiz mumkin. XI-XII asrlarda mintaqada sahih hadislar xalq orasida keng muomalada edi. Masalan, Samarqandning «Rabot al-murabba» degan joyida hadis imlo qilgan muhaddis Abus Samsom Zulfiqor ibn Muhammad Hasaniy rivoyat qilgan hadisda shunday deyiladi:

«Kim bir odamni hidoyatga chaqirsa, unga ergashgan odam kabi savobga ega bo‘ladi, uning savobi hech qancha kamaymaydi. Kim birovni zalotlatga boshlasa, gunohda unga ergashgan odam kabi bo‘ladi, uning gunohi ham hech kamaymaydi».

Hadislar orasida qarindosh-urug‘chilik, silai rahm mavzusi dolzarb hisoblanardi. Jumladan, Samarqandda yashagan Abul Fadl Ziyod ibn Muhammad Xo‘jandiyy rivoyat qilgan hadisda shunday deyiladi:

«Kimki menga bir narsaga kafolat bersa, men unga to‘rt narsaga kafolat beraman: silai rahmni bardavom qilsa (qarindosh-urug‘chilikni mahkam

tutsa), oilasi uni yaxshi ko‘radi, rizqi keng bo‘ladi, umri uzoq bo‘ladi, Alloh taolo o‘zi va’da qilgan jannatiga kiritadi».

Insonlar orasidagi mehr-shafqat, doimo kelajakka umid bilan yashashga chaqiruvchi hadisni ash-shayx al-faqih al-imom Abul Hasan Ali ibn Muhammad as-Sakkok rivoyat qiladi:

«— Alloh taolo yuzta rahmatni yaratdi va bittasini o‘z xalqi orasiga tashladi. Ular shu rahmat bilan o‘zaro mehr-oqibatda bo‘ladilar. Vaholanki, Alloh huzurida 99 ta rahmat turibdi. Agar imonli kishi Alloh huzuridagi azoblarni ko‘rganida, aslo jannatdan umid qilmay qo‘yar edi. Agar kofir Alloh huzuridagi rahmatdan xabardor bo‘lganida, aslo uning rahmatidan noumid bo‘lmas edi».

Ahillik, birodarlik va bag‘rikenglikka chaqiruvchi hadislar ham keng muomalada bo‘lib, al-Isbijobiy nomi bilan mashhur ash-shayx al-imom Abul Hasan Ali ibn Muhammad as-Samarqandiy bu mavzuda shunday hadisni rivoyat qiladi:

«— Dushanba va payshanba kunlari jannah eshiklari ochiladi va Alloha shirk keltirmagan kishilarning gunohlari kechiriladi. Ammo bir-biri bilan arazlashgan ikki kishining gunohi kechirilmaydi va aytildiki, bu ikkisi yarashmagunlaricha ularni rad etinglar».

Ota-onaga yaxshilik qilish, ularni norozi qilmaslik mavzuidagi hadislar barcha zamonlardagi kabi o‘sha davrda ham dolzarb hisoblangan. Abul Mahosin Salmon ibn Ali Balxiy quyidagi hadisni rivoyat qiladi:

«Agar ota-onaga oq bo‘lish uchun «uf»dan ko‘ra yomonroq so‘z bo‘lganida Alloh uni harom qilgan bo‘lar edi. Oq bo‘lgan kishi xohlagan amalini qilsin, hech qachon jannah kirmaydi. Solih farzand xohlagan ishini qilsin, hech qachon do‘zaxga kirmaydi».

Bundan ko‘rinadiki, olim yashagan davrda hadislar xalq orasida odob-axloq, ota-onaga hurmat, insonparvarlik va xolislik kabi xislatlarni tarbiyalovchi boy ma’naviy manba vazifasini bajargan.

Abu Hafs Nasafiy rivoyat qilgan hadislarda ko‘proq zuhdga (zohidlikka) e’tibor qaratilgan. Zuhd deganda olim tarkidunyo-chilikni emas, balki muloyimlik, xushmuomalalik, oziga sabr qilib, asosiy e’tiborni ilmiga sarflashni nazarda tutar edilar. Olim tasavvufda «zohid» unvoniga sazovor bo‘lgan bo‘lsa-da, jamiyatdan uzoqlashish yo‘lini tutmadı. Aksincha, doimo

insonlar manfaati uchun xizmatda bo‘lish, yuqori ilm darajalarini egallash uchun o‘zi ustida ishlash bilan mashg‘ul bo‘ldi. Shuningdek, o‘z atrofiga muridlarni to‘plab, «shayxlik» da‘vosini ham qilmadi. Bir emas, bir necha ilm sohalarini egalladi. Abu Hafs Nasafiyning zuhd va tasavvufga ixlosi baland ekanini uning she’rga solgan hadislarining mavzularidan ham bilish mumkin.

Abu Hafs Nasafiy Qur’onning fazilatlarini gapirib, uni yod olishga targ‘ib qiluvchi hadislarni ko‘plab rivoyat qilgani o‘sha davrda qorilarning baland mavqega ega bo‘lganidan darak beradi. Samarqandda 1115-16 yili Abu Hafs Nasafiyning immlolarida hozir bo‘lgan ash-sharif al-hofiz Bakr ibn al-Husayn al-Basriy quyidagi hadisni rivoyat qiladi:

– Qur’on sohibi (hofizi) bog‘langan tuya sohibi kabidir. Uni mahkam tutsa – uni ushlab qoladi, agar tashlab qo‘ysa – ketib qoladi.

Ash-shayx al-imom al-xatib Abul Hasan Ali ibn Ahmad al-Ishtixoniy qorilikning fazilati xususida shunday hadisni keltiradi:

– Qur’on qorisi uchun bir ijobat bo‘luvchi duo bordir. Agar uning sohibi xohlasa, uni bu dunyoda so‘raydi, agar xohlasa, uni oxiratga qoldiradi.

XII asrga kelib Qur’on, ilk islom davridan farqli ravishda yozma kitob shaklida ham katta ahamiyat kasb etgan edi. Buni Abu Nasr Ahmad ibn Ali Nasafiy Anas ibn Molikdan rivoyat qilgan hadisdan ko‘rshimiz mumkin:

«Kimki Qur’onni o‘rgansa, o‘rgatsa va oldida «Mus’haf» bo‘la turib, unga qarab takrorlab turmasa, qiyomat kuni bu kitob uning bo‘yniga osilib keladi va aytadi: «Ey Olamlarning Rabbisi, sening bu bandang meni tashlab qo‘ydi, bizning oramizda hukm chiqar!»

Mazkur davrda hadislarni soxtalashtirish bilan birga Qur’on oyatlariga ham turli g‘arazli maqsadda tafsir va izohlar berilish holatlari bo‘lganini shayx imom Abul Hasan Ali ibn Abdurrahim Sakodariy rivoyat qilgan hadisdan ma’lum bo‘ladi:

«Kim Qur’on bo‘yicha bilmay turib so‘zlasa, o‘z joyini jahannamdan tayyorlasin».

O‘sha davrda hadislar o‘lka ma’naviy hayotini yuksaltirishga xizmat qilgan.

 **4. Ilk muhaddis ulamolar.** VIII asrning birinchi yarmida Movarounnahrda islom ilmlarining yoyilishi xurosonlik ulamolar tomonidan amalga oshirilgan bo‘lsa, shu asrning ikkinchi yarmiga kelib mahalliy ulamolar yetishib chiqqa boshladilar.

Abu Muqotil Hafs ibn Salm Fazoriy Samarqandiy (vaf. 823 y.) mintaqa hadis maktabining shakllanishi va taraqqiy etishida o‘zining munosib hissasini qo‘sghan mahalliy olimlardan edi. U sulolaviy muhaddislar oilasining boshlig‘i sifatida ma’lum.

Abu Muqotil Samarcandiy ilm talabida ko‘plab safarlar qildi, ustoz, do’st va shogirdlar orttirdi. Abu Muqotil Samarcandiyning ikki farzandi va nevara kuyovi olimdan hadislar rivoyat qilganliklari uning muhaddislarning bobokaloni bo‘lganligini ko‘rsatadi. Germaniyalik professor U. Rudolf o‘zining «al-Moturidiy va Samarcanddagi sunniylik teologiyasi» asarida Abu Muqotilni Abu Hanifa kalomining vujudga kelishidan to al-Moturidiy ta’limotining shakllangunicha bo‘lgan oraliq davrda yashagan buyuk ilohiyotchi-mutakallim sifatida ko‘rib chiqadi. U. Rudolf o‘z tadqiqotlari natijasida shu paytgacha Abu Hanifaga tegishli deb hisoblangan, hanafiylik bo‘yicha muhim manba bo‘lgan «Kitob al-olim va-l-mutaallim» asari aslida Abu Muqotilga tegishli degan xulosaga keladi. Ammo Abu Muqotil Samarcandiy bu asarda o‘zining Abu Hanifadan olgan bilimlari asosida uning ta’limotini yoritgan. O‘quvchi uchun tushunarli tilda bayon qilingan bu asarni yozish bilan Abu Muqotil Movarounnahrda hanafiy mazhabining keng tarqalishiga o‘zining katta hissasini qo‘shti.

Abu Muqotil hadis bo‘yicha, asosan, Abu Hanifa an’analalarini davom ettirdi. Manbalar uning 10 dan ortiq ustozlari va 20 ga yaqin movarounnahrlik shogirdlari haqida ma’lumot beradi. Ustozlari orasida Basra va Balx maktablarini ko‘rgan, keyinchalik Samarcandga kelgan, Imom Buxoriy tomonidan «ishonchli muhaddis» (siqa) deb e’tirof etilgan Abu Sahl Kasir ibn Ziyod (VIII asr) ham bor edi.

Abu Muqotilning shogirdlaridan Abu Bakr Ahmad ibn Nasr al-Atakiy Movarounnahrdagi hadis ilmining rivojlanishida ustozidan keyin uning ishini keng miqyosda davom ettirgan muhaddislardan edi. «Kitob al-qand» uning 20 ga yaqin shogirdi bo‘lganligi haqida guvohlik beradi.

Abu Muqotil sulolaviy muhaddislar oilasining boshlig‘i edi. Uning ikki o‘g‘li – Salm ibn Hafs (vaf. 826 y.) va Umar ibn Hafs (vaf. 834 y.) Samarcandning qozilari edilar. Abu Muqotilning nevara kuyovi Solim ibn G‘olib (vaf. 869 y.) ham Samarcanddagi hadis ilmiga o‘z hissasini qo‘sghan muhaddislardan bo‘lgan.

Mintaqada ilk islom davrida bundan tashqari juda ko‘p sulolaviy muhaddis oilalari bo‘lib, ular bu vatanda ilm-ma’rifat tarqatishda o‘zlarining munosib ulushlarini qo‘sghanlar. Bu yerda hadis ilmi bilan jamiyatning turli tabaqa vakillari shug‘ullandilar. Ular orasida hokim, qozi, sufiy, muaddib, muazzin va turli kasb egalari bor edi.

Hadis ilmi vujudga kelgan davrdan boshlab muhaddislar hadis talabida o‘zga yurtlarga safar qila boshladilar. Ana shu davrdan boshlab muhaddislarning ilmiy hayotini faqat birgina shahar yoki mamlakat miqyosida chegaralash mumkin bo‘lmay qoldi. Ko‘pchilik muhaddislar ona vatanlari Markaziy Osiyoda bo‘lsada, asosiy ilmiy faoliyatlarini undan tashqarida olib bordilar. Boshqa muhaddislar asl nasablari bu mintaqadan tashqarida bo‘lsa ham, ko‘hna o‘lkamizda hadis ilmining taraqqiy etishiga xizmat qildilar.

Hadislarni saralash bo‘yicha Movarounnahr muhaddislarini islom olamida yetakchi o‘rinni egalladilar. Imom Buxoriy, Imom Termizi kabi barchaga ma’lum muhaddislar bunga yaqqol misoldir. Ammo hadis ilmining boshlang‘ich davri uchun ilk davr muhaddislaridan Abu Muoz Xolid ibn Sulaymon al-Balxiy, Abu Muhammad Abdulloh ibn Muborak Marvaziy, Abu Muti Balxiy kabi olimlarning xizmatlari beqiyos.

Abu Muoz Xolid ibn Sulaymon al-Balxiy (vaf. 805-06 y.) o‘z davrining ko‘zga ko‘ringan olimi bo‘lib, mintaqamizga hadislarning kirib kelishida alohida o‘rin tutgan edi. Manbalarning xabar berishicha, olim 100 ming hadisni yoddan bilgan. U Xuroson amiri Ali ibn Iso ibn Mohon va uning qozisi A’mash tomonidan Movarounnahrga surgun qilindi. Bunga sabab Abu Muoz qozi A’mashning o‘zicha xato hukm va fatvo chiqarishiga yo‘l qo‘ymaganida edi. Abu Muoz yo‘lda Termizdan o‘tdi. Termizda Abdulaziz ibn Xolid ibn Ziyod ibn Jarval olimning hurmatini joyiga qo‘yib, kutib oldi, unga sharaflı mehmon sifatida izzat-ikrom ko‘rsatdi. Abdulaziz o‘sha davrda Termiz, Sag‘oniyon, Voshjirdga qozi edi. Ammo bundan xabar topgan A’mash esa ularning ikkalalarini ham surgun qildirdi. Ular Farg‘ona va Shoshda islom ma’rifatining tarqalishida, hadis va Qur’on ilmlarining rivojlanishida katta xizmat ko‘rsatdilar. Ular Balxga qaytishlarida Samarqandga kirdilar. Manbalarda ularning qo’llarida Movarounnahrlig yuz mingga yaqin kishi musulmon bo‘lgani haqida ma’lumot beriladi.

Abu Abdurahmon Abdulloh ibn Muborak Hanzaliy Marvaziy (736-797) – hadisdagi tabaqasi bo‘yicha ikkinchi darajali tobiylardan edi. Hadis,

fiqh va tasavvufda zamonasining yetakchi olimi. Xorazm turkiylaridan Muborak ibn Vodihning o‘g‘li bo‘lgan. Xurosonning ilmiy-madaniy markazi Marvda tug‘ilgan. Butun umrini ilm va savobli amallarga baxsh etgan. Ko‘p mamlakatlarga sayohat qilgan. Sayohatlarida Abu Hanifa bilan ko‘rishgan va uning eng mumtoz shogirdlari safidan o‘rin olgan. Sufiylik, fiqh, hadisshunoslik, tarix, filologiya va tafsirga oid asarlar yozgan. 20 ming hadisni o‘z ichiga olgan 20 ta asarini Abu Hanifaning fiqh boblariga ko‘ra tartib etgan. Ilk bora Arba’in (qirq hadis) to‘plamini tuzgan. Ahmad ibn Hanbal ham Abdulloh ibn Muborak ilmlaridan bahramand bo‘lgan. Imom Buxoriyning otasi Ismoil Abdulloh ibn Muborakning shogirdlaridan bo‘lgan. Olim Tarsus (Suriya)dan qaytayotganda vafot etgan va Furot daryosining qirg‘og‘idagi Xish shahrida dafn etilgan. Uning «Kitob az-zuhd va-r-raqoiq» («Zohidlik va nozik masalalar kitobi») nomli 16 juzdan iborat kitobi bizgacha yetib kelgan.

Imom Dorimiy nomi bilan mashhur Abu Muhammad Abdulloh ibn Abdurahmon ibn Bahrom ibn Abdusamad Dorimiy Hofiz Samarcandiy (vaf. 869 y.) yurtimizdan chiqqan ilk yirik muhaddislardandir. U to‘qqiz hadis to‘plamlari orasida e’tirof etilgan «al-Musnad» majmuuni ta’lif etdi. Uning asari sunan hadis to‘plamlari uslubida yozilgani uchun ulamolar uni «Sunani Dorimiy» deb nomlaganlar. Uning bu asari to‘qqiz mo‘tabar hadis to‘plamlari safiga kiradi.

Imom Dorimiy 798 yili Samarcandda dunyoga keldi. Xuddi shu yili Abdulloh ibn Humayd Samarcandga voliy bo‘lib kelganligi sharafiga Dorimiya Abdulloh deb nom berdilar. Ana shu hijriy yilda Abdulloh ibn Muborak Marvaziy ham vafot etgan edi. Uning bobosi Banu Dorim qabilasining mavlosi bo‘lgan sababli unga «Dorimiy» nisbasi berilgan.

Dorimiy ilk tahsilini Samarcandda oldi. Shundan so‘ng u Mavarounnahr ilm markazlariga, jumladan, Buxoro, Xuroson, Bag‘dod, Kufa, Vosit va Basra shaharlariga borib, u yerdagi mashhur kishilardan ta’lim oldi. Damashq, Hims (Xoms) shaharlarining ahli ilmlari bilan uchrashdi. Hijozda bo‘lib, Makka va Madina ahli ilmlaridan ham ta’lim oldi. Safar davomida jamlagan ilmlarini ona Vataniga olib kelib, bu yerdagi tolibi ilmlarga ulashdi.

Dorimiy faqat Samarcandda emas, balki butun islom olamida hadis ilmi taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘sghan olim sifatida katta shuhrat qozondi. Hijoz va Mag‘rib safarlarida bo‘lgan dabusiyalik muhaddis Zulaym ibn Hutayt (vaf. 866 y.) shunday deydi: «Men Mag‘rib nohiyalaridan qaysi

biriga kirgan bo‘lsam, o‘sha yerda Abdulloh ibn Abdurahmonning nomi Samarqanddagidan ham ko‘ra mashhurroq edi».



*Imom Dorimiy Samarcandiy nafaqat Movarounnahrda, balki butun islam olamida tanilgan, hadis ilmi rivojiga katta hissa qo’shgan muhaddislardan biridir.*

Dorimiy o‘zidan keyin hadis ilmida peshqadam bo‘lgan shogirdlarini qoldirdi. Ulardan biri Abd ibn Humayd Kashshiy Dorimiyni o‘z ustozи deya zikr etib: «Dunyoda Abdulloh ibn Abd ar-Rahmon kabi kishi yo‘qdir», deb ta’riflaydi. Ahmad ibn Hanbal movarounnahrlik bir kishiga uch bora «senga o‘sha sayyidni tavsiya etaman», deb uning Abdulloh ibn Abdurahmon ekanini ta’kidlaydi. Bu esa ko‘zga ko‘ringan muhaddislardan bo‘lgan Ahmad ibn Hanbal Dorimiyning ishonchli muhaddis ekanligiga va ilmda benazir bo‘lganligiga hamda hadis ilmini mukammal egallamoqchi bo‘lgan kishi undan ilm olishi lozimligiga ishora qilganligini ko‘rishimiz mumkin. Mashhur muhaddis Abu Muhammad Rajo ibn Murajjo Hofiz Marvaziy (vaf. 863 y.) aytadi: «Men Ahmad ibn Hanbalni, Is’hoq ibn Rohuvayhni, Ali ibn Madiniyni, Shozkuniyni ko‘rdim, ammo ular orasida Abdullohdan ko‘ra hofizroq kishini uchratmadim». Yana u aytadi: «Men Shom, Misr, Hijoz, Yaman, Iroq ellarini kezdim, ammo Abdulloh kabi kishini uchratmadim».

Imom Dorimiyan mashhur muhaddislar Muslim, Abu Dovud, Termiziyy, Muhammad ibn Bashshorlar hadis rivoyat qilishgan. Abdulloh ibn Ahmad, Iso ibn Umar Samarqandiyalar esa, u zotdan hadis ilmini saboq olishgan.

Imom Dorimiy hijriy 255 yil zu-l-hijja oyining ikkinchi payshanbasida asr namozidan so‘ng vafot etdi. Juma kuni hayit arafasida dafn etildi. Bu milodiy 869 yil 16 noyabr kuniga to‘g‘ri keladi. Imom Buxoriy ustoz Dorimiyning vafoti haqida eshitganida ko‘zlaridan yosh to‘kib, ilm ahli katta judolikka yuz tutganini aytadi.

Movarounnahrda ilmlar rivojida hadislarning o‘rni katta bo‘ldi. Hadis ilmi taraqqiyoti fiqh, kalom, adab va she’riyat kabi boshqa sohalarning ham rivojiga turki berdi.

Abu Mansur Moturidiy (vaf. 944 y.) o‘zining asosiy asari «Kitob at-tavhid»da islam aqidalarini naqliy bilan bir qatorda aqliy ilmlar yordamida asoslab berdi. Bunda olim asosan Qur’on oyatlariga suyandi. Ammo ba’zi o‘rinlarda u Imom Buxoriy va Imom Termiziy kabi ishonchli muhaddislar keltirgan hadislardan dalil sifatida foydalandi. Ammo bu

asarda keltirilgan hadislarning isnodlari berilmagan. Demak, rasionalist mutakallimlarning «ahl al-hadis»dan farqli ravishda islam manbalariga o‘ziga xos yondashuvlari bo‘lgan.

Mintaqaga hadislarning kirib kelishi ilk arablarning kirishi bilan bo‘lgan bo‘lsa, keyinchalik bu sohaning rivojlanishida mahalliy olimlarning xizmatlari katta bo‘ldi. Ilk davrda muhaddislar harakatida tanqidiy yondashuv ustuvor bo‘ldi. Mo‘tabar hadis to‘plamlarining paydo bo‘lishi, tarqalishi muhaddislarning mavqe va nufuzlarini yanada mustahkamladi.

## HADIS

قَالَ رَسُولُ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ: مَنْ بَرَّ وَالدِّيْهِ طُوبَى لَهُ زَادَ اللَّهُ فِي عُمْرِهِ

**Rasululloh s.a.v. aytdilar:** Kimiki ota-onasiga yaxshilik qilgan bo‘lsa, unga qanday yaxshi?! Alloh Taolo uning umrini uzaytiradi.



### Mavzu bo‘yicha savollar:

1. Hadislar Markaziy Osiyoga qachon kirib keldi?
2. Qusam ibn Abbosning Samarcanddagi hayoti, «Shohi zinda» ziyyaratgohi haqida nimalarni bilasiz?
3. Mavarounnahrga islam dinining tarqalishida Abul Oliyaning o‘rni qanday?
4. Mintaqadagi ilk hadis ilmi rivojiga hissa qo‘shtigan olimlardan kimlarni bilasiz?
5. Mavarounnahrdagi qanday mavzulardagi hadislar ko‘proq muomalada edi?
6. Abu Muqotil Samarcandiy hadis ilmi rivojiga qanday hissa qo‘shtigan?
7. Nomlari mashhur bo‘limgan qanday muhaddislarni bilasiz?
8. Abdulloh ibn Abdurahmon Dorimiy Samarcandiy haqida qanday ma’lumotlarga egasiz?



### Topshiriqlar

1. O‘zbekiston tarixidan mintaqaga islam dinining kirib kelishiga oid mavzu bilan yaqindan tanshib chiqing.

2. Buyuk ipak yo‘li xaritasi bilan tanishib chiqing va u qaysi yirik shaharlardan o‘tganini aniqlang.

3. Markaziy Osiyoda muomalada bo‘lgan hadislarning mavzularini aniqlang.
4. Mintaqaga ilk hadis ilmining kirib kelishiga xizmat qilgan olimlarning nomlarini sanang.
5. Mavzu oxirida keltirilgan hadisning manbasini aniqlang.

### **Mustaqil ish mavzulari**

1. Markaziy Osiyodagi yirik hadis markazlari.
2. Abdulloh ibn Muborak Marvaziyning hayoti va ilmiy faoliyati.
3. Abu Muqotil Samarqandiyning hadis ilmidagi o‘rni.
4. Hanafiy mazhabiga oid hadis to‘plamlari.
5. Abu Hafs Nasafiyuning «Kitob al-qand» asari.



### **Adabiyotlar:**

1. Мовароуннаҳр алломаларининг ҳадис илми ривожига қўшган хиссалари / Масъул мұхаррир И.Усмонов. – Т.: Мовароуннаҳр, 2011.
2. Мўминов А.Қ. Ҳанафий уламоларнинг марказий Мовароуннаҳр шаҳарлари ҳаётида тутган ўрни ва роли (II-VII/VIII-XIII асрлар). Тарих фанлари доктори ... дис. автореф. – Т. Тошкент ислом университети, 2003.
3. Нажмиддинов З. Абу Зайд ад-Дабусий меросининг Мовароуннаҳрда фикҳ илми ривожида тутган ўрни: тарих фанлари номзоди ... дис. автореф. – Т.: Тошкент ислом университети, 2007.
4. Рахимжонов Д. Абу Ҳафс ан-Насафийнинг «Китоб ал-қанд» асари ҳадис илми бўйича мухим манба // Шарқшунослик. – Т.: ТошДШИ, 1997. – № 3.
5. Уватов У. Мовароуннаҳр ва Ҳуросон олимларининг ҳадис илми ривожида тутган ўрни (ал-Имом ал-Бухорий, Муслим, Имом ат-Термизий). Докторлик диссертацияси. – Т.: 2001.
6. Abu Hafs Umar ibn Muhammad an-Nasafiy. al-Qand fi zikr ulamo Samarqand / Yusuf al-Hodiy tahriri ostida. – Tehron: Oyina-yi mirosl, 1999.
7. Abu-l-Muayyad al-Xorazmiy, al-Imom al-Muvaffaq ibn Ahmad al-Makkiy. Manoqib Abi Hanifa. – Bayrut: Doru-l-kitob al-ilmiya, 1981.

## II BOB. HADIS ILMLARI

### 9-MAVZU

### HADIS VA UNING ODOBLARI

#### REJA:

1. Hadis odoblari.
2. Hadislarni tushunish uchun kerak bo‘ladigan omillar.
3. Hadislar Qur’on oyatlarini sharhlaydi.

 **Tayanch iboralar:** *hadis, sunna, majoz, kinoya, sahih, zaif*

 **1. Hadis odoblari.** MMuhaddislar ilk davrdan boshlab hadislarga alohida e’tibor bilan qaraganlar. Hadis aytishning alohida axloqiy normalarini ishlab chiqqanlar. Unga ko‘ra, hadis ilmi bilan shug‘ullanadigan kishi o‘z odob-axloqini yuksak darajaga olib chiqishi asosiy talablardan biri qilib qo‘yilgan. Hadis ilmiga oid asarlarda muhaddis va tolibning odobi qanday bo‘lishi kerakligi haqida alohida boblar ajratilgan. Chunonchi hadis ilmi bilan shug‘ullanmoqchi bo‘lgan kishining odobi haqida Xatib Bag‘dodiy o‘zining «al-Jome’ li-axloq ar-roviy va adab as-some’» («Roviyning axloqi va eshituvchining odobi haqida to‘plam») asarida batafsil ma’lumot berib o‘tgan. Bu asar o‘z yo‘nalishida yozilgan mukammal qo‘llanma hisoblanadi. Bu asarni Doktor Mahmud Tahhon tadqiq etib, tanqidiy matnini nashr etgan (2 jildli. Ar-Riyod, 1983).

Hadis ilmi bilan shug‘ullanuvchi kishidan birinchi navbatda talab etiladigan xislat bu o‘z so‘zida o‘ta rostgo‘y bo‘lishi edi. Muhaddis va shogirdga qo‘yilgan umumiy talablarni quyidagilarda ko‘rish mumkin:

1. Pok niyatli va xolis bo‘lish, mansab va shuhratparastlik kabi maqsadlardan qalbni sof tutish.
2. Hadislarni savob uchun o‘rganish va o‘rgatish.
3. Ilmi va yoshi o‘zidan kattalar huzurida ularning iznisiz so‘zlamaslik.
4. O‘z ustozini hurmat qilish.
5. Hadis so‘ralgan kishi javobini bilmasa, biladigan kishiga yo‘llash.
6. Yomon niyatli kishiga ham yaxshilik tilab hadis aytish.
7. Hadis ilmini mukammal egallashga intilish.
8. Avvalo o‘z yurtidagi ahli ilmlardan tahsil olish.
9. Har bir so‘zni qunt bilan o‘rganish.
10. Tinglovchining aql tarozusi ko‘tarmaydigan so‘zni gapirmaslik.
11. Hadis ilmiga oid kitoblarni doimiy mutolaa qilish.
12. Ilm darajalaridan bosqichma-bosqich ko‘tarilish.

13. Hadis o‘rganish va o‘rgatish uchun poklanib, xushbo‘y narsalarni sepish.
14. Rostgo‘y bo‘lish va yolg‘ondan uzoq yurish.
15. Mashhur hadislarni so‘zlash.
16. Ishonchli kishilardan rivoyat qilish.
17. Kichik gunohlardan ham uzoq yurish.
18. Xatodan, noto‘g‘ri gapirishdan, noto‘g‘ri ma’no berishdan va o‘zgartirib so‘zlashdan ehtiyyot bo‘lish.
19. Turli noo‘rin hazillardan tiyilish.
20. Tavozeli bo‘lish.
21. Insonlarga manfaatli narsalarni gapirish.
22. Aniq bilmagan narsani gapirmaslik.
23. Hadislarni aralashtirib yubormaslik.
24. Ustozdan tahsil olish va hokazo.

Yuqoridagi ro‘yxatda hadis ilmida ustoz va shogirdga tegishli umumiylar va xususiy odob shartlari sanab o‘tilgan. Hadis ilmi olimlari mazkur talablarga qay darajada qat’iy rioya qilganlari manbalarda ko‘plab misollar orqali keltiriladi. Masalan, Ibn Saloh «Ulum al-hadis» («Hadis ilmlari») asarida muhaddisdan qanday mas’uliyat talab qilinishi haqida Molik ibn Anasning hadis aytishda qat’iy rioya etgan amal va xatti-harakatlarni misol qilib keltiradi:

«Molik ibn Anas, Alloh undan rozi bo‘lsin, agar hadis aytmoqchi bo‘lsa, tahorat qilardi, so‘ng soqolini tekislardi-da, to‘shagining o‘rtasiga o‘tirib, viqor va salobat bilan hadis aytar edi». Shuningdek, Imom Molik hadisni yo‘lda, turib yoki bo‘lmasa, shoshib turganda aytishni makruh deb bilgan. U «Rasululloh (s.a.v.)dan gapirayotgan narsamni yaxshilab idrok etishni xohlayman», deya ta’kidlardi.

Asmaiyl aytadi: «Hadis o‘rgatuvchi olimda ham, ta’lim oluvchida ham to‘rt xislat mayjud bo‘lishi kerak. Agar ular to‘liq bo‘lsa, ularning ishlari ham mukammal bo‘ladi, aksincha, ulardan birortasi bo‘lmasa, ularning ishlari nomukammaldir. Olimdan talab etiladigan to‘rt xislat: aql, sabr, muloyimlik va bor ilmini ayamaslik. Ilm oluvchida esa: qiziqish, yaqinlardan firoqda bo‘lish, yodlash qobiliyati va aql. Zero, olim agar dars berishni aqli bilan yaxshi tadbir qilmasa, darslari aralashib ketadi, sabrli bo‘lmasa, ilmni talabaga to‘liq yetkazib bera olmaydi, talabaga muloyim bo‘lmasa, talabani ilmdan bezdiradi, shuningdek, ilmni qizg‘ansa, talaba foyda ololmaydi. Talabada esa agar qiziqish bo‘lmasa, ilm ololmaydi,

qalbini ilm uchun yaqinlaridan firoq qilmasa, aqli ilm uchun ishlamaydi va yodlash qobiliyati sust bo‘ladi, demak, xotirasi yomon bo‘lgach, xuddi suvganitobni tashlagandek bo‘ladi, aqli bo‘limasa, hech narsani tushunmaydi».



***Xatib Bag’dodiyning «al-Jome’ li-axloq ar-roviy va adab as-some’» asari hadislar bilan shug’ullanuvchilarining odoblari haqida batafsil ma’lumot beruvchi manbadir.***

Hadis ilmida ustoz va shogirdga qo‘yilgan avvalgi talablardan biri – niyatning to‘g‘ri bo‘lishiga Imom Buxoriy va Muslim rivoyat qilgan quyidagi hadis keltiriladi: «Amallar faqatgina niyatlar bilan e’tiborlidir va har bir kishi uchun uning niyat qilgan narsasigina beriladi. Bas, kimning hijrati Alloh va Rasuli uchun bo‘lsa, uning hijrati Alloh va Rasuli uchun deb e’tibor qilinadi. Kimning hijrati biror dunyo molini qo‘lga kiritish bo‘lsa, unga erishadi yoki biror ayol uchun bo‘lsa, uni nikohiga oladi. Kishining hijrati nima uchun qilingan bo‘lsa, o’sha uchundir».

Hadis rivoyat qiluvchi kishi asosiy e’tiborini Rasulullohning hadislarini eshitib tarqatishga qaratishi va bunda ulkan ajrga erishishni maqsad qilishi lozimligi quyidagi hadisdan kelib chiqadi: «Alloh taolo bizdan biror narsani eshitib, boshqalarga, eshitganidek, yetkazgan odamni xursand qiladi. Ko‘p eshituvchilar yetkazuvchidan ko‘ra ilmliroqdir» (Termiziy rivoyati).

Muhaddisdan hadis so‘ralgan vaqtida bilganlarini yetkazish talab qilinadi. Bunga quyidagi hadis dalolat qiladi: «Kimdan ilm so‘ralsa, u bilganini yashirsa, Qiyomat kuni uning og‘zi olovdan bo‘lgan yugan bilan yuganlanadi» (Abu Ya’lo rivoyati). Agar so‘raluvchi javobni bilmasa, so‘ragan kishini biladigan kishiga ro‘baro‘ qilishi lozim bo‘ladi.

Ba’zan hadis ilmi olimlariga shum niyatdagi kishilar ham savol berishar, bunda o‘zlarining g‘arazli maqsadlarini ko‘zlar edilar. Shunday holatda ham ulamolar bunday johil kishilarning jaholatiga ma’rifat bilan javob berishni, yomon niyatli kishiga ham yaxshilik tilab hadis aytishni talab qilib qo‘yganlar. Chunki har onda bu kabi kishilarning niyatları yaxshi tomoniga o‘zgarib qolishi mumkin. Bunday ish zalolatga ketgan kishini hidoyatga boshlash deb baholangan. Hadisi sharifda aytishicha, Rasululloh hazrat Aliga shunday deganlar: «Allohga qasamki, Alloh sening hidoyating bilan bir kishini to‘g‘ri yo‘lga boshlashi sen uchun qizil tuyadan yaxshiroqdir».

Hadis tolibining ilmga oid majlislarga va ta’lim olishga intilishi talab etilgan. Bunga sahobalarning faoliyatları misol bo‘ladi. Masalan, Anas

ibn Molik aytadi: «Nabiy sollallohu alayhi va sallamga savol berishdan qaytarilgan edik. Shu bois, sahro ahlidan biror oqil kishining Madinaga kelishi bizni quvontirar edi. U Rasulullohdan savol so‘rardi, biz javobini eshitar edik» (Muslim rivoyati).

Anas ibn Molik aytadilar: «Sahro ahlidan bir kishi kelib, Nabiy sollallohu alayhi va sallamga savol berdi:

- Yo Rasululloh! Qachon Qiyomat bo‘ladi?
- Sening holingga voy!, – dedilar Rasululloh, – Qiyomat uchun nimalar g‘amlab qo‘yding, o‘zi?
- Hech narsa tayyorlaganim yo‘q! Faqat Alloh va Rasulini yaxshi ko‘rishim bor, xolos.
- Sen yaxshi ko‘rganing bilan birga bo‘lasan!
- Biz ham shundaymi? – deb savol tashladik.
- Ha! – dedi Nabiy sollallohu alayhi vasallam. O‘sha kuni biz rosa sevindik (Buxoriy va Muslim rivoyatlari)».

Yana bir misol, Abu Voqid Laysiy rivoyat qiladi: «Rasululloh sollallohu alayhi vasallam masjidda odamlar bilan o‘tirgan edilar. Uch kishi kirib keldi. Ikkitasi Rasululloh tomon keldi, bittasi qaytdi. Qolgan ikki kishi Rasululloh oldilarida to‘xtadilar. Shunda biri halqa ichidan joy topib o‘tirdi. Ikkinchisi xalqaning orqasiga o‘tirdi. Uchinchisi orqasiga qaytib ketdi. Rasululloh o‘z ishlaridan forig‘ bo‘lganlardan keyin shunday dedi: «Sizlarga uch nafar kishi haqida xabar beraymi? Ulardan biri Allohdan boshpana so‘radi. Alloh unga boshpana berdi. Ikkinchisi hayo qildi, Alloh ham undan hayo qildi. Ammo uchinchisi Allohdan yuz o‘girdi» (Imom Buxoriy va Imom Muslim rivoyati).

Tinglovechining aqli yetmaydigan narsani gapirmaslikka Anas ibn Molik rivoyat qilgan ushbu hadis keltiriladi: «Payg‘ambar (s.a.v.) bir so‘z aytmoqchi bo‘lsalar, tushunarli bo‘lishi uchun uch marta qaytarar edilar» (Imom Buxoriy rivoyati). Boshqa bir hadisda kelishicha, Rasululloh (s.a.v.) aytadilar: «Osonlashtiringlar, qiyinlashtirmanglar, xushxabar beringlar, odamlarni qochirib yubormanglar».

Rostgo‘y bo‘lish va yolg‘ondan uzoq yurish haqida Sho‘ba ibn Hajjoj (vaf. 160/777 y.) shunday deydi: «Kim bir kishining yolg‘onchiligini bila turib undan hadis rivoyat qilsa u ham yolg‘onchilardan biridir».

Shuningdek, ulug‘ zotlar bilan suhbatlashganda ularni ulug‘lovchi so‘zlar aytish, ularni ismlari bilan emas, hurmatni ifodalovchi so‘zlar bilan murojaat etish lozim. Ularga berilgan e’tibor, atrofdagilarni ham e’tiborsiz goldirmaydi.



## 2. Hadislarni tushunish uchun kerak bo‘ladigan omillar.

Hadislarni yaxshi tushunish uchun zarur omillar hadisga oid manbalarda:

### ضوابط لحسن فهم السنة النبوية

ya’ni «Payg‘ambar sunnatlarini yaxshi tushunish shartlari» deb ataladi. Hadislар ham Qur’oni karim kabi o‘ziga xos til, uslubga ega. Shuning uchun hadislар ma’no-mazmunini tushunishda ma’lum ko‘nikmalarga ega bo‘lish kerak, aks holda ularni noto‘g‘ri tushunish mumkin. Zamonaviy hadisga oid adabiyotlarda hadislarni tushunishda kerak bo‘ladigan quyidagi bir nechta omillar sanab o‘tiladi:

1. Arab tilini yaxshi bilish.
  2. Hadislarni Qur’onga muvofiq o‘rganish.
  3. Bir mazmundagi hadislarni qiyosiy o‘rganish.
  4. Hadislarning sabab va maqsadlarini chuqur tushunib yetish.
  5. Hadisning aniq maqsadini anglash vositalarini ajrata bilish.
  6. Hadislardagi majoz va haqiqatni ajrata bilish.
  7. G‘oyib va hozirni ajrata bilish.
  8. Ko‘rinishidan bir-biriga zid bo‘lgan hadislarning mohiyatini tushuna olish.
1. Arab tilini yaxshi bilish hadis ilmi bilan shug‘ullanayotgan kishi uchun zaruriy bo‘lgan ilmlardan biri. Bu hadislarni to‘g‘ri tushunishga yordam beradi. Muhibbuddin arab tili grammatikasini to‘liq bilgan holda, unga tegishli bo‘lgan balog‘at va fasohat ilmlarini ham o‘zlashtirgan bo‘lishi lozim. Payg‘ambar (s.a.v.) quraysh qabilasidan ekanini ham e’tibordan chetda qoldirib bo‘lmaydi. Bu lahjaning boshqa arab qabilalarinikidan farqli jihatlari bor edi. U markaziy shaharlardan biri Makkaga xos bo‘lgani uchun ancha mukammal va fasih (adabiy) hisoblangan. Shu nuqtai nazardan Payg‘ambar (s.a.v.)ga bu narsa o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmagan. Shuningdek, balog‘at va fasohatli Qur’on ham u kishiga ilhomlanish manbai bo‘lgan. Natijada Payg‘ambar so‘zlari Qur’ondan keyin ikkinchi asosiy manba bo‘lib hisoblandi. Shundan kelib chiqqan holda, kam so‘zlardan tashkil topgan va ko‘p ma’noga ega hadislarni, ulardan olinadigan shar‘iy hukm, pand-nasihat va ibratlardan iborat hadislarni to‘liq tushunish va o‘zlashtirish uchun arab tili, uning balog‘at va fasohatini mukammal o‘rganish lozim bo‘ladi. Muhibbuddandan mazkur bilimlarni muayyan darajada egallash talab etilgan.

2. Hadislarni Qur’onga muvofiq o‘rganish arab tilida:

### فهم السنة في ضوء القرآن الكريم

ya’ni «Sunnatni Qur’oni karim ziyyosida tushunish», deb ataladi. Bu hadislarni to‘g‘ri tushunish uchun kerak bo‘lgan omillardan biri. Qur’on islomning asosiy muqaddas manbasi va unda bu dinning asosiy ta’limot va qoidalari berilgan. Payg‘ambar hadislari ham Qur’oni karim ta’limotiga zid bo‘lishi mantiqan to‘g‘ri kelmaydi. Hadislar Qur’oni karimning sharhi, tafsiloti bo‘lgani uchun ham ularni Qur’on ta’limoti bilan qiyoslab o‘rganish lozim bo‘ladi.

Biroq keyinchalik hadislar orasida Qur’oni karim ta’limotiga mos kelmaydiganlari ko‘payib ketdi. Bu esa ularning turli kishilar tomonidan to‘qilgan va soxta ekanini ko‘rsatadi. Agar hadis Qur’oni karim ta’limotiga zohiran mos kelmasa, unda hadisning sharhini o‘rganib chiqish lozim bo‘ladi.

3. Bir mazmundagi hadislarni qiyosiy o‘rganish arab tilida:

### جمع الاحاديث الواردة في الموضوع الواحد

ya’ni «Bir mavzuda kelgan hadislarni jamlash» deb ataladi. Bu hadis ma’nosini to‘g‘ri tushunish uchun lozim bo‘lgan omillardan biri. Hadisning ma’nosи yaxshi tushunilmasa, shu mavzudagi boshqa hadislar o‘rganilib, o‘zaro qiyoslanadi. Natijada hadislarni tushunish imkoniga ega bo‘linadi. Masalan, Imom Buxoriy rivoyat qilgan hadisda shunday deyiladi:

Abu Amoma Bohiliy (r.a.) omochga qarab turib dedilar: «Men Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning: «Mana shu qaysi bir qavmning uyiga kirsa, albatta, Alloh taolo o‘scha uyga xorlikni kiritadi» deganlarini eshitdim».

Zohiran bu hadisda dehqonchilik ishlaridan qaytarish, unga targ‘ib qilmaslik ma’nosи bordek ko‘rinadi. Natijada musulmon kishi dehqonchilik qurollarini uyiga kiritmasligi, ziroat ishlari bilan shug‘ullanmasligi lozim degan fikr kelib chiqadi. Go‘yoki islom dehqonchilikka qarshi degan xulosa chiqishiga sabab bo‘ladi. Ammo islom ta’limotiga ko‘ra, xususan hadislarda dehqonchilikka, bog‘dorchilikka, umri oxiriga yetgan kishi ham bir dona bo‘lsa-da, daraxt ekib ketishiga targ‘ib etiladi. Buni keyingi keladigan hadislarda ko‘rish mumkin.

Masalan, Imom Buxoriy, Imom Muslim va boshqa muhaddislar rivoyat qilgan hadisda Payg‘ambar (s.a.v.): «Qaysi bir musulmon bir daraxt yoki ekin eksa-yu, undan qush, inson yoki hayvon yesa, albatta shu yegani uchun o‘scha kishiga sadaqa bo‘ladi», deganlar. Shuningdek, Imom Muslim Jobir roziyallohu anhudan quyidagi hadisni rivoyat qiladilar: «Musulmon bir daraxt eksa-yu, undan insonmi, hayvonmi, qushmi yeb tursa, albatta uning uchun qiyomat kunigacha sadaqa bo‘lib turadi», – dedilar.

Imom Buxoriy va Imom Ahmadlar Anas (r.a.)dan rivoyat qilgan hadisda Payg‘ambar (s.a.v.): «Agar qiyomat qoim bo‘layotganda sizlardan birortangizning qo‘lida bir dona xurmo ko‘chati bo‘lsa, qiyomat qoim bo‘lguncha uni ekishga qodir bo‘lsa, ekib qo‘ysin» deganlar. Imom Tabariy qilgan rivoyatda Ammora ibn Xuzayma ibn Sobit quyidagi larni aytadilar: «Umar ibn Xattobning otamga: «Yeringni ekishga nima to‘sqinlik qiladi?» deyayotganini eshitdim. Otam: «Men o‘lay deb turgan qari cholman» dedi. U: «Senga qasam bilan aytamanki, albatta ekasan» dedi. Umar ibn Xattob otam bilan birga o‘z qo‘li bilan ekin ekayotganini ko‘rdim». Imom Ahmad rivoyatida Abu Dardo (r.a.): «U kishi (Abu Dardo) Damashqda ko‘chat ekib tursalar, oldilaridan o‘tib ketayotgan bir odam: «Rasululloh (s.a.v.) ning sahabasi bo‘lib turib shu ishni qilasanmi?» dedi. U esa: «Sen shoshma, men Rasululloh (s.a.v.)ning: «Kim bir daraxt eksa-yu, undan odammi yoki Allohning maxluqlaridan birortasimi yesa, albatta shu tufayli o‘sha odamga sadaqa bo‘ladi» deganlarini eshitganman» dedi.

Islom tarixiga nazar tashlasak, Payg‘ambar (s.a.v.) biror kishini dehqonchilikdan, omoch ishlatishdan qaytarganlari ma’lum emas. Madina ahli bog‘dorchilik va dehqonchilik bilan bemałol shug‘ullangan. Hadis va fiqhga oid kitoblarda ham dehqonchilik, ziroatchilik haqida alohida boblar ajratilgan hamda yuqoridağı hadislarga qo‘shimcha yana ko‘plab hadislarni keltirish mumkin.

Demak, «omoch kirgan uyg‘a xorlik kiradi» ma’nosidagi hadisni qanday tushunish kerak? Muhaddis ulamolar bu savolga qoniqarli javoblar bergenlar.

Imom Buxoriy bu hadisni «Ziroat asboblari bilan ovora bo‘lib qolish yoki unga haddan tashqari berilish oqibatlaridan ogohlantirish» bobida keltirgan. Bobning nomidan ham ko‘rinib turibdiki, bu hadis orqali omochga yopishib olib, boshqa narsalar, xususan Vatan himoyasiga oid ishlardan beparvo bo‘lish oqibatida dushmandan yengilib, xor bo‘lishdan ogohlantirilgan. Yoki ilm olish kabi boshqa zaruriy ishlarni turganida dehqonchilikni bahona qilish noo‘rin ekanı nazarda tutilgan.

Shuningdek, Imom Ahmad va Imom Abu Dovudlar rivoyat qilgan hadisda: «... Ziroatdan rozi bo‘lib, ... yuraversangiz, Alloh boshingizga xorlikni keltiradi...», deyiladi. Ya’ni hayot uchun kerak bo‘ladigan ishlarni tark qilish nojioz ekanı nazarda tutilgan.

4. Hadislarning sabab va maqsadlarini chuqur tushunib yetish arab tilida:

فَهُمُ الْأَحَادِيثُ فِي ضُوءِ اسْبَابِهَا وَمَقَاصِدِهَا

ya’ni «hadislarni sabab va maqsadlari ziyojsida tushunish» deb ataladi. Bu hadislarning ma’nosini to‘g‘ri anglash uchun zarur bo‘lgan omillardan biri. Ba’zi hadisi shariflarning aytish sababi va o‘ziga xos ko‘zlangan maqsadlari bor. Ba’zi hadislarda ma’lum bir shaxsga, zamonga, makonga, shart-sharoitga oid bo‘lgan muammolar aytib o‘tilgan bo‘ladi. Shu kabi sabablarga ko‘ra hadislarni to‘g‘ri tushunish uchun yetarli ilm, qunt, sabot, shar’iy hukmlarni tushuna olish, islom dini ta’limotlarini yaxshi o‘zlashtirgan bo‘lish zarur. Bu esa hadisi shariflarda kelgan ko‘rsatmalarning umumiyligi, xususiy, vaqtinchaligi, doimiy, juz’iy va kulliy (mutlaq) ekanini yaxshi anglab olish va idrok qilishga yordam beradi.

Sahobai kiromlar hadislarning sabablari va maqsadlariga qarab amal qilishda hammaga o‘rnak bo‘lishgan. Chunki ular Rasululloh bilan birga yashaganlar, ular orasida hadisi shariflarni nima uchun, qandoq, qay tarzda, nima maqsadda aytiganini biladiganlar ko‘p bo‘lganlar.

Shuningdek, Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallamning vaqtlarida fitr sadaqasi hayit kuni bomdod namozidan keyin, hayit namozidan oldin chiqarilar, ko‘proq xurmo va bug‘doydan iborat bo‘lar edi. Chunki o‘sha paytda Madinadagi asosiy ovqat shulardan iborat edi. Musulmonlarning barchasi bir joyda yashar, bir-birlarini yaxshi tanir edilar. Bomdoddan keyin faqir-fuqarolarni topib, ularga fitr sadaqasini berishga ulgurish mumkin edi.

Sahobalarning davrida islom dini tarqalib, musulmonlar soni ko‘paydi. Shahar-qishloqlar kattalashdi. Bomdod namozi bilan hayit namozi orasida fitr sadaqasini tarqatish mumkin bo‘lmay qoldi. Shunda sahobalar bu holatni to‘g‘ri tushunib, fitr sadaqasini hayitdan bir yoki ikki kun oldin beradigan bo‘lishdi.

Keyinroq musulmon o‘lkalari yanada kengayganidan so‘ng mazhabboshi ulamolar barcha omillarni hisobga olib, ba’zilari fitr sadaqasini ramazon oyining yarmidan, ba’zilari esa avvalidan bersa bo‘ladi, degan fatvo chiqardilar. Shuningdek, har yurtdagi ko‘p sanalgan taomdan yoki o‘sha taomning qiymatini berish ham mumkinligi haqida fatvolar chiqarildi. Demak, hadislarda Payg‘ambar (s.a.v.) fitr sadaqasini bomdod bilan hayit namozi orasida, bug‘doy va xurmodan berishni tayin qilganlari haqidagi rivoyatga asoslanib hozirgi vaqtida hayitdan avval yoki bug‘doy va xurmodan boshqa narsadan fitr sadaqasi berayotgan kishilarni ayblash durust emas.

Ba’zan «odamlar hozirgi kunda issiq suvda tahorat qilmoqdalar, holbuki Payg‘ambarimiz sovuq suvda tahorat olganlar», deb qishda ham sovuq suvda tahorat qilib, kasal orttirib olish holatlarini kuzatish mumkin. Ammo

bu ham hadisning sirtini ushlab, javharini, aslini tushunmaslikning bir ko‘rinishidir.

5. *Hadisning aniq maqsadini anglash vositalarini ajrata bilish arab tilida:*

### فهم التمييز بين الوسيلة المتغيرة والهدف الثابت للحديث

ya’ni «hadisning o‘zgaruvchi vositasi va o‘zgarmas maqsadi orasidagi farqni tushunish» deb ataladi. Hadislarni to‘g‘ri tushunish uchun zarur bo‘lgan omillardan biri. Hadislarni fahmlab yetish, ularga amal qilishda xatoga sabab bo‘ladigan jihatlardan biri hadisdan ko‘zlangan maqsad qolib, ko‘proq maqsadga erishish yo‘lidagi vositaga e‘tibor berishdan kelib chiqadi. Masalan, «Misvok og‘izni toza qiluvchi, Rabbini rozi qiluvchidir». Bundan asosan nima vositasida bo‘lsa ham og‘izni tozalab yurish maqsadi ko‘zda tutilgan.

Imom Buxoriy, Imom Nasoiy, Imom Shofiiylar Oisha onamizdan rivoyat qilgan hadisda Rasululloh: «Misvok og‘izni tozalovchi va Robbni rozi qiluvchidir», – deganlar. Ochiq-oydin ko‘rinib turibdiki, hadisdan asosiy maqsad og‘izni toza tutishga qiziqtirishdir. Misvok, deganda buta shoxidan, ko‘proq «Arok» deb ataluvchi daraxtdan olingen yog‘och tushuniladi. Agar hadisning lafziga asoslanadigan bo‘lsak, dunyodagi barcha musulmonlarga Arok daraxti yog‘ochidan misvok yetkazib berib turish kerak bo‘ladi. Ba’zi kishilar shunday tushunishadi. Imom Abu Hanifa mazhablarida latta yoki panja kabi og‘izni tozalashi mumkin bo‘lgan hamma narsa bilan, misvok qilsa bo‘laveradi, deyilgan. Demak, zamon o‘zgarishi bilan paydo bo‘lgan yangi tish tozalash vositalarini ishlatish ham ayni muddaodir.

Tib borasida rivoyat qilingan hadisi shariflarning ko‘aida va shunga o‘xshash narsalarda o‘sha davr va sharoitlaridan kelib chiqib aytilgan so‘zlar ko‘plab uchraydi.

6. Hadislardagi majoz va haqiqatni ajrata bilish arab tilida:

### علم التفريق بين الحقيقة والمجاز في فهم الحديث

ya’ni «Hadisni tushunishda haqiqat va majoz orasidagi farqni bilish» deb ataladi. Bu hadislarni to‘g‘ri tushunish uchun zarur bo‘lgan omillardan biri. Har bir tilning o‘z xususiyatlaridan kelib chiqib, o‘ziga xos va mos kinoya, qochirim, o‘xshatish kabi nozik uslublar ishlatiladi. Bunday uslublarni oddiy inson bo‘lgan payg‘ambarlar ham ishlatganlar. Shu sababli ham majoz bilan haqiqatni ajrata bilish lozim. Masalan, hadislarda «sochim

tikka bo‘ldi» iborasi kelgan. Bu o‘rinda majoz ishlatilgan bo‘lib, haqiqatda ham shunday voqeа sodir bo‘lganligi tushunilmaydi, balki ibora dalolat qiladigan mazmun anglashiladi. Bu o‘rinda «o‘ta xayron bo‘ldim» degan ma’no tushuniladi.

Imom Muslim rivoyat qilgan hadisda Payg‘ambar (s.a.v.) o‘z ayollariga: «Mening ortimdan eng tez yetadiganingiz – qo‘li uzuningiz», deganlar. Ya’ni – bu qo‘li uzuningiz mendan keyin birinchi vafot etib, u dunyoda menga eng tez qo‘shiladiganingiz, deganidir. Ushbu hadisdagi majozni, hatto Rasululloh ayollarining o‘zlari ham to‘g‘ri tushunmaganlar. Ular, bu sharafga qay birimiz noil bo‘lar ekanmiz, deb qo‘llarining uzunligini o‘lchab ko‘rganlar. Sirni esa voqelik kashf etgan. Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallamdan keyin birinchi bo‘lib Zaynab bint Jahsh vafot etgan. U zot roziyallohu anho hunarmand ayol bo‘lib, qo‘l mehnati bilan topganlaridan tez-tez sadaqa qilar edi. Hadisdagi qo‘lning uzunligidan murod – sadaqani ko‘p qilish ekan vaqt o‘tishi bilan ma’lum bo‘lgan.

Imom Ahmad ibn Hanbal va Imom Nasoiylar Jahima roziyallohu anhudan qilgan rivoyatda yordamga muhtoj onasini qo‘yib urushga chiqishga ruxsat so‘rab kelgan yigitga Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallam «Sen U(ona)ni lozim tut, jannat uning qadami ostidadir», deganlar. Albatta, jannat o‘sha yigitning onasi qadami ostida emas. Balki, gap onasining qadamini o‘pib bo‘lsa ham xizmatini qilib, roziligini olgan kishi jannatga sazovor bo‘lishi haqida ketmoqda.

Hadisdagi majozni tushunmaslik oqibatini anglatish uchun quyidagi hodisa misol qilib keltiriladi:

«Arab olamida ko‘zga ko‘ringan bir qonunshunos «Sahih Buxoriy» kitobini sotib olibdi. So‘ng varaqlab «Nilu Furot, Sayhun va Jayhun hammasi jannat daryolaridir», degan hadismi o‘qibdi. Hayron bo‘libdi. Mazkur daryolarning oqib chiqadigan joyi ma’lum. Hammasi ham jannat emas, oddiy yerdan oqib chiqadi. Buxoriyning kitobida ham bo‘limgan narsalar yozilgan ekan, deb undan yuz o‘giribdi.

Agar o‘sha qonunshunos bir oz kamtarlik bilan chuqurroq fikrlaganida edi, Buxoriyning sharhlaridan birortasini o‘qib ko‘rar yoki biror haqiqiy olim kishidan so‘rar edi. Ana shunda unga hadisdagi haqiqat oydek ravshan bo‘lar edi. Vaholanki, arab tilidagi majoz va haqiqat ilmlari bo‘yicha bilimdon olim Imom Ibn Hazm mazkur hadis to‘g‘risida quyidagilarni yozadi: «Sahih hadislarda kelishicha, Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallam: «Nilu Furot va Sayhunu Jayhun hammasi jannat daryolaridandir», yoki «Mening uyim bilan minbarim orasida jannat bog‘laridan bir bog‘ (ravza)

bor», deganlarida ba’zi johillar gumon qilganidek, ravza jannatdan kesib olinganini yoki mazkur daryolar jannatdan oqib chiqqanini bildirmaydi. Rasulullohning ravzai shariflari jannatdan bo‘lishi, o‘sha yerning fazliga dalolat qiladi. Mazkur daryolar esa barakali bo‘lgani uchun jannat daryolari, deb nomlanganlar.

7. *G‘oyib va hozirni ajrata bilish* arab tilida:

### التقريب بين الغيب والشهادة

ya’ni «g‘ayb va shohid orasini ajrata olish», deb ataladi. Bu ham hadislarni yaxshi tushunish uchun zaruriy omillardan biri. Qur’onda xabari kelgan g‘ayb olami, ya’ni jannat, do‘zax kabilar bilan bu dunyodagi ko‘rinib turgan narsalarni ajrata bilish. Ya’ni jannat tavsiflanganda bu dunyodagi kabi bog‘larga mutlaq o‘xshatib tasavvur qilinishi ham to‘g‘ri bo‘lmaydi. Ko‘plab oyat va hadislarda u jannatlarning yerdagi bog‘lardan o‘ziga xos farq va afzalliklari borligi haqida aytilgan.

Ko‘pgina hadisi shariflarda g‘ayb olami haqida so‘z yuritilgan. Bular biz yashayotgan olamda ko‘zimizga ko‘rinmaydigan, masalan, farishtalar, jinlar, shaytonlar, iblisning lashkarlari, Arsh, Kursi, Lavhul Mahfuz, jannat, do‘zax kabi narsalardir. G‘ayb haqidagi hadislar asosan oxirat hayotiga oid masalalardir. Bu kabi masalalar imon shartlariga kiritilgan bo‘lib, mo‘min kishi ularni sharh va dalillarsiz qabul qilaveradi. Bu kabi hadislarni «aql bovar qilmaydi, shuning uchun qabul qilinmaydi», deyilmaydi.

Shuning uchun sahih hadisda kelgan bu kabi ma’nodagi so‘zlarni o‘zboshimchalik bilan sharhlagandan ko‘ra, bu ma’noni men tushuna olmayapman, deyish afzal. Islom tarixida Qur’on va hadisdagi ba’zi g‘aybiy narsalarni o‘z aqlлari bilan o‘lchab xulosa va hukm chiqarishga harakat qilgan guruuhlar orasida nizolar paydo bo‘lgan.

8. *Ko‘rinishidan bir-biriga zid bo‘lgan hadislarning mohiyatini tushuna olish* arab tilida:

### الجمع او الترجيح بين مختلف الحديث

ya’ni «Ixtilofli hadislarni o‘zaro jamlash va kuchlilarini ajrata bilish», deb ataladi. Hadislarni to‘g‘ri tushunish uchun kerak bo‘lgan omillardan biri. Ishonchlik darajasi teng bo‘lib, hukm olish mumkin bo‘lgan ba’zi hadislarni bir-biriga zohirda qarama-qarshi bo‘lib ko‘rinadi. Hadislarni sharhlayotgan kishi shu ikki hadisni bir nuqtada birlashtirib xulosa chiqarishi lozim bo‘ladi.

Hadis ilmiga oid mazkur jihatlarni bilish yuzlab hadislarni oson va to‘g‘ri tushunishga yordam beradi.

 **3. Hadislар Qur‘он oyatlarini sharhlaydi.** Hadislар Qur‘он oyatlarini tafsir qiladi, yoritadi, ulardagi buyruqlar, qaytarishlarning mohiyatini ochib beradi. Hadislар Qur‘он oyatlari mazmunlarini ochib berishida to‘rt holat mavjud:

1) Hadislар Qur‘он oyatlari mazmunlarini ta’kidlaydi. Masalan, «Musulmon kishining moli halol bo‘lmaydi, magar o‘z roziligi bilan bo‘lsa», – degan hadis **«Ey mo‘minlar, mollaringizni o‘rtalaringizda nohaq yo‘llar bilan yemangiz!»** (Niso, 29) oyatining mazmuniga ta’kiddir. Yana «Ayollar haqida Allohdan qo‘rqinglar. Zero ular oldingizdagi yordamchilardir. Ularni Allohnинг amonati sifatida olgansizlar. Allohnинг so‘zi bilan ularning farjlarini halol qilgansizlar», – degan hadis Qur‘ondagi **«Ular bilan xushmuomala bo‘lib, tinch-totuv yashanglar»** (Niso, 19) – degan oyatni ta’kidlaydi. Hadisda «Shubhasiz, Alloh taolo zolimga muhlat berib qo‘yadi. Agar uni (gunohi tufayli azob bilan) ushlaganda, najot topolmay qolardi», – degan hadis **«Parvardigoringiz (ahli-egalari) zolim bo‘lgan shaharlarni ushlaganida, mana shunday ushlar»** (Hud, 102) – degan oyatning mazmunini ta’kidlaydi.

2) Hadislар Qur‘он oyatlaridan iroda qilingan ma’noni bayon qilib, ochib beradi. Bunga misol – Qur‘onda namoz, zakot, ro‘za va haj ahkomlari umumiylar tarzd yaytib ketilgan. Ularning ma’nolarini hadislар batafsil sharhlab beradi. Shuningdek, Qur‘он oyatlari mutlaq (umumiylar tarzda) aytilgan hukmlarni hadislар muqayyad qilib (xoslab va aniqlab) beradi. Masalan, Qur‘onda kelgan ibodat bilan bog‘liq oyatlarning ko‘pchiligidagi ularning qanday amalgalashuvishini va vaqtlanri aniq ko‘rsatilmagan bo‘lib, mazkur tafsilotlari hadisda beriladi. Shuningdek, Qur‘onda umumni ifoda qilgan hukmlarni hadislар xoslab beradi. Masalan, «Imon keltirgan va O‘z imonlarini zulm bilan aralashtirmagan zotlar» – oyati karimasidagi «zulm» so‘zining ma’nosini umum deb tushungan sahobalardan ba’zilari: «Qaysi birimiz zulmdan saqlana olamiz?» – deb hayratga tushdilar. Shunda Rasululloh tomonidan bu oyat «Unday emas, bu oyatdagi zulmdan murod shirkdir», – deb shu xoslab berildi.

Qur‘он oyatlaridan anglashiladigan mushkilotni hadislар ravshanlashtirib beradi. Ramazon oyidagi saharlik bayon etilgan: «Va to tongdan oq ip bilan qora ip ajaraladigan paytgacha yeb-ichaveringlar», – oyat ma’nosini sahobalarning ba’zilari o‘zlaricha tushunganlar va yonlariga oq va qora

rangli iplarni qo‘yib olib, ular aniq ko‘zga ko‘rinadigan paytgacha yebichishda davom etganlar. Holbuki bungacha tong otib ketgan. Rasululloh «Ular kunduz va kechasidur», – deb oyatning ma’nosidan murod kunduzi bilan kechasining ajralish vaqtı ekanini ravshanlashtirib bergenlar.

3) Hadislar Qur’onda zikr etilmagan hukmlarni ham bayon etib beradi. Masalan, hadisdagi «(*Dengizingning*) suvi pok, unda yashaydigan hayvonlarning o‘ligi ham halol», – degan hukm Qur’on oyatlarda zikr etilmagan. «O‘tkir tishli vahshiy hayvonlar va o‘tkir tirnoqli vahshiy qushlar hamda xonaki eshak go‘shtining haromligi» haqida aytgan hadislar Qur’onda mavjud emas.

4) Hadislar Qur’ondan anglashiladigan ba’zi hukmlarni nasx (bekor) qiladi. Masalan, «Birovingizga o‘lim kelgan paytida agar u (o‘zidan keyin) mol-dunyo qoldirayotgan bo‘lsa,adolat-to‘g‘rilik bilan ota-onaga, qarindosh-urug‘ga vasiyat qilishi farz etildi. (Bunday vasiyat qilish) Allohdan qo‘rquvchilar ustidagi burchdir», – deyilgan oyatda vasiyat farz qilingan. «Merosxo‘r uchun vasiyat qilinmaydi», – degan hadis mazkur oyat hukmini nasx qiladi.

Sunnat Qur’on hukmlarini sharhlab, izohlab, unda ochiq-oydin aytilmagan, oyat ichiga kirmagan hukmlarni batafsilroq tushuntirib, tushunishni osonlashtirish uchun xizmat qiladi. Qur’on oyatlari ma’nosini hadislari bilan izohlash uch usul bilan amalga oshadi:

1) «*Ilhoq*» («*Qo‘srimcha*») qilish usuli. Bunda Qur’onda bir narsaning halolligiga, boshqa bir narsaning haromligiga hukm qilgan. Uchinchi bir narsa ham borki, uni halol narsalar qatoriga qo‘shiladimi, harom narsalar qatorigami, bu haqda oyatda hech narsa deyilmagan. Shu uchinchi narsani qaysi tomonga qo‘shilishini hadislar ajratib beradi. Bundan kelib chiqadiki, sunnat butunlay yangi narsani halol yoki haromligi haqida hukm qilsa ham, ammo mavzu bo‘yicha Qur’on oyatining sharhi, bayonidir.

*Masalan, Qur’onda pok narsalar halol qilingan va iflos narsalar harom qilingan. Ammo ba’zi narsalar borki, ular ikkovining orasida bo‘lib, halol tomonga qo‘sish ham, harom tomonga qo‘sish ham mumkin. Hadisda ana shu narsaning qaysi tomonga qo‘shilishi aniqlab beriladi. Bunga misol tariqasida hadisda* «O‘tkir tishli vahshiy hayvonlar va o‘tkir tirnoqli vahshiy qushlar hamda xonaki eshak go‘shtining haromligi» haqida: «Shubhasiz, ular haromdir», – deyilgan. Najosat va tezak yegani uchun hadisda sug‘ur go‘shti va sutini iste’mol qilishdan ham qaytarilgan.

Ammo, zob (cho'l echkiemari yoki kaltakesagi), cho'l kakligi, quyon kabi jonzotlarning go'shti halol deyilgan.

Yana bir misol: oyatda «**Ayting: «Sizlar uchun (barcha) pokiza narsalar va yana sizlarning ta'limingizni olgan jonivorlarning – Alloh sizlarga bildirgan narsalardan bildirib qo'lg'a o'rgatganingiz jonivorlarning (tutib keltirgan ovulari) halol qilindi»** (Moida, 5), – degan oyatda o'rgatilgan hayvon tomonidan tutilgan ovning go'shti halol qilingan. O'rgatilmagan hayvon tomonidan tutilgan ovning go'shti esa harom qilingan. Bunda hayvon o'zi uchun ovlagan narsani yeishdan qaytarilgan. O'rgatilgan hayvon ov ovlasa-yu, ovining bir qismini yeb qo'ysa, ovning qolgan qismi egasiga halolmi yoki yo'qmi, degan savolga quyidagi hadis javob beradi: «O'rgatilgan hayvon o'zi tutgan ovidan yesa, undan sen yemagin. Qo'rquamanki, u o'ljani o'zi uchun tutgan bo'lishi ehtimoli bor».

Qur'onda dengizdan tutilgan ov halol qilingan, ammo o'limtik esa harom qilingan. Agar o'limtik dengizdan topilsachi? «Dengizning suvi pok, o'limtiklari esa haloldir», – degan hadis suvda o'lgan dengiz hayvonlarini halol ekaniga hukm qilgan. Shuningdek, Qur'onda shar'iy so'yilgan hayvon go'shti halol qilingan, o'limtik go'shti esa harom qilingan. So'yilgan hayvon qornidan o'lik holda chiqqan bolasi haqida hadisda: «Onasining so'yilishi bolasining ham so'yilishidir», – deb halolga hukm qilingan.

2) «Qiyos» usuli. Qur'onda bir hukm kelgan. Hadisda sabablari bir xil bo'lgan boshqa hukmni unga qiyos qilib qo'shilgan. Unga misollar:

Oyatda opa-singilni bir nikohda jamlash, ya'ni bir kishi ikkalasini bir vaqtda o'z nikohiga olishi harom qilingan (qarang: Niso, 23). Bundan murod qarindoshlik rishtasining uzilishidan saqlash edi. Rasululloh tomonidan opa-singilga qiyos qilib, nikohida bo'lgan ayolning ammasi va xolasini ham bir nikohda jamlashni man etildi va: «Albatta sizlar, agar shunday qilsangizlar (ayol bilan ammasi yoki ayol bilan xolasini bir nikohda jamlasangizlar), qarindoshlik rishtasini uzasizlar», – deyildi (Ibn Hibbon rivoyati).

Qur'onda «**Emizgan onalarigiz, emishgan opa-singillaringiz (ni nikohlab olish sizlarga harom qilindi)**» (Niso, 23), – deb shu ikki toifa ayolga, aslida begona bo'lsa ham, sut hurmatidan ularga uylanish haromligi bayon etilgan. Hadisda ularga qiyos qilinib, emizgan onaning opa-singillari, ya'ni xolalarni, ammalarni, emishgan aka-uka, opa-singillarning qizlarini ham nikohga olish harom ekanligi aytilib: «Albatta Alloh taolo nasabdan nimani harom qilgan bo'lsa, razo'dan (emishishdan) shuni harom qildi», – deyiladi (Imom Termiziyy rivoyati).

3) «Istinbot va ijтиход» усали. Qur’onda umumiylar ma’no bayon qilgan bir necha oyatlardan hadisda ijтиход asosida qisqa, lo’nda xulosalar bayon etilgan. Masalan, Qur’onda ixlos madh etilgan, riyokorlik mazammat qilingan bir necha oyatlar, jumladan: «**Holbuki, ular faqat Yagona Allohga, U Zot uchun dinni xolis qilgan, to‘g‘ri yo‘ldan og‘magan hollarida ibodat qilishga... buyurilgan edilar**» (Bayyina, 5), «**Bas, kim Parvardigoriga ro‘baro‘ bo‘lishidan umidvor bo‘lsa, u holda yaxshi amal qilsin va Parvardigoriga bandalik qilishda biron kimsani sherik qilmasin!**» (Kahf, 110), «**Albatta munofiqlar do‘zaxning eng tuban joyida bo‘lurlar**» (Niso, 145) mazmunidagi oyatlardan hadisda iqtibos va ijтиход qilingan bo‘lib: «Shubhasiz, amallar niyatga qarab bo‘ladi. Va shubhasiz, har bir odam uchun niyat qilgani bo‘ladi», – degan hadis aytildi.

Shuningdek, «**Ularga (ayollarga) zulm qilish bilan zarar yetkazish uchun ushlab turmangiz!**» (Baqara, 231), «**Bolalari sababli ota ham, ona ham zarar ko‘rmasin!**» (Baqara, 233), «**Ularni (taloq iddasida bo‘lgan ayollarni turgan joylaridan) qisib chiqarish uchun ularga ziyon yetkazmanglar!**» (Taloq, 6), «**Va bergen mahrlaringizning bir qismini qaytarib olish uchun xotinlaringizni (boshqa erga tegishdan) to‘sib turib olmanglar!**» (Niso, 19), «**Va na kotib, na guvohga zarar yetmasin**» (Baqara, 282), mazmunidagi oyatlardan iqtibos olib, Rasululloh tomonidan: «O‘zing ham zarar ko‘rma, birovga ham zarar yetkazma», - degan hadis rivoyat qilingan.



***Hadislar Qur’on oyatlарини тafsir qiladi, yoritadi, ularдаги buyruqlar, qaytarishlarning mohiyatini ochib beradi.***

Yuqorida keltirilgan uch usul - *ilhqoq qilish*, qiyoslash, istinbot va ijтиход hamda ularning har biriga keltirilgan misollardan ko‘rinadiki, sunnat Qur’on oyatlari ma’nolarini izoh va bayon qilib beradi.

## HADIS

**وَقَالَ النَّبِيُّ صَلَّى اللَّهُمَّ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ: الْحَيَاءُ مِنَ الْإِيمَانِ**

**Nabiy s.a.v. aytdilar: Hayo imondandir.**

## Mavzu bo'yicha savollar

1. Muhaddislar hadis o'rganishda nimalarga e'tibor bergenlar?
2. Hadis ilmi odoblarining qanday umumiy va xususiy shartlari mavjud?
3. Olim Asmaiyl hadis o'rgatuvchi va o'rganuvchiga lozim bo'lgan qanday to'rt xislat haqida gapiradi?
4. Hadislarni to'g'ri anglash qanday omillar bilan bog'liq?
5. Hadislardagi majoz va haqiqatni ajrata bilishning ahamiyati nimada?
6. Qur'on hukmlari va hadislarni o'rtaSIDA qanday bog'liqlik bor?
7. Hadislarni sharhlashda tarixni bilishning qanday ahamiyati bor?
8. Oyatlarni ma'nosini hadislari bilan izohlash qanday usullar bilan amalga oshiriladi?



## Topshiriqlar

1. Hadislarni rivoyat qilishda e'tibor berilishi lozim bo'lgan masalalar haqida gapiring.
2. Hadislarni tinglash va ularni boshqalarga yetkazish bilan bog'liq bo'lgan mavzulardagi hadislardan misol keltiring.
3. Qur'on oyatlari mazmunlarini ta'kidlovchi hadislarni toping.
4. Qur'on oyatlari ma'nosini hadislari bilan izohlash usullarini aytинг.

## Mustaqil ish mavzulari

1. Doktor Mahmud Tahhonning «Taysir mustalah al-hadis» asari.
2. Sunnat - Qur'on oyatlari ma'nolarini izohlash usuli sifatida.
3. Ibn Saloh va uning «Ulum al-hadis» asari.
4. Muhaddis va shogird odoblari.



## Adabiyotlar

1. Ҳадиси Құдсий. / Масъул Мұхарріп: Абдуллох Исмоил Махдум. – Т.: Мовароуннахр, 1996.
2. Jaloluddin as-Suyutiy. Tadrib ar-roviy fi sharh taqrib an-Nawoviyy. 2 jildli. Dimashq: Dor al-fikr, 1996.
3. Ibn Arabiy. Oridat al-Ahvaziyy bi sharh jome' at-Termiziyy. – Bayrut. Dor al-fikr, 1995.
4. Ibn Hajar al-Asqaloniy. Tahzib at-tahzib. – Bayrut. Dor al-kutub al-islomiya, 1994.

5. Ibn Hajar Asqaloni. Nuzhat an-nazar sharh nuxbat al-fikar. – Bayrut: Nashr yili ko'rsatilmagan.
6. Ibn Xallikon. Vafayot al-a'yon va anba abno az-zamon. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya, 1998.
7. Ibrohim ibn Muhammad. Al-Bayon va at-ta'rif fi asbob vurud al-hadis ash-sharif. – Bayrut: Al-maktaba al-ilmiya. 1982.
8. Ibn Hajar Asqaloni. Hady as-soriy muqaddima fath al-boriy. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya, 1997. 1-juz.
9. Muhammad Jamoliddin Qosimi. Qavoid at-tahdis. – Bayrut. Dor al-kutub al-ilmiya, nashr yili ko'rsatilmagan.
10. Xatib Bag'dodiy. Al-Jome' li axloq ar-roviy va adab as-some'. – Ar-Riyod. Maktaba ma'orif, 1983. 1-2 juzlar.

**REJA:**

1. Sunnat islom dini manbasi sifatida.
2. Islom ilmlari orasida sunnatning tutgan o'rni.
3. Sunnatning vazifalari.

 **Tayanch iboralar:** *hujjat, istinbot, xabar, osor, balog'at, musnid, hokim, hofiz*

 **1. Sunnat islom dini manbasi sifatida.** Islom dinining bиринчи manbasi Qur'oni karim bo'lsa, ikkinchisi hadislardir. Hadislар orasida fiqhiy hukmlarnи yechishda istifoda etiladigan qismi ko'proq «sunnat» so'zi bilan yuritiladi. «Hadis» va «sunna» («sunnat») so'zlari ko'pincha yonma-yon, ba'zan esa bir-birining o'rmini almashtirib keladi. «Sunna» so'zining lug'aviy ma'nosi – «odat», «tariqa», «yo'l» bo'lib, istilohda Payg'ambar odatlari, tutgan yo'llari, taqrir, ya'ni ko'rib qaytarmagan va buyurgan ishlariga nisbatan ishlatiladi. Boshqacha qilib aytganda, bu istiloh Muhammad (s.a.v.) turmush tarzlarini anglatadi. «Hadis» va «sunnat» istilohlarini chuqur o'rganish ular haqida atroflicha tushunchaga ega bo'lishga yordam beradi.

Ulamolar sunnat ham Qur'on oyatlari kabi Alloh tarafidan Rasulullohga farishta Jabroil alayhissalom orqali nozil qilingan «vahiy»ning o'ziga xos bir turi ekanini ta'kidlaydilar. Ya'ni Alloh taolo o'z Payg'ambariga bildirgan narsalarni u kishi tomonidan amalga oshirilgan. Rasululloh gapirgan so'zlarning barchasi vahiy ekaniga Qur'oni karimdagi quyidagi oyatlar dalil qilinadi:

ىَ حَوِيْ يَخُوَّ لَا وَهُنْ إِ وَهَلْنَ نِ عَقْ طَنْيَ امَوْ يَ وَغَ امَوْ مُكْبَحَاصَ لَضَّ امَهِ

«Sizlarning sohibingiz (Muhammad) zalolatga ketgani ham yo'q, yo'ldan ozgани ham yo'q! (Yana u Qur'онни) xом xayoldan olib so'zlayotgани yo'q. U (Qur'on) faqat (Alloh tomonidan) nozil qilinayotgan (tushirilayotgan) bir vahiydir» (Najm, 2-4).

Mazkur oyatda kelgan «vahiy qilinayotgan vahiy» iborasi ba'zi ulamolar tomonidan «Qur'ondir», deb talqin etilsa, boshqalari tomonidan «Payg'ambar alayhissalom gapirgan barcha so'zlari», deb tafsir qilinadi. Har holda Rasululloh aytgan so'zlari oddiy emas, balki ilohiy xususiyatga ega ekanı hadislarda ham ta'kidlanadi. Masalan, tobi'iy Hasson ibn Atiya

shunday rivoyat qiladi: «Hazrat Jabroil alayhissalom Rasululloh (s.a.v.) ga Qur’onni olib tushganidek sunnatni ham olib tushardi va Qur’onni o’rgatganidek sunnatni ham ta’lim berardi». Shuningdek, Makhul (rz.a) aytadi: «Rasululloh (s.a.v.): «Alloh menga Qur’onni berdi va uning ikki barobaricha hikmatni ham», dedilar (Ikkala hadis Ibn Mojja rivoyati).

Yuqorida keltirilgan oyat va hadislardan ma’lum bo’lishicha, sunnat Qur’oni karim kabi ilohiy vahiyning bir ko’rinishi hisoblanadi. Ammo «sunnati nabaviya»ning Qur’oni karimdan farqli jihatlari ham mavjud, ya’ni «sunnat»ning ma’nosi Alloh huzuridan nozil bo’lgan, lafzi esa Rasululloh (s.a.v.)ga mansubdir. Shu sababli sunnatni so‘zma-so‘z emas, balki umumiy ma’nosi chiqadigan darajada rivoyat qilish mumkin. Ammo Qur’on oyatlaridan iqtibos keltirganda biror harfini ham o‘zgartirmay berish talab etiladi. Sunnat farishtaning vositasi bilan uyquda ham, uyg‘oqlikda ham nozil bo’lishi mumkin. Shuning uchun, uning lafzi Qur’ondan farqli mo‘jiza emas, tilovati ham ibodat emas.



*Sunnat Qur’oni karim kabi ilohiy vahiyning bir ko’rinishi bo’lib, Qur’ondah farqi shundaki, uning ma’nosi Alloh huzuridan nozil bo’lgan, lafzi esa Rasululloh (s.a.v.)ga mansubdir.*

Islom tarixida sunnatni rad etib, «biz faqat Qur’ongagina ergashamiz» degan da’volar bilan chiqqan toifalar ko‘p bo’lgan. Ularning maqsadlari islom dinining asosiy mohiyatini o‘zida mujassam qilgan Payg‘ambar hadislari, amalda ko‘rsatgan namunalari, Qur’onga bergan sharhlarini inkor etib, oyatlarni o‘z manfaatlariga mos ravishda talqin etish edi. Ulamolar musulmonlar orasidagi birlikni saqlab qolish uchun sunnatni tan olmaydigan guruhlar iddaolariga birlamchi diniy manba – Qur’on oyatlari bilan va mantiqiy asosda raddiyalar berdilar.

Tafsir kitoblarida berilishicha, Qur’onda hadis «hikmat» so‘zi bilan berilgan. Masalan «Jum’a» surasining 2-oyatida shunday deyiladi: «**U (Alloh) omiylar (savodsiz kishilar) orasiga o‘zlaridan bo’lgan, ularga (Uning) oyatlarini tilovat qiladigan, ularni (shirk va jaholatdan) poklaydigan hamda ularga Kitob (Qur’on) va Hikmat (hadis)ni o’rgatadigan (bir) payg‘ambarni (Muhammadni) yuborgan zotdir**».

Sunnat islomning asosiy manbalaridan ekaniga quyidagi Qur’on oyatlari dalolat qiladi:

1. (Ey Muhammad,) ayting: «Agar sizlar Allohnin sevsangiz, menga ergashinglar. (Shunda) Alloh sizlarni sevadi va gunohlariningizni mag‘firat qiladi, Alloh kechiruvchi va rahmlidir» (Oli Imron, 31).

2. (Ey Muhammad,) Parvardigoringizga qasamki, to ular o‘z o‘rtalarida chiqqan kelishmovchiliklarda Sizni hakam qilmagunlaricha va keyin Siz chiqargan hukmdan dillarida hech qanday tanglik topmay, to‘la taslim bo‘lmaq unlaricha-bo‘yinsunmagunlaricha zinhor mo‘min bo‘la olmaydilar (Niso, 65).

3. Kimki payg‘ambarga itoat etsa, demak, Allohga itoat etibdi (Niso, 80).

4. (Payg‘ambarning) amriga xilof ish qiladigan kimsalar o‘zlariga biron fitna-kulfat yetib qolishidan yoki alamli azob yetib qolishidan hazir bo‘lsinlar! (Nur, 63).

5. Albatta sizlar uchun Allohnинг Payg‘ambarida go‘zal namuna bordir (Ahzob, 21).

6. Alloh va Uning payg‘ambari bir ishni hukm qilgan-buyurgan vaqtida biron mo‘min va mo‘mina uchun (Allohnинг hukmini qo‘yib) o‘zlarini xohlagan ishlarini ixtiyor qilishlari joiz emasdir. Kim Alloh va Uning Payg‘ambariga osiy bo‘lsa, bas, u ochiq yo‘ldan ozish bilan yo‘ldan ozibdi (Ahzob, 36).

7. Payg‘ambar o‘zi sizlarga ato etgan narsani olinglar, U zot sizlarni qaytargan narsadan qaytinglar (Hashr, 7).

8. Sizga esa odamlarga nozil qilingan narsalarni (ya’ni, Shariat ahkomlarini) bayon qilib berishingiz uchun va shoyad tafakkur qilsalar, deb bu Eslatmani – Qur’onni nozil qildik (Nahl, 44).

Islom dinida sunnatning qat’iy dalil ekaniga mazkur oyatlar hujjat sifatida keltiriladi. Sunnatning asosiy vazifalaridan biri Qur’onni sharhlab, bayon qilib berishdan iborat. Shundan kelib chiqib, sunnatga amal qilish Qur’onga amal qilish bilan barobar hisoblanadi. Ba’zi g‘arazli kimsalar Madina ulamolaridan bo‘lgan Mutrif ibn Abdullohga (IX asr): «Bizga hadis rivoyat qilmasdan, faqat Qur’ondan gapiring», – deyishdi. Mutrif unga: «Men ham Qur’onga biror narsani badal qilmayman, ammo Qur’onni o‘zimdan bilimdonroq odam (ya’ni, Rasululloh)ning gaplari bilan gapiraman» – deb javob berdi.

Sahoba Abdulloh ibn Mas’ud Alloh yaratgan xilqatni, ya’ni o‘z qiyofasini buzib, o‘zgartirgan ayollar haqidagi hadisni aytdi. Bu gapni Bani Asad qabilasidan bo‘lgan bir ayol eshitib keldi va Abdulloh ibn Mas’uddan:

– Sen pardoz qilgan ayol haqida yomon so‘z aytdingmi? – deb so‘radi. Abdulloh ibn Mas’ud dedi:

– Rasululloh (s.a.v.) aytgan gapni men nima uchun aytmayman, holbuki, Qur’onda borku! – Ayol:

– Men Mus’hafning ikki muqovasi orasini (ya’ni, hammasini) o‘qib chiqdim, ammo bunday gapni topmadim, – dedi. Abdulloh ibn Mas’ud ayolga dedi:

– Agar o‘qib chiqqan bo‘lsang toparding. «**Payg‘ambar o‘zi sizlarga ato etgan narsani olinglar, U zot sizlarni qaytargan narsadan qaytinglar**» (Hashr, 7), – degan oyatni o‘qimadingmi? Rasululloh (s.a.v) qiyofani o‘zgartirishdan qaytargan edilar.

Rivoyat qilinishicha, Tovus ibn Kayson (r.a.) asr namozidan so‘ng ikki rakat nafl o‘qirdi. Abdulloh ibn Abbos (rz.a.):

– Asrdan so‘ng nafl o‘qima! – deb Tovusni qaytardi. Tovus:

– Rasululloh (s.a.v.) sunnatga aylanib qolmasin, deganlar, – dedi. Ibn Abbos (rz.a.) unga:

– Rasululloh (s.a.v) asr namozidan keyin namoz o‘qishdan qaytargan edilar. Bilmayman, bu o‘qigan ikki rakat uchun jazo olasanmi yoki ajr olasanmi? Chunki, Alloh Ahzob surasida (36-oyat) shunday degan: «Alloh va Uning payg‘ambari bir ishni hukm qilgan-buyurgan vaqtida biron mo‘min va mo‘mina uchun (Allohnинг hukmini qo‘yib) o‘zları xohlagan ishlarini ixtiyor qilishlari joiz emasdir».

Sunnat islom dinining asosiy manbalaridan biri ekaniga yuqoridagi Qur’on oyatlari ham dalil sifatida keltiriladi.

Hadislarda ham sunnat islomning ikkinchi asosiy manbasi ekaniga dalolat qiluvchi dalillar mavjud. Xususan, «Hajjat al-vado» («Vidolashuv haji») xutbasida Payg‘ambar (s.a.v.) shunday deydilar: «Sizlarga ikki narsani qoldiryapman, agar ularni mahkam ushlasangiz, haq yo‘ldan hech qachon adashmaysizlar. Biri Allohnинг Kitobi, ikkinchisi mening sunnatimdir».

Shuningdek, Payg‘ambar (s.a.v.) Muoz ibn Jabalni Yamanga yuborayotganlaridagi suhabat ham sunnatning manba ekaniga dalil qilib keltiriladi. Imom Termiziy rivoyat qilgan ushbu hadisda Muoz hukm chiqarishda birinchi o‘rinda Allohnинг kitobi, keyingi o‘rinda Rasulullohning sunnati bilan ish tutishini aytganida uni bu fikri Payg‘ambar (s.a.v.) tomonidan qo‘llab-quvvatlangan edi.

Islomning asosiy ta’limoti va qonun-qoidalari Qur’oni karim oyatlarda zikr etilgan bo‘lsa, sunnatda ularning tafsiloti keladi. Zero, hadislarda kelgan

buyruqlar, qaytariqlar, ko'rsatilgan namunalar, sahobalarning amallariga bildirilgan munosabatlar asosida diniy yo'l shakllangan. Shu sababli ham sunnat Qur'on oyatlari bilan bir qatorda diniy dalil sifatida tan olinadi.

Sunnat islam manbalaridan biri deb qat'iy belgilangani sababli, ayrim guruhlar tomonidan faqat Qur'oni tan olish da'vosi bilan sunnatni rad etilishi aqidavii jihatdan imon talablariga ziddir.

 **2. Islom ilmlari orasida sunnatning tutgan o'rni.** Sunnatga islomning turli ilm sohalari namoyandalari o'ziga xos tarzda yondashadilar. Islom ilmlari vakillari bir-biridan farqli sohalar bilan shug'ullanganliklari sababli ular sunnatni o'z sohalari nuqtai nazaridan kelib chiqib tushunadilar va ifodalarydilar.

«Usul al-fiqh» ulamolari sunnatni «shar'iy hujjat» sifatida qabul qiladilar. Unga ko'ra, Rasululloh (s.a.v.)ning qilgan ishlari, aytgan so'zлari va sahobalarning amallariga munosabatlari sunnat bo'lib, ular diniy qonun-qoidalar uchun asos vazifasini o'taydi. Boshqacha qilib aytganda, faqihlar nazdida Payg'ambar (s.a.v.) qonun chiqaruvchi «mujtahid»lar uchun asos qo'yuvchi vazifasini bajargan. Shu sababli ular Rasulullohdan yetib kelgan rivoyatlarni o'z asarlarida hukm chiqarish uchun asos qilib olganlar.



*Islomning asosiy ta'limoti va qonun-qoidalari Qur'oni karim oyatlarida zikr etilgan bo'lsa, sunnatda ularning tafsiloti keladi. Zero, hadislarda kelgan buyruqlar, qaytariqlar, ko'rsatilgan namunalar, sahobalarning amallariga bildirilgan munosabatlar asosida diniy yo'l shakllangan.*

Shuningdek, usul ulamolarining ba'zilari «Rasululloh (s.a.v.)ning as'hablari qilib yurgan ishlarning hammasi, jumladan Qur'oni mus'haf qilish, hadislarni tadvin qilish kabilar ham sunnat bo'ladi, bu narsa Qur'onda va Rasululloh (s.a.v.) qilgan ishlari orasida bo'lsa ham, bo'lmasa ham», – deya ta'kidlaydilar. Bunga Imom Muslim Rasululloh (s.a.v.)dan rivoyat qilgan ushbu hadisni dalil keltiradilar: «Mening sunnatimni va mendan keyingi roshid xalifalarimning sunnatlarini mahkam ushlanglar!»

Masalan, Ahmad ibn Hanbal rivoyat qiladi: «Ali ibn Abu Tolib (ra) Abdulloh ibn Ja'farga mast qilguvchi ichimlik ichgan kishini qirq marta urdirdi va: «Bas, yetadi. Rasululloh (s.a.v.) va Abu Bakr Siddiq qirq martadan urdirganlar, Umar ibn Xattob uni saksontaga chiqargan, hammasi sunnatadir», dedi». «Usul al-fiqh» ulamolarining ta'kidlashlaricha, mazkur

rivoyatdagi voqeа, Umar ibn Xattobning maslahati bilan Mus'hafning yig'ilishi, yetti qiroatdan bir qiroatga o'tilishi, hadislarning jamlab yozilishi va shu kabi sahabalar maslahati bilan ma'qullangan ishlar ham sunnat qatorida sanaladi.

«Furu' al-fiqh» ulamolari Rasulullohning amallarini shar'iy hukmga dalil sifatida o'r ganadilar. Chunki ular bandalarning amallariga «vojib», «halol» yoki «harom» ekanligi nuqtai nazaridan qaraydilar. Bunda ular Payg'ambar (s.a.v.)ga ergashish va ajr-savobga ega bo'lish uchun amal qiladilar. Shu nuqtai nazardan, ular o'z asarlarida amal qilinishi kerak bo'lgan shariy hadislarni o'z kitoblarida keltirganlar.

Hadis ulamolarining nazdida Rasululloh (s.a.v.)ning so'zлari, fe'llari, taqrirlari – sahabalarning qilganlariga munosabatlari, jismoniy va xulqiy sifatlari, safarda o'zlarini tutishlari, payg'ambarlik vahiyasi kelishidan oldingi qilgan ishlar. Masalan, Hiro g'orida qilgan zikr-sanolari, odamlar bilan qilgan muomalalari, chiroqli xulqlari va fe'llari, xalq orasida rostgo'ylik va omonatdorlik bilan nom chiqarishlari haqidagi rivoyatlar ham sunnat bo'lib, ular Rasululloh (s.a.v.)ning payg'ambarliklarini isbotlashga xizmat qiladi. Bunday tarixiy rivoyatlarga asoslangan sunnat ham Rasululloh (s.a.v.)dan eshitib rivoyat qilingan «hadisi nabaviy» bilan barobardir.

Muhaddislar Rasululloh (s.a.v.)ni to'g'ri yo'lga boshlovchi imom deb bilganlar va u kishining aytgan so'zлari, qilgan ishlar, siyratlari, xulqlari va ma'qullagan ishlarining barchasini o'z kitoblarida keltirganlar. Shuning uchun muhaddislarning hadis to'plamlarida aqida, hukm, riqoq (nafosat), odob-axloq, tafsir, tarix (payg'ambarlar tarixi) va siyrat (Rasululloh siyratlari), Payg'ambar (s.a.v.)dan so'ng vujudga kelgan va kelajakda bo'ladigan «fitnalar», turli kishilarga tegishli «manoqib» (fazilatlar) va «masolib» (nuqsonlar)ga doir hadislari keltiriladi.

«Va'z va irshod ulamolari»ning ta'rificha, «sunnat – shariat buyurgan va qaytargan hukmlar, ya'ni bid'atning muqobilidagi amal», – deydilar. Hadis ilmiga oid asarlarda «Va'z va irshod ulamolari» nomi bilan berilgan ushbu guruh namoyandalarini hadislarni o'r ganish bilan bir qatorda o'z oldilariga odamlarga va'z-nasihat, xutbalar o'qish orqali odamlarni hadislardan xabardor qilish vazifasini qo'ygan kishilar edilar. Ularning ta'kidlashlaricha, bir musulmon kishi Rasululloh (s.a.v.)ning o'rgatganlariga muvofiq amal qilsa, bu qilgan amali Qur'on oyatlari mavjud bo'lmasa ham, uning bajargani sunnatdir. Qilingan amal Rasululloh (s.a.v.)ning ta'limotlariga muxolif bo'lsa, uning qilgan amali bid'at hisoblanadi.

Islom dinida sunnatning ahamiyati katta ekanini ko'rsatib berish uchun ulamolar quyidagi jihatlarni sanab o'tganlar:

1) Rasulullohdan bilmaydigan narsalari so'ralsa, Allohdan vahiy kelishini kutib sukut saqlardilar;

2) Rasululloh biror muhim masalani tushuntirsalar, tinglovchilar yaxshi anglab olishlari uchun uni uch marta takrorlardilar;

3) Rasululloh ba'zi masalalarni sahabalar hukmiga tashlab, ularning aql-idrok darajalari, ilmlarini sinash bilan birga ularning fikr-mulohazalarini olardilar;

4) Rasululloh biror savolga javob bersalar, shu maqomga mos keladigan yoki javob bilan bog'liq bo'lgan boshqa masalalarni ham so'zlab o'tardilar;

5) Rasululloh din haqida ta'lif berish orasida tinglovchilarda malollik paydo bo'lmasligi uchun suhbat orasida qiziqarli mav'izalar bilan mavzuni o'zgartirib turar edilar. Abdulloh ibn Mas'udning shogirdlari u kishidan har kuni muntazam hadis rivoyat qilib berishni so'rdilar. Shunda Ibn Mas'ud (rz.) rozi bo'lmay: «Rasululloh (s.a.v.) bizlarda malollik paydo bo'lmasligi uchun din ta'lifi orasini mav'izalar bilan uzib turardilar», deb javob berdilar.

6) Rasululloh ba'zi masalalarni alohida «xos» sahabalarga chuqur tushuntirib bergenlar. Bunda ba'zi boshqa sahabalar yaxshi tushunmay qolib fitnaga sabab bo'lmasligi uchun ularni kiritmas edilar.

Ushbu sanab o'tilganlardan sunnat musulmonlarga Payg'ambar (s.a.v.) tomonidan qoldirilgan hidoyatga boshlovechi pand-nasihat, ko'rsatma sifatida vorid bo'lganini va islom dinida alohida ahamiyatga ega ekanini ma'lum bo'ladi. Bu dalillar Qur'onidan tashqari narsalar qatorida sunnatni inkor etuvchilarga raddiya bo'ladi.

 **3. Sunnatning vazifalari.** Qur'onda kelgan ko'p oyatlarning mazmuni umumiy bo'lib, ba'zan ularda bayon qilingan maqsadni ochiq-oydin tushunib olish qiyin bo'ladi. Islom dinida Payg'ambar (s.a.v.)ning asosiy vazifalaridan biri ilohiy vahiyini insonlarga batafsil tushuntirib berishdan iborat edi. Bu haqda Qur'oni karimning Nahl surasi, 44-oyatda ham ta'kidlanadi: «Sizga esa odamlarga nozil qilingan narsalarni (ya'ni, Shariat ahkomlarini) bayon qilib berishingiz uchun va shoyad tafakkur qilsalar, deb bu Eslatmani – Qur'oni nozil qildik».

Islom manbalarida kelgan mazkur dalillarga asoslanib, hadis ilmi olimlari sunnatni islomning ikkinchi manbasi ekanini ta'kidlaydilar. Shu nuqtai nazardan sunnatning o'ziga xos ishlatalish xususiyatlari va vazifalari

mavjud ekani ma'lum bo'ladi. Fiqhiy asarlarda sunnatning xususiyatlaridan kelib chiqib undan mustaqil diniy manba sifatida diniy masalalarda hukm olishda dalil tarzida foydalilaniladi.

Islom dinida sunnatning o'rni yuqori ekanini ulamolarning bildirgan fikrlaridan ham ko'rish mumkin. Sunnat Qur'oni karimning tafsiri, sharhi, izohi, Rasululloh birinchi mufassir bo'lgani uchun faqih Ibn Hazm shunday deydi: «Agar bir kishi biz faqat Qur'ondan topgan hukmlarmizga amal qilamiz desa, u ummat ijmosi bilan kofir bo'ladi».

Islom ta'limotiga ko'ra, erkak kishiga tilla taqinchoqlarni taqmaslik, ipak kiyim kiymaslik lozimligi va shu kabi masalalarning hukmi Qur'onda kelmagan, balki sunnatni nabaviy orqali sobit bo'lgan. Shunga qaramay, ya'ni «Qur'onda kelmagan», deb mazkur hukmlar dinda inkor etilmaydi. Tobi'iylardan bo'lgan Ayyub Saxtiyoniy (vaf. 68/687 y.) aytadi: «Agar bir kishiga sunnat haqida gapirilsa, u «shuni qo'ygin, menga Qur'ondan gapirgin» desa, bilingki u o'zi adashgan va boshqalarni ham dashtiruvchidir» degan.

Yuqoridagi hujjat va dalillardan kelib chiqib aytish mumkinki, sunnatni nabaviy Qur'oni karim kabi mustaqil manba va u Qur'on uchun sharh va tafsilotdir.



*Sunnat Qur'oni karim kabi mustaqil manba va u Qur'on uchun sharh va tafsilotdir.*

Sunnat Qur'oni karim oyatlarini tafsir qilish, ulardag'i hikmatni ochib berishida to'rt holatni ko'rish mumkin:

- I. Sunnat oyat mazmunini ta'kidlaydi;
- II. Oyatlardan iroda qilingan ma'noni bayon qilib (ochib) beradi;
- III. Qur'onda zikr etilmagan hukmlarni bayon etib beradi;
- IV. Qur'on oyatlaridan anglashiladigan ba'zi hukmlarni nasx (bekor) qiladi.

Yuqoridagi birinchi holatga misol tariqasida «Musulmon kishining moli agar o'z rozi bo'lmasa halol bo'lmaydi», – degan hadisni keltirish mumkin. U Qur'ondagi «Ey imon keltirganlar! Mol-mulkaringizni o'rtada nohaq (yo'llar) bilan yemangiz!» (Niso, 29) oyatining mazmuniga ta'kiddir. Shuningdek, «Ayollar haqida Allohdan qo'rninglar. Zero ular oldingizdagi yordamchilardir. Ularni Allohning omonati sifatida olgansizlar. Allohning so'zi bilan ularning farjlarini halol qilgansizlar»,

– degan hadis Qur’ondagi «**Ular bilan totuv turmush kechiringiz»** (Niso, 19) oyati karimani ta’kidlab keladi. Yana bir misol shuki, «Shubhasiz, Alloh taolo zolimga muhlat berib qo‘yadi. Agar uni ushlaganda, najot topolmay qolardi», – degan hadis «**Aholisi zolim yurtlarni (azobga) tutganda Rabbingizning tutishi shundaydir**» (Hud, 102) degan oyatning mazmunini ta’kidlaydi. Shuningdek, namoz, ro‘za, haj kabi islam arkonlari zikr etilgan «**Namozni barkamol o‘qing, zakot bering!**» (Baqara, 83), «**Ey imon keltirganlar! Sizlardan oldingi (ummatt)larga farz qilingani kabi sizlarga ham ro‘za tutish farz qilindi**» (Baqara, 183), «**Yo‘lga qodir bo‘lgan odamlar zimmasida Alloh uchun Baytni haj qilish (farzi) bordir**» (Oli Imron, 97) degan oyatlarni shart va ruknlarini izohsiz va sharhlamasdan ta’kidlab keladi. Jumladan, Imom Buxoriy rivoyat qilgan hadisda shuday deyiladi: «Islom besh narsaning ustiga qurildi: Allohdan o‘zga iloh yo‘q, Muhammad Allohnинг rasuli, deb guvohlik berish, namoz o‘qish, zakot berish, ramazon ro‘zasini tutish va yo‘lga qodir kishi uchun baytni haj qilish».

Ikkinchi holatga ko‘ra sunnat Qur’on oyatlaridan iroda qilingan ma’noni bayon qilib beradi. Bu kabi bayon qilishning yetti xil turi sanab o‘tilgan:

1) Qur’on oyatlarida ahkomlari umumiy keltirilgan namoz, zakot, ro‘za va haj kabi amallarning tafsiloti sunnatda keladi;

2) Qur’on oyatlarida umumiy tarzda aytilgan hukmlarni, sunnat xoslab va aniqlab beradi. Masalan, oyatda «**Alloh farzandlaringizga (meros taqsimida) bir o‘g‘il uchun ikki qiz ulushi barobarida (berishni) buyuradi**» (Niso, 11) deyilgan bo‘lsa-da, kimgarga bu hukm tegishli emasligi hadisdan ma’lum bo‘ladi. Jumladan, Sahih Muslimda kelgan hadisda «Biz (payg‘ambarlar) meros qoldirmaymiz, biz tark qilgan narsa sadaqadir» deyilgan. Sunan Termiziyya esa «Qotil meros olmaydi», degan hadis kelgan.

3) Qur’on oyatlarida umumni ifoda qilgan hukmlarni sunnat xoslab beradi. Masalan, «**Imon keltirgan va imonlariga zulm (shirkni) aralashtrigmaganlar...**» (An’om, 82), oyati karimasidagi «zulm» so‘zining ma’nosini umum deb tushungan sahabalardan ba’zilari: «Qaysi birimiz zulmdan saqlana olamiz?», deb hayratga tushishdi. Rasululloh «Unday emas, bu oyatdagi zulmdan murod shirkdir», deb zulm so‘zining ma’nosini xoslab berdilar.

4) Tushunilishi qiyin bo‘lgan Qur’on oyatlarini ravshanlashtirib beradi. Masalan, «**Shuningdek, tonggacha, ya’ni oq ipning qora ipdan (tongning**

**tundan) ajaraladigan vaqtigacha yeb-ichaveringiz»** (Baqara, 187) oyati ma’nosini Adiy ibn Hotam kabi ba’zi sahabalar o‘zlaricha tushunib, yonlariga oq va qora rangli iplarni qo‘yib olib, ular aniq ko‘zga ko‘rinadigan paytgacha yeb-ichishda davom etganlar. Holbuki, bungacha tong otib ketgan. Rasululloh «Ular kunduz va kechasidur», deb oyatning ma’nosidan murod kunduzi bilan kechasi ekanini aniqlashtirib bergenlar.

5) Qur’onda kelgan hukmlardan qoidalar chiqaradi. Masalan, «**Bolalari tufayli ota ham, ona ham zarar ko‘rmasin!**» (Baqara, 233), «...va ularni (turgan joylaridan) siqib chiqarish maqsadida ularga zarar yetkazmangiz!» (Taloq. 6.), «**Kotib ham, guvoh ham zararlanmasin**» (Baqara, 282) «**Ularga zulm qilib zararlantirish niyatida ushlab turmang**» (Baqara, 231) deyilgan oyatlardagi hukmlarning barchasidan kelib chiquvchi qoida Ibn Moja rivoyat qilgan «Islomda zarar ham, zarar berish ham yo‘q» deyilgan hadis ma’nosida jamlangan.

6) Qur’ondagi mutlaq hukmlar bilan bog‘liq farzlarni belgilab beradi. Masalan, oyatda «**Ko‘hna uy (Ka‘ba)ni tavof qilsinlar**» (Haj, 29) deyilgan. Bu buyruq tavofni umumiy holda farz qiladi. Nabaviy sunnat esa Baytullohnı faqat tahorat bilan tavof qilish lozim ekanini qayd etgan.

7) Qur’onda zikr qilingan aslga qarab yangi hukmni chiqaradi. Masalan, «**Ey imon keltirganlar! Mol-mulkaringizni o‘rtada nohaq (yo‘llar) bilan yemangiz! O‘zaro rozilik asosidagi tijorat bo‘Isa, u bundan mustasno**» (Niso, 29) deyilgan oyatga ko‘ra, sovuq yoki shamol ofati yetib kelishi xavfi borligi uchun sunnat bo‘yicha pishmagan mevalarni oldindan sotish mumkin emas deb belgilangan. Chunki sotib oluvchiga mevadan zarar ko‘rish xavfi bor. Shuning uchun Rasululloh «O‘ylamaysanmi, Alloh mevaning hosilini bermasa, sizlardan biringiz birodarining molini nohaq olgan bo‘ladimi?» deganlar (Buxoriy rivoyati).

Uchinchi holat, ya’ni sunnat Qur’onda zikr etilmagan hukmlarni ham bayon etib berishiga misol tariqasida «(Dengizning) suvi pok, unda yashaydigan hayvonlarning o‘ligi ham halol», hayvon so‘yilganda, uning qornidan o‘lik holda chiqqan bolasi haqidagi «Onasining so‘yilishi bolasining ham so‘yilishidir», «O‘tkir tishli vahshiy hayvonlar va o‘tkir tirnoqli vahshiy qushlar hamda xonaki eshshak go‘shtining harom» ekani haqida aytilgan hadislardan chiqadigan hukmlar Qur’oni karim oyatlarida mavjud emas.

To‘rtinchchi holat, ya’ni sunnat Qur’on oyatlaridan anglashiladigan ba’zi hukmlarni nasx (bekor) qilishiga misol tariqasida «**Qay biringizga o‘lim**

hozir bo‘lganida (yaqinlashganida o‘zidan keyin) biror yaxshilik (boylik) qoldirayotgan bo‘lsa, ota-onasiga va qarindoshlariga ma’lum miqdorda vasiyat qilishlik bitildi (farz qilindi). Bu taqvoli kishilar zimmasidagi burchdir» (Baqara, 180), deb vasiyat farz qilingan oyat hukmini nasx qiluvchi «Merosxo‘r uchun vasiyat qilinmaydi», degan hadisni keltirish mumkin.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, sunna Qur’ondan keyingi islam dinining asosiy manbalaridan biri bo‘lib, o‘z o‘rnini va ahamiyatiga ega.

### HADIS

قَالَ رَسُولُ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ:  
فَعَلَيْكُمْ بِسُنْتِي وَسُنْنَةِ الْخَلَفَاءِ الرَّاشِدِينَ الْمُهَتَّمِينَ

**Rasululloh s.a.v. aytdilar: Mening sunnatimni va mendan keyingi hidoyatga boshlovchi roshid xalifalarning sunnatlarini mahkam ushlanglar!**



### Mavzu bo‘yicha savollar

1. Qur’onda sunnatga qanday munosabat bildirilgan?
2. Fiqhda sunnat qanday o‘rin tutadi?
3. Shariatda hadis qanday manba sifatida qabul qilinadi?
4. Hadis hukmlarini Qur’on hukmlariga qiyoslash mumkinmi?
5. Qur’ondagi hikmat so‘zi qanday tafsir qilinadi?
6. Sunnatning islam dinida hujjat ekaniga qaysi hadislar dalolat qiladi?
7. Sahobalarning qilgan ishlari ham sunnat sifatida qabul qilinishi mumkinmi?
8. Sunnat Qur’on oyatlari tafsilotini bergan qanday masalalarni bilasiz?



### Topshiriqlar

1. Ilk islam davri, ya’ni tadvin asridan meros bo‘lib qolgan, hozirda mavjud bo‘lgan hadislar majmuasi qaysi olimlarga tegishli ekanligini aniqlang!
2. Mavzu oxirida keltirilgan hadisning manbasini aniqlang.
3. Fiqh ilmi rivojida sunnatning tutgan o‘rnini izohlab bering.
4. Sunnat islam dinining asosiy manbalaridan biri ekanini tasdiqlovchi oyat va hadislardan aytib bering.

## **Mustaqil ish mavzulari**

1. Sunnatning Qur'on oyatlarini sharhlashi.
2. Qur'onda sunnaning diniy manba ekanini ta'kidlab kelgan oyatlar.
3. Sunnat Qur'onning sharhi va tafsiloti sifatida.
4. «Furu' al-fiqh» ulamolarining sunnatga munosabatlari.

## **Adabiyotlar**

1. Жўзжоний, Абдулҳаким Шаръий. Ислом хуқуқшунослиги, ҳанафий мазҳаби ва Ўрта Осиё фақихлари. – Т.: «Тошкент ислом университети» нашриёти, 2002.
2. Обидов Р. Суннат, ҳадис ва муҳаддислар. – Т.: Мовароуннахр, 2012.
3. Куръони карим маъноларининг таржима ва тафсири / Таржима ва изоҳлар муаллифи Абдулазиз Мансур. – Т.: Тошкент ислом университети, 2012.
4. Talat Koçyigit. Hadis usûlü. – Ankara: Turkiye diyanet vakfi yayinlari. 2004.
5. Abdurahmon Itr. Ma'olim as-sunna an-nabaviya. – Zarqo: Maktabat Manor, 1986.
6. Abu Iso at-Termiziy. Al-Jome' as-sahih va huva sunan at-Termiziy. – Bayrut: Dor ihyo at-tiros al-arabiyy. 1995.
7. Mustafo as-Sibo‘iy. As-Sunna va makanatuha fi tashri' alislamiy. – Ar-Riyod: Maktabat al-varroq, 1998.

**REJA:**

1. «Mustalah al-hadis» ilmining shakllanishi.
2. Hadis isnodiga oid istilohlar.
3. Hadis roviylariga oid istilohlar.
4. Hadis matniga oid istilohlar.

 **Tayanch iboralar:** *hadis, sunnat, xabar, asar, balog‘at, musnid, hokim, hofiz*

 **1. «Mustalah al-hadis» ilmining shakllanishi.** Hadislarni chuqur tahliliy o‘rganish zarurati «Hadis ilmi» va unga tegishli istilohlarni to‘g‘ri ishlatishni taqozo etuvchi «Mustalah al-hadis» sohasining shakllanishiga olib keldi. Zero, «Hadis ilmi»ning o‘zi «Mustalah al-hadis» («Hadis istilohlari»), «Ilm ar-rijol» («Kishilar, ya’ni roviylarni bilish»), «al-Jarh va-t-ta’dil» («Ishonchsiz va ishonchliga ajratish») kabi bir necha sohalarni o‘z ichiga oluvchi ilmlar majmuasi hisoblanadi.

«Mustalah al-hadis» («Hadis istilohlari») – hadis ilmida ishlatiladigan atamalarni o‘rganuvchi soha. U «Ulum al-hadis» («Hadis ilmlari»), «Usul al-hadis» («Hadis asoslari») nomlari bilan ham yuritiladi. «Mustalah al-hadis» o‘ziga xos shartlar, turli usul va qoidalar asosida sanad va matn holatini o‘rganadi. Hadislarning to‘g‘risini noto‘g‘risidan, ya’ni sahihini zaifidan ajratadi.

Ulamolar hadisdan hukm olish va uning ishonchligini aniqlash jihatidan «Hadis ilmi»ni ikki qismga bo‘ladilar:

(١) علم الحديث روایة

1) Hadisni rivoyat nuqtai nazaridan bilish;

(٢) علم الحديث درایة

2) Hadisni tushunish nuqtai nazaridan bilish;

«Hadisni rivoyat nuqtai nazaridan bilish» deganda Payg‘ambar (s.a.v.) ning so‘zlari, fe’llari, taqrirlari, sifatlari, hadisdan qanday ma’no va foydalar olish mumkinligi haqidagi bilim tushuniladi.

«Hadisni tushunish nuqtai nazaridan bilish» deganda sanad va matnni bilish, uning ishonchlilik darajasini aniqlash, shunga ko‘ra hadisning qabul qilinishi yoki rad etilishini o‘rganish tushuniladi.

Hadis isnodida uzilish bor yoki yo‘qligiga qarab «mutavotir» («uzluksiz»), «mavquf» («to‘xtatilgan»), «maqtu’» («kesilgan») kabi turlarga bo‘linadi.

Hadisni rivoyat qilgan roviylar zanjirining holatiga qarab hadislar sahih, hasan, za’if, muttasil, mursal bo‘lishi mumkin. Hadisning mazkur istilohlar bilan ifodalangan sifatiga qarab uning ishonchli yoki ishonchsiz ekanı belgilanadi. Fiqh ilmida shar’iy hukm chiqarish uchun hadislarning qay darajada ishonchli ekanini bilish juda muhim. Shuning uchun ham muhaddis ulamolar isnoddagi har bir kichik illatni alohida nom bilan ataganlar. Bunda rivoyatning haqqoniyligi, shartlari, turlari, hukmlari va roviylarning ahvoli, muhaddislarning hadislarni rivoyat qilishdagi shartlari, rivoyat qilayotgan roviylarning tarkibi va unga tegishli bo‘lgan barcha masalalarini e’tibordan chetda qoldirmaganlar.



**«Mustalah al-hadis» muayyan shartlar, turli usul va qoidalar asosida hadising sanad va matn holatini o’rganuvchi, ularning sahihini zaifidan ajratuvchi hadis ilmi sohasidir.**

Hadisni rivoyat qilishda, kishi e’tiborini tortmaydigan mayda narsalar ham muhaddislar tomonidan hisobga olingan. Masalan, «an’ana» yo‘li bilan rivoyat qilingan hadis «tahdis» yoki «ixbor» yo‘li bilan uzatilgan hadisdan farq qilinadi. Chunki «an’ana» usuli isnodda «an», ya’ni «dan» so‘zi bilan ifodalanadi. Masalan, isnodda «Ibrohim an Muhammad», ya’ni «Ibrohim Muhammaddin» rivoyat qilgani aks etsa, tinglovchi so‘zlovchidan hadisni qaysidir noma’lum yo‘l bilan qabul qilib olgani anglanadi.

«Tahdis» usulida so‘zlovchi tinglovchiga hadis aytishning barcha talablariga rioya qilgan holda rivoyatni uzatgani tushuniladi. Ustoz hadisni tahorat bilan o‘tirgan holda aytgan va shogird uning og‘zidan shaxsan o‘z qulog‘i bilan eshitgan bo‘lsa, hadis «tahdis» yo‘li bilan uzatilgan hisoblanadi. Bunda shogird ustozdan eshitgan hadisini «haddasano» yoki «haddasani» shaklida ifodalaydi.

Rivoyat qilingan hadis matniga qarab uning ma’nosи o‘rganilsa, hadisning rivoyat qilinish usuliga qarab uning qabul qilish mumkin yoki mumkin emasligi belgilangan. Masalan, isnod zanjirida biror roviy noma’lum yoki tushib qolgan bo‘lsa, u «munqati’», ya’ni «kesilgan» deb ataladi va qabul qilinmaydi.

Isnoddagi roviylarning barchasi mavjud bo‘lsa-yu, ammo ulardan ba’zisi muhaddislar tomonidan ishonchsiz deb sanalsa, u holda ham hadis qabul qilinmaydi. Bu kabi roviylarning ishonchlilik darajasiga qarab baholash uchun ham «Mustalah al-hadis» ilmida alohida istilohlar qo‘llanilgan.

Masalan, «ishonchli», «ishonchsiz», «kazzob» va h.k. Hadis ilmida roviylar, ya’ni isnodda nomi kelgan kishilar haqidagi ma’lumotlarni bilishga alohida bir soha bag‘ishlangan bo‘lib, u «Ilm ar-rijol» («Kishilar ilmi») deb ataladi.

Abu Shoma nomi bilan mashhur bo‘lgan tarixchi, faqih olim Shihobuddin Abul Qosim Maqdisiy (599-665/1202-1267) hadis ilmini, ya’ni hadislarni bilish shartlarini uch qismga bo‘ladi: 1) hadis matnini yodlab, uning mohiyatini bilish; 2) isnodlarni yodlab, roviylarini bilish, sahih hadisni zaifdan ajratish; 3) hadislarni jamlash, yozish hamda hadis talabida turli joylarga safar qilish.

Mazkur yo‘nalishlarni bиринчи bo‘lib tizimga solgan olim qozi Abu Muhammad Hasan ibn Abdurrahmon ibn Xallod Romahurmuziy (vaf. 320/932 y.) hisobланади. U o‘zining «al-Muhaddis al-fosil bayna-r-roviy va-l-vo‘iy» («Rivoyat qiluvchi va anglovchi orasini ajratuvchi muhaddis») asarini yozib, bu yo‘nalishda ilk qadamni qo‘ydi. Ikkinchisi bo‘lib nishopurlik olim, Hokim Naysoburiy nomi bilan tanilgan muhaddis Abu Abdulloh Muhammad ibn Abdulloh Naysoburiy (vaf. 405/1014 y.) «Mustalah al-hadis» bo‘yicha «Ma’rifat ulum al-hadis» («Hadis ilmlarini bilish») asarini yozdi va shundan so‘ng mazkur yo‘nalishda tadqiqotlar rivojланди.

«Mustalah al-hadis» ilmiga oid zikr etilganlardan tashqari Xatib Bag‘dodiyning (vaf. 463/1071 y.) «al-Kifoya fi ilm ar-rivoya» («Hadis rivoyat qilishda yetarli ilm»), «al-Jomi’ li axloq ar-roviy va adab assomi» («Rivoyat qiluvchining axloqi va eshituvchining odobi to‘plami»), Qozi Iyozning (vaf. 544/1149 y.) «al-Ilmo‘ ilo ma’rifat usul ar-rivoya va taqyid as-samo‘» («Rivoyat qilish asoslari va eshitilganlarni qayd etishni bilish bo‘yicha ko‘rsatma»), Ibn Saloh Dimashqiyning (vaf. 704/1305 y.) «Ulum al-hadis» («Hadis ilmlari») yoxud «Muqaddamat Ibn Saloh» («Ibn Saloh muqaddimasi»), Ibn Hajar Asqaloniyning (vaf. 852/1448 y.) «Nuxbat al-fikar fi mustalah ahl al-asar» («Asar ahli istilohlari bo‘yicha tanlangan fikrlar»), Imom Muhyiddin Yahyo ibn Sharaf Navaviyning (631-676/1233-1277) «at-Taqrib va-t-taysir li-ma’rifat sunan al-bashir an-nazir» («Xushxabar beruvchi va ogohlantiruvchi sunnatlarini bilishga yaqinlashish va uni osonlashtirish»), Jaloliddin Suyutiyning (vaf. 911/1506 y.) «Tadrīb ar-roviy fi sharh Taqrib an-Navaviy» («Navaviyning Taqrib asarini sharhlash bo‘yicha roviyni mashq qildirish») asarlarni keltirish mumkin.

XX asr mualliflaridan Muhammad Jamoliddin Qosimiyning (vaf. 1332/1914 y.) «Qavo‘id at-tahdis min funun mustalah al-hadis» («Mustalah al-hadis fanlaridan hadis aytish qoidalari») kabi asari ham mazkur yo‘nalishga oid. Zamonaviy asarlardan Mahmud Tahhonning «Taysir

mustalah al-hadis» («Hadis istilohlarini osonlashtirish»), Abdurahmon Itrning «Ma’olim as-sunna an-nabaviya» («Payg‘ambar sunnati alomatlari»), Nuriddin Itrning «Manhaj an-naqd fi ulum al-hadis» («Hadis ilmlarini tanqidiy o‘rganish uslubi») va boshqa 100 dan ortiq asarlarni keltirish mumkin.

Yuqorida zikr etilgan asarlarda nafaqat hadis ilmi istilohlari yoritilgan, balki shu ilm bilan bog‘liq barcha zaruriy ma’lumotlar keltirilgan.

 **2. Hadis isnodiga oid istilohlar.** Muhaddislarning sahihlik, ya’ni ishonchlik darajasini aniqlashda, asosan, uning «isnod» (yoki «sanad») deb ataluvchi roviylar zanjirini aks ettirgan qismiga e’tibor berdilar. «Matn» deb atalgan hadisning asosiy qismini Payg‘ambardan musannifga yetib kelish yo‘lini «isnod» ko‘rsatadi. Boshqacha qilib aytganda hadis ikki asosiy qismdan tashkil topgan bo‘ladi: isnod va matn.

«Isnod» (tayanch, dalil, asos) hadisning tarkibiy qismi bo‘lib, istilohda «hadisni uning aytuvchisiga bog‘lash» ma’nosini beradi. Bunda hadis matnnini Payg‘ambar (s.a.v.)dan muhaddisiga yetkazuvchi ketma-ket bir-biriga uzatgan roviylar zanjiri tushuniladi. Hadisga «tayanch» hisoblangan «isnod» qanchalik ishonchli kishilarni o‘z tarkibiga olgan bo‘lsa, hadis shunchalik sahih hisoblanadi. Isnodning boshida musannif (masalan, Imom Buxoriy) o‘zi hadis eshitgan ustozni yoki roviysini keltiradi. So‘ng u kimdan eshitgan bo‘lsa, o‘shaning nomini, keyin u odam o‘ziga hadis aytgan kishining nomini keltiradi. Shu tariqa isnodning oxirida Payg‘ambar (s.a.v.) nomidan hadis matni keltiriladi. Masalan, Imom Buxoriy o‘z asarida bir isnodni quyidagicha beradi: «Bizga Abdulloh ibn Yusuf ushbu hadisni aytdi. U bizga Molik xabar berdi, degan, u esa Ibn Shihobdan eshitgan. U Muhammad ibn Jubayr ibn Mut’imdan, u otasidan eshitgan ekan. Jubayr ibn Mut’im Rasululloh (s.a.v.)dan quyidagilarni eshitdim, degan...», deb hadis keltirgan. Isnod kuchli deb topilsa hadis sahih hisoblanadi. Aks holda hadis hasan yoki zaif deb hisoblanishi mumkin. Isnodlar orasida sun’iy ravishda tuzilgan soxtalari ham uchraydi.



**Isnod qanchalik ishonchli roviylarni o‘z tarkibiga olgan bo‘lsa, hadis shunchalik sahih hisoblanadi.**

«Matn» (arab. mustahkam; matn) – hadisning tarkibiy qismi. Istilohda sanadning nihoyasi, ya’ni ma’nolardan tashkil topgan hadisning lafzlari yoxud sanadning tugagan joyidan boshlangan Payg‘ambar (s.a.v.) yoki boshqalar (sahoba, tobiyy, muhaddis, faqih)ning so‘zi. Masalan, Muslim

rivotat qiladi: Abu Bakr ibn Abu Shayba Abu Usomadan, Abu Usoma Hishomdan, Hishom esa Muhammad ibn Sirindan, Ibn Sirin Abu Hurayradan, Nabiy (s.a.v.) dedilar: «Kishi birodarining sovchisi ustiga sovchi qo‘ymas...». Bunda sanadning tugagan joyidan boshlangan Nabiy (s.a.v.)ning so‘zлari, fe’llari, taqrirlari yoki sifatlariga matn deyiladi.

Isnod o‘zining tuzilishiga ko‘ra bir necha turga bo‘linadi. Masalan, hadis isnodidagi barcha kishilarning nomlari aniq va ma’lum bo‘lsa, u holda isnod «muttasil» (uzluksiz) deb ataladi. Hadisning haqiqiy yoki soxta ekanı isnodda keltirilgan shaxslarning ismlarini taqqoslash yo‘li bilan tekshirilgan. Isnod kuchli deb topilsa matn ham ishonchli hisoblangan. Shuning uchun muhaddislarning asosiy vazifalaridan biri hadislarning isnodini kuchli yoki kuchsiz ekanimi ko‘rsatib berish bo‘lgan. «Isnod» so‘zi «sanad» bilan sinonim sifatida ishlataladi.

Isnodi muttasil ravishda o‘z nihoyasiga yetgan, ya’ni sanadi bilan rivoyat qilingan hadislarni «Musnad» deb ataladi. Bundan tashqari «musnad» so‘zi «isnod» ma’nosida ham kelishi mumkin. Shuningdek, hadislarni isnodlariga ko‘ra, ya’ni roviylariga ko‘ra tartiblab jamlangan ilk hadis to‘plamlari ham «Musnad» deb atalgan.

«Musnad» turidagi to‘plamlarda hadislар uch xil tartibda joylashtirilishi mumkin:

- 1) Sahobalarning ismlari alifbo tartibida joylashtirilib, bir sahoba rivoyat qilgan barcha hadislар bir joyda keltiriladi, keyin esa boshqa sahoba va h.k.
- 2) Sahobaning fazilatiga qarab tuziladi. Masalan, «Asharai mubashshara» («jannatiyligi bashorat berilgan o‘nta sahoba») nomlaridan boshlanadi.
- 3) Sahobalarning islomga kirish tarixiga ko‘ra: avval Abu Bakr va boshqalar.

Musnad to‘plamlari orasida Ahmad ibn Hanbalning (vaf. 240/855 y.) «Musnad» asari mashhur.

«Musannaf» («Asar», «Tanlab olingen») to‘plamlarida «Musnad»lardan farqli ravishda hadislар muayyan mavzulariga ajratilgan holda beriladi. Bu uslub mavzulariga qarab to‘plangani uchun foydalanish ancha qulay. Masalan, Imom Buxoriyning «Sahih»i shu turga mansub.

Isnodlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, hadislarning ayrimlari to‘g‘ri Payg‘ambar (s.a.v.)dan emas, balki sahoba yoki tobiyyidan rivoyat qilinadi. Rasulullohgacha yetib borgan isnodlar «marfu’» («ko‘tarilgan», «yetib bongan») deb ataladi. Ammo sahobada to‘xtagan isnod «mavquf»

(«to‘xtagan, to‘xtatilgan») deb yuritiladi. Isnod qaysi tabaqaga bo‘lsa-da uzlusiz yetib borgan bo‘lsa, u «muttasil» (uzluksiz) deb ataladi.

Hadis rivoyat qilishda tabaqalarning o‘rni ham alohida ahamiyatga ega. «Tabaqa» (ko‘pligi «tabaqot»: arab. daraja, bosqich) deganda Payg‘ambar (s.a.v.)dan hadis rivoyat qiluvchilarning tartiblari tushuniladi. Masalan, sahobalar – birinchi tabaqa, tobiylar – ikkinchi tabaqa, atbo‘ at-tobi’inlar – uchinchi tabaqa va h.k. Mazkur mezon asosida keyingi muhaddislar roviylarga atalgan asarlarini ham tuzganlar. Bunday asarlar «tabaqot» janriga mansub hisoblanadi. Bunday to‘plamlarda roviylarning tarjimai hollari tabaqalariga qarab tartiblangan bo‘ladi.

Isnod to‘liq bo‘lib, to‘g‘ri Payg‘ambar (s.a.v.)ga yetib borgan bo‘lsa, «muttasil marfu’», agar sahobaga yetib borgan bo‘lsa, «muttasil mavquf» deb ataladi. Masalan, «Molik Ibn Shihobdan, u Solim ibn Abdullohdan, u otasidan, u Rasululloh (s.a.v.)dan rivoyat qiladi» degan isnodda boshdan to oxirigacha muttasil (uzluksiz) va Rasululloh (s.a.v.)ga qadar ko‘tarilgan (yetib borgan), shuning uchun u «muttasil marfu’» hisoblanadi. «Molik Nofe’dan, u Ibn Umardan, u kishi deydilar» deyilgandagi isnod Ibn Umargacha uzlusiz, ammo Rasululloh (s.a.v.)gacha yetmagan va sahobada to‘xtab qolganligi uchun muttasil mavquf deyiladi.

Muttasil hadis hukmi sahih, hasan yoki zaif bo‘lishi mumkin. Sahobaga muttasil ravishda yetgan hadisda: «Molik Nofi’dan, u esa Ibn Umardan eshitgan «Kim biror kishidan qarz olsa, unga qarzini qaytarib berishi shartdir», degan. Ushbu hadis o‘z nihoyasiga muttasil holda yetgan.

 **3. Hadis roviylariga oid istilohlar.** Hadis ilmida roviylar, ya’ni hadislarni rivoyat qiluvchi, ularni tahliliy va tanqidiy o‘rganuvchi, alohida to‘plamlarga jamlovchi kishilarga nisbatan alohida istilohlar berilgan. Shuningdek, ularning bilim darajasi, hadis ilmidagi mavqeい, yodlagan hadislari miqdori, roviylarga oid ma’lumotlarni bilishiga qarab alohida nomlar bilan atalgan. Mazkur nomlar hadis ilmi istilohida «alqob al-muhaddisin» («muhaddislarining laqablari») deb yuritiladi.

«Laqab» hadis ilmida ikki xil – ijobjiy yoki salbiy ma’nodagi so‘zlarga nisbatan ishlatilishi mumkin. Masalan, «toj al-milla» («millatning toji») yoki «a’raj» («cho‘loq») va boshqalarni keltirish mumkin. Masalan, olim Sa’d Fahmiy Ahmad Bilolning «Siroj al-munir fi alqob al-muhaddisin» («Muhaddislar laqablari bo‘yicha yorqin chiroq») asarida hadis ilmi bilan shug‘ullangan kishilarni quyidagi guruhlarga ajratgan: tolib al-hadis (hadis

talab qiluvchi), roviy (rivoyat qiluvchi), muhaddis (hadis aytuvchi), mufid (foydalı) va hokazo (qarang 1-ilova). Ba’zi muhaddislarga bir emas, bir nechta laqablar berilgan. Ular orasida muhaddislarga laqab sifatida berilgan «roviy», «musannif», «muhaddis» kabi istilohlar ko‘p ishlatalidi.

«Roviy» («rivoyat qiluvchi») – sanad zanjirida turib o‘zidan oldingi kishidan hadis eshitib, keyingilarga aytgan kishiga nisbatan ishlataladigan istiloh. U rivoyat qilgan so‘z – «rivoyat», «matn», «hadis», «osor» deb atalishi mumkin. Mazkur rivoyat Payg‘ambar (s.a.v.), sahaba yoki tobiyning so‘zi bo‘lishi ham mumkin. Imom Buxoriy, Imom Muslim, Imom Termiziy kabi og‘zaki rivoyatlarni kitobga jamlagan muhaddislар «roviy» deb atalish bilan birga «musannif» («tuzuvchi, tasrif qiluvchi»), «muhaddis» deb ham ataladi. Roviy hadislarni isnodi bilan rivoyat qilsa, uni «musnid» («isnodli roviy») deb ataladi. Musnid hadis ilmini bilmasligi ham mumkin, ammo hadis matni va isnodini xatosiz aytishi lozim.

«Musannif» («Sinflovchi, klassifikasiyalovchi, tartiblovchi») istilohi hadislarni mavzulariga ko‘ra yozma ravishda tartibli jamlab, kitob holiga keltirgan muallifga nisbatan ishlataladi. Bu kabi to‘plamlarni tuzishda musannif foydalanuvchi uchun hadislarni topish oson va qulay bo‘lishini ham nazarda tutadi.

«Muhaddis» so‘zining lug‘aviy ma’nosи «hadis aytuvchi» bo‘lib, istilohda hadislarning ma’nosи, rivoyat qilish uslubi hamda isnoddagi roviylar holatini tadqiq qilish, hadislarni ishonchli yoki ishonchsizligiga qarab saralab to‘plash va sharhlash salohiyatiga ega bo‘lgan olimga nisbatan ishlataladi. «Muhaddis»ning «amir al-mu’minin fi-l-hadis», «hokim», «hujjat», «hofiz» darajalariga bo‘linadi. Muhaddis hadislarni isnodi bilan rivoyat qila olgani uchun «musnid» deb ham atalishi mumkin.

Olimlar «muhaddis» darajasiga qo‘yilgan talablar bo‘yicha turli fikrlarni bildirganlar. Ba’zi olimlar «biz yigirma ming hadis yozmagan kishini muhaddis deb hisoblamaymiz», deganlar. Imom Tojuddin Subkiy (vaf. 771/1369 y.) aytadi: «Isnod, illatini, roviylarining ismini, oliy va nozilini, shu bilan birga matnning turli ko‘rinishlarini bilgan hamda olti ishonchli to‘plamni, ular qatorida Ahmad ibn Hanbal «Musnad»ini, Bayhaqiyning «Sunan»ini, Tabaroniyning «Mu’jam»ini eshitgan... kishi muhaddis deyiladi». Shunday qilib, ilk davrda muhaddis so‘zi oddiygina hadis ilmi bilan shug‘ullangan kishiga berilgan bo‘lsa, vaqt o‘tishi bilan unga qo‘yilgan talablar ortib borgan.

«Muhaddis» sifatida tanilgan olimlardan quyidagilarni keltirish mumkin: Hoshim ibn Bashir ibn Abu Xozim Qosim Vositiy (vaf. 183/799 y.), Ahmad ibn Marvon Molikiy (vaf. 293/906 y.), Ahmad ibn Hojar Haytamiy (vaf. 973/1566 y.), Abu Hafs Nasafiy Samarqandiy (vaf. 537/1142 y.) va boshqalar.

«Amir al-mu'minin fi-l-hadis» («hadis bo'yicha mu'minlarning amiri») atamasi muhaddislikning eng yuqori darajasi uchun ishlatiladi. U barcha hadis ilmi rivoyati va diroyatini batafsil o'rgangan olim. Hadis ilmida bilmaganidan bilgani ko'p hisoblanadi. Ulamolar bu darajaga Sufyon Savriy (vaf. 161/778 y.), Imom Shu'ba (vaf. 170/786 y.), Imom Buxoriy, Imom Muslim, Imom Doraqutniy (vaf. 385/995 y.) kabi muhaddislarni kiritganlar. Oxirgi shu darajaga erishgan olim Imom Ibn Hajar Asqaloniy (vaf. 852/1448 y.) hisoblanadi.

«Hokim» («hukm yurituvchi») darajasi rivoyat qilingan barcha hadislarning isnodi, matni, jarh va ta'dili, tarixi va illati, g'aribi va ixtilofi, nosix va mansuxini kamchiliklarsiz daqiq o'rgangan kishiga nisbatan ishlatiladi. Biroq ba'zi olimlar hokim atamasini muhaddisga xos emas deydilar.

Bu darajaga erishgan olimlardan «Besh ishonchli to'plam» mualliflari – Imom Buxoriy, Imom Muslim, Imom Abu Dovud, Imom Termiziyy, Imom Nasoiylar hamda Hokim nomi bilan tanilgan Abdulloh Naysaburiy (vaf. 405/1015 y.) va Abu Ja'far Muhammad ibn Jarir Tabariy (vaf. 310/922 y.) va boshqalarni sanab o'tish mumkin.

«Hujjat» («hujjat, dalil») darajasi hokimdan keyin turadigan, hadis matni va sanadi haqidagi ilmlarni puxta egallashi bilan, ulardan foydalangan holda zaruriy masalalarni hal qilishda hujjat keltira oladigan kishiga berilgan. «Hujjatga» shunday ta'rif berilgan: «Uch yuz ming hadis matni va sanadini yoddan biladigan, roviylarining jarhi, ta'dili va tarixini bilgan kishi bo'lib, hadislarning umumiy va xos jihatlarini ajratib bera oladi». Sufyon ibn Uyayna (vaf. 198/814 y.), Husayn Muallim ibn Zakvon (vaf. 145/762 y.), Hishom ibn Urva ibn Zubayr (vaf 146/763 y.), Sa'id ibn Mansur (vaf. 227/842 y.), Abdulmalik ibn Muhammad (vaf. 323/935 y.) kabi olimlar «hujjat» darajasiga yetishganlar.

Husayn Muallim ibn Zakvon (vaf. 145/762 y.), Hishom ibn Urva ibn Zubayr (vaf. 146/763 y.), Abu Nuaym Jurjoniy, Abdulmalik ibn Muhammad (vaf. 323/935 y.) kabi olimlar «hujjat» laqabiga ega bo'lganlar.

«Hofiz» («yodlovchi, yoddan biluvchi, (xotirasida) saqllovchi») muhaddislikning yuqori darajalaridan biri hisoblanadi. «Hofiz» darajasi

talablari bo‘yicha ham ulamolar turlicha fikr bildirganlar. Abdulloh ibn Muhammad Afifuddin Hanafiy Buxoriy (870-941/1466-1535): «Hofiz deb yuz ming hadis matni va sanadini, uning roviylari jarhi, ta’dili va tarixini bilgan kishidir», degan. Ibn Hajar Asqaloniy: «Hofiz deb muhaddislar nazdida bir necha shartga ega bo‘lgan roviyni aytildi. Agar roviyda ular jam bo‘lsa «hofiz» deyiladi. Ular: 1) hadisni kitob sahifalaridan emas, odamlar og‘zidan eshitishni talab qiladigan; 2) roviylar tabaqasi va martabasini biladigan; 3) jarh va ta’wil qilishni biladigan, sahihini zaifidan ajrata oladigan, matnlardan ko‘p narsalarни chiqara oladigan bo‘lishi kerak», deydi.

Abdurrahmon ibn Mahdiy (vaf. 198/814 y.), Ibn Abu Hotam Roziy (vaf. 327/939 y.), Ibn Asokir Ali ibn Hasan Abulqosim (vaf. 571/1176 y.) kabi olimlar «hujjat» laqabi bilan tanilganlar.

«Muhaddis» va «Hofiz» bir xil ma’noda ishlatiladi, degan fikrlar ham mavjud. Abdurrahmon ibn Mahdiy (vaf. 198/814 y.), Ibn Abu Hotam Roziy (vaf. 327/939 y.), Ibn Asokir nomi bilan mashhur Abulqosim Ali ibn Hasan Dimashqiy (vaf. 571/1176 y.) kabi muhaddislar «hofiz» laqabi bilan tanilganlar.

Hadis ilmida «as’hab al-hadis» («hadis egalari»), «ahl al-hadis» («hadis ahli»), «ahl al-asar» («hadis ahli») atamalari ham mashhur. Bu nomlar hadis ilmi bilan shug‘ullangan muhaddislarga ishlatilgan. Bu nom fiqhda «as’hab ar-ra’y» (ra’y, ya’ni mustaqil fikr egalari) yoki «ahl ar-ra’y» (ra’y ahli) dan farqli asosan hadislarga tayanib hukm chiqargan olimlarga nisbatan berilgan.



*Hadis ilmida «as’hab al-hadis», «ahl al-hadis», «ahl al-asar» atamalari ushbu ilm bilan shug‘ullangan muhaddislarga nisbatan ishlatilgan. Ular asosan hadislarga tayanib hukm chiqarganlar.*

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, hadis ilmiga oid manbalarda roviylarga oid istilohlar olimlarga xos bo‘lgan xususiyatlar – fazilatlari, jismoniy kamchiliklari, erishgan darajalariga qarab berilgan.

 **4. Hadis matniga oid istilohlar.** Ikki qismdan iborat hadisning ikkinchi matn qismi bu asosiy qism hisoblanadi. Unga oid istilohlarning avvalgisi bu «hadis» so‘zidir. Bu istilohga ulamolar quyidagicha ta’rif beradilar.

«Hadis» so‘zi lug‘aviy jihatdan «gap, so‘z, xabar, hikoya» hamda «yangi, zamonaviy» ma’nolarini beradi. Hadis ilmi istilohida «hadis» deganda Muhammad (s.a.v.) payg‘ambarga nisbat berilgan so‘zlar, amallar, taqrirlar yoki sifatlarni o‘zida mujassam qilgan xabar va rivoyatlar tushuniladi. Hadis aytish istilohda «tahdis» so‘zi bilan beriladi. «Hadis» so‘zi tilshunoslar nazdida «tahdis» so‘zidan olingen bo‘lib, «xabar bermoq» ma’nosini ifodalagan. Ibn Hajar Asqaloniy aytadi: «Shariat urfida hadisdan murod Rasululloh (s.a.v.)ga tegishli narsalar (gap, ish, taqrir) bo‘lib, «hadis» (yangi) deyilishi uning Qur’onga muqobilligiga ishoradir. Zero, Qur’on qadimdir», deydi. Shunga binoan ba’zi olimlar, «hadis» lug‘atda «yangi» ma’nosini ham ifodalashini e’tiborga olib, uni «qadim» (azaliy) Qur’oni karimning muqobilida qo‘llaganlar. Rasululloh (s.a.v.)ning o‘zlarini o‘z so‘zlarini «hadis» deb atab, bu nom bilan o‘z so‘zlarini boshqalarning so‘zlaridan ajratib bergenlar. Bunga misol qilib Imom Muslim (204-261/819-875) rivoyat qilgan quyidagi hadisni keltirish mumkin:

من حدث عني بحديث يرى أنه كذب فهو أحد الكاذبين  
**«Kimki mendan bilib turib yolg‘on hadis aytsa,  
 u yolg‘onchilardan biridir»**

Yuqorida zikr etilgan ta’riflar «al-hadis an-nabaviy» (ko‘pl. «al-hadis an-nabaviya» – «Payg‘ambar hadislari») deb ataluvchi hadislarga tegishli. Hadisning «al-hadis an-nabaviy» turidan tashqari «al-hadis al-qudsiy» (ko‘pl. «al-hadis al-qudsiya» – «Qudsiy hadislari») turi ham mavjud.

«Qudsiy hadis» ham hadis turlaridan biri bo‘lib, unga berilgan ta’rifga ko‘ra, «ma’nosi Allohdan, lafzi esa Rasululloh (s.a.v.)dan bo‘lgan hadislari»ga aytildi. Shuningdek, u «Rabboniy hadis», «Ilohiy hadis» deb ham nomlanadi.

«Qudsiy hadis» ham vahiyining bir turi hisoblanib, uni Alloh taolo o‘z Payg‘ambariga ilhom berish, tushida ko‘rsatish orqali bildirgan. Shuningdek, bunday hadislarning aksari Alloh taolo tarafidan Payg‘ambar (s.a.v.)ga me’roj kechasida aytigan. Payg‘ambar (s.a.v.) tarafidan bunday hadislari «buning ma’nosi Alloh nomidan», «Alloh taolo aytadi», deb sahobalarga yetkazilgan.

«Qudsiy hadis» Qur’oni karim bilan hadisi nabaviy o‘rtasidagi maqomda turadi deb hisoblanadi. «Qudsiy hadis»ning Qur’on oyatlaridan bir nechta farqli jihatlari mavjud. Jumladan «Qudsiy hadis»:

1) Qur'on oyatlardan farqli ravishda namozda o'qilmaydi va uning tilovati ibodat hisoblanmaydi;

2) Qur'on oyatlari kabi «naqli mutavotir» hisoblanmaydi. Uning sahib, zaif, mavzu' turlari mavjud. Vaholanki, Qur'on oyatlari «naqli mutavotir», ya'ni yolg'onga kelishib olishlari mumkin bo'limgan darajadagi ko'p sonli «ketma-ket, uzluksiz» roviylar zanjiri orqali rivoyat qilingan xabar hisoblanadi.

3) Qur'on oyatlari kabi «mo'jiz» («ojiz qoldiruvchi») hisoblanmaydi.

4) o'zida asosan odob-axloqqa, shukr va sabrga chaqiruvchi xislatlarni mujassam etgan bo'ladi.

5) «Qudsiy hadis»ni inkor qiluvchi kishi kofir emas, gunohkor hisoblanadi.

«Qudsiy hadis» larga bag'ishlangan alohida to'plamlar tuzilgan. Masalan, Muhammad ibn Abdurauf ibn Ali Munoviy (vaf. 1031/1622 y.) o'zining «al-Ithofot as-saniya bi-l-ahodis al-qudsiya» («Qudsiy hadislardan maqtovga loyiq tuhfalar») nomli to'plamida 272 ta «Qudsiy hadis»ni jamlagan. Muhyiddin Ibn Arabiy (560-638/1165-1240) «Mishkot al-anvor fi mo ruviya an-illohi subhonahu va taolo mina-l-axbor» («Alloh subhonahu va taoladan rivoyat qilingan xabarlargaga oid chiroqlar tokchasi») nomli to'plamni tuzgan.

Poklik va halollikka chaqiruvchi, harom yo'l bilan mol-dunyo to'plashdan qaytaruvchi bir Qudsiy hadisda Payg'ambar (s.a.v.) Alloh taolo nomidan shunday deydilar: «Ey odam farzandi, bilginki, insonga halollik qatra-qatra kelur, harom esa, sel kabi mo'l-ko'l kelur. Har kimning yemishi haloldan bo'lsa, dini pok bo'lur». Yana bir yovuzlik va yomonlikdan qaytaruvchi hadisda shunday deyiladi: «Ey odam farzandi, yomonlik va yovuzliklardan o'zingni uzoq tut. Zero, yomonlik do'zaxning kalitidir. Bu kalit o'z egasini albatta do'zaxga boshlab boradi».

«Sunnat» so'zi ham hadis matni bilan bog'liq istiloh bo'lib, u «hadis» atamasi o'rnida kelishi mumkin. «Sunnat» so'zining lug'aviy ma'nosi «yo'l», «usul», «odat» ma'nolarini beradi. «Hadis» va «sunnat» bir-biriga yaqin ma'noli so'zlar bo'lib, manbalarda bir-birini almashtirib keladi. Ammo ular aynan bir ma'noni anglatmaydi. Hadisga amal qilish sunnatga amal qilish demakdir. «Sunnat» Rasululloh (s.a.v.)ning sayrati, turmush tarzi, diniy yo'llariga nisbatan ishlatalidi.

Ba'zi muhaddislarning ta'rif berishlaricha, «hadis Rasululloh (s.a.v.)ning gaplari va ishlarini o'z ichiga oladi, sunnat esa faqat ishlarini ifodalaydi».

Yana bir guruh olimlar shunday ta’rif beradilar: «Sunnat gap, amal va taqrirni o‘z ichiga oladi, hadis esa Rasululloh (s.a.v.)ning gaplarigagina xos bo‘lib, qavliy sunnatga to‘g‘ri keladi». Bu bilan ular sunnatni qavliy, fe’liy va taqririya bo‘ladilar. Shuningdek, Payg‘ambarning (s.a.v.) xalqiy (tana ko‘rinishlari), xulqiy (axloqlari) va tarjimai hollariga oid ma’lumotlar ham sunnat deyladi.

«Qavliy sunnat» («Og‘zaki sunnat») Rasulullohning turli holat va munosabatlarda aytgan so‘zлари. «Qavliy sunnat» deganda hadislар nazarda tutiladi. Masalan, «Amallar niyatlar bilandir», «Voris uchun vasiyat yo‘q», «O‘zing ham zarar ko‘rma, birovga ham zarar yetkazma».

«Fe’liy sunnat» («Amaliy sunnat») Rasulullohдан sodir bo‘lgan shar’iy ishlар yoki sahabalar Payg‘ambarning bajargan amallari haqida qilgan rivoyatlariga aytildi. Masalan, Rasulullohning namoz o‘qishlari, haj ibodatlari, tahoratlari va shu kabi amallarning bajarilishi.

«Taqririy sunnat» («Ma’qullangan sunnat») Payg‘ambar huzurida yoki boshqa joyda sahabalar tomonidan qilingan biror xatti-harakat yoki gap-so‘zga u zotning indamasliklari yoki ma’qullahslari. Bunga Imom Nasoiy rivoyatidagi sahoba Abu Said Xudriy rivoyat qilgan hadis misol bo‘ladi. Unga ko‘ra, ikki kishi safarga chiqadi. Namoz vaqtি kelganda suv yo‘qligidan toza tuproqqa tayammum qiladilar va namoz o‘qiydilar. Namoz vaqtি o‘tmasdan suv topadilar, sahabalarning biri tahorat qilib namozni qayta o‘qiydi, boshqasi o‘qimaydi. Rasululloh (s.a.v.)ning oldilariga kelganlarida ular bo‘lgan voqeani bayon qilib beradilar. Rasululloh (s.a.v.) namozni qayta o‘qimaganga: «Sunnatni qilibsan, boshqasiga esa – senga ikkita ajr (savob) bor» deydilar.

Imom Buxoriy tomonidan naql qilingan yana bir rivoyatda Rasululloh (s.a.v.) bir guruh qo‘sinni Bani Qurayzaga jo‘natayotib, asr namozini o‘sha yerga yetib borganda o‘qishlarini buyurdilar. Biroq yetib bormaslardan asr vaqtি kiradi. Shunda sahabalarning bir guruhi namozni vaqtি kirganda o‘sha yerga yetib bormasdan o‘qib oladilar. Qaytib kelganlaridan so‘ng yo‘lda namoz o‘qiganlarga tanbeh bermaganlar.

Abu Dovud rivoyatida esa Rasululloh (s.a.v.) Muoz ibn Jabalni Yamanga yuborayotganda, «bir masalaga duch kelsang qanday hukm chiqarasan», deb so‘raydilar. Muoz: «Allohning kitobi bilan», dedi. Rasululloh (s.a.v.), «agar undan javobni topa olmasangchi», dedilar. Muoz: «Rasulullohning sunnatи bilan», dedi. «Rasulullohning sunnatida ham bo‘lmasachi», deganlarida,

«Bor ilmimni sarflab ra'yim bilan ijтиҳод qilaman», dedi. Shunda Rasululloh (s.a.v.) Muozning ko'ksiga qo'l urib «Alloh taolo rasulini rozi qilgan narsaga Rasulullohning rasulini muvaffaq qilgan Allohga hamd bo'lsin», deydilar.

«Xalqiy sunnat» Rasulullohning tashqi qiyofa va ko'rinishlari bilan bog'liq sunnat. Masalan, «Rasululloh ko'rinish va yaratilish jihatidan kishilarning chiroylisi edi», «Rasululloh (s.a.v.)ning sochlari uzun edi» kabi rivoyatlarni keltirish mumkin.

«Xulqiy sunnat» Rasulullohning odob-axloqlari bilan bog'liq sunnat. Sahobalar Rasulullohning sabrlari, hilmlari, shijoatlari, saxiyliklari kabi barcha axloqiy fazilatlari haqida rivoyatlar keltiradilar. Ularning barchasi «xulqiy sunnat»ga kiradi. «Xalqiy» va «Xulqiy» sunnatlarni o'zida mujassam etgan asar Imom Termiziyning «ash-Shamoil an-nabaviya» («Nabiy fazilatlari») kitobidir.

«Shamoil» («sifatlar», «fazilatlar») Payg'ambarning xalqiy va xulqiy sunnatlari jamlanmasi va shu uslubda rivoyat qilingan hadislarga nisbatan ishlatalidi. Unda Payg'ambar (s.a.v.)ning tashqi qiyofalari va xulqlari ifodalab beriladi.

«Xabar» hadis matni bilan bog'liq istiloh bo'lib, Muhammad (s.a.v.) ning so'zlari va xatti-harakatlari haqidagi rivoyat bo'lib, «hadis», «osor» so'zlariga sinonim sifatida keladi. Xabar beruvchi nomi ko'pincha tarixchilarga beriladi. Olimlar fikricha, har bir hadis xabardir, ammo har bir xabar hadis bo'lavermaydi. Faqt Payg'ambarga mansub xabargina hadisdir.

Shialikda hadis to'plamlari «axbor» («xabarlar») deb ataladi. «Axbor» – Muhammad (s.a.v.) hamda Ali (r.a.)ning so'zlari, amallari, shuningdek, shialikda muqaddas hisoblangan rivoyatlar haqidagi rivoyatlar to'plami. Sunnat – Payg'ambar va sahobalarning, axbor esa Muhammad (s.a.v.) va uning oila a'zolaridan Ali hamda boshqa o'n ikki imomning yo'llari va ishlari haqidagi rivoyatlarni o'z ichiga oladi. Axborlar orasida ham soxta rivoyatlar uchraydi. Abu Ja'far Muhammad ibn Ya'qub al-Kuliniyning (vaf. 939 y.) «al-Kofi fi ilm ad-din», al-Bobuya al-Qummiy nomi bilan mashhur Abu Ja'far Muhammad ibn Alining (vaf. 991 y.) «Kitob man lo yahzuruhu al-faqih», Abu Ja'far Muhammad ibn al-Hasan at-Tusiyning (vaf. 1067-68 y.) «Tahzib al-ahkom» asarlari shialikdagi mashhur «axbor» kitoblaridan hisoblanadi. Ulardagi mavzular va tartiblash ham sunniylik to'plamlaridagiga o'xshash.

«Osor» (birligi «Asar» – «Asar»; «Iz»; «Belgi»; «Yodgorlik»; «Rivoyat») so‘zi ham «xabar», «sunnat» va «hadis»ning sinonimi sifatida ishlatiladigan istiloh. Biroq olimlar «osor»ning «xabar» va «hadis» so‘zlaridan farqi borligi to‘g‘risida quyidagicha fikr bildirganlar: «Hadis» so‘zi Payg‘ambar (s.a.v.)ning so‘z, amal va taqrirlariga, «xabar» so‘zi Rasulullohning, ba’zan sahobalarning yoki tobiyylarning gaplariga nisbatan ishlatilsa, «osor» so‘zi odatda sahobalar yoki tobiyylarga mansub so‘zlarga nisbatan qo‘llaniladi. Shuningdek, ba’zida «osor» so‘zi Payg‘ambar (s.a.v.) yoki ilk islom jamiyatining odatlariga nisbatan ham qo‘llaniladi.

Hadis va sunnatni aks ettiruvchi istilohlar ularning yetib kelishi, uzatilishi, uning aynan kimga tegishli ekaniga qarab turlicha ko‘rinishda bo‘lgan. Manbalarda hadis matniga oid istilohlar va ularga berilgan ta’riflar ba’zan bir-biridan farq qilishiga qaramay, asosan mushtarak ma’nolarda ishlatilgan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, hadis ilmining asosiy qismini «mustalah al-hadis» tashkil etadi. Zero, hadis istilohlari haqida atroficha bilimga ega bo‘lmay turib hadis ilmini to‘g‘ri tushunish mushkul.

## HADIS

وَقَالَ النَّبِيُّ صَلَّى اللَّهُمَّ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ: قَيْدٌ وَتَوَكُّلٌ

Rasululloh s.a.v. aytdilar: Ulovingni bog‘lab qo‘yib so‘ng tavakkal qilgin!



Mavzu bo‘yicha savollar

1. Mustalah ilmi nimani o‘rgatadi?
2. Sanad, isnod va matn qanday ma’nolarga ega?
3. Musnid, muhaddis, hofiz va hokimning ma’nolari birmi?
4. Hadis qanday qismlarga bo‘linadi?
5. Hadisi qudsiy nima?
6. Sunnat qanday turlarga bo‘linadi?
7. Shialikda asosan qanday hadislar olinadi?
8. Osor va xabar so‘zlarining hadisdan qanday farqi bor?



## Topshiriqlar

1. «Musnad» turkumidagi hadis to‘plamlarining tarkibiy tuzilishini aytib bering.
2. Muhaddislar tomonidan hadislarning ishonchhlilik darajasini aniqlashda qo‘llanilgan o‘ziga uslublarni sanab bering.
3. «Mustalah al-hadis» ilmiga oid asarlar haqida ma’lumot bering.
4. Abul Qosim Maqdisiying hadisshunoslikka oid shartlarini izohlang.
5. Mustaqil ish mavzulari
6. Jamoliddin Qosimiyy «Qavoid at-tahdis» asarida hadis ilmi bilan shug‘illanuvchilar haqida bergen ta’rifi.
7. Hofiz laqabini olgan allomalar.
8. «Ulum al-hadis va mustalahuhu» kitobida hadisga bergen ta’rifi.
9. Usul al-fiqh kitoblarida sunnaga berilgan ta’riflar.
10. Hadisi qudsiy jamlangan asarlar.



## Adabiyotlar

1. Ҳамроқулов Ж. Мусталаҳ ал-ҳадис. – Т.: Мовароуннахр, 2004.
2. Ислом энциклопедияси. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2004.
3. Mahmud at-Tahhon. Taysir mastalah al-hadis. Toshkent: Movarounnahr, 1992.
4. Müsteba Uğur, Doç. Dr. Ansiklopedik hadis terimleri sözlüğü. – Ankara: Türkiye Diyanet vakfı yayinları/76, 1992.
5. Al-G‘azzoliy. Al-Mustasfo min ilm al-usul. – Bayrut: Dor Hodir. 1995.
6. Al-mu’jam al-mufahris li-lafaz al-hadis an-nabaviy. Noshir Vensink. – Leyden: Brill, 1936.
7. Muhammad Abu-l-Lays al-Xayrobodiy. Mu’jam mustalahat al-hadis va ulumih. Va ashdur al-musannifin fih. – Urdun: Dor an-nafois, 2009.
8. Subhi Solih. Ulum al-hadis va mustalahuhu. – Bayrut: Dor al-ilm li-l-malayin, 1991.

**REJA:**

1. Xabarning muhaddisgacha yetib kelishiga ko‘ra bo‘linishi: mutavotir va ohod.
2. Rivoyatning kimdan ekaniga ko‘ra turlari.
3. Isnodning nozik jihatlari.

 **Tayanch iboralar:** *mutavotir; aziz, g‘arib, mashhur, marfu’, mavquf, maqtu’, olyi*

 **1. Xabarning muhaddisgacha yetib kelishiga ko‘ra bo‘linishi: mutavotir va ohod.** Muhaddislardan Rasulullohdan musannifga yetib kelish yo‘llari qarab bir necha qismga bo‘lganlar. Ular orasida ishonchlik darajasi eng yuqori hisoblanuvchilari «mutavotir» deb atalib, hadis ilmida unga keng ta’rif berilgan.

«Mutavotir» (arab. المَوْاتِر - ketma-ket, uzluksiz) so‘zining lug‘aviy ma’nosi «ketma-ket, uzluksiz» bo‘lib, istilohda esa yolg‘onga kelishib olishlari mumkin bo‘limgan darajadagi ko‘p sonli rostgo‘y kishilarning birlariga uzatishi orqali yetib kelgan rivoyatdir. Bunday hadis muhaddislardan shak-shubhasiz ishonchli deb qabul qilinadi.

Hadis mutavotir bo‘lishi uchun rivoyatni Payg‘ambardan muhaddisga yetkazuvchi «roviyalar zanjiri» nechta bo‘lishi kerakligi xususida turli fikrlar mavjud. Jumladan, Qur’ondagi «**Iffatlari ayollarni** (zinokor deb) **haqoratlagan, so‘ngra** (bu da‘volariga ) **to‘rtta guvoh keltira olmagan kimsalar...**» (Nur, 4) deb boshlanuvchi, zinokorning aybini tasdiq etish uchun unga to‘rtta guvoh lozimligi haqidagi oyatdan kelib chiqib, ba’zi olimlar «to‘rt roviy naql qilgan hadis mutavotirdir», deydlilar. Boshqalar esa «**Beshinchisi (ya’ni guvohligi): Agar yolg‘onchilardan bo‘lsam...**» (Nur, 9) oyatini dalil qilib keltirib, ushbu adadni beshta deb hisoblaydilar.

Mutavotir hadisga qo‘ylgan talabni kuchaytira borib, roviylar zanjiri adadini o‘nta deguvchilarning so‘ziga qaraganda, o‘ndan pasti birliklardir, ya’ni tabiiy sonlar, ko‘plik esa o‘n va undan yuqori sonlardir.

Ba’zilar «**Biz ulardan o‘n ikkita yo‘lboshchini (tanlab) yubordik**» (Moida, 12) oyatini dalil qilib, mutavotir hadisning roviylari eng kamida o‘n ikkita bo‘lishi kerak, deganlar. Yana bir guruh olimlar bu adadning yigirmata bo‘lishi lozimligini shart qiladilar. Ular bunga «**Sizlardan yigirmata sabrlilaringiz ikki yuz kishini mag‘lub qiladi**» (Anfol, 65) oyatini hujjat qiladilar. Umuman, bir qancha muhaddislardan mutavotir hadis

roviylarining adadini belgilashga harakat qilib, 40, 70, 313 erkak va 2 ayol (Badr jangi ahllari sonlaricha) deydilar. Garchi ularning barcha dalillari Qur’oni karimdan olingan bo‘lsada, biroq bu narsaga, ya’ni mutavotir roviylar soniga ochiq dalil bo‘la olmaydi, chunki yuqoridagi oyatlarning har biri o‘ziga xos masalada nozil bo‘lgan.

Ammo ko‘pchilik olimlarning fikricha mutavotir hadis roviylarining soni o‘ndan kam bo‘lmasligi kerak, deydilar. Ba’zi olimlar nazdida mutavotir hadis roviylarining adadi muayyan bir son bilan belgilanmagan.

Mutavotir hadislari o‘z navbatida ikki turga bo‘linadi: lafziy va ma’naviy.

«Lafziy mutavotir» – yuqorida zikr etilgan jamoa isnodining avvalida ham, o‘rtasida ham, oxirida ham bir lafzda va bir suratda rivoyat qilingan hadis. Lafziy mutavotir darajasidagi hadislarga misol tariqasida «oyning yorilishi» voqeasi, «Kim mening nomimdan qasddan yolg‘on to‘qisa, o‘ziga do‘zaxdan joy tayyorlab qo‘ysin», – degan hadislari, shafoat, ustunning ingragani voqeasi, maxsiga mas‘h tortish, isro va me’roj, Rasululloh (s.a.v.) ning barmoqlari orasidan suv otilib chiqqani, sahoba Qatodaning ko‘zi qayta ko‘rishi, ozgina ovqatdan ko‘p askarlarning bahramand bo‘lishi haqidagi hadislarni keltiradilar.

«Ma’naviy mutavotir» – faqat ma’nosi mutavotir bo‘lgan hadis. Bunday hadislari ko‘p. Masalan, duoda ikki qo‘lini ko‘tarish to‘g‘risidagi hadis bo‘yicha Rasulullohdan yuzga yaqin hadis rivoyat qilingan bo‘lib, ularga ko‘ra har bir duoni qo‘lni ko‘tarib qilganlar. Hadislarning barchasi muayyan mavzularda bo‘lishiga qaramay, ulardagи mushtarak jihat – duoda ko‘lning ko‘tarilishi bo‘lib, mana shu e’tibordan mutavotir bo‘ladi. Hadis olimlari ma’naviy mutavotirning boshda «ohod» hadis bo‘lishi zararsiz deb hisoblaydilar, bunday hadis birinchi tabaqadan so‘ng mashhur bo‘lib ketadi va keng tarqaladi. «Barcha amallarga niyatga qarab ajr beriladi», hadisini ma’naviy mutavotir hadislari sirasiga kiritiladi.

Muhaddislari lafziy va ma’naviy mutavotir xabarning ishonchli ekaniga bir ovozdan ittifoq qilganlar. Mutavotirning shartlari quyidagilardan iborat:

- 1) Roviylarning ko‘p sonli bo‘lishi.
- 2) Bu ko‘plik sanadning barcha tabaqalarida bo‘lishi.
- 3) Rivoyatlar roviyidan tinglovchiga «eshitish», «ko‘rish» kabi aniq ma’lumot uzatish usuli orqali yetkazilgan bo‘lishi.

Mutavotir hadislarning barchasi maqbul hisoblanadi va roviylarining holati borasida babs qilinmaydi. Ular ulamolar tomonidan maqbul hadislari sifatida qabul qilinib, vojib amal sifatida to‘laligicha bajarilgan. Ahli sunna aqidasisiga ko‘ra, mutavotir hadisni inkor etish imon shartlariga zid hisoblanadi. Mutavotir bo‘yicha muhaddis Jaloliddin Suyutiy «al-Azhor

al-mutanosira fi-l-axbor al-mutavotira» («Mutavotir xabarlar bo‘yicha sochilgan gullar») asarini yozgan.



### ***Mutavotir hadis muhaddislar tomonidan shak-shubhasiz ishonchli deb qabul qilinadi.***

«Ohod» (yolg‘iz, yagona) – isnodning muhaddisga yetib borishi bo‘yicha mutavotirdan keyingi o‘rinda turuvchi turi. Ohod hadisning roviylari soni mutavotir darajasiga yetmagan ozchilikni tashkil etadi. Shuning uchun ham bu kabi hadislarni puxta tekshiruvdan o‘tkazish talab etiladi. Ulamolar Ohod hadis bilan sobit bo‘lgan hukmni vojib amallar qatoriga kiritadilar. Ohod hadis isnodiga ko‘ra uchga bo‘linadi: mashhur, aziz, g‘arib. Amal qilinishi bo‘yicha esa ular maqbul va mardudga bo‘linadi.

«Mashhur» (mashhur, hammaga ma’lum) – istilohda isnodidagi roviylar zanjiri uch va undan ortiq bo‘lgan va mutavotir darajasiga yetmagan hadislar. Mashhur hadislar har doim ham sanih shartlariga javob bermaydi. Mashhur hadis sanih, hasan, zaif, hatto mavzu’ (to‘qima) bo‘lishi ham mumkin. Hanafiy mazhabi olimlari mashhurni ohod turiga kiritmaydilar. Mashhur sanih hadisga misol tariqasida Imom Buxoriy rivoyat qilgan «Sizlardan bir kishi juma namoziga kelsa, g‘usl qilib olsin», degan hadisni keltirish mumkin. Mashhur hasan hadisga Imom Ibn Moja rivoyat qilgan «Islomda o‘ziga ham, birovga ham zarar yetkazish yo‘q», degan hadisni, mashhur zaif hadisga Imom Ibn Adiy rivoyat qilgan «Xitoyda bo‘lsa ham ilm o‘rganinglar» degan hadisni keltirish mumkin.

Mashhur hadisning «istilohiy shartlari»ga javob bermaydigan, ya’ni uch yoki undan ortiq roviylar zanjiriga ega bo‘lmagan, ammo turli soha vakillari orasida keng tarqalgan «noistilohiy mashhur hadislar» ham mavjud. Bunda hadisning faqat bir yoki ikki isnodi bo‘lishi yoki umuman isnodi bo‘lmasligi mumkin. Bu kabi rivoyatlar odamlar orasida keng tarqalgani sababligina «mashhur hadislar» deb ataladi. Bu kabi hadislar ham sanih yoki zaif bo‘lishi mumkin. Noistilohiy mashhur hadislar bir necha turga bo‘linadi:

1) Asosan hadis ahllari orasida mashhur bo‘lgan hadislar. Masalan, Anas ibn Molikning «Rasululloh (s.a.v.) bir oy davomida rukudan keyin Ri'l va Zakvon qabilalarini duoibad qildilar» hadisi.

2) Ahli hadis, ulamolar va omma orasida mashhur bo‘lgan hadislar. Masalan, «Musulmon boshqa musulmonlarga tili va qo‘li bilan ozor bermaydigan kishidir» hadisi.

3) Faqihlar orasida mashhur bo‘lgan hadislar. Masalan, «Halol narsalarning ichida Alloh taolo yomon ko‘rgani taloqdir».

4) Usul ulamolari orasida mashhur bo‘lgan hadislar. Masalan, «Ummatimning xato qilib, unutib va majburlanib qilgan gunohlari zimmalaridan soqit qilinadi».

5) Nahv olimlari orasida mashhur bo‘lgan hadislar. Masalan, «Suhayb qanday yaxshi banda, agar Allohdan qo‘rwmaganda unga osiy bo‘lman bo‘lur edi». Ushbu hadis muhaddislar orasida asli yo‘q hisoblanadi.

6) Ommaga mashhur hadis. Masalan, «Shoshilish shaytondandir» kabi.

«Aziz» (kuchli, g‘olib, nodir va kamyob) – kam uchragani, ozligi yoki boshqa roviylar yo‘li bilan quvvatlanib keluvchi hadis. Istilohda – isnod tabaqalarining barchasida roviylar soni ikkitadan kam bo‘lman hadisga aziz deyiladi. Shu bilan birga isnod tabaqalarining birortasida roviylar soni uch yoki undan ortiq bo‘lishi mumkin. Ammo birgina tabaqada bo‘lsa ham roviylar soni ikki kishiga tushib qolsa hadis aziz hisoblanadi. Chunki isnod tabaqalaridagi eng kam roviy e’tiborga olinadi. Masalan, «Sizlardan birortangiz toki meni ota-onasidan va bola-chaqasidan va barcha insonlardan ko‘ra yaxshi ko‘rmagunicha komil mo‘min bo‘la olmaydi», degan hadis isnodiga ko‘ra aziz hisoblanadi. Muhaddislar aziz hadislarga bag‘ishlab alohida kitob yozmaganlar.

«G‘arib» (bitta, yolg‘iz) ham ohod hadisning yana bir turi bo‘lib, istilohda – birgina ishonchli odamdan rivoyat qilingan sahih hadisga aytildi. Hadisda g‘ariblik matnda ham, isnodda ham bo‘lishi mumkin. G‘arib isnodda roviyning yolg‘iz bo‘lishiga qarab ikki qismga bo‘linadi: mutlaq g‘arib va nisbiy g‘arib:

1) «Mutlaq g‘arib» yoki «mutlaq fard» (arab. fard – yagona) – g‘ariblik hadis isnodining «asli»da bo‘lgan turi. Ya’ni, bunda isnodning aslida hadisni birgina shaxs rivoyat qiladi. «Isnodning asli» deb sahoba turgan tomon, ya’ni isnodning oxiriga aytildi. Sahoba esa isnod zanjirining halqalaridan biridir. Agar hadisni yakka bir sahoba yolg‘iz o‘zi rivoyat qilsa, ushbu hadis mutlaq g‘arib bo‘ladi. Masalan, «Albatta amallar niyatga bog‘likdir...». mutlaq g‘aribga misol bo‘ladi. Bu hadis yolg‘iz sahoba Umar ibn Xattob tomonidan rivoyat qilingan. Keyinchalik, ya’ni sahabadan keyingi tabaqalarda bu hadisning isnodi mutavotir darajasiga yetgan. Biroq avvalda bir kishi tomonidan rivoyat qilingani uchun bu hadis «mutlaq g‘arib» deb yuritiladi.

2) «Nisbiy g‘arib» yoki «nisbiy fard» – g‘ariblik isnodning avvalida bo‘lmay, keyinchalik g‘aribga aylangan turi. Bunda hadis isnodining aslida, ya’ni sahoba tabaqasida bir necha roviylar turgan bo‘lib, ulardan keyingi biror tabaqada yagona roviy shu hadisni rivoyat qilgan bo‘ladi. Masalan, «Payg‘ambar (s.a.v.) Makkaga kirib kelgan vaqtida boshlarida dubulg‘alari bor edi», degan hadis ko‘p sahabalar tomonidan rivoyat qilingan, chunki bu hodisa ko‘philikning ko‘z o‘ngida yuz bergen. Keyingi tabaqalarda tobi’iy Ibn Shihob Zuhriy (50-124/670-742) va hadisni undan rivoyat qilgan taba‘a tobi’iy Molik ibn Anas (93-179/712-795) o‘z tabaqalarida yolg‘iz bo‘lganliklari uchun bu hadis «nisbiy g‘arib» deb nomlangan.

Muhaddislar tomonidan «mutlaq g‘arib» hisoblanmagan, «nisbiy g‘arib» turkumiga kiritiladigan, ammo boshqa g‘arib hadislardan farqli bo‘lganlari ham bor. Ularni hadis ilmiga oid kitoblarda quyidagicha guruahlarga bo‘lib ko‘rsatiladi:

1) Ishonchli bir roviy rivoyat qilgan hadis. Bunda hadisni bir nechta roviylar rivoyat qilgan bo‘lib, ular orasida ishonchli bitta bo‘ladi. Uni «falonchidan boshqa ishonchli odam rivoyat qilmagan», deyiladi.

2) Bir roviy faqat ikkinchi bir roviydan yolg‘iz o‘zi rivoyat qilishi. Masalan, Said ibn Musayyabdan Hasan Basriy rivoyat qilgan hadis. Tobi’iylardan bo‘lgan Said ibn Musayyabning boshqa ko‘plab shogirdlari ham bo‘lgan, ammo undan Hasan Basriy rivoyat qilgan hadisni boshqa hech qaysi shogird rivoyat qilmagan.

3) Bir mazhab ahllari yoki biror olim shogirdlarining rivoyat qilishi. Masalan, hanafiy mazhabi olimlaridan bo‘lgan tobi’iy Ibrohim Naxa’iydan Hammod rivoyat qiladi, undan Abu Hanifa, undan Abu Yusuf rivoyat keltiradilar.

4) Biror mintaqa yoki shahar ahllari o‘zaro rivoyat qilgan hadislar. Masalan, faqatgina Shom ahli orasida rivoyat qilingan, ammo boshqa yerlarda bu hadis uchramaydi.

5) Biror shahar yoki mintaqa aholisigina boshqa shahar yoki mintaqa aholisidan rivoyat qilgan hadislar. Masalan, Hijoz ahlidan Shom ahlining rivoyoti.

Shuningdek, g‘arib hadislar insoddagi va matndagi g‘ariblik e’tibori bilan ham bir nechaga bo‘linadi:

1) Matn va isnodi jihatdan g‘arib. Bu bir matnning birgina kishi tomonidan rivoyat qilinishi. Bunda rivoyat qilingan matn boshqa joyda uchramaydi.

2) Faqat isnod jihatidan g‘arib. Bu bir guruuhning sahabalar jamoasidan rivoyat qilgan hadisni boshqa kishi boshqa sahabadan faqat bir o‘zi rivoyat qilishi. Imom Doraqutniy (vaf. 385/995 y.) o‘zining «G‘aroib» asarida shu turga oid hadislarni jamlagan.

Yuqorida zikr etilgan ohod hadis turlarining ishonchilik darajasi uning «ohod», ya’ni «yagona» ekaniga qarab zaif hisoblanmaydi. Balki ulardan har birining o‘z talabiga qarab ular ustidan hukm chiqariladi.

Islom tarixida o‘tgan «al-Qadariya», «al-Rofiza» kabi bid’atchi firqalar ohod hadislarga amal qilish mumkin emas deb hisoblaganlar. Ammo muhaddis ulamolar ularning bu fikrlarini inkor etganlar. Chunki, Rasululloh (s.a.v.)ning maktublarini olib boruvchi elchilar ham yolg‘iz xabarchi bo‘lganlar, ammo shunga qaramay, ularning yetkazgan xabarlariga amal qilingan. Shuningdek, «al-xulafo ar-roshidun» va boshqa sahabalar ham, o‘zlariga bir kishi orqali yetkazilgan sunnat, hukm, fatvolarni qabul qilganlar va itoat etganlar. Xabarning rostligiga hujjat keltirishni elchidan talab qilmaganlar.

Ahli sunna ulamolari ohod hadislarni qabul qilib, unga amal qilganlar. Zero, sahabalar va tobi‘iyalar bir-birlaridan diniy masalalarni so‘rardilar. Javob olgach, «men avval bu haqda boshqa birovdan ham so‘rayman, rost bo‘lsa amal qilaman», demasdan, qabul qilardilar. Ular bir-birlaridan eshitgan so‘zga shubha bildirmas yoki uni inkor qilmasdilar. Bu esa hadislarni qabul qilishda ularning ohod ekani to‘sinq emasligini ko‘rsatadi.

Hadislар ichida ohod bo‘lganlari ko‘plab uchraydi va ularni hadis ulamolari rad etmaganlar. Hadis rivoyat qilish qoidasida «Bitta sahaba tomonidan rivoyat qilingan, ikkinchisining rivoyati bilan tasdiqlanmagan hadis qabul qilinmaydi», degan qoida yo‘q. Bunday asossiz fikr faqat bid’atchi firqalar tomonidangina aytildi. Birgina Imom Ibn Shihob Zuhriyning o‘zi oltmishta hadisni rivoyat qilgan, hadis imomlari esa uni rad qilmasdan to‘laligicha qabul qilganlar».

 **2. Rivoyatning kimdan ekaniga ko‘ra turlari.** IIsnodlar tahlili shuni ko‘rsatadi, hadislarning ayrimlari to‘g‘ri Payg‘ambar (s.a.v.)dan emas, balki sahaba yoki tobiyyidan rivoyat qilinadi. Rasulullohgacha yetib borgan isnodlar «marfu’» (ko‘tarilgan, yuqori qo‘yilgan) deb ataladi. Ammo sahabada to‘xtagan isnod «mavquf» (to‘xtagan, to‘xtatilgan) deb yuritiladi. Ba’zan isnod tobi‘iy aytgan so‘zga borib taqaladi. Bu holda hadis «maqtu’» (kesilgan) deb ataladi.

«Marfu'» (ko‘tarilgan, yuqori qo‘yilgan) hadis ilmi istilohida, Rasulullohga nisbat berilgan ish, gap, taqrir yoki sifatlarga aytildi. Uning sanadi «muttasil» (uzluksiz) yoki «munqati'» (uzilgan) bo‘lishi ham mumkin. Hadisni, odatda, sahoba «Rasululloh (s.a.v.)dan eshitdim», deb rivoyat qiladi.

Ba’zi hollarda hadis to‘plamlarida tobi’iy yoki taba’a tobi’ylar ham «Rasululloh (s.a.v.)dan eshitdim» deb hadis rivoyat qilish holatlari uchraydi. Rasululloh davrida yashamagan odamning u kishidan hadis rivoyat qilishi haqiqatdan uzoq bo‘sa-da, ammo hadis isnodi shaklan Payg‘ambarga borib taqalgani uchun uni «marfu’» deb ataladi. Aslida bu kabi hadis isnodlarida qandaydir sababga ko‘ra sahoba yoki tobi’iy nomi tushib qolgan bo‘lib, taba’a tobi’iy va tobi’iy o‘sha nomi tushib qolgan kishi orqali hadisni rivoyat qilgan bo‘ladi. Isnodda sahoba nomi tushib qolgan, ammo Rasululloh nomidan rivoyat qilingan hadis «munqati’ marfu’», ya’ni «uzilishli ko‘tarilgan» hadis deb ataladi.

### **Marfu’ hadislar quyidagi turlarga bo‘linadi:**

1) «Qavliy marfu’» – Rasululloh (s.a.v.)ning so‘zları. Bunda biror sahoba yoki tobi’iy «Rasululloh (s.a.v.) bunday deganlarini eshitdim...» deydi. Masalan, Payg‘ambar (s.a.v.): «Agar ummatimga mashaqqat bo‘lmaganida edi, har bir namoz paytida misvok tutishga buyurar edim», deganlar. Bu rivoyatni sahoba Rasulullohga yetkazib, u kishidan eshitganini rivoyat qilgan. Hadis Rasullulohgacha ko‘tarilgani uchun «qavliy marfu» deyiladi.

2) «Fe’liy marfu’» – Rasulullohning ishlaridan iborat marfu’. Bunda sahoba yoki boshqa bir kishi «Rasululloh (s.a.v.) shunday qilgan edilar...» deydi. Masalan, «Payg‘ambar (s.a.v.) hadyani qabul qilar va unga yarasha qilib qaytarar edilar» degan hadisda Rasulullohning fe’llari keltirilmoqda va bunda ham rivoyat birinchi bajaruvchisigacha ko‘tarilmoqda.

3) «Taqririy marfu’» – Rasululloh taqriri, ya’ni ma’qullahidan iborat marfu’. Agar bir sahoba «Rasululloh (s.a.v.)ning huzurlarida shunday bir ish qilindi...» deb ushbu ishning Rasululloh (s.a.v.) tomonidan ma’qullanganini rivoyat qilsa, bu «taqririy marfu’» bo‘ladi. Masalan, «...Payg‘ambarimiz (s.a.v.) dasturxonlarida zobb (echkemarga o‘xshash sudralib yuruvchi) iste’mol qilindi» hadisini keltirish mumkin.

4) «Vasfiy marfu’» – Rasululloh (s.a.v.)ning sifatlaridan iborat marfu’. Biror bir sahaboning yoki undan keyingilaridan birortasining «Rasululloh (s.a.v.) unday zot edilar, bunday xulq sohibi edilar...» deyishi vasfiy marfu’ga misol bo‘ladi. Marfu’ga amal qilish rivoyatning ishonchliligiga bog‘liq.



## **Payg'ambar (s.a.v.)gacha yetib borgan isnodlar «marfu» deb atalib, odatda sahaba hadisni «Rasululloh (s.a.v.)dan eshitdim», deb rivoyat qiladi.**

«Mavquf» (to‘xtalgan) hadisda – rivoyat qilinayotgan xabar sahabaga yetganda to‘xtab qolib, isnod zanjiri oxiriga, ya’ni Rasulullohga yetib bormagan bo‘ladi. «Mavquf» sahabaga nisbat berilgan gap, ish yoki taqrirdir. Ya’ni, mavquf bir sahabaga yoki bir guruh sahabalarga berilgan bo‘ladi. Nisbat berilayotgan narsa gap, ish yoki taqrir bo‘lsin, ushbu isnod sahabaga qadar uzlusiz yoki uzilgan holda yetib kelgan bo‘lishi mumkin. Agar rivoyatning isnodi sahabaga uzlusiz yetib kelgan bo‘lsa, u «muttasil mavquf» (uzlusiz to‘xtagan) deb ataladi. Agar uzilishlar bilan yetib kelgan bo‘lsa, u holda bu rivoyat «munqati’ mavquf» (uzilishli to‘xtagan) deb ataladi.

Mavquf hadislar ham qavliy, fe’liy va taqririy bo‘ladi. Ali ibn Abi Tolibning: «Insonlarga bilgan narsalarini gapiringlar. Alloh va Uning Rasulini yolg‘onchiga chiqarishlarini xohlaysizlarmi?» degan so‘zлari qavliy mavqufga misol bo‘ladi. Fe’liy mavqufga misol: «Ibn Abbos tayammum qilgan holda imomlikka o‘tdilar», degan hadis. Taqririy mavqufga ba’zi tobi’iyllarning: «Men bir sahabaning oldida shu ishni qildim, inkor qilmadilar», degan so‘zлari misol bo‘ladi.

Mavquf hadis Rasulullohdan emas, balki qandaydir ish, gap yoki taqrir sahabadan sodir bo‘ladi. Ammo sahabalar Rasulullohdan ko‘rgan, bilgan narsalariga tayanib gapirganlari yo amal qilganlari sababli ular ham hadislar qatoriga kiritilgan. Mavquf hadislar ham muttasil, munqati’, muallaq, mu’dal bo‘lishi mumkin. Mavquf hadislar ba’zan marfu’ga tenglashtiriladi va ular olimlar tomonidan «hukman marfu’» deb nomlangan.

### **Mavquf hadislar bir necha ko‘rinishga ega:**

- 1) Sahobalar tomonidan borliqning yaratilishi kabi uzoq o‘tmishda bo‘lgan ishlar haqida xabar berib aytilgan gaplar.
- 2) Sahobalar tomonidan oxirzamon, qiyomat kuni, turli fitnalar kabi kelajakda bo‘ladigan ishlardan xabar berib aytilgan gaplar.
- 3) Bir amalga maxsus ajr yoki maxsus azob bo‘lishi to‘g‘risidagi gaplar. Shunga o‘xshash xabarlar sahabalardan rivoyat qilingan bo‘lsa, «hukman marfu’» hisoblanadi.

Mavquf hadislarga amal qilish borasida quyidagi fikrlar mavjud: Aslida «mavquf» hujjat bo‘la olmaydi, chunki u faqat sahabalarning ishlari yoki

gaplari xalos. Agar sahobalarning amallari sunnatga to‘liq muvofiq kelgani e’tiborga olinsa, hukman marfu’ bo‘lmasa ham ba’zi zaif hadislardan kuchli bo‘ladi. Hukman marfu’ bo‘lsa, marfu’ning o‘zidek hujjat bo‘la oladi. Ibn Abu Shayba (vaf. 235/850 y.) va Abdurazzoqlarning (vaf. 211/826 y.) «Musannaf» asarlari mavquf va maqtu’ rivoyatlarni o‘z ichiga olgan.

«Maqtu’» (uzilgan) – tobi’iy yoki undan keyingi tabaqadan bo‘lgan kishiga nisbat berilgan gap yoki ish. Maqtu’ni munqati’ bilan adashtirmaslik lozim, chunki maqtu’ matnga, munqati’ esa isnodga xos sifat. Hadis maqtu’ bo‘lsa ham isnodi tobi’iyga qadar uzlusiz bo‘lishi mumkin. Masalan, Imom Buxoriy rivoyat qilgan matnda Hasan Basriy: «Sen uning ortida namoz o‘qiyver, bid’ati o‘ziga qaytadi», degan. Bu qavliy maqtu’ga to‘g‘ri keladi. Fe’liy maqtu’ga «Hilyat al-avliyo» kitobidagi Ibrohim ibn Muhammad ibn Muntashir rivoyatida: «Odatda Masruq o‘zi va oilasi orasida parda tortib, ularni va dunyo ishlarini qoldirib namoz o‘qishga kirishar edi», deyilgan rivoyatni misol qilib keltirish mumkin.

Bu borada, ya’ni marfu’, mavquf va maqtu’ haqida Imom Abu Hanifa shunday deganlar: «Rasululloh (s.a.v.)dan kelgan har narsa bosh ustiga, sahobalardan kelganini esa orasidan yaxshiroq‘ini tanlab olamiz, ammo tobi’iylardan kelgan bo‘lsa, biz ham ulardek kishilarmiz». Bu bilan maqtuning shariat hukmlarida hujjat bo‘la olmasligini ma’lum qildi. Ammo tobi’iy zikr qila turib, «yuqoriga oshirgan» yoki shunga o‘xhash ma’noda tobi’iydan yuqori tabaqalarga mansublikka dalolat qiluvchi so‘zlar aytgan bo‘lsa, bu hadis «mursal marfu’» bo‘ladi. Maqtu’ bo‘yicha Ibn Abi Shayba (vaf. 235/850 y.) va Abdurazzoqlarning (vaf. 211/826 y.) «Musannaf» nomli asarlarini keltirish mumkin.

 **3. Isnodning nozik jihatlari.** Hadis ilmi tarixida ba’zan kattalar kichiklardan yoki otalar o‘z farzandlaridan hadis rivoyat qilish holatlari kuzatiladi. Bu kabi holatlar kam uchrasha-da, ular o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, hadis istilohida o‘z atamalariga ega.

### 1) «Mudabbaj va aqron»:

– «Mudabbaj» (bezatilgan) – tabaqada bir-biriga yaqin bo‘lgan roviylarning bir-biridan qilgan rivoyati. Bunda rivoyat ikki taraflama bo‘lishi shart. Sahobalar orasidagi mudabbajga misol: Abu Hurayraning Oishadan, Oishaning Abu Hurayradan rivoyat qilishi. Tobi’iyalar orasidagi mudabbajga misol: Zuhriyning Umar ibn Abdulazizdan, Umar ibn Abdulazizning Zuhriydan rivoyat qilishi. Taba’a tobi’iyalar orasidagi mudabbajga misol: Molikning Avzoiydan, Avzoiyning Molikdan rivoyat

qilishi. Bu mavzu bo‘yicha Imom Doraqutniyning (vaf. 385/995 y.) «al-Mudabbaj» nomli asarini yozgan.

– «Aqron» (tengdosh) – yoshi va sanadi jihatidan tengdosh roviylardan qilgan rivoyatlari. Agar rivoyat qilish faqat bir taraflama bo‘lsagina, bu holat «aqron» deyiladi. Aksincha yuqorida ta’kidlanganidek, «mudabbaj» hisoblanadi. Aqronga misol: Sulaymon Tamimiyying Mis’ar ibn Kudomdan rivoyat qilishi. Chunki ular biri-biriga tengdosh hisoblanadi, lekin Mis’ar ibn Kudom esa Sulaymon Tamimiyydan rivoyat qilmagan.

2) «Rivoyat al-akobir an asog‘ir» (kattalarning kichiklardan rivoyat qilishi) – roviyning yoshda, tabaqada, ilmda va hifzda o‘zidan quyida turgan kishidan rivoyat qilishi. Masalan, sahabalar tobi’iylardan hadis rivoyat qilganlar. Shuningdek, olimroq kishi ilmda va xotirada o‘zidan sustroq roviydan ham hadis rivoyat qilgan.

Kattalarning kichiklardan rivoyat qilishi uch qismga bo‘linadi:

– xabarni qabul qiluvchi kishi yosh, tabaqa, ilm va hifzda xabarni beruvchidan katta bo‘ladi;

– xabarni qabul qiluvchi kishi yoshda emas, balki daraja jihatidan xabarni beruvchidan yuqori bo‘ladi, bunda hofizlik darajasidagi olim hofiz bo‘lman yoshi ulug‘ kishidan xabarni qabul qilib oladi; masalan, Imom Molik ibn Anas taba‘a tobi‘iy Abdulloh ibn Dinordan rivoyat keltirgan;

– xabarni qabul qiluvchi kishi yoshda ham, darajada ham xabarni beruvchidan yuqori bo‘ladi; masalan, Barqoni yozing shogirdi Xatibdan rivoyat qilgan. Barqoni Xatibning ustozи bo‘lib yoshi ham katta, darajasi ham yuqori va undan ko‘p narsani bilgan. Bu yo‘nalishda Hofiz Is’hoq ibn Ibrohim Varroq (vaf. 403/1013 y.) «Mo ravohu al-kibor ‘an as-sig‘or va-l-obo ‘an abno» («Kattalarning kichiklardan va otalarning o‘g‘illardan rivoyat qilganlari») asarini yozgan.

3) «Sobiq va lohiq» (o‘tgan va keyingi) – ancha avval o‘tgan roviydan keyingi roviyning rivoyat qilishi. Ya’ni bunda ikki ketma-ket kelgan roviylarning vafot etgan yillari orasi juda uzoq bo‘ladi. Masalan, Ibn Shihob Zuhriyidan Ahmad ibn Ismoil Sahmiy rivoyat qilgan. Lekin ularning vafot etgan sanalari orasidagi farq 135 yil. Zuhriy 124/742 yil vafot etgan bo‘lsa, Sahmiy 259/873 yil vafot etgan. Bundan shogirdning umri uzun bo‘lgani bilinadi hamda oliy isnodga erishilgan bo‘ladi. Xatib Bag‘dodiy (vaf. 463/1071 y.)ning «as-Sobiq va-l-lohiq» («O‘tgan va keyingi») asari ushbu yo‘nalishda yozilgan asar hisoblanadi.

4) «Rivoyat al-obo an al-abno» («Otalarining o‘g‘illaridan rivoyat qilishlari» – hadis isnodlarida uchraydigan otalarining o‘z farzandlaridan rivoyat qilish holatlari. Masalan, Abbas ibn Muttalib o‘z o‘g‘li Fazl ibn Abbosdan Muzdalifada Rasulullohning ikki namozni qo‘sib o‘qiganliklari haqidagi hadisni rivoyat qilgan. Bu yo‘nalishda Xatib Bag‘dodiy (vaf. 463/1071 y.) «Rivoyat al-obo an al-abno» asarini yozgan.

5) «Oliy va nozil»:

- «Oliy» (yuqori) – roviylar soni kam bo‘lgan isnod.
- «Nozil» (quyi) – roviylar soni ko‘p bo‘lgan isnod.

Masalan, roviylarining soni uchta bo‘lgan isnod boshqa, ya’ni roviylarining soni to‘rtta bo‘lgan isnodga nisbatan «oliy» hisoblanadi. Aksincha, roviylarining soni to‘rtta bo‘lgan isnod boshqa, ya’ni roviylarining soni uchta bo‘lgan isnodga nisbatan «nozil» hisoblanadi. Oliy isnod nozil isnoddan afzaldir. Nozil isnodning roviylari oliynikidan ishonchli bo‘lgan holatda esa, nozilning darajasi yuqori bo‘lishi ham mumkin. Imom Dorimiyning «Sunan» asarida olivy isnodli hadislar ko‘p uchraydi. Shuningdek, muhaddislar o‘zlaridan avval o‘tgan mualliflarning asarlaridagi isnodida roviysi kam oliv isnodlarni alohida kitoblarga jamlaganlar.

6) «Musalsal» (silsila qilingan, ketma-ket tizilgan) – isnoddagi kishilarining barchasi rivoyatni bir sifatda yoki bir holatda amalga oshirishiga aytildi. Ya’ni, Payg‘ambar (s.a.v.) sahobaga hadislarni qanday holatda o‘rgatgan bo‘lsalar, sahobalarning tobi’iy larga ham so‘zma-so‘z va holatma-holatda o‘rgatishi va hokazo.

Uning quyidagicha turlari mayjud:

– roviylarning so‘z orqali xabarni yetkazishi. Bunda sanadning boshidan oxirgi roviysiga qadar xabarni so‘zlash, buyurish orqali yetkaziladi. Masalan, Payg‘ambar (s.a.v.) Muoz ibn Jabalga: «Ey, Muoz men seni yaxshi ko‘raman, sen har namozning ketidan shunday degin: Ey bor Iloho, Seni zikr qilishimda, Senga shukr keltirishimda va Senga chiroqli ibodat qilishimda menga yordam ber», deganlar. Muoz esa o‘zidan keyingilarga ushbu hadisni «men seni yaxshi ko‘raman, sen har namozning ketidan shunday degin...», degan lafz bilan o‘rgatgan;

– roviylarning fe’l orqali xabarni yetkazishi. Bunda sanadning boshidan oxirgi roviysiga qadar xabarni bir xil holatda, bir xil amal bilan amal bilan yetkaziladi. Masalan, Abu Hurayra (r.a.) Rasulullohdan qilgan rivoyatida aytadi: «Rasululloh (s.a.v.) mening qo‘limni ushladilar

va dedilar: «Alloh yerni shanba kuni yaratdi». Abu Hurayra bu rivoyatni keyingi roviyning qo‘lini ushlagan holda aytib bergen. Keyingi roviylar ham hadisni shu yo‘l bilan uzatganlar.

– roviylarning so‘z va fe’l orqali xabarni yetkazishi. Bunda roviylar sanadning barcha tabaqalarida qavl va fe’lda o‘zaro bir xilda so‘z va fe’l bilan hadisni uzatadilar. Har bir roviy o‘zidan avvalgi roviyning so‘zi va holatini aynan takror etadi. Masalan, Anas ibn Molik rivoyat qilgan hadisda Rasululloh soqolini ushlagan holda aytadilar: «Taqdirning yaxshi-yu yomoni, shirin va achchig‘i (Allohdan ekaniga) imon keltirdim». Bunda ham barcha roviylar shu holatni takror qilganlar.

Isnodlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, muhaddis ulamolar har bir hadisning kimdan rivoyat qilingani, ya’ni isnodning kimga borib taqalishi, shuningdek, musannifga hadis qanday yo‘llar bilan yetib kelganiga qarab hadis isnodlarini guruhlarga ajratib o‘rganganlar. Shu bilan birga isnoddagi rivoyat qilish bilan bog‘liq har bir kichik omil ham hadisning ishonzhlilik darajasiga o‘z ta’sirini ko‘rsatishi mumkin ekanini hisobga olgan holda isnoddagi nozik jihatlarni ham e’tibordan chetda qoldirmaganlar.

## HADIS

وَقَالَ النَّبِيُّ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ: أَحَبُّ الْحَدِيثِ إِلَيَّ أَصْدَقُهُ

Nabiy s.a.v. aytdilar: Men uchun eng yaxshi gap rost gapdir.



### Mavzu bo‘yicha savollar

1. Mutavotir hadis deganda nima tushuniladi?
2. Qanday hadislardan ohod hisoblanadi?
3. Mashhur hadislarning qanday turlari mavjud?
4. Mudabbaj va aqron nimani bildiradi?
5. Payg‘ambar (s.a.v.), sahaba va tobi’iyga nisbat berilgan xabarlar qanday nomlanadi?
6. Isnodning nozik jihatlari deganda nimalar tushuniladi?
7. Mashhur hadislarni sahib hisoblash mumkinmi?
8. Qanday rivoyatlarga «musalsal» deyiladi?



## Topshiriqlar

1. Marfu', mavquf va maqtu' hadislarga misollar keltiring.
2. Sahih hadis to‘plamlarining to‘rtinchi tabaqasiga mansub bo‘lgan asarlarni aytинг.
3. Roviyarning ishonchlilik darajalarini sanab bering.
4. Nosix va mansux hadislarga misol keltiring.

## Mustaqil ish mavzulari

1. Isnodlar tahliliga oid hadis istilohlari.
2. Sahih hadis to‘plamlari tabaqalari.
3. Ibn Saloh va uning «Muqaddima» asari.
4. Hadis ilmi rivojida Abu Iso Termiziyning tutgan o‘rni.



## Adabiyotlar

1. Муродов Д. Ҳадисшунослик атама ва иборалари (қисқача изоҳли лугат). – Т.: Фан, 2009.
2. Abdulloh ibn Abdurahmon. Taysir al-allom sharh umdat al-ahkom. – Bayrut. Dor al-fikr, 1999.
3. al-Umariy Akrom Ziyo. Buhus fi tarix as-sunna al-musharrifa. – Madina: Maktaba al-ulum va al-hikam, 1994.
4. Al-Hokim an-Naysaburiy. Al-Mustadrak ala as-sahihayn. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya. 1990.
5. Al-Hokim an-Naysaburiy. Ma’rifat ulum al-hadis. – Bayrut: 1977.
6. Ibn Saloh. Ulum al-hadis. – Damashq: Dor al-fikr, 1986.
7. Muhammad ibn Abdulloh. Al-Qabas fi sharh muvatto ibn Anas. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya. 1998.
8. Xatib Bag‘dodiy. Al-Kifaya fi ilm ar-rivaya. – Bayrut, 1986.

**REJA:**

1. Sahih hadis va uning shartlari.
2. Hasan hadis va uning ishonchlilik darajasi
3. Eng ishonchli hadis to‘plamlari.
4. Ishonchli roviylarning martabalari.
5. Muhkam va ixtilof, nosix va mansux hadislar.

 **Tayanch iboralar:** *adolat, marfu, muttasil, sahihayn, shayxon, siqa, zabit, mashhur*

 **1. Sahih hadis va uning shartlari.** Ishonchli hadis to‘plamlarida hadisning matnidan avval Payg‘ambar alayhis-salomdan tortib, muhaddisgacha bo‘lgan roviylar birma-bir zikr qilinadi. Muhaddislarning asosiy ishlari roviylarning ishonchlilik darajasini aniqlashdan iborat bo‘lgan. Roviylari to‘liq va aniq zikr qilinmagan hadislar muhaddislar tomonidan ishonchli rivoyat sifatida qabul qilinmagan. Shu bilan birga roviylarni ishonchli deb qabul qilish uchun ham ma’lum shartlar qo‘yilgan. Bunda, bir hadisni qabul qilish uchun roviy va hadisga juda qattiq talablar qo‘yilgan. Roviylarga qo‘yilgan asosiy shartlardan biri ularning «adolatli» va «zabtli» bo‘lishlari edi.

«Sahih» so‘zi «sog‘lom», «haqqiy», «ishonchli», «to‘g‘ri» degan ma’nolarni anglatadi. U maqbul hadislarning birinchi turidir. Sahih hadis istilohda isnodi boshidan oxirigacha adolatli, anqlik egasi bo‘lgan kishilarning bir-birlaridan rivoyat qilish yo‘li bilan uzatilgan hadis bo‘lib, uning roviysi shozz va sanadi yoki matnida illat bo‘lmasligi kerak.

Hadis sahih bo‘lishi uchun quyidagi beshta shart bo‘lishi kerak:

1. *Ittisol as-sanad* – isnodning muttasil, ya’ni uzlusiz bo‘lishi lozim. Bunda har bir roviy hadisni o‘zidan avvalgi roviydan bevosita olgan bo‘lishi hamda bu holat isnodning boshidan oxirigacha davom etishi talab etiladi.

2. *Adolat ar-ruvot* – roviylarning adolati, ya’ni hadis roviylarining har biri musulmon, balog‘atga yetgan, oqil, taqvo egasi bo‘lib, fosiqlik, bemuruvvatlik, ya’ni nokaslikdan uzoq bo‘lishi shart.

3. *Zabt ar-ruvot* – roviylarning hadisni mukammal egallagan bo‘lishi, ya’ni uning roviylari va matniga oid bilimlarni juda mustahkam bilishi hamda xotirasida yodlagan yoki yozma ravishda saqlagan bo‘lishi, istalgan vaqtida hadisni aniq va kamchiliklarsiz bir xilda ayta oladigan bo‘lishi kerak.

4. *Adam ash-shuzuz* – shozz bo‘lmasligi, ya’ni bir roviy o‘zidan kuchliroq roviyga muxolif bo‘lmasligi kerak.

5. *Adam al-illat* – illatdan xoli bo‘lishi, ya’ni hadisning sanadi yoki matnida noqislik va kamchilik bo‘lmasligi kerak.

Ushbu shartlarning barchasi mavjud bo‘lgan hadis sahih lizotih (o‘zidagi xususiyatlarga ko‘ra sahih) hisoblanadi. Agar hadisda mazkur besh shartdan birortasi mavjud bo‘lmasa, hadis sahih deb atalmaydi. «Bu hadis sahih emas» deyilsa, bilinadiki, ushbu hadisda talab qilingan besh shartning birortasi yoki barchasi mavjud emas. Lekin, bu holat hadisni yolg‘on deyishga asos bo‘la olmaydi.

Hadisning sahihlik darajasini quyidagi misol orqali ko‘rish mumkin: Imom Buxoriy Abdulloh ibn Yusufdan rivoyat qilgan hadisda: «Men Rasululloh (s.a.v.) shom namozida «Tur» surasini o‘qiganlarini eshitdim», degan. Bu hadis quyidagi sabablar bilan sahih hisoblanadi:

a) hadisning barcha roviylari bir-birlarini ko‘rib, o‘z shayxi bilan bevosita uchrashgani va undan hadis eshitgani uchun isnodi muttasildir; b) jarh va ta‘dil olimlari fikricha, isnoddagi barcha roviylar o‘zining odilligi va aniqligi bilan sifatlangan va ulardan 1) Abdulloh ibn Yusuf ishonchli bo‘lib, o‘zining aniqligi (zabt) bilan ajralib turgan, 2) Molik ibn Anas imom va hofiz olimlardan bo‘lgan, 3) Ibn Shihob Zuhriy ko‘plab olimlarning fikriga ko‘ra, kuchli zabtgaga ega faqih va hofiz bo‘lgan, 4) Muhammad ibn Jubayr ishonchli kishi bo‘lgan, 5) Jubayr ibn Mut‘im sahobalardan bo‘lgan; v) hadisda og‘ish yo‘q va boshqa bundan kuchliroq rivoyatga muxolif emas; g) hadisda kamchilik yo‘q.

Ishonchli hadis sahihlik shartlarini o‘zida mujassamlashtirish darajalari jihatidan bir-biridan farqlanadi. Bu farq matnda ham, isnodda ham bo‘lishi mumkin. Biror isnod boshqa isnodlardan farqli ravishda mutlaq to‘g‘ri deb ayтиб bo‘lmaydi. Chunki olimlardan ba’zilari eng to‘g‘ri isnodlar borasida ham bahs yuritib, ularni aniqlashtirishga harakat qilganlar va har bir olim o‘z nazdida kuchli bo‘lgan isnodni afzal ko‘rgan. Masalan, Is’hoq ibn Rohuvayh va Ahmad ibn Hanbal kabi muhaddislar Zuhriy Solimdan, u esa otasi Abdulloh ibn Umar ibn Xattobdan naql qilgan hadislarni eng ishonchli hisoblaganlar va o‘zlari mazkur isnod orqali hadis rivoyat qilganlar. Shuningdek, Ibn Madiniy va Fallos kabi muhaddislar Ibn Sirin Abidadan, u Ali ibn Abu Tolibdan naql qilgan hadislarni eng ishonchli hisoblaganlar va o‘zlari mazkur isnod orqali hadis rivoyat qilganlar. Imom Buxoriy esa Molik

Nofe'dan, u Ibn Umardan naql qilgan hadislarni eng ishonchli hisoblagan va o'zi mazkur isnod orqali hadis rivoyat qilgan.



**«Sahih» so'zi «sog'lom», «haqiqiy», «ishonchli», «to'g'ri» degan ma'nolarni anglatadi.**

Sahih hadislarning sahih lizotihdan tashqari sahih lig‘ayrih turi ham mavjud bo‘lib, unga quyidagicha ta’rif berilgan: «O‘zidan boshqa kuchliroq yoki barobar hadis bilan quvvatlangan hadis sahih lig‘ayrih bo‘ladi. Bu turdag'i hadis isnodlarini alohida-alohida holda ko‘rib chiqilganda, ularning barchasi sahihlik talablariga javob bermasligi mumkin. Ammo, isnodlarning barchasini jamlagan holda qaralganda, umumiy tarzda sanad kuchli bo‘ladi. Sahih lig‘ayrih bo‘lgan hadislар sahihlikning eng past darajasi hisoblanib, sahih lizotihdan past va hasan lizotihdan baland darajalidir.

Ishonchli hadislarning umumiy adadi bo‘yicha aniq ma'lumot bo‘lmasada, Imom Buxoriyning «Men yuz ming sahih, ikki yuz ming g‘ayri sahih hadislarni yodladim» degan so'zi orqali ularning soni yuz mingdan ortiq ekani bilinadi. Muhaddis va usul al-fiqh olimlar sahih hadislarni shar‘iy masalalarini hal qilishda ishonchli asos sifatida qabul qilganlar.

Ulamolar sahih hadisning hukmini quyidagicha belgilaganlar:

- 1) Sahihayn, ya’ni ikki sahihda bo‘lsa hadisning sahihligi aniq bo‘ladi.
- 2) Shayxon, ya’ni ikki shayxda chiqmagan hadis sahih bo‘lsa, u ham shar‘an maqbul hisoblanadi.
- 3) Sahih hadisga amal qilinmasa ham u maqbul hisoblanaveradi.
- 4) Hadisning bitta sahoba tomonidan rivoyat qilinishi uning sahihligiga zarar yetkazmaydi.

Shuningdek, olimlar sahih hadislarni ham kuchlilik jihatidan bir necha darajalarga ajratganlar. Jumladan, Ibn Saloh quyidagi darajalarni sanab o‘tgan etgan:

- 1) Imom Buxoriy va Muslim tomonidan rivoyat qilingan bir xil hadis eng sahih hisoblanib, ular «muttafaqun alayhi» («shunga kelishilgan») deb nomlangan.
- 2) Imom Buxoriyning o'zi rivoyat qilgan hadis.
- 3) Imom Muslimning o'zi rivoyat qilgan hadis.
- 4) Imom Buxoriy va Muslimning shartlariga binoan sahih bo‘lib, ularning kitoblarida kelmagan hadis.
- 5) Imom Buxoriy shartiga binoan sahih bo‘lib, kitobida kelmagan hadis.

- 6) Imom Muslim shartiga binoan sahih bo‘lib, kitobida kelmagan hadis.  
7) Imom Buxoriy va Musliming shartidan boshqa yo‘llar bilan rivoyat qilingan hadislar.

Bir qator olimlar hadislarning sahihligini rivoyat qilingan mintaqasiga qarab ham belgilaganlar. Xatib Bag‘dodiyning (vaf. 463/1071 y.) fikriga ko‘ra, Makka va Madina ahllari isnodlarida *tadlis* (noaniqlik) uchrasht ehtimoli kam bo‘lib, eng ishonchli hisoblanadi. Keyingi o‘rinda Yaman, undan keyin Basra isnodlaridir. Ammo Kufa isnodlarida illatli hadislar ko‘p uchraydi. Shuningdek, Shom ahli hadislarining ham ko‘pi *mursal* va *maqtu*‘dir. Biroq, mazkur fikrlar hamni ham mutlaq haqiqat deb qabul qilinmaydi.

 **“Mustalah al-hadis” ilmi ulamolari istilohida “sahih hadis” – sanadi boshidan oxirigachaadolatli va zobtli kishi o‘zi kabi roviydan muttasil sanad bilan naql qilgan hamda shozz va illatli bo‘lmagan hadisdir.**

 **2. Hasan hadis va uning ishonchlilik darajasi.** Payg‘ambar (s.a.v.) dan rivoyat qilingan ishonchli xabarlarning yana bir turi «hasan» hadislardir. «Hasan» so‘zining lug‘aviy ma’nosiy «yaxshi», «chiroyli» bo‘lib, istilohda esa sanadi sahif talablariga javob beradigan darajadagi, ammo zabti pastroq bo‘lgan rivoyatga aytildi.

Ulamolar sahif bilan zaif hadislarning o‘rtasida kelgan hasan hadislarni turlicha ta’riflaganlar. Jumlandan, Ibn Saloh (vaf. 704/1305 y.) o‘z risolasida Imom Abu Dovudning hasan hadisga bergen ta’rifi haqida shunday deydi: «Men kitobimda sahif hadislar bilan birga, unga o‘xshagan, unga yaqin bo‘lgan hadislarni ham zikr qildim... Kitobimga kiritilgan hadislarda agar biroz qattiqlik bo‘lsa, men uni tushuntirdim. Men tushuntirmagan hadislar ham solih hadislardir. Ularning ba’zilari boshqalaridan sahihroqdir».

Jaloliddin Suyutiying ta’kidlashicha, Abu Dovuddan rivoyat qilingan «solih» («yaroqli») sifatiga ega bo‘lgan hadis «hasan» hadis bo‘lib, bu so‘z zaif hadisni ham ifoda qiladi va unga e’tibor qilinadi, ammo hujjat sifatida qabul qilinmaydi.

Ibn Kasirning aytishicha, «Abu Dovud sukut saqlagan hadis hasandir». Ma’lumki, Imom Abu Dovud «Sunan»iga ishonchli hadislarni jamlashda ikki shartni qo‘ygan: 1) sanadining kuchli bo‘lishi; 2) matnining kuchli bo‘lishi.

«Sahih» hadis singari «hasan» hadis ham hasan lizotih va hasan lig‘ayrihga bo‘linadi. Yuqorida «hasan» hadisning hasan lizotih turiga ta’rif berib o‘tildi. Demak, «hasan»ligi o‘zida mavjud bo‘lgan omillarga bog‘liq hadis hasan lizotih deyiladi. U o‘z shartlari bilan sahif lig‘ayrih darajasidan bir pog‘ona quyida turadi.

Hasan hadisning ikkinchi turi – hasan lig‘ayrih bo‘lib, u nisbatan zaifroq hadis bo‘lsa-da, uning rivoyat yo‘llari ko‘p bo‘lgani sababli zaiflik darajasidan yuqoriroq turadi. U hasan lizotihdan bir pog‘ona quyi martabali, nisbatan zaifroq hadisdir. Zaifligi sababi roviyning fosiqligi va yolg‘onchiligi emas, balki isnodidagi roviylar o‘z rivoyatida ko‘p xato qilmagan, holati ravshan bo‘lmay, salohiyati mavhum, yolg‘on bilan ayblanmagan, matni esa mazkur roviy kabi boshqa kishi tomonidan ham rivoyat qilingan hadislardir.

Demak, zaif ham hasan lig‘ayrih darajasiga yetishi mumkin. Buning uchun quyidagi ikki holatga e’tibor berish lozim: 1) hadis ayni isnod yo‘lida boshqa bir yoki bir necha o‘zi kabi yoki o‘zidan kuchliroq isnodlar bilan rivoyat qilingan bo‘lishi; 2) hadisning zaiflik sababi roviy xotirasining sustligi yoki isnodida uzilish bo‘lgani va yo isnod roviylari orasida mubham (noaniq) kishilarning bo‘lishi.

Hasan lig‘ayrih ham islam dinida ishonchli asos sifatida qabul qilinadi.

Hasan atmasini birinchi bor muhaddis Abu Iso Termiziy o‘zining «al-Jomi’ as-sahih» asarida qo‘llagan. Unga qadar hadislar sahif va zaif turlariga bo‘lingan. Chunonchi Abu Dovud Sijistoniy o‘zining «Sunan»ini yozganda «... unga (sahihga) o‘xshagan, unga yaqin bo‘lgan hadislarni ham zikr qildim...», deganida hali «hasan» atamasini ishlatmagan. Chunki hali bu istiloh hadis ilmida muomalaga kirmagan edi.

Ibn Saloh o‘zining «Muqaddima» asarida shunday yozadi: «Abu Iso Termiziying kitobi «hasan» hadisni bilishda asl manbadir. Chunki, hasan hadis nomini baland aytgan, «Jome’»ida ko‘plab shunday hadislarni zikr etgan muhaddis Imom Termiziydir».

Imom Termiziy o‘z asarida «hasan sahif» atamasini ham ishlatgan. Bu istiloh quyidagi ikki holatda keladi:

1) agar hadisning ikki isnodi bo‘lib, ulardan biri hasan, ikkinchisi sahif bo‘lsa;

2) hadisning faqat bir isnodi bo‘lib, ba’zi olimlar uni hasan, boshqalari sahif deb aytgan bo‘lsa. Bu bilan Imom Termiziy olimlarning bir hadis

haqida bildirgan ikki xil fikrlarini keltiradi, ammo o‘zining fikrini bildirmaydi.



**Ahmad ibn Hajar Asqaloniy:** “*Hasan hadis sanadi muttasil bo‘lib, shuzuz va illatdan xoli, ammo zabi pastroq adolatli roviyning o‘zi kabi odil kishidan qilgan rivoyatidir*”.

 **3. Eng ishonchli hadis to‘plamlari.** Hadis to‘plamlari juda ko‘p bo‘lsada, ulamolar ular orasidan ishonchlilik jihatidan eng yuqori bo‘lganlarini alohida ajratib ko‘rsatganlar. Jumladan, Imom Buxoriyning «al-Jome’ as-sahih» asari jumhur ulamolar tomonidan eng birinchi o‘rinda turuvchi kitob sifatida tan olingen. Shuningdek, Buxoriy kabi qat’iy talablarni qo‘ygani sababli Imom Muslimning «Sahih Muslim» nomi bilan mashhur «al-Jome’ as-sahih» asari ham birinchilar qatorida zikr etiladi. Shu sababli ham mazkur ikki sahih hadis to‘plamlari Qur’ondan keyingi o‘rinda turuvchi eng ishonchli manba hisoblanadi. Bu ikki muhaddis hadislarni saralashda o‘ziga xos kuchli talab va shartlarni qo‘yganlar. Xususan, Imom Buxoriy hadis isnodidagi roviylar bir-biridan hadis rivoyat qilganda o‘zaro aynan uchrashgan bo‘lishlarini (al-liqo) qat’iy shart qilib belgilagan. Imom Muslim esa bir-birdan hadis rivoyat qiluvchi kishilar zamondosh bo‘lishlariga e’tibor qaratgan. Har ikki «Sahih»ni chuqur o‘rgangan ulamolarning aksariyati «Imom Buxoriyning kitobi kuchli», degan fikrda to‘xtalganlar.

Mazkur ikki ishonchli to‘plam barcha hadislarni qamrab olmagan, balki ularning mualliflari bu to‘plamlarda faqat eng sahih hadislarni jamlaganlar. Shuningdek, «Sahihayn»ga kirmagan ishonchli hadislar «al-Kutub attis’ a» («To‘qqiz kitob», «To‘qqiz ishonchli to‘plam») tarkibiga kiritilgan boshqa to‘plamlar hamda «Sunan ad-Doraqutniy», «Sunan al-Bayhaqiy», Muhammad ibn Is’hoq ibn Huzayma (vaf. h. 311 y.) va Abu Hotim Muhammad ibn Hibbonning «Sahih», Hokim Naysoburiyning «Mustadrak» va boshqa hadis kitoblaridan o‘rin olgan.

Olimlar hadis kitoblarining ishonchlilik darajasiga ko‘ra ularni turli tabaqalarga bo‘lganlar. Zero, hadis to‘plamlari har xil muhaddislar hamda boshqa ilm sohalari vakillari tomonidan turli tarixiy davrlarda jamlangan. Shu sababli ularning saviyalari ham bir xil bo‘lмаган. Shuningdek, hadislarni jamlayotgan muhaddisning bilimi, hadis jamlashga qo‘ygan

talablari va shu kabi omillarga qarab ham ularning asarlari bir-biridan farqlangan. Hadis to‘plamlarining sahihligiga ko‘ra ajratilgan tabaqalari quyidagilardir:

Birinchi tabaqa: Imom Buxoriy va Imom Muslimning «Sahih»lari va Molik ibn Anasning «Muvatto» asari bilan cheklanadi. Ularda hadisning mutavotir, ohod va hasan turlari bor.

Ikkinci tabaqa: Imom Termiziy va Abu Dovudning «Sunan»lari, «Sahihayn», ya’ni Ahmad ibn Hanbalning «Musnadi» va Imom Nasoiyning «Mujtabo» asarlari juftligi hamda hasan hadislарini nisbatan ko‘proq qamrab olgan boshqa to‘plamlar. Muhaddislar ushbu ikki tabaqaga alohida e’tibor bilan qarab, aqida va shariatda asosan ulardan istinbot qilganlar, ya’ni hukm chiqarganlar.

Uchinchi tabaqa: Bular hadisning shozz, munkar va muztarib turlaridan iborat zaif hadislар ko‘p bo‘lgan kitoblar. Bu to‘plamlardagi hadislarning isnodlarida nomi kelgan roviylar haqidа yetarlicha ma’lumot mavjud emas. Bunga Ibn Abu Shayba, Tayolisiy va Abd ibn Humaydning «Musnad» asarlari hamda Abdurazzoq, Bayhaqiy, Tabaroniy va Tahoviylarning hadis kitoblari kiradi. Ulamolar mazkur tabaqaga oid to‘plamdagи hadislardan kamroq o‘rnilda foydalanganlar.

To‘rtinchi tabaqa: Keyingi asrlarda bid’at va zalolatga ketgan firqa vakillari hamda adolatli deb topilmagan ba’zi tarixchi, sufiy, va’zon, qissachi va shu kabi kishilardan yig‘ilgan shubhali hadislар. Hadis ilmiga oid kitoblarda bu kabi kishilar qatoriga Ibn Mirdavayh, Abu Shayx va Ibn Shohin kabi roviylar kiritilgan.



*Eng ishonchli hadislар alohida jamlangan asarlar - “Sahih Buxoriy” va “Sahih Muslim” islom dinida Qur’oni karimdan keyin eng sahih kitob sanaladi.*

 **4. Ishonchli roviylarning martabalari.** Ma’lumki, sahih hadis to‘plamlarida hadisning matnidan oldin Rasululloh (s.a.v.)dan tortib, muhaddisgacha bo‘lgan roviylar birma-bir zikr qilingan isnodlari keltirilgan. Muhaddislarning asosiy ishlaridan biri roviylarni va ularning ishonchlik darajasini aniqlashdan iborat edi. Hadisning roviysi to‘liq va aniq zikr qilinmagunicha rivoyat muhaddislar tomonidan ishonchli deb qabul qabul

qilinmagan. Shu bilan birga, hadis ilmida roviylarning «hadisi maqbul» bo‘lishi uchun ma’lum shartlar qo‘yilgan. Ulardan biri roviylarning adolatli (musulmon, balog‘atga yetgan, aqli, fosiqlik alomatlardan xoli va b.) va zabtli (ishonchli, xotirasi kuchli, mas’uliyatli) bo‘lishlaridir. Hadis rivoyat qilgan roviylarning ishonchlilik darajalariga ko‘ra muhaddis ulamolar quyidagi darajalarni belgilaganlar:

1) *Asbat* (أَبْتَ) – eng mustahkam, eng sobit; bu kabi sifat ishonchlilikning eng yuqori darajasi bo‘lib, «Falonchi benihoya sobitdir», «Falonchi odamlarning eng sobitidir» kabi iborlar tarkibida keladi.

Ishonchli hadis to‘plamlarining aksariyatida roviylarning martabalariga tegishli fikr-mulohazalar, ularning darajalari ko‘rsatilgan. Jumladan, Abdulloh ibn Yusuf «Shomlik roviylarning eng sobiti», Vuhayb ibn Xolid «Basralik shayxlarning eng sobiti», Molik ibn Anas esa «Barcha sohalar bo‘yicha eng sobit kishi», Hushaym ibn Bashir «Savriy rivoyat qilgan hadislarning eng hofizi», Yahyo ibn Abdulloh ibn Bukayr esa «Lays rivoyat qilgan hadislarning eng sobiti» va boshqa shu kabi iboralar bilan ta’riflaganlar.

2) *Siqqa sabt* (سِقَّةٌ ثَبَتْ) – ishonchli, mustahkam; ba’zan roviylarning martabalari shu kabi bir yoki undan ortiq tavsifiy so‘zlar bilan ta’kidlanadi. «Falonchi ishonchli sobitdir» kabi iboralari bilan sifatlangan ushu darajadagi roviylardan biri Yazid ibn Horun edi. Boshqa ulamolar uni «ishonchli sobit» shaklida, shuningdek, Ali ibn Madiniy uni «Undan ko‘ra hofizrog‘ini ko‘rmadim», Muhammad ibn Yusufni «ishonchli rostgo‘ydir», Affon ibn Muslimni «ishonchli sobit mohir (o‘z ishining ustasi)» kabi so‘zlar bilan ifodalaganlar.

3) *Siqqa* (سِقَّةٌ), *Hujjat* (حُجَّةٌ) – ishonchli; jarh va ta’dil ulamolarining aksariyati mashhur hadis to‘plamlaridagi barcha roviylarga nisbatan «siqqa» iborasini qo‘llaganlar. Bunda roviyning ishonchliliga dalolat qiluvchi sifatlari oddiy «Falonchi ishonchlidir» yoki «Falonchi hujjatdir» tarzida keltiriladi.

4) *Saduq*, *Lo ba’sa bihi* (صَدُوقٌ) – o‘ta rostgo‘y, yomonligi yo‘q; zabtini ko‘rsatmagan holada,adolatli bo‘lgan roviyga ishlatalidi. Masalan, «falonchi o‘ta rostgo‘ydir», «falonching yomonligi yo‘qdir». Roviylardan Abul Mug‘ira, Abdulloh ibn Muhammad va boshqalar shunday sifatlar bilan ta’riflanganlar.

5) «Falonchi shayxdir», «undan kishilar rivoyat qilganlar» kabi iboralarni ishlatalib roviyning ishonchli yoki ishonchsiz ekanini ko‘rsatmaganlar.

6) *Solih al-hadis*, *yuktab hadisuh* – (يكتب حديثاً) – hadisi yaroqli, hadisi yoziladi; ishonchlilik darajasi pastroq bo‘lgan hadislarga ishlataladi. Masalan, «falonchining hadisi yaraydi» yoki «uning hadisi yoziladi» kabi.

Shuningdek, jarhning martabalariga taalluqli bo‘lgan boshqa shakllardagi istilohlar – «falonchi hadis rivoyat qilishda layyin, ya’ni «yumshoq», «bo‘sh», «falonchi hujjat bo‘lmaydi» kabi lafzlar bilan ham roviylarning ishonchlilik darajalari ko‘rsatiladi.

Mazkur olti darajadagi roviylarning avvalgi uchtasi martabasiga qaramay hujjat sifatida qabul qilinadi. To‘rtinch va besinchi darajadagilar esa qabul qilinmaydi. Lekin hadislari yozilib, boshqa ishonchli (siqa) roviylarning hadislari bilan solishtirilib, muvofiq kelgani hujjat sifatida ishlataladi. Zabt egasi bo‘lmanan oltinchi darajadagi mashhur roviylarning hadislari boshqa hadislar bilan qiyoslash yoki hujjat sifatida ishlatish uchun emas, balki faqat ma’lumot uchun yozib qo‘yiladi. Biroq, ayrim hollarda muhaddislar nafaqat yuqori martabaga ega bo‘lgan, balki martabasi past, ya’ni ishonchlilik darajasi quyiroq bo‘lgan roviylardan ham ma’lumot uchun hadis rivoyat qilganlar. Ammo bunday holatlarda hadis matnining ishonchlilik darajasiga alohida e’tibor bergenlar.

 **5. Muhkam va ixtilof, nosix va mansux hadislar.** IJishonchli hadislari ikkiga sahib va hasanga bo‘linishi yuqorida aytib o‘tildi. Ular maqbwl (qabul qilingan) hadis bo‘lgani uchun ularga amal qilinadi. Ammo maqbwl hadislarning barchasiga ham amal qilinmaydi. Shu nuqtai nazardan ular ikkiga: amal qilinadigan («ma’mul bih») va amal qilinmaydigan («g‘ayru ma’mul bih»)ga bo‘linadi. Ya’ni hadis ishonchli deb topilsa ham ularga amal qilinmasligi mumkin.

Amal qilinadigan hadislari ham o‘z navbatida ikkiga – «muhkam» va «nosix»ga bo‘linadi.

Amal qilinmaydigan hadislari ham ikkiga «ixtilofli» va «mansux» qismlarga bo‘linadi.

«Muhkam» arab tilida «aniq», «mustahkam» ma’nolarini bildiradi. Istilohda – o‘zi kabi boshqa bir hadisga zid ma’noda bo‘lmanan maqbwl hadis. Masalan, «Islom besh narsaga bino qilingandir...» degan hadisga qarshi ma’nodagi hadis yo‘q. Hadislarning ko‘p qismi mana shu turga mansub.

«Muhkam»ning aksi «ixtilof» bo‘lib, lug‘atda «tafovut», «har xillik», «farq», «ixtilofli» ma’nolarini bildiradi. Istilohda – bir-biriga qarama-qarshi ma’nodagi ikki maqbul hadisga aytildi. Bunday hadis o‘zi kabi boshqa bir hadisdan farq qilsa-da, ularni o‘zaro muvofiqlashtirish (birlashtirish) mumkin. Ya’ni, biror sahif yoki hasan hadis martaba va quvvat darajasida o‘zi kabi boshqa bir hadisga zohirda qarama-qarshi bo‘ladi. Buni faqat kuchli olim amalga oshira oladi. Masalan, Imom Muslim rivoyat qilgan «Kasal yuqishi va qush uchirib fol ochish yo‘q...» hadisi bilan Imom Buxoriy rivoyat qilgan «Sherdan qochganing kabi moxovdan ham qoch» hadislari sahif bo‘lsa-da, ma’no jihatidan bir-biriga ziddir. Chunki birinchi hadisda «kasal yuqishi» inkor qilinsa, ikkinchisida tasdiq qilinmoqda. Muhaddis ulamolar bu ikki hadisning o‘rtasini muvofiqlashtirganlar. «Kasal yuqmaydi», deb aytgan olimlar Payg‘ambar (s.a.v.)ning: «Narsa narsaga ko‘chmaydi» (Ahmad va Termiziy rivoyat qilgan) hadislарини hujjat qildilar. Olimlar tajriba yuzasidan bir qo‘tir tuyani sog‘lom tuyalar orasiga qo‘shib qo‘yanlar. Birinchi qo‘tir tuyaga qo‘tirlik kimdan yoki qaerdan yuqqan?! Alloh taolo qo‘tirlik kasalini birinchi tuyada qanday paydo qilgan bo‘lsa, ikkinchisida ham xuddi shunday paydo qilgan, lekin «Moxov kasalidan sherdan qochgandek qoch», degan hadis zararni oldini olish hisoblanadi. Alloh taoloning taqdirda, qazoi qadarida bitilgani uchun kishi moxov kasali bor inson bilan aralashib yursa, unda ham bu xastalik paydo bo‘ladi. Bu holda quyidagilarga amal qilinadi: 1. Bu ikki hadisni bir nuqtada birlashtirish imkonni bo‘lsa, birlashtiriladi va muvofiqlashtiradi, so‘ng ularga amal qilish vojib bo‘ladi. 2. Biror jihatdan ularni birlashtirib bo‘lmasa, quyidagilarga amal qilinadi: a) agar ulardan biri nosix ekanligi ma’lum bo‘lsa, uni olib mansux-ikkinchi hadis tark qilinadi; b) agar nosix yoki mansuxligi ma’lum bo‘lsa, har birini elliktadan ortiq shartlar asosida o‘rganib chiqiladi va maqbulrog‘i tanlanib, ikkinchisi tark qilinadi (shartlar: roviyning holidan xabardor bo‘lishi, vositalarning kam bo‘lishi, roviyning fiqhi, nahvni bilishi, so‘zlarning izohli lug‘atini bilishi, yodlashi, taniqli bo‘lishi, taqvodor bo‘lishi, e’tiqodining to‘g‘ri bo‘lishi, xabar berayotgan narsasida sobit bo‘lishi, shayxi bilan ko‘p birga bo‘lishi va hokazo); v) agar biri ikkinchisidan maqbulroq ekani ma’lum bo‘lmasa, to aniqlanguncha ularga amal qilinmaydi, ammo bunday hol juda kam uchraydi. Bu hadis ilmiga oid asarlarda «Ixtilof al-hadis» yoki «Muxtalif al-hadis» deb yuritiladi. Bunday hadislarni o‘rganish juda muhim hisoblanadi. Ushbu

sohada eng birinchi asar yozgan kishi Imom Shofe’iy (vaf. 204/820 y.) bo‘lib, u «Ixtilof al-hadis»dir hamda Muslim ibn Qutayba Dinovari (vaf. 276/889 y.), Muhammad ibn Jarir Tabariy (vaf. 310/922 y.), Abu Ja’far Tahoviy (vaf. 321/933 y.) kabi olimlar ham bu borada qalam tebratganlar.

Amal qilinadigan va amal qilinmaydiganning keyingisi nosix va mansuxdir. Avval «nasx» haqida ma’lumot berish maqsadga muvofiq. «Nasx» lug‘atda «bekor qilmoq», «ketkazmoq», «o‘chirmoq», «naql qilmoq», «ko‘chirmoq» ma’nolarini bildiradi. Istilohda esa, hukm chiqaruvchi avvalgi joriy qilgan hukmni keyingisi bilan o‘zgartirishiga aytildi. Ya’ni avvalgi hukmni keyin kelgan hukm bilan kuchdan qoldirishi nazarda tutiladi. Rasululloh ham Qur’onda bo‘lgani kabi avval aytgan hukmlarini ba’zan keyingisi bilan o‘zgartirganlar.

Hukmi o‘chgan hadislar «mansux» («o‘chirilgan») va o‘zidan oldin kelgan hadis hukmini ketkazuvchisiga «nosix» («o‘chiruvchi») atamalari ishlataladi.

Hadislarning nosix va mansuxini aniqlash nihoyatda mashaqqatli muhim fan bo‘lgani uchun muhaddislar bu borada alohida kitoblar yozganlar. Muhaddislar quyidagi qoidalar orqali ularni aniqlash mumkin ekanini ko‘rsatganlar:

1. Rasululloh (s.a.v.)ning avval aytgan hadislarini keyingisi bilan almashtirganlarini ochiq bayon qilishlari orqali. Masalan, Burayda (r.a.) hadisida Rasululloh (s.a.v.) «Men sizlarni qabrlarni ziyyarat qilishdan qaytargan edim, endi ularni ziyyarat qilaveringlar, chunki, qabrlar oxiratni eslatadi», deganlar.

2. Sahobaning so‘zi orqali. Ya’ni sahoba, Rasululloh (s.a.v.)ning falon ishlari, falon ishlardan keyin sodir bo‘lgan, deydi. Masalan, Jobir (r.a.) ning Rasululloh (s.a.v.)ning so‘nggi ikki buyruqlaridan biri – o‘t tekkan narsadan tahorat qilinmaslikka buyurishlari bo‘ldi, degan hadisi. Ya’ni olovda pishgan narsadan yeb, tahorat qilib bo‘lmasligini aytganlar.

3. Tarixni aniqlash, ya’ni hadislarning aytilgan vaqtini: qaysi biri avval, qaysi biri keyin ekanligini bilish orqali. Masalan, Imom Abu Dovud rivoyat qilgan hadisda Rasululloh (s.a.v.): Qon oldirish va qon quyish ro‘zani ketkazadi, deganlar. Boshqa Imom Buxoriy rivoyat qilgan hadisda Rasululloh (s.a.v.)ning ehromda va ro‘zadorlik holatda qon oldirganliklarini Abdulloh ibn Abbas aytgan. Birinchi hadis Makka fathida aytilgan. Ikkinchisi esa vidolashuv haji vaqtida aytilgan.

4.Ijmoning ko'rsatishi bilan. Masalan, Imom Dorimiy rivoyat qilgan hadisda: «Kim mast qilguvchi ichimlik ichsa uni darralanglar, agar to'rtinchisi marta ichsa o'ldirinqlar» deyilgan. Imom Navaviy bu hadisni ijmoning ko'rsatini ila nasx qilinganini aytgan. Ammo ijmo nasx ham, mansux ham qilmaydi, balki nosixni ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki barcha sahib kitoblarida kelgan hadislarga amal qilish mumkin emas. Ularning orasida ixtilofli va mansuxlari mavjud. Shuning uchun hadislardan bevosita hukm olish mumkin emas. Buning uchun hadis to'plamlariga yozilgan sharhlarni yoki fiqhiy asarlarga murojaat qilish lozim.

### HADIS

وَقَالَ النَّبِيُّ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ:  
مَنْ تَعَظَّمْ فِي نَفْسِهِ وَ اخْتَالَ فِي مِشْيَتِهِ لَقِيَ اللَّهَ وَ هُوَ عَلَيْهِ غَضَبٌ

Nabiy s.a.v. aytdilar: Kimiki o'zini katta tutib, yurish-turishida kibru havoli bo'lsa, oxiratda Allohning g'azabiga duchor bo'lur.



### Mavzu bo'yicha savollar

1. «Sahih» hadisga qanday ta'rif berilgan?
2. Hadis sahib bo'lishi uchun qanday shartlar belgilangan?
3. Sahih hadisning qanday darajalari mavjud?
4. «Hasan» hadisning ma'nosi nima va uni kim istiloh tarzida kiritgan?
5. Hadis to'plamlari ishonchlilik darajasiga ko'ra qanday tabaqalarga bo'lingan?
6. Ishonchlari roviylarning qanday martabalari mavjud?
7. Muhkam va ixtilof hadislaringning orasida qanday farqlar bor?
8. Nosix va mansux hadislar qanday aniqlanadi?



### Topshiriqlar

1. Sahih hadislarning shartlarini izohlab bering.
2. Muhandislar nazdida «kuchli isnod» sifatida tanlangan roviylar zanjiri orqali rivoyat qilingan hadislarga misol keltiring.

3. Hasan lizotih va hasan lig‘ayrih darajasidagi hadislarni o‘ziga xos tomonlarini tushuntiring.

4. «To‘qqiz ishonchli to‘plam» tarkibiga kirgan asarlarni tavsiflang.

### **Mustaqil ish mavzulari**

1. Sahih va hasan hadislar.

2. Abu Dovudning hadis ilmi rivojiga qo‘sghan hissasi.

3. Molik ibn Anas va uning «Muvatto» asari.

4. Sunnat va hadisning o‘ziga jihatlari.



### **Adabiyotlar**

1. Абу Абдуллоҳ Мұхаммад ибн Исмоил ал-Бухорий. Саҳиҳ ал-Бухорий: 2 жилдли. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008.

2. Abu Tayyib al-Azim al-Abodiy. Sharh sunan Abi Dovud. – Bayrut: Dor al-fikr, 1995. 1-juz.

3. Ad-Doraqutniy. Sunan. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya. 1996.

4. Az-Zahabiyy. Siyar a’lom an-nubalo. – Bayrut: Dor al-fikr. 1997.

5. Al-Bayhaqiy. As-Sunan al-kubro. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya, 1999.

6. Al-Buxoriy. Al-Adab al-mufrad. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya. 1996.

7. Al-Buxoriy. At-Tarix as-sag‘ir. – Bayrut: Dor al-ma’rifa. 1986.

8. Ali ibn Bulbon. Sahih ibn Hibbon bi tartib ibn Bulbon. – Bayrut: Muassasa ar-risola, 1998.

9. Ali ibn Odam. Sharh sunan an-Nasoiy. – Bayrut: Dor al-me’roj. 1997.

10. An-Navaviy. Sharh sahib Muslim. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya, 2000. 1-juz.

11. An-Nasoiy. Kitob as-sunan al-kubro. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya. 1991.

12. An-Nasoiy. Sunan an-Nasoiy. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya. 1995.

13. Muhammad al-Humaydiy. Al-Jam’ bayn as-Sahihayn. – Bayrut: Dor Ibn Hazm, 1998.

**REJA:**

1. Zaif hadislar, ularning turlari hamda rivoyat qilinishi.
2. Isnoddan roviysi tushib qolishi sababli zaif bo‘lgan hadislar.
3. Roviyda «zabt»ning yo‘qligi tufayli rad etilgan hadislar.
4. Roviyning ayblanishi sababli rad etilgan hadislar.

 **Tayanch iboralar:** *zaif, mursal, muallaq, mu'zal, munqati', mudallas, mudraj, maqlub, muztarib, musahhof, mavzu*

 **1. Zaif hadislar, ularning turlari hamda rivoyat qilinishi.** «Za’if» so‘zi arab tilida «kuchsiz», «nimjon», «zaif» ma’nolarini bildiradi. Istilohda esa «sahih»ga qo‘yilgan shartlardan (sanadning uzluksizligi, roviylarning adolati va zabti, shoz va illatsiz bo‘lishi kabi) birini yo‘qotgan, ammo «hasan» darajasiga yetmagan hadisga aytildi. Imom Navaviyning (vaf. 676/1278 y.) ta’rifiga ko‘ra, «zaif – sahihlik va hasanlik shartlariga ega bo‘lman hadis» hisoblanadi. Bu tur hadisning «mardud» («rad etilgan», «qaytarilgan»), ya’ni amal qilinmaydigan guruhiga kiradi.

Hadislarning rad etilishi asosan ikki sababga ko‘ra bo‘ladi: 1) isnoddan roviyning tushib qolishi, ya’ni sanadning uzilishi; 2) roviyning hadis ilmi olimlari tomonidan ayblangan bo‘lishi. Ushbu ikki illat sababli ishonchlilikini yo‘qotgan hadislar zaiflik darajalariga ko‘ra turli nomlar bilan atalsa-da, ular umumiy «zaif» nomi bilan ataladi. Ba’zi olimlar zaif hadislarning 49 turi mavjud ekanini ta’kidlaganlar. Boshqalari esa bu sonni 63 yoki 129 tagacha yetib borishini ko‘rsatib bergenlar.

Shuningdek, hadisning zaifligi roviylarning qay darajada «bo‘sh» bo‘lishiga qarab ham turlicha bo‘ladi. Unga ko‘ra, hadislar zaif, juda zaif, vohiy (g‘oyatda zaif), munkar (inkor qilingan) bo‘ladi. Sahih hadisda bo‘lganidek, olimlar zaifning ham eng bo‘shlarini aniqlaganlar. «Maqbul» bo‘lman, ya’ni qabul qilinmaydigan zaif hadislar quyidagi sabablarga ko‘ra turlicha qismlargaga bo‘linadi:

- I. Sanadning uzilib qolishi sababli: 1) muallaq; 2) munqati'; 3) mu'dal; 4) mursal; 5) mudallas.
- II. Adolatning yo‘qligi sababli: 1) mavzu'; 2) matruk; 3) munkar.
- III. Zabtning yo‘qligi sababli: 1) mudraj; 2) maqlub; 3) muztarib; 4) musahhof va muharraf.
- IV. Shoz bo‘lishi sababli: shozz.
- V. Illatli bo‘lishi sababli: muallal.

Zaif hadislarni rivoyat qilish joizligi borasida olimlar ixtilof qilganlar. Ba’zilar mumkin desalar, boshqalar nojoiz deganlar. Umumiylik fikrga ko’ra, rivoyat qilinayotgan zaif hadis e’tiqod masalasiga hamda halol va haromga tegishli shar’iy hukmlarga oid bo‘lmasa, faqat va’z-nasihat, yaxshi va savobli amallarga chaqirishdan iborat bo‘lsa, shuningdek, turli ibratlari qissalarini o‘z ichiga olgan bo‘lsa, ularni naql qilish durust hisoblangan.



**«Za’if» so‘zi arab tilida «kuchsiz», «nimjon», «zaif» ma’nolarini bildiradi. Istilohda esa «sahih»ga qo‘yilgan shartlardan birini yo‘qotgan, ammo «hasan» darajasiga yetmagan hadisga aytildi.**

Sufyon Savriy, Abdurahmon ibn Mahdiy, Ahmad ibn Hanbal kabi ulamolar zaif hadislarga nisbatan yengilroq qaraganlar. Ammo muhaddislar bu kabi hadislarni rivoyat qilganda «Rasululloh (s.a.v.) dedilar» iborasini ishlatmay, uning o‘rniga «Rasululloh (s.a.v.) dan bunday rivoyat qilinadi», «bizga ma’lum qilishlaricha» kabi iboralar bilan ifodalagan ma’qul, hadisning zaifligini bila turib uni Rasulullohga qat’iy nisbat berish durust emas, deb hisoblaganlar.

Go‘zal xulqlar xususidagi zaif hadislarga uch shart bilan amal qilish joizligi ulamolar tomonidan aytib o‘tilgan: 1) hadis juda ham zaif bo‘lmasligi; 2) Qur’on va sunnatda sobit bo‘lgan asosga muvofiq kelishi; 3) unga amal qilinayotgan vaqtida aniq va qat’iy deb e’tiqod qilmay, ehtiyyotkorlik yo‘lini tutish. Ayrim olimlar yuqoridaq uchinchi shart o‘rniga «Mazkur hadis o‘zidan kuchliroq boshqa hadisga zid bo‘lmasligi kerak» ekanini shart qilib qo‘yanlar.



**2. Isnoddan roviysi tushib qolishi sababli zaif bo‘lgan hadislar.** Isnoddan bir yoki bir necha roviyning tushib qolishiga sabab qasddan yoki bilmagan holda sodir etilishi mumkin. Ular isnodning boshi, o‘rtasi va oxirida tushib qolishiga qarab uning turi belgilanadi va muallaq, mursal, mu’zal, munqati’ va mudallasga bo‘linadi.

«Muallaq» so‘zining lug‘aviy ma’nosini «osilgan», «ilingan», «muallaq» bo‘lib, istilohda isnodining boshidan bir yoki bir necha roviyning ketma-ket tushib qolgan hadisga aytildi. Imom Buxoriy, Imom Muslim kabi ko‘zga ko‘ringan muhaddislar Payg‘ambar alayhis-salomdan ishonchli roviylar bir-birlariga aniq va ochiq-oydin yo‘l bilan rivoyat qilgan hadislarnigina «sahih», ya’ni «sog‘lom», «ishonchli» deb qabul qilganlar. Ular o‘zlarining «Sahih» to‘plamlariga ana shunday hadislarni jamlaganlar.

Hadislar orasida ishonchli roviylar rivoyat qilgan, ammo orada uzilish bo‘lganlari ham bor. Agar bu kabi uzilish isnodning boshida bir yoki bir necha roviyning tushib qolishi bilan bo‘lsa, bu hadis «muallaq» hisoblanadi. Bu kabi uzilish bo‘lishining sabablari turlichadir. Masalan, bir ishonchli roviy ikkinchi ishonchli roviyni bevosita ko‘rmaydi, balki boshqa, ya’ni uchinchi ishonchli odam orqali ikkinchi roviy rivoyatini eshitadi. Biroq, birinchi roviy orada vosita bo‘lgan o‘sha «uchinchisi» odamni juda ishonchli sanagani sababli uning nomini zikr etmaydi, faqat o‘sha «ikkinchisi» roviy mazkur hadisni aytganini ta‘kidlab o‘tadi xalos. Bu kabi muallaq hadislar «Sahih» to‘plamlariga ba’zan kiritilgan, ba’zan esa kiritilmagan.

Jumladan, muhaddis agar muallaq hadisning uzilish sababini, nomi zikr etilmagan oradagi roviyning ishonchli ekanini bilsa va hadisning sahib ekaniga ishonchi komil bo‘lsa, u holda bunday hadisni o‘zining «Sahih» to‘plamiga kiritgan. Agar muallaq hadis isnodidagi uzilish sababi noaniq bo‘lsa, nomi tushib qolgan roviy ham noma’lum bo‘lib, hadisning ishonchliligiga hech qanday asos bo‘lmasa, bu kabi muallaq hadislarni «muallaq mutlaq mardud» («rad etilgan mutlaq muallaq») hadis deb ataganlar va ularni «Sahih» hadis to‘plamlariga kiritmaganlar.

Sahih sanalgan muallaq hadislarda odatda isnoddagi nomi tushib qolgan roviydan keyingi rivoyatchidan «dedi», «zikr qildi», «hikoya qilib berdi», «buyurdi» kabi aniqlikni ifodalaydigan so‘zlar vositasida hadis uzatilgan bo‘ladi. Ammo muhaddislar sahib sanamagan muallaq hadislarga e’tibor berilsa, ular odatda isnoddagi nomi tushib qolgan roviydan keyingi rivoyatchidan «aytiladi», «hikoya qilinadi» yoki «zikr qilinadi» kabi noaniq, qat’iyatsizlik bilan aytilgan so‘zlar vositasida aytilgan bo‘ladi va shu sababli ham ular sahib hadislar qatoriga kiritilmaydi. Muallaq hadislar orasida sahihi bo‘lgani kabi hasan, zaif kabi turlari ham mavjud.

Muallaq hadislar isnodda nechta roviy tushib qolganiga qarab turlicha bo‘ladi: 1) sanadi to‘lig‘icha tushib qolgan; 2) sahabadan boshqa roviylar tushib qolgan; 3) sahoba va tobiyyidan boshqa roviylar tushib qolgan hadislar.

«Mursal» so‘zining lug‘aviy ma’nosi «yuborilgan», «otilgan», «tashlangan» bo‘lib, istilohda isnodning oxirida tobiyyidan keyin turgan roviy (sahoba) tushib qolgan hadisga aytiladi.

Mursal hadisning isnodida tobiyy «Rasululloh shunday dedilar», «bunday qildilar» yoki «huzurlarida bunday bo‘ldi» deb u kishini go‘yo o‘z ko‘zi bilan ko‘rgandek qilib aytadi. Vaholanki, tobiyy hadisni bevosita Rasulullohdan eshitmagan, balki biror sahabadan eshitgan, ammo sahabanining nomini aytmay hadisni rivoyat qiladi.

Mursal hadisning bir necha xil ko‘rinishlari mavjud:

1) Rasulullohdan hadis eshitgan sahoba boshqa sahobadan eshitgan hadisini ham bevosita Rasulullohdan deb rivoyat qilgan mursali. Masalan, Abdulloh ibn Abbas, Abdulloh ibn Zubayr kabi yosh sahabalar Payg‘ambar (s.a.v.)ni o‘zlarining o‘sirinlik davrlarida ko‘rganlar va suhbatlarida bo‘lganlar. Ular ko‘plab hadislarni bevosita Rasulullohdan eshitganlar. Shuningdek, bir qancha hadislarni bilvosita, ya’ni boshqa sahabalardan ham eshitib o‘rganganlar. Ammo ularni ham o‘zlarini bevosita eshitgandek qilib rivoyat qilganlar.

2) Rasulullohni ko‘rsada, hadis eshitmagan sahobaning mursali. Bunda isnodning oxirida nomi kelgan kishi sahoba ekanı ma’lum bo‘lgani uchun uning mazkur hadisni bevosita Rasulullohdan rivoyat qilishi to‘g‘riga o‘xshab ko‘rinadi. Ammo roviylar tarixini yaxshi bilan muhaddis uning ushbu hadisni boshqa sahoba orqali eshitganini aniqlaydi.

3) Muxazramning mursali.

4) Said ibn Musayyabning mursali.

5) Sha’biy (vaf. 104/723 y.) va Mujohid (vaf. 103/722 y.) kabilarning mursali.

6) Hasan Basriy (vaf. 110/728 y.) kabi tobiylarning mursali.

7) Qatoda (vaf. 118/727 y.), Zuhriy (vaf. 123/741 y.), Humayd kabi kichik tobiylarning mursallari, ularning mursali ko‘pincha sahabalardan emas, balki katta tobiylardan rivoyat qilingan bo‘ladi.

Mursalning hukmi masalasida olimlar uch yo‘nalishga bo‘linganlar:

1) «Mursal – zaif va rad qilingan hadis» degan fikr ko‘pgina muhaddis va usul al-fiqh olimlariga tegishli. Ular tushib qolgan roviyning noma’lum ekanligini va sahoba bo‘imasligi mumkinligini dalil qilib keltiradilar.

2) «Mursal – hujjatlikka yaroqli sahih hadis» degan fikr Abu Hanifa, Molik ibn Anas, Ahmad ibn Hanbal kabi olimlarga tegishli. Mazkur holatda hadisni bevosita Rasulullohdan rivoyat qiluvchi kishi albatta siqa (ishonchli) bo‘lishi va xuddi shunday boshqa bir siqa roviydan eshitgan bo‘lishi shart qilinadi. Chunki siqa tobiyi boshqa bir siqa roviydan eshitmagan narsasini «Rasululloh (s.a.v.) dedilar» deb aytmaydi.

3) «Mursal – bir qancha shartlar bilangina hujjatlikka yaroqli bo‘ladi» degan fikr Imom Shofiy kabi olimlarga tegishli. Ular qo‘ygan shartlar to‘rtta bo‘lib, uchtasi rivoyat qiluvchiga, bittasi esa mursal hadisiga qaratilgan: 1. Mursalning roviysi (mursil) tobiylarning ulug‘laridan bo‘lishi. 2. Mursil kimdan eshitganini aytса, uni siqa deb atagan bo‘lishi. 3. Ishonchli

muhaddislarning rivoyati ham lafz, ham ma’no jihatidan ushbu mursalga zid bo‘lmasligi. 4. Yuqoridagi uch shartga quyidagi shartlardan birortasining qo‘silgan bo‘lishi: a) mursal hadis boshqa bir jihatdan musnad, ya’ni isnodi butun holda rivoyat qilinishi; b) ushbu mursal hadisni qo‘llab-quvvatlab keluvchi yana bir mursal hadis mavjud bo‘lishi; v) ushbu mursal hadis biror sahobaning so‘ziga yoki amaliga mos kelishi; g) juda ko‘p olimlar ushbu mursalga muvofiq fatvo bergen bo‘lishlari. Agar mana shu shartlarning barchasi mavjud bo‘lsa, mursalning sahihligi ma’lum bo‘ladi.

Mursal hadislar ko‘plab hadis to‘plamlarida, jumladan, «Sahih» asarlarda ham kelgan. Shuningdek, ularni alohida to‘plam shaklida ham jamlaganlar. Masalan, Ibn Abi Hotam Tamimiyy (vaf. 327/939 y.) o‘zining «Marosil» nomli asarida aynan mursal hadislarni keltirgan.

«Mu’zal» zaif hadisning yana bir turi bo‘lib, bu so‘z lug‘atda «mushkul», «qiyin qilingan», «uzib qo‘yilgan» ma’nosini beradi, muhaddislар istilohida esa isnodidan ikkita va undan ko‘p roviylar ketma-ket tushib qolgan hadisga aytildi. Masalan, Qa’nabiy mashhur muhaddis olim Imom Molikning Rasulullohdan rivoyat qilgan hadisini keltiradi. Unda Imom Molik mazkur hadisni «Menga Rasulullohdan yetib keldi», deb to‘g‘ridan-to‘g‘ri rivoyat qilgan. Ushbu hadisda jumladan shunday deyiladi:

– Biror bir Payg‘ambar yo‘qki, qo‘y boqmagan bo‘lsa. – Shunda odamlar so‘radilar:

– Siz ham qo‘y boqqanmisiz? – Rasululloh (s.a.v.):

– Men ham, – deb javob berdilar.

Molik bilan Rasululloh o‘rtalarida bir necha roviylar ketma-ket tushib qolgan, shuning uchun ushbu hadis mu’zal hisoblanadi.

Mu’zal – «munqati’», ya’ni isnodi uzilgan hadislarning bir qismi bo‘lib, o‘ziga xos jihatlarga ega, ammo har qanday «munqati’» hadis «mu’zal» bo‘lmaydi. «Mu’zal» bilan «muallaq» bir-biriga o‘xshasa-da ularning orasida farq mavjud. Agar isnodning boshidan ketma-ket ikkita roviy tushib qolgan bo‘lsa, hadis bir vaqtning o‘zida ham «mu’zal» ham «muallaq» bo‘ladi. Ammo isnodning o‘rtasidan ikkita roviy ketma-ket tushib qolsa, hadis faqat «mu’zal» bo‘ladi, «muallaq» bo‘lmaydi. Isnodning boshidan faqat bir roviy tushib qolsa, bu hadis «muallaq» bo‘ladi, «mu’zal» bo‘lmaydi. Mu’zal zaif hadis bo‘lib isnodda ikkitadan ko‘p roviyning tushib qolganligi tufayli, u mursal bilan munqati’dan ham darajasi past.

«Munqati’» ham zaif hadis turi bo‘lib, bu so‘z lug‘atda «uzilgan», «kesilgan» ma’nolarini beradi, muhaddislар istilohida esa isnodida uzilish

sodir bo‘lgan hadisga aytildi. Bu uzilish isnodning boshi, o‘rtasi, oxirida bo‘lishi mumkin. «Muallaq», «mursal» va «mu’zal» hadislarning isnodida uzilish bo‘lgani uchun ham munqati’ jumlasiga kiradi. Biroq olimlar «munqati’»ni «mursal», «muallaq» yoki «mu’zal»ning shartlariga to‘la muvofiq bo‘lmasligi uchun alohida bir tur sifatida istilohga kiritganlar.

«Munqati’» («kesilgan», «uzilgan», «bog‘lanmagan») hadis turi isnodning boshidan, oxiridan yoki o‘rtasidan roviylarning tushib qolgan holatlarining barchasiga ayrim muhaddis ulamolar tomonidan berilgan nom. Ular «mursal», «muallaq» va «mu’zal» hadislarning barchasini «munqati’» deb ataganlar.

«Mudallas» ham zaif hadis turi bo‘lib, u lug‘atda «aybi yashiringan», «qorong‘u», «noma’lum» ma’nolarini beradi, istilohda esa isnodlarning aybini yashirish, zohirini yaxshi qilib ko‘rsatishni anglatadi. Mudallas ikki qismga bo‘linadi: 1) tadlis al-isnod va 2) tadlis ash-shuyux.

«Tadlis al-isnod» – bu «xisnodni yashirish» bo‘lib, bunda biror roviy o‘zi ko‘rgan va hadis eshitgan roviyidan undan eshitmagan, ya’ni boshqadan eshitgan hadisini rivoyat qiladi yoki o‘ziga asrdosh bo‘lib, uchrashmagan kishidan rivoyat keltirgan bo‘ladi. Bunday holda roviy o‘zi hadis eshitgan shayx nomidan boshqa shayxdan eshitgan narsasini rivoyat qiladi va bu bilan ikkinchi, ya’ni hadis eshitgan shayxini tushirib qoldiradi. Shuning uchun bunday hadislarda roviy yolg‘onchi bo‘lib qolmaslik uchun «sami’tu» (eshitdim) yoki «haddasano» (bizga so‘zlab berdi) demaydi, balki majhullikni bildiradigan «qiyla» («aytildi»), «ruviya» («rivoyat qilindi») yoki «‘an...» («...dan») kabi lafzlarini ishlataladi. Shunda tushirib qoldirgan roviylar soni bir yoki undan ko‘p bo‘lishi mumkin.

«Tadlis ash-shuyux» – «ustozni yashirish» bo‘lib, unda roviy o‘zi ko‘rishgan va hadis eshitgan ustozini ma’lum qilmaslik uchun uni mashhur bo‘lmasligi kunysi, nisbasi yoki sifati bilan zikr qiladi. Agar roviy boshqa bir zaifroq roviyidan hadis rivoyat qilib, «bir zabit hofiz» yoki «alloma muhaddis» bizga so‘zlab berdi, deb uning zaifligini yashirsa va kamchiligini ochiq zikr qilmasa ham tadlis bo‘ladi. Masalan, muhaddis Ibn Saloh imom Xatib Bag‘dodiyning asarlarida Abulqosim Azhariy, Ubaydulloh ibn Abulfath Fosiy, Ubaydulloh ibn Ahmad ibn Usmon Sayrafiy degan kishilardan rivoyat qilgani va aslida esa ularning barchasi Xatibning bir ustozi ekanini keltiradi.

Hadis ilmida bir-biriga hadis uzatgan roviylar o‘zaro uchrashganligi aniq bo‘lmasa ham ularning rivoyati qabul qilinmaydi. Mudallas rivoyatlarni

Xatib Bag‘dodiy (vaf. 463/1071 y.) «at-Tabyin li-asmo al-mudallisini» asarida jamlagan.

 **3. Roviyda «zabt»ning yo‘qligi tufayli rad etilgan hadislar.** «Zabt» deb roviyning rivoyat qilayotgan hadisini aniq bilishiga aytildi. Roviy eshitgan hadislarni biror kamchiliksiz yoki ortiqcha qo‘srimchalarsiz boshqalarga rivoyat qila olsa, uni «zabt egasi» deyiladi. «Zabt» atamasi hadislarning xatosiz yozilish ma’nosida ham qo‘llaniladi.

Agar roviyda zabt bo‘lmasa quyidagi turlar kelib chiqadi:

«Mudraj» – lug‘atda «ichiga kiritilgan» ma’nosini bildiradi, istilohda esa, hadis matnida bo‘lmanan so‘zni unga qo‘sib yuborilishi yoki isnod tartibini o‘zgartirishga aytildi. Mudrajning ikki xil ko‘rinishi mavjud:

1) «Mudraj al-isnod» («isnodi mudraj») – isnodning tartibida o‘zgarishi bo‘lgan holat hisoblanadi. Chunki roviy isnodni zikr qila turib, nima sababdandir o‘zidan biror so‘zni qo‘sib yuboradi, boshqalar esa uni ushbu



*«Mursal» so‘zi «yuborilgan», «otilgan», «tashlangan» ma’nolarini bildirib, istilohda isnodning oxirida tobiyyidan keyin turgan roviy (sahoba) tushib qolgan hadisga aytildi.*

isnodning matni deb o‘ylaydilar va shunday holda rivoyat qiladilar. Masalan, Sobit ibn Muso: «Kimki kechasi ko‘p namoz o‘qisa, kunduzi yuzi chiroyli bo‘ladi» degan gapni rivoyat qilar edi. Biroq aslida Sobit ibn Muso Qozi Shariyk ibn Abdullah hadisdan dars aytayotgan vaqtida huzuriga kiradi va shunda Shariyk: Bizga A’mash Abu Sufyondan so‘zlab bergen, u Jobir (r.a.)dan, Jobir (r.a.) dedi: «Rasululloh (s.a.v.) debdilar», deb tinglovchilar yozib olishlari uchun bir oz sukut saqlaydi va Sobitga ko‘zi tushib, uning taqvosи va parhezkorligini nazarda tutib, «Kimningki tungi namozlari ko‘p bo‘lsa, kunduzi yuzi chiroyli bo‘ladi», degan so‘z bilan Sobitning xulqini tavsiflab beradi. Sobit uning gapini yuqoridagi isnodning matni deb o‘ylab shundayligicha rivoyat qiladi;

2) «Mudraj al-matn» («matni mudraj») – hadis matnida bo‘lmanan so‘zning kirib qolishiga aytildi. «Mudraj al-matn» uch qismidan iborat:

a) mudraj, ya’ni qo‘silgan so‘z hadisning boshida bo‘ladi. Masalan, Xatib Bag‘dodiy sahaba Abu Hurayradan Rasulullohning ushbu hadislarni rivoyat qilgan: «Tahoratni mukammal qilinglar. Tovonlarga do‘zaxdan vayl bo‘lsin». Bu hadisdagi «Tahoratni mukammal qilinglar» jumlesi Abu Hurayra tomonidan aytilgan. Imom Buxoriy o‘zining «al-Jome as-sahih»

asarida bu hadisning birinchi qismi Abu Hurayraning so‘zi ekanini ajratib ko‘rsatgan;

b) mudraj hadisning o‘rtasida bo‘ladi. Masalan, Imom Buxoriy Oisha (r.a.)dan rivoyat qilgan hadisda shunday deyiladi: «Rasululloh (s.a.v.) Hiro G‘orida ketma-ket bir necha tun tahannus – ibodat qilish – bilan shug‘ullanganlar» deganlar. Bu yerdagi «ibodat qilish» jumlesi roviy Imom Zuhriyga oid hisoblanadi. Bu kabi holat hadis boshida mudraj kelishidan ko‘ra kamroq uchraydi;

v) hadisning mudraj qismi matnning oxirida bo‘ladi. Masalan, Imom Buxoriy va Muslim Abdulloh ibn Mas’uddan rivoyat qilgan hadisda shunday deyiladi: «Kimki Allohga shirk keltirib o‘lsa, do‘zaxga kiradi, kimki Allohga shirk keltirmay o‘lsa, jannatga kiradi». Bu hadisdagi «kimki Allohga shirk keltirmay o‘lsa, jannatga kiradi» degan jumla Abdulloh ibn Mas’udga tegishli. Bu mudrajning eng ko‘p uchraydigan turidir.

Mudraj hadislar paydo bo‘lishining turli sabablari bo‘lgan. Jumladan, roviy biror shar‘iy hukmni bayon qilayotganda o‘z so‘zidan so‘ng hadisni ajratmay aytib ketadi. Natijada eshituvchi uning so‘zini ham hadis matni qatorida yodlab oladi. Bunda roviy hadisdan shar‘iy hukm chiqargan bo‘ladi. Ba’zan esa hadisdagi tushunarsiz so‘zni o‘z iborasi bilan sharhlab ketadi. Oqibatda bu sharhni ham keyingi roviy hadisdan deb qabul qiladi. Aslida ulamolar roviyning qasddan «idroj» qilishini, ya’ni hadisga begona so‘zni qo‘shib yuborishini harom deb hisoblaganlar. Ammo biror tushunarsiz so‘zni sharhlash maqsadida aytilgan gap bo‘lsa joiz, deb istisno qilganlar. Bu bo‘yicha Xatib Bag‘dodiy (vaf. 463/1071 y.) «al-Fasl li-l-vasl al-mudraj fi-n-naql» («Hadis naql qilishdagi mudrajlarni tushunib yetish bobi») asarini yozgan.

«Maqlub» turdag'i hadis ham roviyning zabti bo‘lmagan holda paydo bo‘ladi. «Maqlub» so‘zi lug‘atda «o‘zgargan», «o‘girilgan» ma’nosini bildiradi, muhaddislar istilohida esa hadis isnodi yoki matnidagi biror lafzning boshqasi bilan o‘zgartirilishi hisoblanadi. Shuningdek, matnning oldindi qismini keyingisiga yoki aksincha keyingi o‘rin oldiniga almashtirilishiha ham aytildi. Maqlub ikki qismga bo‘linadi:

1) «Maqlub as-sanad» («sanaddagi maqlub»). Bunda hadisning isnodi o‘zgarishga uchrangan bo‘ladi. Uning ikki xil ko‘rinishi mavjud: a) bir roviyning ismini undan keyingi ism bilan yoki otasining ismi bilan o‘rnii almashtirilishi; Masalan, Ka‘b ibn Murrani bir roviy Murra ibn Ka‘b deb o‘zgartirib rivoyat qiladi; b) roviy bir shaxsni boshqasi bilan qasddan

almashtirib qo'yadi; masalan, Solimning o'rniga Nofe' deb. Agar hadisda bu holat kuzatilsa, hadis o'g'irlab olingan deb yuritiladi.

2) «Maqlub al-matn» («matndagi maqlub»). Bu almashtirish matnda uchrab, uning ham ikki ko'rinishi mavjud: a) roviy hadisning keyingi bo'lagini avval, oldingi bo'lagini esa keyin aytib, o'rnini almashtirib qo'yadi. Masalan, Imom Muslim rivoyat qilgan «o'ng qo'li bergen sadaqani chap qo'li bilmaydi» degan hadisni «chap qo'li bergen sadaqani o'ng qo'li bilmaydi», deb o'zgartirilgan; b) roviy bir hadis isnodini boshqa hadisning matniga almashtiradi, buning matnini esa avvalgisining isnodiga qo'yib rivoyat qiladi. Bunday holatni olimlarni imtihon qilib sinash vaqtida ko'rish mumkin. Masalan, bir guruh bag'dodliklar Imom Buxoriyni imtihon qilish maqsadida 100 ta hadisning sanad va matn o'rinlarini almashtirib sinaganlar.

Maqlub qilish hollarini keltirib chiqaradigan sabab bir nechta bo'lib, ular: 1) odamlarni o'z hadisini olishga targ'ib qilish maqsadida amalga oshirilgan va bu holat hadisda o'zgarish yuz bergani uchun muhaddislar tomonidan taqiqlangan; 2) beixiyor roviy tomonidan adashib, xato qilib almashtirilgan; 3) biror muhaddis yoki talabaning xotirasi va bilimini imtihon qilish uchun bo'lib, olimlar hadisning xatosi ortidan to'g'risini ham e'lon qilish sharti bilan imtihon jarayonida ruxsat bergenlar.

Maqlub hadislar bo'yicha Xatib Bag'dodiy (vaf. 463/1070 y.) «Rofe' al-irtiyob fi-l-maqlub min al-asmo va-l-alqob» («Ism va laqablar maqlublaridagi shak-shubhalarni ko'tarish») asarini yozgan.

«Muztarib» turdag'i hadis ham roviyning zabti bo'lмаган holda kelib chiqadi. «Muztarib» so'zi lug'atda «shikasta», «tartibi buzilgan» ma'nolarini berib, istilohda ishonchliligi jihatidan bir xil kuchga ega, ammo ma'no jihatidan bir-biriga zid bo'lgan ikki turli yo'llar bilan rivoyat qilingan hadis.

«Musahhaf» ham zabtning yo'qligidan kelib chiqadigan hadis turi. «Musahhaf» so'zining lug'aviy ma'nosi «sahifani o'zgartirib xato o'qilgan», «xatoga yo'l qo'yilgan» bo'lib, istilohda ma'no yoki lafzi siqa (ishonchli) roviylar rivoyat qilgan hadisdan boshqacha qilib o'zgartirilgan so'zdir.



*Hadis ilmida hadislarga qo'yilgan talabning kuchliligi shuni ko'rsatadiki, uni rivoyat qiluvchi roviyda «zabt» bo'lmasa, bunday rivoyatlar ishonchli deb qabul qilinmaydi.*

 **4. Roviyning ayblanishi sababli rad etilgan hadislar.** Hadislarning ishonchlilik darajasini belgilash yoki ularni rad etishda rivoyat qiluvchi

roviylarning yolg‘onchilik, bid’atchilik, fosiqlik, beparvolik, johillik, ko‘p xato qilish kabi kamchilik va nuqsonlariga ham alohida e’tibor qaratilgan.

Turli sabablarga ko‘ra paydo bo‘lgan soxta hadislар arab tilida «mavzu» deb yuritiladi. U «qo‘yilgan», «o‘rnatilgan», «pasaytirilgan», «tashlangan», «tark etilgan», «soxta» ma’nolarini bildiradi. Muhaddislar istilohida Rasulullohga nisbat berilib to‘qilgan yolg‘on so‘zлarni bildiradi. Ba’zi olimlar mavzu’ rivoyatni zaif hadislarga kiritmay, alohida mustaqil tur deb hisoblaydilar. Zero «Kim mening nomimdan qasddan yolg‘on hadis aytsa, o‘ziga do‘zaxdan joy tayyorlayversin» degan hadisga binoan bu turdagи rivoyatlar hadislarning eng yomoni hisoblanadi.

Imom Muslim rivoyat qilgan «Kimki biror so‘zning yolg‘onligini bila turib mendan so‘zlasa, u ham yolg‘onchilardan sanaladi» degan hadisiga binoan rivoyatning soxtaligini bilgan har qanday kishiga ushbu hadisni rivoyat qilish mumkin emas. Biroq, faqatgina ilm ahli orasida buning «mavzu» ekanini ta’lim jarayonida bayon etib rivoyat qilish mumkin.

Shuningdek, «mavzu’ hadis» atamasini ishlatish borasida olimlar ikki guruhga bo‘lingan. Biri, bu atama ishlatilmaydi, chunki hadis istilohiy ma’noda Rasulullohga nisbatan ishlatiladi, bu esa to‘qilgandir, desa, boshqa guruh, «hadis» so‘zining istilohiy ma’nosidan qochib, uning lug‘aviy ma’nosи «so‘z»ni ko‘zlagan holda ishlatish mumkin deydi, ya’ni «mavzu’ hadis – soxta so‘z» deb.

Avvalgi muhaddislar (X asrgacha) asosan ishonchli hadislarni jamlagan bo‘lsalar, keyingi muhaddislar (X asr va undan keyin) zaif hadislardan so‘ng soxta rivoyatlarni ham alohida to‘plaganlar. Ulardan Ibn Javziy (vaf. 597/1201 y.), Suyuti (vaf. 911/1506 y.), Aliyul Qoriy (vaf. 1014/1606 y.) kabi olimlarning asarlari mashhurdir.

Payg‘ambar (s.a.v.) vafotlaridan keyin hadislarni sof, asl holida saqlab qolishni sahabalar o‘z oldilaridagi muhim vazifalardan biri deb bildilar. Chunki buni bir tomonidan hadislarni keyingi avlodga o‘zgarmagan holda yetkazish zarurati taqozo etgan bo‘lsa, ikkinchi tomonidan yangi shakllangan musulmon jamiyati orasiga soxta hadislар to‘qish orqali turli nizo va ixtiloflarni solish niyatida bo‘lgan fitnachilar harakatiga chek qo‘yish lozim edi. Jamiyatdagi birlikka raxna soluvchi munofiqlik harakatlarining asl maqsad va mohiyatini tushunib yetgan dastlabki ikki xalifa Payg‘ambar nomidan gapirishni, ya’ni hadis rivoyat qilishni cheklashga qaror qildilar. Bu qaror boshqa sahabalar tomonidan ham ma’qullandi. Endi kim haddan ortiq ko‘p hadis aytsa, o‘sha munofiq hisoblanar edi. Bu tadbir samarali

natija berdi: jamiyatda Payg‘ambar nomidan gapirib, turli mish-mishlarni tarqatishga barham berildi.



*Hadisning soxtaligini bilgan har qanday kishiga uni rivoyat qilish ruxsat etilmaydi. Biroq, faqat ilm ahli orasida hadisning «mavzu’» ekanini ta’lim jarayonida bayon etib rivoyat qilish mumkin.*

Biroq vaqt o‘tishi bilan islom dinining tarqalishi va musulmonlar sonining ortishi natijasida juda ko‘plab kishilarning hadis ilmi talabida safar qilishi rivojlanib ketdi. Shu sababdan xalifalar Usmon ibn Affon va Ali ibn Abi Tolib davrlariga kelib hadislarni kamroq rivoyat qilish amaliyoti o‘z-o‘zidan barham topdi. Hadis ilmining ilk markazlari bo‘lgan Madina va Makka shaharlariga kelayotgan tobiiylargacha hadislarni o‘rgatish sahabalarning asosiy mashg‘ulotlardan biriga aylandi. Bundan foydalangan munofiqlar asta-sekin musulmonlar orasida ig‘vo so‘zlarini tarqatib, turli nizolarni keltirib chiqara boshladilar. Musulmonlar orasida har xil guruhlarga bo‘linish yuzaga keldi. Natijada soxta hadislar paydo bo‘la boshladи.

Paydo bo‘lgan har bir firqa o‘z yo‘li to‘g‘riligini isbotlash uchun o‘ziga hadislardan dalillar qidirardi. Agar dalil topilmasa, o‘zlarining haq ekanliklarini ko‘rsatish uchun hadislar to‘qib chiqara boshladilar.

Hadislarni to‘qib chiqarishda turli guruhlar o‘ziga xos yondashganlar. Hadis ilmiga oid manbalarda ta‘kidlanishicha, xorijiyalar «yolg‘on gapiruvchi – kofir» deb hisoblasalar-da, o‘z kuchlari va qurollariga tayanganlari uchun hadislarni boshqa oqimlardan ko‘ra kamroq to‘qiganlar. Masalan, bir xorijiy tavba qilib, «agar biz bir ishni xohlab qolsak, uni hadisga aylantirar edik», degan.

Shialikda ham hadis to‘qish amaliyoti keng tarqalgan edi. Shialikdagi «Ali hozir ham tirik, qaytib kelib yerni adolatga to‘ldiradi», degan va Rasulullohdan keyin Alining nubuvvati haqidagi aqidalar ko‘plab hadislarning to‘qib chiqarilishiga asos bo‘lgan. Masalan, «Ali – bashariyatning eng yaxshisi, kim shak qilsa kofir bo‘libdi», kabi mazmundagi hadislar to‘qilgan.

Mu’taziliylar orasida ham hadis to‘qish rivojlangan edi. Masalan, «Kimki falon surani o‘qisa, falon amalni qilsa, jannatda o‘ziga yetmish mingta qasr quribdi. Har bir qasrda yetmish mingta xona mavjud. Har bir xonada yetmish mingta to‘sak mavjud. Har bir to‘sakda yetmish mingta hur mavjud» kabi hadislarni to‘qiganlar.

Umuman olganda, soxta hadislarning to‘qilishiga sabab bo‘lgan bir necha omillar mavjud. Ularning asosiylari quyidagilardir:

1) O‘zlarini taqvodor zohid kishi deb bilgan ba’zi kishilar odamlarni yaxshilikka targ‘ib qilish, yomonlikdan qaytarish maqsadida go‘yoki «yaxshi niyatda» hadis to‘qiganlar. Odamlar esa ularning tashqi ko‘rinishlariga ishonib, ularning to‘qiganlarini hadis deb qabul qilganlar. Ularning keltirgan zararlarini juda ko‘p edi. Zero bu ish ko‘pchilikning aqidaviy jihatdan adashishiga sabab bo‘ldi. Masalan, roviy Abu Ismat Nuh ibn Abi Maryamdan nima sababdan Qur’oni karim fazilatlari haqida oyatma-oyat, surama-sura hadis to‘qigani so‘ralganda, u «odamlarning Abu Hanifa fiqhi va Ibn Is’hoqning «Siyrat»i bilan shug‘ullanib ketib, Qur’ondan uzoqlashgani uchun», deb javob bergan.

2) O‘z mazhablarining boshqalaridan ustun ekanligini isbotlash maqsadida xorijiylar, shialar va shu kabi siyosiy va aqidaviy firqalar turli hadislarni to‘qiganlar. Masalan, shialar orasida «Ali bashariyatning eng yaxshisi, kim shubha qilsa, kofir bo‘ladi», degan soxta hadis tarqalgan.

3) Ayrim fitnachilar jamiyatdagi birlikni yo‘qotish, aholi orasida beqarorlikni paydo qilish maqsadida turli hadislarni to‘qiganlar. Ular orasida bir xalifaning boshqasidan ustunligi yoki ayrim xalifalarning noqonuniy hokimiyatga kelgani haqidagi soxta hadislар ko‘p uchraydi.

4) Ba’zi kishilar podshoh va hokimlarga yoqish uchun ularni maqtаб yoki ishlariga moslab hadislар to‘qiganlar. Bunga G‘iyos ibn Ibrohim Kufiy bilan xalifa Mahdiy orasida bo‘lib o‘tgan voqeа misol bo‘ladi. Unga ko‘ra, G‘iyos ibn Ibrohim xalifa huzuriga kirgan vaqtida Mahdiy kabutar o‘ynab o‘tirgan ekan. Shunda G‘iyos ibn Ibrohim: «Musobaqa faqat menganlik, chopish, ot choptirish yo qanotlilarda mumkin», degan hadisni aytadi. Bu aslida ishonchli hadis bo‘lib, faqatgina «qanotlilar» lafzi G‘iyos ibn Ibrohim tomonidan Mahdiya qarata to‘qib aytilgandi. Buni bilgach Mahdiy, «Men hadisga shu so‘zning qo‘shilib qolishiga sababchi bo‘ldim», deb kabutarlarni so‘yishga amr etgan.

5) Ayrim qissachilar odamlarga qiziqarli hikoyalarni aytib berish va ularning e’tiborini ko‘proq tortib tirikchilik qilish maqsadida hadislар to‘qiganlar. Abu Said Madoiniy kabi kishilar o‘zlarini rivoyat qilayotgan qissani yanada boyitib va bo‘rttirib ko‘rsatishga harakat qilib hadis to‘qigan edilar. Shuning uchun ham qissalar keltirilgan asarlarning aksariyatiga tayanib bo‘lmaydi.

6) Ba'zi kishilar birorta ham muhaddis bilmaydigan hadislar to'qib odamlar orasida shuhrat qozonmoqchi bo'lganlar.

Muhaddislar «mavzu» rivoyatlarni hadislardan ajratib aniqlash yo'llarini ishlab chiqqanlar, ya'ni mavzu' hadislarni sahih va hasan, hatto zaif hadislardan ajratib olish borasida olimlar qoidalar joriy qilganlar. Qoidalar ko'p bo'lsa-da, ulardan sakkiztasi mashhur va ular xabarning soxtaligini aniqlab olishga yetarli hisoblanadi. Ular:

1) Yolg'on hadis to'qigan kishining o'zi iqror bo'lishi orqali. Masalan, Abu Ismat Nuh ibn Abi Maryamning o'zi iqror bo'lib shunday degan: «Odamlar Qur'ondan yuz o'girib, Abu Hanifaning fiqhi, Ibn Is'hoqning qissalari bilan mashg'ul bo'lganliklarini ko'rib va ularni qiziqtirish uchun sahoba Abdulloh ibn Abbas nomidan Qur'on suralarining fazilatlari to'g'risida hadis to'qidim».

2) Rivoyat qilingan matnning lafzi va ma'nosida zaiflik bo'lishi natijasida. Muhaddislar ko'p o'rirlarda hadisning ma'nodagi g'alizlik, sayozlikka e'tibor beradilar. Chunki bu holat rivoyatning soxtaligini aniqlashda dalil bo'la oladi. Shuningdek, Payg'ambar (s.a.v.)ning sunnati va siyratlarini puxta bilgan muhaddislarga eshitayotgan hadisining soxta yoki soxta emasligini qalban anglab yeta olganlar.

3) Rivoyat qilingan ma'no aqlga, tajribaga, umumiy qoidalarga yoki mulohazaga zid bo'lib, uni sharhlab bo'lmasligi. Masalan, Abdurahmon ibn Zayd ibn Aslam: «Nuh kemasi Ka'bani yetti marta tavof qilgan va maqomi Ibrohimda ikki rakan namoz o'qigan», degan rivoyatni aytgan.

4) Qur'on va sunnatda kelgan aqidaga ochiq xilof bo'lishi. Masalan, «Men Nabiylarning oxiri, mendan so'ng nabiylar kelmaydi, agar Xudo xohlasa bo'ladi» degan rivoyat.

5) Payg'ambar (s.a.v.) zamonida yoki u kishidan keyingi davrlardagi bo'lgan tarixiy voqealarga xilof bo'lishi. Masalan, Sa'd ibn Muozning guvohligida «Xaybar ahliga jizya solig'i joriy qilinishi» haqidagi hadisda, Muoviya ibn Abu Sufyonning xatiga binoan Xaybar yahudiylariga jizya solig'i joriy etilgan va ular majburiy ishdan ozod qilinganligi aytilgan. Tarixiy ma'lumotga ko'ra, Xaybar yili jizya ma'lum bo'limgan va buyurilmagan. Jizya oyati ancha keyin, Tabuk voqeasidan so'ng nozil bo'lgan va Sa'd ibn Maoz Tabukdan oldin Xandaq g'azotida vafot etgan, Muoviya esa hali musulmon emas edi.

Shuningdek, roviy shayx bilan uchrashmagan, bir davrda yashamagan yoki roviy tug'ilishidan oldin vafot etgan bo'ladi hamda roviy shayxdan

eshitganligini da'vo qilayotgan joyda bo'lмаган bo'ladi, ya'ni tarixiy va geografik talablarga javob bermaydi. Masalan, roviy hadisni Kufada eshitdim deydi, biroq hadis aytgan shayx u joyga bormagan bo'ladi va shunga o'xshash holatlar uchraydi. Ma'mun ibn Ahmad Haraviy Hishom ibn Ammordan hijriy 250 yilda Shomda hadis eshitganligini da'vo qilgan. Rivoyatga ko'ra, Ma'mun hijriy 250 yilda Shomda bo'lган. Hishom esa 245 yili vafot etgan.

6) Rivoyat qilinayotgan matn ko'pchilik xabardor bo'ladigan darajada ulkan ishdan xabar beruvchi bo'lsa-da, yolg'iz bir kishi yoki guruh tomonidan rivoyat qilingan. Masalan, Rasululloh (s.a.v.) Vidolashuv hajidan qaytayotganda Ali ibn Abu Tolibning qo'lini ushlab, barcha sahabalar oldida, shunday deganlar: «Bu bolam va birodarim, mendan so'ng xalifa bo'ladi, unga quloq solib itoat qilinglar». Buni sahabalardan hech kim rivoyat qilmagan.

7) Rivoyat qilingan xabarda kichik bir ish uchun qattiq azob bilan qo'rqitilgan bo'ladi yoki bir oddiy ishga ham katta mukofotlar va'da qilingan bo'ladi. Kichik bir mustahab amal uchun jannatda abadiy qolish hamda minglab hurlarning ato etilishi yoki bиргина mustahab amalni tark etsa yoki makruh ishni qilsa do'zaxda abadiy qolishi to'g'risidagi hadis va rivoyatlar shular jumlasidandir. Masalan, «Kimki «Zuho» namozini falon-falon rakat o'qisa, unga yetmish payg'ambar savobi beriladi» hamda «Qorni och odamga berilgan bir luqma taom mingta jome' masjid qurgandan afzal» hadisi.

8) Hadisning ishonchli hadis rivoyat qilish salohiyati yo'q, yolg'onchilikda mashhur bo'lган va nafsiga ergashgan kishi tomonidan rivoyat qilinishi. Masalan, Sayf ibn Umar Tamimiyy rivoyat qiladi: Sa'id ibn Torif oldida o'tirgan edim. Bolasi maktabdan yig'lab kelib qoldi. Otasi: «Senga nima bo'ldi», deb so'radi. Bola: «Ustozim urdi», dedi. Sa'id: «Bugun ularni xafa qilaman», dedi va menga Ikrima Ibn Abbosdan shunday marfu' hadis aytdi: «Bolalarining ustozlari sizlarning yomonlaringizdir, yetimlarga juda kam rahm qiladilar va kambag'allarga qo'pol bo'ladi», dedi.

Roviy larning ayblanishi sababli rad etilgan hadislarning keyingi turi «matruk» hisoblanadi. Uning lug'aviy ma'nosi – «tark etilgan», «tashlandiq»dir. Muhaddislar istilohida esa isnodida yolg'onchilikda ayblangan roviy bo'lган hadisga aytildi.

Roviylarning ayblanishi sababli rad etilgan hadislarning yana bir turi «munkar» bo‘lib, «inkor qilingan» ma’nosini bildiradi. Istilohda esa, roviy juda ham qo‘pol xato qilgan, g‘ofil yoki fosiq bo‘lgan kishining rivoyatiga aytiladi. Ba‘zi muhaddislar esa, munkar hadis zaif roviyning siqa roviyga xilof ravishda qilgan rivoyatidir, deganlar.

## HADIS

قَالَ رَسُولُ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ:  
مَنْ كَذَبَ عَلَيَّ مُتَعَدِّدًا فَلَيَتَبُوأْ مَقْعَدَهُ مِنَ النَّارِ

**Rasululloh s.a.v. aytdilar: Kimiki mening nomimdan qasddan yolg‘on gapirsa, do‘zaxdan o‘ziga joy tayyorlasin!**



### Mavzu bo‘yicha savollar

1. Hadislar nima sababdan rad qilinadi?
2. Qanday hadislar «zaif» deb ataladi?
3. Isnodda roviyning tushib qolishi qo‘ra qanday urlarga bo‘linadi?
4. Roviylarning xotirasining zaif ekaniga ko‘ra qanday isnod turlari mayjud?
5. «Mavzu» hadisga qanday ta’rif berilgan?
6. Rivoyatning soxtaligini aniqlash uchun qanday qoidalar ishlab chiqilgan?
7. Mavzu hadis to‘qishning qanday sabablari bor edi?
8. Qanday hadislarga matruk va munkar atamasi ishlatiladi?



### Topshiriqlar

1. Zaif hadislarga oid asarlardan namunalar keltiring.
2. Muhaddislar asarlaridan muallaq va mursallarga misollar keltiring.
3. Payg‘ambar (s.a.v.)ning so‘zlariga qo‘shilgan boshqa so‘zlari bor hadislarni toping.
4. Xalq orasida tarqalgan soxta hadislarni toping.

### Mustaqil ish mavzulari

1. Zaif hadislarni jamlagan olimlar va ularning asarlari.
2. Mursal hadislarning mazhablarda ishlatilishi.
3. Roviylarning ayiblarini yashirish.
4. Mudraj va maqlubga olimlar bergen ta’riflari.

5. Mudtarib va musahhaflarning umumiy tomonlari.
6. Mavzu hadislarni jamlagan olimlardan Jamoliddin as-Suyutiy va uning asari.
7. Xalq orasida mashhur mavzu hadislari.

## Adabiyotlar

1. Уватов У. Буюк муҳаддислар: Имом ал-Бухорий, Имом Муслим Имом ат-Термизий. – Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 1998.
2. Abdu-l-Hayy al-Laknaviy. Ar-Raf'u va-t-takmil fi-l-jarh va-t-ta'dil. – Qohira: Dor as-Salom, 2000.
3. Al-Muborakfuriy. Tuhfat al-Ahvaziy. Muqaddima. – Beirut: Dor al-kutub al-ilmiya. Nashr yili ko'rsatilmagan. 1-juz.
4. Ar-Romahurmuziy. Al-Muhaddis al-fosil bayn ar-roviy va al-voiy. – Beirut: Dor al-fikr. 1984.
5. As-Suyutiyy. Jaloliddin. Tadrib ar-roviy fi sharh taqrib an-Navoviyy. 2 jildli. – Beirut: Dor al-kutub al-ilmiya, 1989.
6. At-Tahonaviy Zafar Amad. Muqaddamat i'la as-sunan. 21-jildli. – J. 19-21. – Beirut: Dor al-kutub al-ilmyya, 1997.
7. Jalol ad-din as-Suyutiyy. Al-La'laiy al-masnua fi ahadis al-mavdua. – Beirut. Dor al-kutub al-ilmiya, 1996.
8. Muhammad ibn Ismoil. Subul as-salom sharh bulug‘ al-marom. – Beirut: Dor al-kutub al-ilmiya. 1998.

**REJA:**

1. «Jarh va ta'dil» ilmining shakllanishi.
2. «Jarh va ta'dil» qoidalari.
3. «Jarh va ta'dil» ilmiga oid istilohlar.
4. Imom Abu Hanifaning «jarh va ta'dil» ilmidagi o'rni.

 **Tayanch iboralar:** *jarh, ta'dil, adolat, sahih, hasan, siqa, mardud, nosix va mansux hadis*

 **1. «Jarh va ta'dil» ilmining shakllanishi.** «Jarh» so'zining lug'aviy manosi – «jarohat yetkazmoq» yoki «ayblamoq», istilohiy ma'nosi esa roviyning muayyan kamchiligi tufayli u rivoyat qilgan hadisning rad etilishi. «Ta'dil» so'zining lug'aviy ma'nosi – «adolatl deb bilmoq» bo'lib, istilohiy ma'nosi esa roviy rivoyatining qabul qilinishi.

Hadis ilmi rivojlangan IX asrga kelib, muhaddislarning asosiy vazifasi hadislarni to'qima rivoyatlardan ajratib berish bo'lib qoldi. Ushbu ishni amalga oshirishda ma'lum tamoyillarni ishlab chiqish taqozo etilar edi. Bir tomonidan mazkur davrda hadislarni to'qish yo'li bilan ularning soni ko'payib ketishi kuzatilgan bo'lsa, ikkinchi tomonidan ularni «to'g'ri» yoki «noto'g'ri»ga ajratish bo'yicha uslublar ham ko'payib ketdi. Ammo ular orasida yurtimizdan chiqqan buyuk muhaddislar, xususan, Imom Buxoriy, Termiziy, Dorimiy kabi olimlarning uslublari birinchi o'rinda turar edi.

Sahobalar hadis rivoyat qilishda sunnatga xatoliklar, o'zgartirishlar kirib qolmasligi uchun o'ta ehtiyyotkor bo'lgan edilar. Aksincha, dinda turli fitnalarning kelib chiqishiga yo'l ochilishi muqarrar edi. Shu sababli ular hadislarni yodlab olishga katta e'tibor berar edilar.

«Al-Xulafo ar-roshidun» davrida hadislarni sof holda saqlab qolish asosiy muammo bo'lmagan bo'lsa-da, ular bu ishga o'ta jiddiylik bilan yondoshgan edilar. Chunki uzoqni ko'ra bilgan sahobalar agar hadislarni ushbu davrdan boshlab ehtiyyot qilinmasa, ozgina vaqt o'tishi bilan ularni noto'g'ri jihatga burib yuborish juda oson ish ekanini tushunib yetgan edilar.

Sahobalardan Abu Bakr, Umar, Usmon, Ali (r.a.) barchalari Rasulullohdan hadis rivoyat qiluvchi kishilarning nihoyatda haqso'z va ehtiyyotkor bo'lishlarini talab qilar edilar. Shuningdek, roviylar ham o'z so'zlarida yolg'ondan uzoqlashish maqsadida ba'zan bilgan hadislarni ham aytishdan saqlanar edilar.

Xulafoi roshidinlarning hadislarni bu tarzda qat’iy talablar asosida qabul qilishlarining sababi sahobalardan yomon gumon qilishgani sababli emas, balki islom dinining asoslaridan biri bo‘lgan hadisning musulmon jamiyatidagi o‘rnini yuqori baholaganlaridan edi.

Hadisni «jarh» qilishga asos bo‘ladigan narsa uni rivoyat qilgan roviyning ishonchli ekaniga monelik qiluvchi aybga ega bo‘lishi edi. Masalan, yolg‘on gapirish bilan nom chiqargan kishining rivoyat qilgan hadisi muhaddislar tomonidan qabul qilinmas edi. Buning uchun muhaddis roviyning shu kabi ayblarini bilih lozim edi. Shuning uchun roviylar tarjimai hollariga bag‘ishlangan kitoblarda ana shunday ma’lumotlar keltiriladi.

Islom ta’limotiga ko‘ra odob yuzasidan kishining aybini ochish gunoh sanaladi. Ammo hadislarni soxtalashtirishdan himoyalash, sunnati kelgusi avlodga sof holda yetkazish zarurati yuzasidan yolg‘onchilikda nom qozongan kishilar haqidagi ma’lumotlarni jarh va ta’dil ilmiga oid asarlarda muayyan odob-axloq qoidalariga rioya etgan holda berilishi joriy etildi.



*Movarounnahrlik muhaddislar - Imom Buxoriy, Imom Termizi, Imom Dorimiylar ishonchli hadislarni saralash bo‘yicha ishlab chiqqan usullari bilan jarh va ta’dil ilmi rivojiga ulkan hissa qo’shdilar.*

Zaif va ishonchsiz hadislarni tanqid qilish bilan bir qatorda sahihlarini majmualarga yig‘ish jarayoni ham boshlanib ketdi. Bu sohada olimlar turli yo‘nalishlarda ish olib bordilar.

Sahobalar davrida fitnalar nisbatan kamroq bo‘lgan. Vaqt o‘tishi bilan islom tarixida ixtilof, fitna, firqalanish ham ko‘payib boraverdi. Hazrat Usmon qatl qilinganlaridan so‘ng ikki muqobil bid’at yo‘nalishi – Alini kofirga chiqaruvchi xavorijlar va Alini payg‘ambar darajasiga ko‘taruvchi rofiza firqalari yuzaga keldi. Eng ko‘p yolg‘on hadis to‘quvchilar rofiziylar firqasi bo‘lib hatto ularning yolg‘onchiligi tillarda doston bo‘ldi.

Natijada amir al-muminin Ali ibn Abi Tolib tomonidan hadis rivoyat qilish uchun asosiy talab sifatida faqat ishonchli inson sifatida kishilardangina hadisni qabul qilib, notanish kishilardan hadis olmaslik qo‘yildi. Bu o‘sha davr uchun samarali natijani berdi.

Shu davrdan boshlab isnodni talab qilishga va roviyning ishonchli bo‘lishiga asosiy e’tiborni qarata boshladilar. Buyuk tobeinlardan Muhammad ibn Sirin shunday deydi: «Dastlab kishilar isnod haqida

so‘rab surishtirib o‘tirmas edilar. Keyinchalik har xil fitnalar sodir bo‘lgach tinglovchilar roviylardan «hadisning kim rivoyat qilganini aytib bering», deb talab qiladigan bo‘ldilar. Rivoyat qilgan kishilar «ahli sunna»dan bo‘lsalar hadislarini qabul qilar, agar ahli bid’atdan bo‘lsalar hadislarini qabul qilmashalar.

Musulmonlar fitnadan oldin bir-birlari orasida ishonch, omonat bo‘lganligi bois isnodini so‘rab o‘tirmaganlar. Holbuki isnod ularga yangilik emas edi. Chunki ular johiliyat davridagi she’r va qissalarning sanadini lozim bo‘lganda so‘rab turishar edi. Bunga ular kichik sahobalar va katta tobeinlar davridagi fitnalardan keyingina qat’iy amal qila boshladilar. Tobeinlardan Muhammad ibn Sirin, «Bu ilm dindir, diningizni kimdan olayotganiningizga e’tibor bering!», degan.

Sahobalar va tobeinlar hadisni rivoyat qilish va uni qabul qilishdagi tutgan bu yo‘llari ulardan keyingi muhaddislarga roviylar haqidagi ma’lumotlarni tekshirish va rivoyatlarini qiyosiy o‘rganish uchun yo‘l ochdi.

Roviylarni tekshirish natijasida eng zehni o‘tkir va ilmlilari ma’lum bo‘lib qolardi. Hadis ilmining boshqa yo‘nalishlari ham ehtiyojga ko‘ra takomillashib bordi. Masalan, avval boshda roviyning o‘ziga ishonch va ehtiyyotkorligiga e’tibor berilgan bo‘lsa, keyinchalik uning xotira kuchiga ham alohida e’tibor qaratdilar. So‘ng aniq qoidalar ishlab chiqildi, keyin esa ular asosida hadislar «jarh» va «ta’dil» qilinadigan bo‘ldi.

Roviylar haqidagi kitoblardan biri Abu Abdulloh Niysoburiyning «al-Muzakkira li-ruvot al-axbor» («Xabarlar roviylari zikri») asari edi. Unda muallif roviylarni o‘n tabaqaga bo‘lgan. Unda har bir davrdan to‘rttadan eng ishonchli shaxslar nomlari keltirilgan va jami qirqta roviy nomi mavjud. Birinchi tabaqadagi to‘rt kishi: 1) Abu Bakr Siddiq; 2) Umar ibn Xattob; 3) Ali ibn Abi Tolib va 4) Zayd ibn Sobit. Oxirgi – o‘ninchisi tabaqada quyidagilar nomlari berilgan: 1) Abu Is‘hoq Ibrohim ibn Hamza Asbahoniy;

2) Abu Ali Niysoburiy; 3) Abu Bakr Muhammad ibn Umar ibn Solim Bag‘dodiy va 4) Abul Qosim al-Kinoniy Misriy.

Tobeinlar asri oxirlarida (150/767) ishonchli va ishonchsiz kishilarning «adolati» yoki «jarohati» haqida yirik ulamolar o‘z fikrlarini bildirgan edilar. Jumladan, 150/767 da vafot etgan Imom Abu Hanifa shunday degan edi: «Jobir al-Ja‘fifyidan ham yolg‘onchiroq insonni ko‘rmaganman».

Shuningdek, A’mash (vaf. 148/765 y.), Sho‘ba (vaf. 160/777 y.), Molik ibn Anas (vaf. 179/795 y.), Avzo‘iy (vaf. 156/773 y.), Sufyon Savriy (vaf.

161/777 y.), Hammod ibn Salama (vaf. 167/783 y.) va keyingi tabaqada Abdulloh ibn Muborak (vaf. 181/797 y.), Hoshim ibn Bashir (vaf. 188/804 y.), Abu Is’hoq Fazoriy (vaf. 185/801 y.), Ibn Uyayna (vaf. 197/812 y.) kabi roviylarning barchalari ishonchli bo‘lib, faqat ishonchlilardan hadis rivoyat qilganlar.



### ***Muhammad ibn Sirin: «Bu ilm dindir, diningizni kimdan olayotganingizga e’tibor bering!».***

Yahyo ibn Said Qatton (vaf. 189/805 y.) va Abdurahmon ibn Maxdiylar (vaf. 198/813 y.) o‘z davrida «ikki hujjat» deb tanilgan bo‘lib, ular kimni ishonchli desalar «maqbul», kimni jarohatlari hisoblasalar «majruh» hisoblanar edi. Demak, aynan mana shu olimlar birinchi bo‘lib bu «jarh va ta’dil» ilmiga e’tibor bergan, roviy va muhaddislar haqidagi ma’lumotlarni tekshirgan, «zaif», «matruk» kabi sifatlarga ajratgan edilar.

Hadis va roviylarni tanqidiy o‘rganib, isnodning ishonchli ekaniga asosiy e’tiborni qaratgan va avvalgi muhaddislar ishini davom ettirgan keyingi tabaqa olimlari qatorida Yazid ibn Horun (vaf. 206/817 y.), Abu Dovud Tayolisiy (vaf. 204/819 y.), Abdurazzoq ibn Humom (vaf. 211/826 y.) va Abu Osim Zahhok Nabil ibn Muxallad (vaf. 212/827 y.) kabi shaxslarni zikr etish mumkin. Ayni mana shu va ulardan keyingi tabaqa olimlari davrida «jarh va ta’dil» hamda «illatlar» to‘g‘risida kitoblar yozila boshlanib, unda roviylar haqidagi ma’lumotlar bayon qilina boshladи.

«Jarh va ta’dil» olimlari nomlari ro‘yxatini «hadis ilmining oltin davri» ulamolari bo‘lmish Imom Dorimiy va Imom Buxoriylarga qadar davom ettirish mumkin. Bu ilm keyingi davr muhaddislar tomonidan ham davom ettirildi.



**2. «Jarh va ta’dil» qoidalari.** Hadislar tobiiylar va ulardan keyingi avlodga faqat roviylar orqaligina yetib keldi. Shuning uchun ham hadislarning sahih yoki zaifligini aniqlash aynan ushbu roviylarga bevosita bog‘liq. Shuning uchun ham muhaddislar roviylarning rivoyat qilgan hadislari qabul qilinishi uchun o‘ta puxta, nozik shartlarni qo‘yganlar.

Hadisning «ta’dil» qilinishi, ya’ni uni ishonchli sanab, qabul qilinishi uchun uning isnodidagi har bir roviyga bir qator talablar qo‘yiladi. Jumladan:

1. Adl – «adolatlis» bo‘lishi, ya’ni quyidagi xususiyatlarga ega bo‘lishi lozim:

- 1) Islom – musulmon bo‘lishi;
- 2) Balog‘at – bolig‘, ya’ni balog‘at yoshiga yetgan bo‘lishi;
- 3) Aql – oqil, ya’ni aqli raso bo‘lishi;
- 4) Taqvo – gunoh ishlardan saqlangan taqvodor bo‘lishi;
- 5) Amal – ilmiga amal qiluvchi bo‘lishi;
- 6) as-Salomat mina-l-fisq – fosiqlikdan xoli bo‘lishi va h.k.

Hadis olimlari balog‘at masalasida ikki xil fikr bildirganlar: 1) roviy hadisni eshitayotganda besh yoshga to‘lgan bo‘lishi ham mumkin. Asos sifatida sahoba Mahmud ibn Rubaydan: «Nabiy (s.a.v.)dan aql o‘rgandim. Chelakdan suv olib menga purkadilar, o‘shanda besh yoshda edim», degan hadis keltiriladi; 2) ba’zilar rivoyatni eshitayotganda balog‘at yoshini belgilamaganlar. Bola bu paytida yolg‘on gapirishni bilmaydigan hamda eshitgan narsasiga mantiqan to‘g‘ri javob qaytara oladigan darajada bo‘lishi lozim.

Mazkur shartlar topilgan roviy hadis ilmida «adolat sohibi», ya’ni hadislarini qabul qilish mumkin deb hisoblanadi. Aks holda unda adolat yo‘q deb hisoblanadi va uning rivoyati qabul qilinmaydi.

Bundan tashqari quyidagi ikki shart adolatning sobit bo‘lishiga kifoya qiladi:

1) odil deb e’tirof etilgan olimlardan biri u roviyni ham odil ekaniga hujjat dalil keltirgan bo‘lishi;

2) ahli ilmlar o‘rtasida adolatligi mashhur bo‘lib, unga maqtovlar aytilgan bo‘lishi; bu holatda o‘zga bir roviyning u haqda «odil» deb hujjat keltirishiga hojat qolmaydi.

2. Zabt – «zobit» (xotirasi kuchli), xabari aniq bo‘lishi shart. Xotirasi o‘ta ishonchli, yodlash qobiliyati kuchli, xato va yanglishishlardan xoli bo‘lishi, g‘ofil bo‘lmasligi hamda vasvas, ko‘p gumonga, vahimaga tushavermaydigan bo‘lishi lozim.

Roviy zabit hisoblanishi uchun uning hadis rivoyat qilishida puxta, ishonchli shayxlardan olishiga e’tibor qaratiladi. Zabit roviylardan rivoyat qilsa, uni ham zabit deb atash mumkin. Agar rivoyat ishonchli (siqa) roviylarning rivoyatiga muxolif kelaversa, unda uning zabitligiga xalal yetadi, natijada uning rivoyatini hujjat qilib bo‘lmaydigan darajaga tushib qoladi.

Fisq ish qilgan kishi fosiqligidan qaytib tavba qilsa uning rivoyati qabul qilinaveradi. Ammo hadis to‘qish, yolg‘on hadis aytish kabi fisq ishlarni

qilsa-yu, keyin tavba qilgan bo‘lsa, uning rivoyat qilgan hadislari e’tiborga olinmaydi, chunki yana yolg‘on gapirib qo‘yish ehtimoli bor.

Shuning uchun ham jarh va ta’dil haqida ko‘pchilik hadisshunoslar tadqiqot olib borganlar.

«Ta’dil» ikki xilga bo‘linadi:

1. Mutlaq.

2. Muqayyad.

Mutlaq ta’dil – roviyning qanday ustozlardan hadis rivoyat qilishi mumkinligi alohida ajratilmay, odil ekaniga guvohlik berilishi; bunda roviy rivoyat qilgan barcha hadislari ishonchli deb qabul qilinaveradi.

Muqayyad ta’dil – roviyni aniq bir muayyan narsaga masalan, shayxiga yoki bir toifaga nisbatan odil deb zikr qilinishi; bunda roviy faqat o‘sha narsaga nisbatanginaadolatli deb tan olinadi. Masalan: «u Zuhriydan rivoyat qilgan hadisda yoki hijozliklardan rivoyat qilgan hadisda ishonchli» deyilsa, undan boshqa rivoyatlari ishonchli deb e’tirof etilmaydi.

«Ta’dil» qilinuvchi roviyga uning ishonchlilik darajasiga qarab turlicha sifatlar beriladi. Masalan, «huva siqa» (u ishonchli), «lo yuraddu hadisuhi» (hadisi rad etilmaydi), «vassaqahu fulon» (falonchi uni siqa, ya’ni ishonchli deb sanagan) kabi so‘zlar bilan baho berilgan bo‘lishligi darkor.

Ta’dilning ham bir qancha darajalari bor, eng yuqorisi eng kuchli ma’noni anglatadiganidir. Masalan:

1. Eng ishonchli ekaniga dalolat qiluvchi sifat beriladi: «Avsaqu-n-nos» (odamlarning eng ishonchlisi) yoki «ilayhi-l-muntaho fi-t-tasabbut» (ishonchlilikda cho‘qqiga yetgan, ungagina tayaniladi) kabi.

2. Ishonchli ekanligiga dalolat qiladigan sifatlardan biri yoki ikkitasi bilan ta’kidlangan bo‘ladi: «huva siqatun» (u ishonchli) kabi.

3. Ta’kidlanmasdan, ishonchlilikiga dalolat qiladigan sifat bilan aytiladi: «siqatun, hujjatun» (ishonchli, hujjat) kabi.

4. Na jarhga va na adlga dalolat qiladigan lafz bilan keladi: «fulonun shayxun» (falonchi – shayx, ya’ni ustoz), «ravo anhu-n-nos» (undan odamlar rivoyat qilganlar) kabi.

5. Jarhga yaqin ekanligini anglatadigan lafz bilan keladi:

«falonching hadisi yaxshi» yoki «hadisi yoziladi» kabi.

Ulamolarning fikriga ko‘ra, ta’dil qilinayotgan roviyning ishonchlilikiga dalil bo‘luvchi sifatlarini zikr qilinmasligi mumkin. Chunki ta’dilning juda ko‘p sabablari borki, uning hammasini sanab o‘tish qiyin. Ammo jarh

qilishda uning sababi aniq bayon qilinishi kerak, chunki roviyni jарh qilish uchun birgina sabab yetarli.



***Hidisning «ta'dil» qilinishi, ya'ni uni ishonchli sanab, qabul qilinishi uchun uning isnodidagi har bir roviy adl va zabitablari asosida tekshirilgan.***

«Jarh» qilinuvchi roviyga uning rad qilinish sababi turlicha so‘zlar bilan berilishi mumkin. Masalan: «huva kazzobun» (u yolg‘onchi), «huva fosiqun» (u fosiq), «huvva daif» (u zaif), «lo yu‘xazu hadisuhu» (uning hadisi olinmaydi) kabi so‘zlar bilan. Jarh ham ta’dil kabi ikkiga bo‘linadi:

1. Mutlaq;
2. Muqayyad.

«Mutlaq jarh» deb roviyni biror narsa yoki holatga bog‘lamasdan jarh qilishga aytildi. Masalan, roviy «huva kazzobun» (u yolg‘onchi) deb jarh qilingan bo‘lsa, uning hech qanday hadisi olinmaydi.

«Muqayyad jarh» esa aksincha roviyning faqat biror kishidan yoki guruhdan hadis rivoyat qilishi ishonchli emasligini bildiradi. Masalan, Ibn Hajar Asqaloniy «at-Taqrīb» nomli asarida Zayd ibn Habbob haqida «undan Muslim ham rioyer qilgan, u rostgo‘y. Savriydan rivoyat qilgan hadisda esa u xato qiladi», deydi. Demak, Zayd ibn Habbob boshqalardan emas, balki aynan Savriydan rivoyat qilgan hadislaridagina jarh qilinadi.

Shuningdek, Ismoil ibn Ayyosh haqida Ahmad ibn Hanbal, Yahyo ibn Ma‘in va Imom Buxoriylar «Shom ahlidan rivoyat qilgan hadislarida ishonchli, ammo Hijozliklardan rivoyat qilgan hadislari zaif», deb aytganlar. Shunga ko‘ra Ismoil ibn Ayyosh faqat Hijozliklardan rivoyat qilgan hadislardagina zaif deb e’tiborga olinadi.

 3. **«Jarh va ta’dil» ilmiga oid istilohlar.** «Jarh va ta’dil» ilmi istilohlari jarh qiluvchiga qo‘yilgan muayyan talab va shartlardan kelib chiqqan holda turlichadir:

1. Jarh qiluvchi kishi adolatli bo‘lishi (chunki fosiq kishining jarhi qabul qilinmaydi).
2. G‘ofil bo‘lmasligi, sergak bo‘lishi.
3. Roviya nisbatan nohaq ayblovlari kelishi mumkin bo‘lgan guruuhlar va jihatlardan boxabar bo‘lishi.

4. Jarh sabablarini aniq bayon etgan bo‘lishi (chunki noaniq, mubham bo‘lgan jarh qabul qilinmaydi. Masalan, «uning hadisi mardud, ya’ni rad qilingan» yoki «u zaif» degan so‘zlarning o‘zi bilan kifoyalanan yetarli emas, to buning sabablarini aniqlab, bayon etmaguncha).

5. Adolati aniq, to‘la ishonchli deb topilgan, imomlik sifati bilan mashhur bo‘lgan kishilarni jarh qilmasligi (masalan, Nofe’, Sho‘ba, Abu Hanifa, Molik, Buxoriylar kabi. Bular haqida aytilgan jarh e’tiborga olinmaydi).

Jarh va ta’dilning umumiy qoidalari sifatida quyidagilarni zikr etish mumkin:

1) Odil kishining biron shaxsdan rivoyat qilishi uning shaxsigaadolatli deb baho berishi hisoblanmaydi.

2) Olimning bir hadisga muvofiq amal qilishi va fatvo berishi o‘sha hadisning sahihligiga hukm bo‘lmaydi. Shuningdek, uning amali yoki fatvosi hadisga muxolif bo‘lsa hadisning sahihligiga va roviylariga ta’sir o‘tkazmaydi.

3) Fosiqlikdan tavba qilgan kishining rivoyati qabul qilinadi.

4) Hadisda yolg‘onchiligidan tavba qilgan kishining rivoyati qabul qilinmaydi.

5) Hadis aytishda haq olgan kishining rivoyati Ahmad, Is’hoq, Abu Xotimlarning nazdlarida qabul qilinmaydi. Abu Nu’aymning nazdlarida esa qabul qilinadi.

Jarh qilish iboralarining ham bir necha darajalari bor:

1. Roviyning rivoyati kuchli emasligini bildiruvchi so‘z va iboralar: «layyin» (so‘zi bo‘sh), «sayyi’ul hifz» (xotirasi yomon), «fih maqol» (u haqida salbiy fikrlar bor) kabi.

2. Hujjat bo‘la olmasligi ochiq oydin anglatuvchi so‘z va iboralar: «falonchining rivoyati hujjat bo‘la olmaydi», «u zaif», «unda noaniqliklar bor» kabi.

3. Hadisi yozilmasligi va shunga o‘xshash so‘z va iboralar bilan: «falonchining hadisi yozilmaydi», «undan hadisni rivoyat qilish halol emas», «u o‘ta zaif» kabi.

4. Yolg‘onchilik va shunga o‘xshash guman ni bildiruvchi so‘z va iboralar bilan: «falonchi hadis o‘g‘irlagan», «ishonchli emas», «to‘qigan», «so‘zi tark qilingan degan guman bor» kabi.

5. Ochiq yolg‘onchi deb sifatlovchi so‘z va iboralar bilan: «falonchi kazzob», «dajjol», «yolg‘on hadis to‘quvchi» kabi.

6. Yolg‘onchiliginı o‘ta mubolag‘ali ekanini bildiruvchi so‘z va iboralar bilan: «falonchi odamlar ichida eng yolg‘onchisi», «yolg‘on to‘qishlikda unga teng keladigani yo‘q» kabi.

Yuqorida zikr etilgan birinchi va ikkinchi darajaga mansub bo‘lgan shaxslarning hadislari aqida va fiqhda hujjat qilib olinmaydi. Ammo ularning odob-axloqqa doir, e’tiqodga tegishli bo‘lmagan hadislarini ibrat uchun yozib qo‘yish mumkin. Ammo keyingi to‘rtta darajadagi shaxslarning hadislari hujjat ham bo‘lmaydi, yozilmaydi ham, e’tiborga ham olinmaydi.

Agar bitta roviyda ham jarh ham ta’dil sifati topilsa va jarh dalillari bayon qilingan bo‘lsa, uning jarh qilinganligi qabul qilinadi.



*Biror roviy yoki muhaddisga baho berish uchun uning hayot yo‘li, asosiy tamoyillari, ijtimoiy mavqeい, ilmdagi uslubi kabi barcha qirralari o‘rganilgan.*

Jarh va ta’dilga istilohlar qatoriga hadis rivoyat qilgan roviy, uning rivoyati bilan bog‘liq jihatlarga bildirilgan munosabatni o‘zida aks ettiruvchi so‘zlar kiradi. Shuning uchun ham bir roviy yoki muhaddisning qanday ekaniga baho berish uchun uning hayot yo‘li, asosiy tamoyillari, ijtimoiy mavqeい, ilmdagi uslubi kabi barcha qirralarini bilish talab etiladi.

 4. **Imom Abu Hanifaning «jarh va ta’dil» ilmidagi o‘rni.** Yoshda ham, ilmda ham to‘rt mazhab sohiblarining birinchisi bo‘lmish Imom Abu Hanifa Nu’mon ibn Sobit Kufiyini ko‘pchilik «faqih» sifatida taniydi. Chunki u fiqh ilmida misli ko‘rilmagan ishlarni amalga oshirgan bo‘lib, islam olamiga dovrug‘i ketgan edi. Ammo bu olim fiqhdan tashqari hadis ilmida, jarh va ta’dil sohalarida ham barchaga o‘rnak bo‘lgulik mavqega ega edi. Ulamolar Imom Abu Hanifa haqida o‘zlarining ko‘plab fikrmulohazalarini keltirganlar. Ulardan ba’zilari bu imomning hadis ilmini bilmaganlikda ayblab aytgan fikrlari hadis ilmi tarixi va olim tarjimai holini o‘rganib chiqilganidan keyin mutlaqo o‘rinsiz ekanı ma’lum bo‘ladi.

Imom Abu Hanifa to‘rt mazhab egalari orasida eng yoshi ulug‘i va eng ko‘p musulmonlar uning mazhabiga ergashadigani hisoblanadi. Olim 80/699 yilda Kufada tug‘ilib, 180/796 yilda Bag‘dodda vafot etgan. Imom A’zam sharafiga u dafn etilgan mahalla «A’zamiya» deb nomlangan.

Abu Hanifaning sharqu g‘arbda dovrug‘i ketgan imom ekanini barcha islam ulamolari tan olganlar. Imom A’zam sahobalarini ko‘rgan va ulardan

hadis rivoyat qilgan tobiylardan ekani qator ulamolar, jumladan Imom Ali Aliyul Qoriy tomonidan zikr etilgan.

Muhaddislar Imom A'zamning «adolat» borasida so‘z yuritib, olimning taqvodor bo‘lganini qayta-qayta ta’kidlaganlar. Imom Abu Hanifa ilm, zuhd, taqvo borasida yetakchi bo‘lish bilan birga ilm ahllarini qo‘llab-quvvatlab turuvchi saxovat egalaridan edi. Olim xotirasi kuchli, hadis, fiqh kabi islom ilmlarining nozik qirralarini tushunib yetadigan, har bir masalani yechishda atroflicha keng dunyoqarash bilan yondashadigan, mantiqiy dalillar bilan har qanday munozara qiluvchini lol qoldiradigan zakovat sohibi edi. Bu fikrni tasdiqlab olim Shamsuddin Zahabiy (vaf. 1348 y.) shunday deydi: «Imom Abu Hanifa odamzot ichida eng aqlligidir».

Barcha yirik islom ulamolari tomonidan Imom Abu Hanifaning «mujtahid imom» ekani tan olingan.

Hanafiy mazhabi olimlari o‘zlarining hadis kitoblarida asosan o‘z mazhablari doirasida ishlatiladigan hadislarni jamladilar. Ana shunday hadis kitoblaridan biri Abdulloh ibn Muhammad Subazmuniy Buxoriyning (vaf. 951 y.) «Kashf al-osor fi manoqib Abi Hanifa» (*«Abu Hanifa manoqiblari bo‘yicha yodgorliklarni kashf qilish»*) asari sanaladi. Bu asarning hadislari keyinchalik o‘n besh musnaddan hadislarni jamlagan Abul Muayyad Muhammad ibn Mahmud Xorazmiyning (vaf. 1267 y.) «Jome’ al-masonid» kitobiga tanlab olingan. Ushbu asarda Abul Muayyad Xorazmiy shunday yozadi: «Shomda «Musnad»ning miqdorini kamaytirib ko‘rsatib, boshqa asarlarning esa qadrini yuqori ko‘rsatayotgan ba’zi bir kishilarni ko‘rdim. Abu Hanifa kam hadis rivoyat qilgan, Imom Shofiiyning «Musnad»i va Imom Molikning «Muvatto» (*«Oson qilingan»*) asari kabi hadislari keltirilgan «Musnad»i yo‘q, deb da’vo qilganlar ham bo‘ldi. Shunda mening g‘ayratim kelib, hadis ulamolari to‘plagan 15 ta musnadni birlashtirishga bel bog‘ladim». Shundan so‘ng muallif Imom Abu Hanifaning hadislарини о‘зидаги mujassam qilgan 15 ta musnad kitobini nomma-nom sanab o‘tadi.

Hofiz Shamsiddin Zahabiy «Manoqib Abi Hanifa» nomli asarida Mis’ar ibn Kudomdan shunday rivoyat qiladi: «Abu Hanifa bilan hadisda musobaqalashgan edik, bizdan g‘olib keldi. Taqvoda bellashgan edik, bizdan ustun keldi va u bilan fiqhda talashgan edik, uning mavqeini ko‘rib turibsiz».

«Jarh va ta’dil» ilmi bo‘yicha ko‘zga ko‘ringan olim Yahyo ibn Said Qatton Imom Abu Hanifaning hadisdagi mavqeい haqida shunday deydi:

«Allohga qasamki, shubhasiz, Alloh va rasulidan kelgan narsada u ummatning eng bilimdonidir».

Bu rivoyatdan ham Imom A'zamning hadis borasida o'ta bilimdon ekan ko'rindi. Chunki «Payg'ambardan kelgan narsada», deyilganda hadis ilmi nazarda tutilgan.

Ulamolardan Yahyo ibn Nasr ibn Hojib Imom Abu Hanifaning hadislardan faqat o'rnidagina foydalanishini shunday ifodalaydi: «Men Abu Hanifaning «mening huzurimda hadisdan bir nechta sandiqlar bor, bundan faqat shu foydalananayotganimiz, ya'ni ozgina qismini ochganman xolos», deganini eshitganman».

Imomning «adolatli» muhaddis ekanini Yahyo ibn Mainning aytganlari tasdiqlaydi: «Abu Hanifa siqa (ishonchli) edi. Faqat yodlagan hadisini aytar edi, yodlamaganini hadis, deb aytmas edi».

Abu Hanifaning sahobalarni, xususan, Anas ibn Molikni ko'rganliklari va tobiiylardan ekanliklarini ko'p muhaddis va tarixshunos olimlar ta'kidlaganlar. Ulardan Ibn Sa'd «Tabaqot», Hofiz Shamsiddin Zahabiy «Tazkiratu-l-huffoz» («Hofizlar tazkirası») asarlarida, shuningdek, Hofiz ibn Hajar Asqaloniy, Hofiz Iroqiy, Doraqutniy, Imom Abu Ma'mar Abdulkarim ibn Abdussamad Tabariylar Imom Abu Hanifaning sahobadan hadis rivoyat qilganligini, ya'ni tobiiylardan bo'lganini ta'kidlaganlar. Hofiz Jaloliddin Suyuti Abu Hanifaning rivoyatlari botil emas, balki qabul qilinishga loyiq deb hukm qilganlar.

Imom Abu Hanifa va uning shogirdalri haqida boshqa mazhab rahnamolari ham yuksak bahoni bergenlar. Xususan, Ahmad ibn Hanbal shunday deydi: «Agar bir masalada ushbu uch kishining so'zi to'g'ri kelsa boshqalarnikiga quloq solinmaydi», degan. «Ular kimlar» deb so'ralganlarida, «ular Abu Hanifa, Abu Yusuf va Muhammad ibn Hasanlardir. Abu Hanifa qiyosda, Abu Yusuf hadisda, Muhammad arab tilida yetuk», deb javob bergen.

Olimning shogirdlaridan Abu Yusuf ham jarh va ta'dil olimlarining eng avvalgilaridan bo'lib, butun islom olami uni tan edi. Mazhabning yirik ulamolari ilmiy masalalarda u kishiga murojaat qilib turganlar.

Abu Hanifaning shogirdlaridan yana biri, fiqhda shuhrat qozongan, jarh va ta'dil olimlaridan bo'lgan, hofizul hadis, faqih, ilmda dengiz imom Muhammad ibn Hasan Shayboniydir (132-189/749-805). Abu Hanifani mahkam tutib, u kishidan fiqh va hadis ilmini olgan. U Sufyon Savriydan, Qays ibn Rubaydan, Umar ibn Zardan, Mis'ar ibn Kudom va boshqalardan

hadis eshitgan. Shomda Avzo‘iydan, Madinada Molik va boshqalardan hadis eshitgan. Shu kabi shogirdlarni tarbiyalagan olimning ilmdagi mavqeい haqida turli noo‘rin shubhalarning bildirilishi to‘g‘ri hisoblanmaydi.

Zikr etilganlardan ko‘rinadiki, yurtimizda asosiy fiqhiy mazhab sifatida ergashiladigan hanafiylikning yo‘lboshchisi Imom Abu Hanifa nafaqat fiqxda, balki hadis ilmida ham o‘z o‘rniga ega bo‘lgan. Uning diniy masalalarda bergen fatvolari ham Qur’on oyatari va hadislarga muvofiq bo‘lganini ko‘rsatadi.

## HADIS

وَقَالَ النَّبِيُّ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ: الْمُؤْمِنُ غَرِّ كَرِيمٌ وَالْفَاجِرُ حَبْ لَيْمٌ

Nabiy s.a.v. aytdilar: Mo‘min kishi soddadil, saxiy bo‘ladi, fosiq odam hiylakor, makkor va xasis bo‘ladi.



### Mavzu bo‘yicha savollar

1. Jarh va ta’dil so‘zлari qanday ma’noni anglatadi?
2. Muhaddislar hadislarni jarh va ta’dil qilishda nimalarga e’tibor beriganlar?
3. Qanday sabablarga ko‘ra roviy jarh qilinadi?
4. Jarhgа oid qanday atamalar ishlatalgan?
5. Ta’dil borasida olimlar qanday istilohlarni qo‘llaganlar?
6. Hadisning ta’dil qilinishi uchun roviyga qanday talablar qo‘yilgan?
7. Qanday roviylar haqida aytilgan jarh qabul qilinmaydi?
8. Imom Abu Hanifa hadis ilmida qanday o‘rin tutadi?



### Topshiriqlar

1. Jarh va ta’dil ilmining shakllanishiga sabab bo‘lgan omillarni aytib bering.
2. Roviylarga «zaif» va «matruk» sifatlarini bergen olimlarning dalillari haqida ma’lumot bering.
3. Hadisning «ta’dil» qilinishi bilan bog‘liq shartlarni izohlang.
4. Jarh qilish iboralarini ta’riflang.

## **Mustaqil ish mavzulari**

1. Abu Abdulloh an-Niysoburiy va uning «al-Muzakkira li-ruvot al-axbor» asari.
2. Yazid ibn Horun – buyuk muhaddis.
3. «Jarh va ta’dil» ilmi istilohlari.
4. Abu Hanifaning hadis ilmida tutgan o‘rnii.

## **Adabiyotlar**

1. Раҳматуллоҳ қори Обидов. Қуръон ва Тафсир илмлари. – Т.: «Тошкент ислом университети» нашриёт-матбаа бирлашмаси, 2003.
2. Имоми Аъзам асарлари / Таржимон ва нашрга тайёрловчи. Абдурашид қори Бахромов. – Т.: Мовароуннахр, 2003.
3. Abdu-l-Hayy al-Laknaviy. Al-Favoid al-bahiya fi tarojimi-l-hanafiya. – Bayrut: Doru-l-kutub al-islomiy, 1998.
4. Abdu-l-Hayy al-Laknaviy. Ar-Raf’u va-t-takmil fi-l-jarh va-t-ta’dil. – Qohira: Dor as-Salom, 2000.
5. Nuriddin Itr. Manhaj an-naqd fi ulum al-hadis. – Damashq: Dor al-fikr, 1988.

**REJA:**

1. Hadislarning tarbiyaviy ahamiyati.
2. Qudsiy hadislarda axloqiy mezonlar.
3. Hadisshunoslikning dinshunoslik fanlari orasidagi o‘rnii.

 **Tayanch iboralar:** *hikmat, maqol, hadisi qudsiy, xulq, sabr, shukr, muloyimlik, hurmat*

 **1. Hadislarning tarbiyaviy ahamiyati.** Islom dinining Qur’oni karimdan keyingi ikkinchi manbasi bo‘lmish hadislar inson ma’naviy-axloqiy tarbiyasini yuksaltirishda muhim o‘rin tutadi. Zero, hadislar insonning jamiyatda o‘z munosib o‘rnini egallashiga yordam beradi. Hadislarda kishining kundalik hayotida uchraydigan muammoli holat va vaziyatlar uchun konseptual yechimlar yotadi. «Odamlarning yaxshisi – odamlarga foydalirog‘i» deyiladi hadisi sharifda. Yaxshi inson bo‘lishga intilgan har bir kishini atrofdagi insonlar manfaati uchun qayg‘uradigan, kishilarga yaxshilik qilishdan «charchamaydigan» qilib tarbiyalashda ushbu hadisning ahamiyati yaqqol ko‘rinib turibdi.

Ming yildan ortiq davr mobaynida musulmon xalqlar ijtimoiy hayoti bilan bog‘liq ravishda avloddan-avlodga o‘tib, bizgacha yetib kelgan hadislarda ma’naviy najot vositasi bo‘lgan hikmatlar mujassamdir.

Hadislarda payg‘ambarlikning asosiy vazifasi ham insonlar axloqini yuksak darajaga olib chiqishdan iborat ekani ta’kidlanadi. Zero, hadisda: «Men barcha yaxshi xulqlarni takomiliga yetkazish uchun yuborilganman» deyilishi bu fikrning isbotidir. Rasululloh alayhis-salomning axloqlari haqida ayollari Oishadan so‘ralganida, «U kishining xulqlari Qur’on edi», deb Qur’onda zikr etilgan barcha yaxshi fazilat va xislatlarni u kishi o‘zlarida mujassam qilganliklarini e’tirof etgandilar.

Islom ta’limotiga ko‘ra, hadislarning tarbiyaviy ahamiyati katta ekani yana shu bilan izohlanadiki, Qur’onda Allohning elchisi bo‘lgan Payg‘ambarning yuksak axloqiy fazilatlari sababli u kishi bir necha bor maqtalib ta’kidlangan. Xususan, «Qalam» surasida shunday deyiladi: «**Albatta, Siz buyuk xulq uzradirsiz**» (Qalam, 4). Shuningdek, mazkur go‘zal xulqlar boshqalarga namuna bo‘lishi darajasida ekani haqida shunday deyiladi: «**(Ey, imon keltirganlar!) Sizlar uchun – Alloh va oxirat**

**kunidan umidvor bo‘lgan hamda Allohni ko‘p yod qilgan kishilar uchun Allohnинг payg‘ambarida go‘zal namuna bordir»** (Ahzob, 21).

Yuksak insoniy fazilatlardan biri kishining so‘zi va amali bir-biriga muvofiq bo‘lishidir. Ana shunday kishining so‘zлari ham ta’sirli bo‘ladi. Bunday fazilatni egallagan Rasululloh alayhis-salomning qoldirgan hikmatlari 14 asrdan buyon saqlanib kelayotgani ham bejiz emas edi. Bu esa so‘z va amal birligiga erishgan, buyuk sufiy olimlar tomonidan «komil inson» deya ta’riflangan Payg‘ambarning go‘zal xulq sohibi bo‘lganini yana bir bor tasdiqlaydi.

Payg‘ambar alayhis-salom atrofida ko‘plab insonlar – sahabalar jamlanishining, ya’ni yagona bir jamoa bo‘lishining asosiy omillaridan biri sifatida Qur’onda go‘zal xulq ko‘rsatilgan: «**Allohnинг rahmati sababli (Siz, ey, Muhammad,) ularga (sahobalarga) muloyimlik qildingiz. Agar dag‘al, toshbag‘ir bo‘lganingizda, albatta, (ular) atrofingizdan tarqalib ketgan bo‘lur edilar. Bas, ularni afv eting, (gunohlari uchun) kechirim so‘rang va ular bilan kengashib ish qiling! (Biror ishga) azmu qaror qilsangiz, Allohgа tavakkul qiling! Alloh tavakkul qiluvchilarni sevar»** (Oli Imron, 159). Ushbu oyatdan musulmonlarning yagona ummat, ya’ni bir jamoa keyinchalik jamiyat bo‘lib shakllanishida ham go‘zal xulqning ahamiyati katta bo‘lganini ko‘rsatadi.

Ilk islom davrida Payg‘ambar atrofidagi insonlarni tarbiyalashda hadislар qay darajada nufuzga ega bo‘lgan bo‘lsa, keyingi davr uchun ham ularning ahamiyati kam bo‘lmadi, aksincha ahamiyatliroq bo‘lib bordi. VIII asrda hadislarni jamlashga asosiy e’tibor qaratilib, IX asrda mukammal to‘plamlar yuzaga keldi. Minglab ichshonchli hadislarni o‘zida mujassam qilgan «as-Sihoh as-sitta» («Olti ishonchli to‘plam») xuddi shu IX asrda to‘la ravishda o‘z nihoyasiga yetdi. Bu darajada katta miqdordagi hadislarni jamlagan to‘plamlarning yuzaga kelishi musulmon olamida ularga ehtiyoj va qiziqishning naqadar kuchli bo‘lganini ko‘rsatadi. Muhaddislar hadislarni shunchaki to‘plamadilar, balki ularni o‘z hayotlari mohiyatiga aylantirdilar. Imom Buxoriy buni «Men qaysi hadisni o‘rgansam, unga amal qildim» deya e’tirof etadi. Olim aytgan ushbu so‘zlar asosan axloq-odobga doir hadislар xususida edi.



**Payg‘ambar s.a.v.: «Men barcha yaxshi xulqlarni takomiliga yetkazish uchun yuborilganman».**

X asrdan boshlab mavjud hadis to‘plamlarini sharhlash, ularga «sharh» va «hoshiya» kitoblarini yozish rivojlandi. Har bir to‘plamga o‘nlab ko‘p jildli sharhlar yozildi. Masalan, Imom Buxoriyning (910-970) «al-Jomi as-sahih» («Ishonchli to‘plam») asarining o‘ziga yozilgan sharhlardan 54 tasining nomi hadisshunos olim professor U.Uvatov tomonidan amalga oshirilgan «Buyuk muhaddislar: Imom al-Buxoriy, Imom Muslim Imom at-Termiziyy» (Toshkent: «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 1998) nomli risolasida sanab o‘tilgan. Ammo bu sanalgan sharhlar ularning faqatgina bir qismi ekani ta’kidlangan. Mazkur raqamlar ham X asrdan tortib hozirgi kungacha hadislarning qay darajada katta ahamiyatga ega bo‘lganini ko‘rsatadi. Bu sharhlar tarix davomida paydo bo‘lgan ijtimoiy muammolarni hal qilishga va axloqiy normalarni mukammallashtirishga qaratilgan edi.

Imom Buxoriyning «al-Jomi as-sahih» asariga Ibn Hajar Asqaloniy (vaf. 1448 y.) tomonidan yozilgan «Fath al-boriy li-sharh Sahih al-Buxoriy» nomli sharhi haqida buyuk arab mutafakkiri Ibn Xaldun (XV asr) shunday deydi: «Ibn Hajar Asqaloniyning Imom al-Buxoriy asariga yozgan «Fath al-boriy» nomli sharhini butun islom ummatining o‘rganmog‘i qarzdir». Haqiqatan ham bu asar ilmiy jihatdan g‘oyatda mukammal va muhim bo‘lib, Asqaloniydan keyin «al-Jomi’ as-sahih»ga sharh yozgan barcha mualliflar ana shu asardon foydalanganlar.

Hadislarni o‘z mohiyatiqa ko‘ra aqidaviy, fiqhiy va axloqiy mavzularga bo‘lish mumkin. Ular orasida axloq-odobga doirlari muhaddislar tomonidan alohida to‘plamlarda yig‘ildi. Ularga misol tariqasida Imom Buxoriyning «al-Adab al-mufrad» («Odob durdonalari») asarini keltirish mumkin. Bu kitob o‘zbek tiliga ham tarjima qilinib, yurtimizda nashr etilgan (T.: O‘zbekiston, 1990).

Aqidaviy va fiqhiy masalalarini hal qilish uchun mutakallim va faqih ulamolar odatda ishonchli hadislardan foydalanishga harakat qiladilar. Ammo axloqiy mavzudagi hadislarning ishonchliligi «mutavotir» (isnodi uzlusiz, eng ishonchli) darajasida bo‘lmasa-da, ulamolar fikricha, ulardan tarbiyaviy maqsadda foydalanish mumkin. Abu Lays Samarqandiy o‘zining axloq-odobga doir «Tanbehal-g‘ofilin» (Toshkent: Mavarounnahr, 2003) nomli asarida shu kabi hadisni keltiradi. Bu Said ibn Musayyabdan rivoyat qilingan ushbu hadisdir:

«Aqlning boshi Allohga bo‘lgan imondan keyin odamlar bilan murosai madora qilish va ularga muhabbatli bo‘lishdir. Kishi kengash-maslahatdan

halok bo‘lmaydi. Kishi o‘zining fikri bilan kifoyalansa, baxtli bo‘lomaydi. Agar Alloh bandaning halok bo‘lishini xohlasa, avvalo, uning fikri buziladi. Albatta, dunyoda yaxshilik ahllari bo‘lganlar oxiratda ham yaxshilik ahlla ridir. Dunyoda yomon ish egalari bo‘lganlar oxiratda ham yomonlik egalaridir» (Abu Lays As-Samarqandiy, Al-Faqih. Tanbehul-G‘ofiliyn (G‘aflatdan uyg‘otish). – T. III. – T.: Movarounnahr, 2003. – B. 129).

Hadis to‘plamlariga ba’zan Payg‘ambar so‘zlari va amallaridan tashqari sahobalarning so‘z va amallari ham kiritilgan. Bu kabi so‘zlar «mavquf» (to‘xtagan, oxiriga yetmay qolgan) hadislar deb ataladi. Shuningdek, tobeinlar so‘zlari ham hadis to‘plamlariga kiritilgan va ular «maqtu» (kesilgan) hadislar deb atalgan. Demak, hadis to‘plamlarida Payg‘ambar alayhis-salomdan keyingi kishilar – sahoba, tobiylarning ham o‘gitlari jamlangan. Keyinchalik bitilgan hadis ilmiga oid asarlarda va sharhlarda esa olimlar, davlat arboblari va boshqa mashhur kishilarning so‘zlari ham bu to‘plamlarga kiritilgan. Bundan ko‘rinadiki, hadislar uzoq davr mobaynida hikmatli so‘zlari va yuksak axloq namunalarini o‘zida mujassam qilib, xalq orasida keng muomalada bo‘lib kelgan.

Hadislar orasida ota-onani hurmat qilish mavzusi alohida o‘rin tutadi. Imam Termiziy o‘zining «Sunan» asarida shunday hadisni keltiradi: «Parvardigorning roziligi otaning roziligidadir, Parvardigorning g‘azabi otaning g‘azabidadir».

Inson egallashi mumkin bo‘lgan fazilatlarni ba’zan 50 dan ortiq, ba’zida 100 ga yaqin deya ta’rif beradilar. Bu kabi fazilatlarni sinchkovlik bilan o‘rgangan ulamolar ularning sonini 200 tagacha sanaganlar. Ammo ular orasida rostgo‘ylikning o‘ziga xos ko‘rinishi bo‘lgan yuqorida zikr etilgan so‘z va amalning birligi eng yuqori darajada hisoblanadi. Zero hadisda aytishchicha, «Allohning nazdida eng yaxshi gap rost gapdir».

Aytish mumkinki, hadislar uzoq tarixiy davr mobaynida katta tarbiyaviy-axloqiy ahamiyatga ega bo‘lib keldi. Hozirgi kunda ham ular o‘zining ma‘naviy-ma‘rifiy va axloqiy ahamiyatini yo‘qtgani yo‘q. Shuning uchun ham kelajagi buyuk davlatni barpo etishda, xalqimizni, xususan yoshlarni, yuksak axloqiy fazilatlar bilan tarbiyalashda hadislardan unumli foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi.

 **2. Qudsiy hadislarda axloqiy mezonlar.** Hadis ilmi istilohlariga bag‘ishlangan mavzu doirasida «Qudsiy hadislar»ning ta’rifi berib o‘tildi. Bu turdagи hadislar Payg‘ambar alayhis-salomning «o‘z Rabbisi Azza va Jalladan rivoyat qilgan hadislar» bo‘lib, ularda asosan umuminsoniy axloqiy

mezonlar ko'rsatib berilgan. Qudsiy hadislarda inson doimo yaxshilik haqida o'ylashi, kelajak haqida yaxshi gumonda bo'lish, o'zini yaxshi ishlarga safarbar qilishi lozimligi uqtiriladi.

Qudsiy hadislar «ahli kitob», ya'ni yahudiylik va nasroniylik kabi islomdan avvalgi din vakillarining muqaddas manbalarida mavjud bo'lган va hozirgacha saqlanib qolgan hikmatli so'zlarni ham o'zida mujassam etgan. Shuning uchun ham ularni birgina islom diniga e'tiqod qiluvchilar emas, balki har qanday kishi eshitganda inson mohiyatining naqadar yuksak ekanini his etadi. Natijada insonning bu dunyoda yashashidan asl maqsadi faqat ezgu ishlarni qilish, bunyodkorlikka intilish bo'lishi lozimligini anglab yetadi. Bunday hadislarda ilgari surilgan insonparvarlik g'oyalari insonda bor imkoniyatini ishga solib bo'lsa-da ruhiy poklanishga, yomonliklardan tiyilishga, yaxshi ishlarni amalga oshirishga harakat paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Jumladan, bir qudsiy hadisda shunday deyiladi:

«Alloh taolo shunday marhamat qiladi: Ey bandalarim! Men bandamning gumonidaman, istaganicha gumon qilaversin. Men sen bilan birkaman. Agar mendan yaxshilikni gumon qilsang, yaxshilik bo'ladi. Yomonlikni gumon qilsang, yomonlik bo'ladi». Yaxshilikka intilib yashash, niyatlarni yaxshi, to'g'ri va katta qilish lozimligini uqtiruvchi yana bir hadisi qudsiyda shunday deyiladi: «Ey odam farzandi, men uchun xolis amal qil va so'ragil. Men so'rovchilar istagan narsalarining afzalini beraman». Bu hadis, shuningdek, insonni xolislikka, Yaratgandan boshqa kishilardan tamagirlik qilmaslikka ham chaqiradi.

Kishining duo qilib, o'ziga yaxshiliklarni so'rashi nafaqat ruxsat etilgan amal, balki insoniy fazilat ekani, so'ramaslik esa Yaratganning g'azabiga sabab bo'lishi quyidagi hadisda zikr etilgan: «Ey bandalarim, agar mendan bir bandam so'rasha, beraman, agar mendan so'ramasa, unga g'azabim keladi». Zero, insonning bu kabi duo bilan so'ramasligi uning kibrga ketish belgisi sifatida ham talqin etiladi.

Qudsiy hadislar ezgulikni inson o'zining odatiga aylantirishi lozim ekanini uqtiradi. Zero, yaxshi odatlarga o'rganish insonning kelajagi uchun katta imkoniyatlarni yaratadi. Ammo yaxshi ishni oddiygina qilish emas, balki unga odatlanishga chaqiriladiki, bunday ishlarni amalga oshirishga faqat unga odatlangan kishigina muvaffaq bo'lishi mumkin. Jumladan, «Ey odam farzandi, hamisha yaxshi va ezgu ishlarni qilishga odatlan. Zero, ezgulik jannatning kalitidir. Har kim uni qo'lga kirtsqa, jannatga yo'l topgan bo'ladi», degan hadisda ko'zda tutilgan maqsadni hosil qilish uchun inson

yoshligidan boshlab zaruriy ilmlarni olishi, kasb-hunarga ega bo‘lishi, mehnatning og‘ir va mashaqqatlari sinovlariga chidashi lozim bo‘ladi.

Insonga yetadigan ko‘plab musibat va mashaqqatlarning sababchisi bu besabrlik, qanoatsizlik, noshukurlikdan kelib chiqadi. Hadisi qudsiyda esa insonga qarata aytilgan ushbu so‘zlar uning sabrli, shukurli va qanoatli bo‘lishga undaydi:

«Ey odam farzandi, agar senga ajratib qo‘yilgan rizqqa qanoat qilsang, rizqing o‘zi keladi va mendan ham maqtov olasan. Agar bu taqsimga qanoat qilmasang, dunyoni sening ustingga sulton va seni unga xizmatkor qilib qo‘yaman. Dunyo uchun cho‘ldagi vahshiy hayvonlar kabi yugurasan, ammo senga taqsimlab qo‘ygan rizqimdan ortig‘i kelmaydi va o‘zing ham mening nazdimda malomat qilinuvchilardan bo‘lib qolasan».

Xuddi shu mazmundagi yana bir hadisi qudsiyda shunday deyiladi: «Ey odam farzandi, kelib turgan rizqingga qanoat qilmasang, dilingga orzu-havaslarni solib qo‘yaman, ular hech tugamaydi va sen ulardan abadiy qutula olmay qolasan». Bu hadis insonni ortiqcha boylikka, mol-dunyoga hirs qo‘yishdan qaytaradi.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, hadisi qudsiyda kelgan axloqiy g‘oyalar boshqa dinlarning manbalarida ham uchraydi. Jumladan, buddaviylik ta’limotiga ko‘ra, inson kulfat va mashaqqatlarining asosiy sababchisi uning dunyo hoyu havaslariga berilishidir. Bunday musibatlardan qutulishning yagona yo‘li ortiqcha orzu-havaslarga berilishdan saqlanishdir.

Quyidagi hadisi qudsiy ham insonni shukur qiluvchi bo‘lishga undaydi: «Ey odam farzandi, men yaratgan ne’matlarni yeb-eb tishlaring malollanib charchab ketdi-yu, lekin shikoyatimdan tiling hech charchamaydi». Bu hadisda insonning atrofida o‘rab turgan ne’matlar son-sanoqsiz ekani, inson esa ularga shukur qilishi, ortiqcha shikoyatbozlikdan saqlanishi lozimligi uqtiriladi.

Halollik haqida hadisi qudsiyda shunday deyiladi: «Ey odam farzandi, dunyodagi jami narsalar uch toifaga bo‘linadi. Biri menga xos, ikkinchisi men bilan sening o‘rtamizda, yana biri sendadir. Sendan bo‘ladigani duodir va mendan bo‘ladigani ijobat qilmoqdir. Bas, harom yemasang, duoying to‘silib qolmas». Halollik va poklik kishi dinining asosiy mohiyati ekani quyidagi «Ey odam farzandi, bilgilki, insonga halollik qatra-qatra kelur. Harom esa, sel kabi mo‘l-ko‘l kelur. Har kimning yemishi haloldan bo‘lsa, dini pok bo‘lur», degan hadisda ko‘rinadi.

Inson tilining shirin bo‘lishi, undan faqat yaxshi so‘zlarning chiqishi kishi baxt-saodatining kaliti bo‘lish bilan birga, tilning noo‘rin so‘zlarni gapirishi, shikoyat, g‘iybat, tuhmat kabi illatlar bilan band bo‘lishi inson hayotining salbiy tomonga ketishiga sabab bo‘lishi quyidagi hadisda aytib o‘tiladi:

«Ey odam farzandi, agar dilingda qarolik va badaningda dangasalik va rizqingda tanglik bo‘lsa, bas, bilginki, bularning sababi behuda va bema‘no so‘zlarni ko‘p so‘zлаshingdandir, demak, bundan saqlan». Mazkur hadisda inson faqat kerakli so‘zlarni gapirishi, zarur bo‘lmagan so‘zlardan tiyilishi, «so‘zni isrof qilish»dan ehtiyyot bo‘lish naqadar muhimligi ko‘rinadi.

Insonning tashqi ko‘rinishi chiroyli, mol-dunyosi to‘kis bo‘lishi uning mukammalligini bildiruvchi jihat emas, balki u qilayotgan xayrli amallari insonning qandayligiga baho berish uchun asosiy mezon ekani ushbu hadisi qudsiyda o‘z ifodasini topgan: «Ey odam farzandlari, men sizlarning husnu suratlariningizga va mol-dunyolaringizga boqmasman, balki dillaringizga va qilgan amallaringizga boqurman». Hadisi qudsiyalar o‘zida dunyodagi boshqa dinlarda mavjud bo‘lgan g‘oyalarni ham mujassam qilganini yuqoridagi hadisdan yana bir bor ko‘rish mumkin. Chunki zardushtiylik dinida ilgari surilgan «ezgu o‘y, ezgu so‘z, ezgu amal» g‘oyalalarini ushbu o‘tgan hadislardan topish mumkin.



*Payg‘ambar s.a.v.: Allo taolo shunday marhamat qiladi: «Ey odam farzandi, hamisha yaxshi va ezgu ishlarni qilishga odatlan. Zero, ezgulik jannatning kalitidir. Har kim uni qo‘lga kirlitsa, jannatga yo‘l topgan bo‘ladi».*

Dinning boshqaruvchilik xususiyati shundaki, u insonni o‘z-o‘zini nazorat qilishi asosida komillikka erishishiga imkoniyat yaratadi. Kishida uyat, andisha, or-nomus hissiyotlarini tarbiyalab, shu orqali yomonliklardan to‘silishga, yaxshilikka intilishga undaydi. Zero, insonni faqat jazolash yoki majburlash yo‘li bilan qonunlarga itoatda ushlab turish har doim ham samara beravermaydi. «Ey odam farzandi, agar mendan uyalmasang, harna xohlasang qilaver» degan hadisi qudsiyda hayo inson hayotini tartibga soluvchi asosiy omil sifatida tavsif etiladi. «Kimiki odamlardan hayo qilmasa, u Allohi Taolodan uyalmaydi», degan hadisda kishining boshqa insonlar oldidagi andishasi uning hayosini ko‘rsatuvchi mezon ekani ma‘lum bo‘ladi.

Insondagi bag‘rikenglik, saxovat, ochiqqo‘llik kabi fazilatlarni tarbiyalash bilan birga, hadisi qudsiylarda baxillik, ochko‘zlik kabi illatlardan qaytariladi. «Baxillik hamma joyda yomonlangandir va dunyo ne’matlari cheksiz emasdir. Rizq izlab juda uzoq ketmoq zaharlidir va rizq berguvchi doim tirik va qoimdir», degan hadisdan baxil kishining obro‘sibarchaning ko‘z o‘ngida pasayishi haqida xabar beradi. Baxillik yo‘li bilan boyib ketishni ko‘zlagan inson xato o‘ylashi, baxillik faqat yomonlik keltirishi ta’kidlanadi. Shuningdek, ushbu hadisdan o‘z yurtida rizq-nasiba terish imkonni bo‘la turib, o‘zga yurtlarga safar qilish, hayotini xavf-xatarga qo‘yib, oziga qanoat qilmay, mol-dunyoga hirs qo‘yish to‘g‘ri emasligi va bu inson hayotini zaharlashi mumkinligi ma’lum bo‘ladi.

Qudsiy hadislarni o‘rganish, ulardagi axloqiy fazilatlarga chaqiruvchi g‘oyalarni o‘zlashtirish, yoshlarga ta’lim berish jarayonida ulardan foydalanish kishilarni yuksak insoniy sifatlarga ega qilib tarbiyalashda katta ahamiyat kasb etadi.

 **3. Hadisshunoslikning dinshunoslik fanlari orasidagi o‘rni.**  
XHadislar islom dinining asosiy manbalaridan biri bo‘lgani uchun ularni har tomonlama mukammal o‘rganuvchi hadis ilmi, shuningdek, hozirgi kunda alohida fan sifatida shakllangan hadisshunoslik islom ilmlari bilan birga dinshunoslik fanlari bilan ham bevosita bog‘liqdir.

Islomshunoslik hadisshunoslikdan tashqari Qur’on, tafsir, tajvid, fiqh, aqida, tasavvuf kabi ilmlarni o‘z ichiga qamrab oladi. Xususan, Qur’oni karim bilan bog‘liq ilmlarni hadislarni o‘rganmay turib mukammal bilib bo‘lmaydi.

Hadislarning asosiy vazifalaridan biri Qur’on oyatlarini tafsir qilishdan iborat. Oyatda muayyan masalada umumiylar ma’lumot berilgan bo‘lsa, hadislarni sharhlaydi, izohlaydi, ilohiy ko‘rsatmalarga aniqlik kiritadi. Shuning uchun ham Payg‘ambar alayhis-salomning mufassirlarning birinchisi deb tan olinishi bejiz emas. Bu haqda Qur’oni karimda «... **Sizga esa odamlarga nozil qilingan (ma’lumotlar)ni bayon (tafsir) qilib berishingiz uchun va tafakkur qilsinlar, deb bu zikrni (Qur’onni) nozil qildik»** (Nahl, 44), deb alohida ta’kidlanishi yuqorida fikrni tasdiqlaydi.

Payg‘ambar alayhis-salom tomonidan Muoz ibn Jabal Yamanga jo‘natilayotganida bo‘lib o‘tgan suhbatdan hadisning islom huquqshunosligidagi mavqeini ko‘rish mumkin. Imom Termiziy ushbu hadisni shunday rivoyat qiladi:

Rasululloh (s.a.v.) Muoz ibn Jabalni Yamanga voliy qilib jo‘natayotganlarida undan:

– Agar biror masalaga duch kelsang, qanday hukm chiqarasan, – deb so‘radilar. Shunda Muoz:

– Allohning kitobi bilan, – deb javob berdi. Rasululloh (s.a.v.):

– Undan topmasangchi, – deganlarida, u:

– Rasulullohning sunnati bilan, – dedi.

– Agar ulardan topmasangchi, deganlarida:

– O‘z ra‘yim bilan ijтиҳод qilaman, – dedi. Shunda Rasululloh (s.a.v.) uning ko‘kragiga urib:

– Allohga hamd bo‘lsinki, Rasulullohning elchisini Alloh va Rasulining so‘ziga muvofiq qildi, – dedilar.

Fiqhga doir ibodot va muomalot masalalari, xususan, namoz o‘qish, ro‘za tutish, haj arkonlarini bajarish kabi yana boshqa ko‘plab amallarga hadislar aniqlik kiritadi.

Hadislar kalom ilmida, islomdagi aqidaviy masalalarni yechishda ham o‘ziga xos o‘ringa ega. Masalan, Imom Buxoriy rivoyat qilgan quyidagi hadisda islom dinining asosiy ruknlari, ular orasida imon, e’tiqodning birinchi o‘rinda turishi, ya’ni aqidaviy masalalarning asosiy yaqqol ko‘rsatib berilgan.

Rasululloh (s.a.v.) aytadilar: «Islom besh narsaning ustiga qurildi: «Allohdan o‘zga iloh yo‘q, Muhammad Allohning rasuli», deb shahodat berish, namoz o‘qish, zakotni ado etish, ramazon ro‘zasini tutish va yo‘lga qodir kishi Baytni haj qilish».

Tasavvuf ilmida ham hadislarning o‘rnii alohiyada ahamiyatlidir. Yurtimizdan chiqqan, islom dinining sof, insonparvarlik g‘oyalarini xalqqa to‘g‘ri talqinda yetkazib bergen kubraviya, yassaviya, naqshbandiya kabi tariqatlari asoschilari o‘z ta’limotlarini rivojlantirishda birinchi o‘rinda Qur‘on oyatlariga asoslangan bo‘lsalar, ikkinchi o‘rinda va ko‘proq miqyosda hadislardan unumli foydalanganlar.

Komil inson g‘oyasi ilgari surilgan tasavvuf ta’limotining asosiy qismi – ruhiy musaffolkik, jismoniy poklik kabi axloqiy me’yorlar hadislarda aks etgan. Masalan, Qur‘onda «**Albatta, Siz buyuk xulq uzradirsiz**» (Qalam, 4), deb Payg‘ambar alayhis-salomning xulqi boshqalarga namuna ekani alohida ta‘kidlangan. Shuningdek, hadisi sharifda «Men chiroyli xulqlarni mukammal qilib berish uchun yuborilganman» deyiladi. Mazkur oyat va hadisga binoan sufiylar komil inson deb Muhammad alayhis-salomni

hisoblaydilar. Shuning uchun ham buyuk sufyilik namoyandalari inson barcha ibratni U kishidan olishi kerakligini ta'kidlaganlar.

Islom tarixini o'rganishda ham hadislar alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa ilk islom tarixi, Payg'ambar siyratlarini o'rganishda asosan hadislar birlamchi yozma manba sifatida xizmat qiladi. Chunki hadislar ilk islom tarixida bo'lgan voqealarni o'zida mujassam etgan.

Hadisshunoslikning dinshunoslikka oid fanlar bilan o'zaro bog'liqligini dinshunoslikdagi dinning jamiyatdagi vazifalariga ko'ra o'rganuvchi funksionalizm yo'nalishida ko'proq ko'rish mumkin. Unga ko'ra, din jamiyatda tartibga soluvchilik, birlashtiruvchilik, taskin beruvchilik kabi vazifalarni bajaradi. Islom dinida hadislar aynan mana shu vazifalarni bajaradi.

Jamiyatdagi tartib-intizomning izdan chiqishiga sabab bo'ladigan begunoh odamlar qonini to'kish, ota-onani norozi qilish va yolg'onchilikning qabih ko'rinishi bo'lgan, haqni nohaq va nohaqni haq qilib ko'rsatilishiga olib keladigan yolg'on guvohlik berish kabi illatlarning eng katta gunoh ekanini ta'kidlovchi hadislar insonlarning bunday jinoyatlardan uzoq bo'lishiga undaydi. «Gunohning kattalari: Allohga shirk keltirish, inson qonini nohaq to'kish, ota-onaga oq bo'lish va yolg'on guvohlik berish», deyilgan hadisda islom dinining asosiy ta'limoti – yakkaxudolikka zid bo'lgan shirk keltirish, ya'ni butparastlik kabi illatlarga berilishdan keyingi eng katta gunohlar qatorida yuqorida sanab o'tilgan illatlar keltirilgan.



***Din jamiyatda tartibga soluvchilik, birlashtiruvchilik, taskin beruvchilik kabi vazifalarni bajarsa, Islom dinida hadislar aynan mana shu vazifalarni bajaradi.***

Insonlar orasini isloh qilish, ularni bir-birlariga oqibatli bo'lishlariga chaqiruvchi ushbu hadis jamiyat a'zolarini birlashtirishga xizmat qiladi: «Birodari bilan bir yil arazlashib yurish uning qonini to'kish bilan barobardir». Dinning asosiy shartlaridan deb belgilangan o'zaro mehr-oqibat kishilarning turli qiyinchiliklarni osonlik bilan yengib o'tishlariga yordam beradi.

Kishiga taskin berishga oid hadislardan birida shunday deyiladi: «Musibat yetganda sabr qiluvchi, berilgan ne'matlarga shukr qiluvchi, birovlarning aybimi kechiruvchi, o'zi birovga zulm yetkazsa, tavba qiluvchi kishilarga xotirjamlik va hidoyat ato etilur». Mazkur hadis inson ruhiy

holatining tetik bo‘lishiga, har qanday og‘ir mashaqqatlarni ham bosiqlik bilan qynalmay yengib o‘tishiga dalda beradi.

Shuningdek, hadislar dinshunoslikdagi din falsafasi, din fenomenologiyasi, din sosiologiyasi, din psixologiyasi, din antropologiyasi, diniy etika kabi ko‘plab sohalarga oid ma’lumotlarni o‘zida mujassam qilib, ular bilan uzviy bog‘liqdir.

Dunyo dinlari tarixi faniga doir ma’lumotlar ham hadislarda mujassamdir. Tarixda o‘tgan xalqlar, ular bilan ro‘y bergen voqealar, insonlar uchun ibratli bo‘lgan hikoyalari, payg‘ambarlar va diniy e’tiqodlar bilan bog‘liq ma’lumotlar dunyo dinlari tarixi fanining ob‘ekti hisoblanadi. Arabiston yarim orolida islomdan avval yashab o‘tgan Samud, Od qavmlari kabi xalqlar haqida Qur’oni karimda kelgan qissalarning tafsiloti hadislarda yoritib beriladi.

Dinshunoslikka oid fanlar bo‘yicha ta’lim berish va ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishda hadisshunoslik bo‘yicha ma’lumotlar va mazkur fanda qo‘llangan uslublardan foydalanish samarali natijalarni beradi. Xususan, din psixologiyasi sohasida diniy e’tiqodli inson psixologiyasini bilish uchun hadislarning psixologik ta’sirini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Islom ta’limotidagi inson taqdiri va rizqining avvaldan belgilanganligi muhim aqidaviy masala hisoblanadi. Unga ko‘ra, insonga yetadigan yaxshilik va yomonlik, rizqu nasiba avvaldan belgilangan bo‘lib, insonning asosiy vazifasi o‘sha rizqni halollab olishdan iborat. Bu masalada qadariylar va jabariylar orasida doimiy tortishuv ketgan. Mazkur ta’limotni noto‘g‘ri talqin etib, inson harakat qilsa ham, qilmasa ham uning rizqi yetib keladi, deb o‘zini taqdir taqozosiga havola qilgan, yalqovlikka berilgan toifalar nafaqat islom tarixida, balki boshqa dinlar tarixida ham ko‘p bo‘lgan. Soxta darveshlik harakatlari bunga yaqqol misol bo‘ladi.

Boshqa tarafdan, taqdiri azalni mutlaqo inkor etish, ya’ni inson hayotida uchraydigan qiyinchiliklarning ob‘ektiv va sub‘ektiv sabablari mayjudligini tan olmaslik ham inson psixologiyasiga o‘ta salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Buning natijasida u yetgan barcha yomonliklar uchun o‘zini yoki boshqa kimnidir ayblast «kasali»ga mubtalo bo‘ladi. Oqibat – stress, ya’ni asabning doimiy tarangligi holati kelib chiqadi. Natijada inson boshqalar bilan normal muloqotga kirisha olmaydi. Bu ishning orqaga ketishiga va asab bilan bog‘liq kasalliklarning kelib chiqishiga sabab bo‘ladi.

Din psixologiyasi namoyandası Zigmund Freydning ta'kidlashicha, diniy e'tiqodga ega kishi turli nevroz kasalliklaridan xoli bo'ladi. Chunki u din ilgari surgan g'oya – yaxshilikni ham, yomonlikni ham Yaratgandan deb bilib, har qanday xursandchilik yoki musibat oldida o'zini yo'qotmaydi. Hadislar insonni ana shunday holatlarda o'zini og'ir-vazmin tutishga chaqiradi. Unda psixologik barqaror kayfiyatni tarbiyalaydi. «Baxtli odam fitna-fasodlardan chetlab yuruvchi va musibatga sabr qiluvchi kishidir», deyilgan hadis, ayniqsa, musibatga duch kelgan kishi uchun ruhiy dalda beradi. Bu hadis hadisshunoslikning din psixologiyasi bilan uzviy bog'liqligiga yaqqol misol bo'ladi.

Dinda inson psixologiyasi bilan bog'liq qo'rquv, ochlik, raqobat, xursandchilik, keljakka umid bilan qarash xususiyatlaridan unumli foydalilanildi. Imom Buxoriy rivoyat qilgan «Zulm Qiyomat kuni (zolim uchun) zulmat bo'ladi!», mazmunidagi hadis insonning qiyomatdagi zulmatdan qo'rqib birovga zulm qilishdan qaytishiga sabab bo'ladi.

Ochlik xususiyati bilan bog'liq quyidagi hadisni keltirish mumkin. Unda Imom Buxoriy sahoba Abdulloh nomidan rivoyat qiladilar: «Biz – kuchimizni qaerga ishlatishni bilmaydigan bir guruh yigitlar Rasululloh (s.a.v.) bilan birga edik, shunda u zot bizga: «Ey yigitlar, sizlardan kimda-kim qudrati yetsa, uylansin, chunki bu uning ko'zlarini tuban tushirib, o'zini zinodan saqlaydi, qudrati yetmaganlar esa, ro'za tutsin...!», deb aytdilar», degan hadisda ochlik insonni fahsh ishlardan tiyilishiga yordam berishi xususida so'z boradi.

Inson ichki dunyosidagi raqobat xususiyatiga oid hadisni Imom Termiziyy sahoba Ibn Umardan rivoyat qiladi: «Rasululloh (s.a.v.) otlarini poygaga tayyorlab, musobaqada ishtirok etardilar». Imom Buxoriy rivoyat qilgan yana bir hadisda aytishicha, Payg'ambar alayhis-salom bir qabilaning o'q otish musobaqasi yuushtirganini ko'rdilar va dedilar:

– Oting, Ismoil o'g'illari, otangiz yaxshi mengan edi. Oting, men ham falonchilarning taraf doriman, – deb, qo'llari bilan bir jamoani ko'rsatdilar. Harakat bo'lmagach:

– Nega otmayapsizlar?, – deb so'radilar:  
– Siz ularni tarafdori bo'lsangiz qanday musobaqalashamiz?!, – dedilar. Bunga javoban Rasululloh (s.a.v.):

– Oting, men barchangiz bilan birgaman, -dedilar.

Hadisshunoslik, shuningdek, tarix, etnografiya, sosiologiya, tilshunoslik kabi boshqa fanlar bilan ham uzviy bog'liqliki, hadislar tarixning bir qismi

bo‘lgani sababli bu ilmlarni o‘rganishda hadislar o‘ziga xos o‘ringa ega hisoblanadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, islom dinida Qur’ondan keyingi ikkinchi manba hisoblangan hadis va uni o‘rganishga bag‘ishlangan hadisshunoslik fani qator ilmlar bilan bir qatorda dinshunoslik sohalari bilan chambarchas bog‘liqliqdir. Shu sababli ham hadisshunoslik fanining oxirgi yutuqlaridan boxabar bo‘lish, hadislarni o‘rganish inson ilmiy dunyoqarashining yanada keng bo‘lishiga yordam beradi.

## HADIS

قَالَ رَسُولُ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ: صَلَةُ الرَّجُمِ وَ حُسْنُ الْخُلُقِ وَ حُسْنُ الْجِوَارِ يَعْمَلُونَ الدِّيَارَ وَ يَرْدُنُ فِي الْأَعْمَارِ  
Rasululloh s.a.v. aytdilar: Qarindoshlarga silai rahm qilish xushxulqlik va yaxshi qo‘schnichilik yurtni obod va umrni ziyoda etadi.



### Mavzu bo‘yicha savollar

1. Hadislarning tarbiyaviy ahamiyatini nimalarda ko‘rish mumkin?
2. Payg‘ambar (s.a.v.) xulqlari haqida Qur’onda nima deyilgan?
3. Imam Buxoriyning «Jome as-sahih» asariga nechta sharh yozilgan?
4. Ota-onani hurmat qilishga oid qanday hadislarni bilasiz?
5. Qudsiy hadislar ko‘proq qanday mavzularga bag‘ishlangan?
6. Hadisshunoslikning Dinshunoslik fanlari orasidagi o‘rnii qanday?
7. Din psixologiyasiga oid qanday hadislarni bilasiz?
8. Taqdir masalasiiga oid hadislar inson psixologiyasiga qanday ta’sir ko‘rsatadi?



### Topshiriqlar

1. Milliy va diniy qadriyatlarimizda aks etgan hadislardan misol keltiring.
2. Abu Lays Samarqandiyning axloq-odobga oid asari haqida ma’lumot bering.
3. Ota-onani hurmat qilish mavzusiga oid hadislarni yod oling.
4. Saxovat va baxillikka doir hadisi qudsiyarlarni jamlang va sharhlarini o‘rganing.

## **Mustaqil ish mavzulari**

1. Yoshlar tarbiyasida diniy qadriyatlarning tutgan o‘rni.
2. Islom ta’limotida komil inson g‘oyasi.
3. Axloqiy normalarni mukammallashtirishda hadislarning ahamiyati.
4. Odob-axloqqa oid hadis to‘plamlari.

## **Adabiyotlar**

1. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008.
2. Ислом зиёси ўзбегим сиймосида. – Т.: «Тошкент ислом университети» нашриёт-матбаа бирлашмаси, 2005.
3. Минг бир ҳадис. – Т. 2 жилдли / Арабчадан Абдулазиз Мансуров таржимаси. – Т.: Ўзбек маскани, 1991.
4. Ризоуддин ибн Фахриддин. Жавомеъул Калим. – Т.: Мовароуннахр, 2004.
5. Ҳадиси Кудсий. / Масъул Мухаррир: Абдуллоҳ Исмоил Махдум. – Т.: Мовароуннахр, 1996.
6. An-Navaviy. Sharh riyoz as-solihin min kalom sayyid al-mursalin. – Bayrut: Dor al-vatan. 1995.
7. Бабаханов Ш.З. Великие мухаддисы о мире и дружбе между народами (из шести общепризнанных сборников). – Т.: 1998.
8. Yusuf Qarzoviy. Kayfa nataomal maa-s-sunna an-nabaviya. – Qohira: Dor ash-shuruq, 2004.

## GLOSSARIY

**ABODILA** (arab. عَبْدِيلَةٌ – Abdullohlar) – hadis va fiqh ilmida «Abdulloh» ismli to‘rt sahabaga nisbatan ishlatiladigan atama. Ular: 1) Abdulloh ibn Abbos; 2) Abdulloh ibn Umar; 3) Abdulloh ibn Zubayr; 4) Abdulloh ibn Amr ibn Os.

**AVSAQU-N-NOS** (arab. أَوْثَقُ النَّاسَ – eng ishonchli kishilar) – jarh va ta’dil ilmiga oid ibora bo‘lib, adolatli ekaniga hukm qilingan eng ishonchli, hadislari eng ko‘p qabul qilinadigan roviyga nisbatan ishlatiladi.

**AVHO AL-ASONID** (arab. أَوْهِيَ الْأَسَانِيدُ – eng zaif isnodlar) – «asahhu-l-asonid» (eng to‘g‘ri isnodlar) istilohining aksi bo‘lib, **zaif** roviylardan yuzaga kelgan isnodlarga berilgan nom.

**ADAB AL-MUHADDIS** (arab. ادب المحدث – muhaddis odobi) – muhaddisga qo‘yilgan talablardan bo‘lib, muhaddis yuksak ma’naviyatlari va go‘zal xulqlari bo‘lishi kerak. Ba’zi talablar adab tolib al-hadis bilan umumiylari.

**ADAB AT-TOLIB** (arab. ادب الطالب – tolibining odobi) – hadis (ilmini) o‘rganayotgan talaba rioya etishi kerak bo‘lgan odoblar. Bu odob hadislarda kelgan kelgan sifatlar bilan bezatilgan bo‘shili kerak.

**ADAM AS-SIHHA** (arab. عَدْمُ الصَّحَّةِ – sahihlikning yo‘qolishi) – sahihlik shartlaridan biri yo‘q bo‘lgan hadislarga aytildi. Bunday hadislardan ham hasan, ham zaif bo‘lishi mumkin.

**ADOLAT** (arab. العَدْلَةُ – adolat) – musulmon, balog‘atga yetgan, aqli raso va muruvvatli taqvodor, fosiq bo‘lmagan roviy.

**ADOLATNING YO‘QLIGIDAN RAD ETILGAN HADISLAR** (arab. الْحَدِيثُ الْمَرْدُودُ بِسَبَبِ عَدْمِ الْعَدْلِ) – roviyning biror sabab bilan ayblanishi. Ular: mavzu’, matruk va munkar.

**AZIZ** (arab. الْعَزِيزُ – kuchli, g‘olib, nodir va kamyob) – isnod tabaqasining barchasida roviylari soni ikkitadan kam bo‘lmagan hadisga aytildi.

**AL-AIMMA AL-XAMSA** (arab. الْأَئْمَةُ الْخَمْسَةُ – besh imom) – bu atama olti ishonchli muhaddislaridan beshtasi – Imom Buxoriy, Imom Muslim, Imom Abu Dovud, Imom Termiziy, Imom Nasoiylarga nisbatan ishlatiladi.

**AL-AIMMA AS-SITTA** (arab. الْأَئْمَةُ الْسَّتَّةُ – olti imom) – bu atama olti ishonchli muhaddislar – Imom Buxoriy, Imom Muslim, Imom Abu Dovud, Imom Termiziy, Imom Nasoiy va Imom Ibn Mojalarga nisbatan ishlatiladi.

**AKSAR AS-SAHOBATU FATVAN** (arab. فَتْوَاتُ الصَّحَابَةِ – eng ko‘p fatvo aytgan sahabalar) – sahabalar orasida eng ko‘p fatvo bergen – Abdulloh ibn Abbos, Umar ibn Xattob, Ali ibn Abu Tolib, Abdulloh ibn Umar, Zayd ibn Sobit, Abdulloh ibn Mas’ud va Oishalarga ishlatiladi.

**AKSAR AS-SAHOBATI HADISAN** (arab. أكثر الصحابة حديثاً – eng ko‘p hadis rivoyat qilgan sahabalar) – sahabalar orasida eng ko‘p hadis rivoyat qilgan: Abu Hurayra (r.a.) (5374 ta), Abdulloh ibn Umar (r.a.) (2630 ta), Anas ibn Molik (r.a.) (2286 ta), Hazrat Oisha (r.a.) (2210 ta), Abdulloh ibn Abbos (r.a.) (1660 ta), Jobir ibn Abdulloh (r.a.) (1540 ta), Abu Sayid Hudriy (r.a.) (1170 ta).

**ANSOR** (arab. الانصار – yordamchilar, safdoshlar) – hijratdan so‘ng madinalik sahabalarga berilgan nom.

**ARBAUN** (arab. الأربعون – qirq) – hadis to‘plami turlaridan bo‘lib, bir bob yoki turli xil boblarda bir isnod yoki bir necha isnod bilan 40 ta hadis keltiriladi.

**ASBOB VURUD AL-HADIS** (arab. اسباب ورود الحديث – hadisning vorid bo‘lish sabablari) – hadislarning aytilish sabablarini aniqlaydigan soha.

**AS’HOB AL-ALF** (arab. أصحاب الالف – ming hadis egalari) – rivoyat qilgan hadislarining soni mingdan ikki minggacha bo‘lgan sahabalar uchun qo‘llaniladigan nom. Mas., Abdulloh ibn Abbos (r.a.) 1660 ta hadis rivoyat qilgan.

**AS’HOB AL-ALFAYN** (arab. أصحاب الآلفين – ikki ming hadis egalari) – rivoyat qilgan hadislarining soni ikki mingdan oshgan sahabalar uchun qo‘llaniladigan nom. Mas., Abdulloh ibn Umar 2630 ta hadis rivoyat qilgan.

**AS’HOB AL-MI’A** (arab. أصحاب المائة – ikki ming hadis egalari) – rivoyat qilgan hadislarining soni yuztadan ikki yuztagacha bo‘lgan sahabalar uchun qo‘llaniladigan nom. Mas., Sahl ibn Sa’d 188 ta hadis rivoyat qilgan.

**AS’HOB AL-MIATAYN** (arab. أصحاب المئتين – ikki yuz hadis egalari) – rivoyat qilgan hadislarining soni ikki yuzdan uch yuztagacha bo‘lgan sahabalar uchun qo‘llaniladigan nom. Mas., Sa’d Abu Vaqqos 270 ta hadis rivoyat qilgan.

**AS’HOB AL-MIIYN** (arab. أصحاب المئين – yuzlab hadis egalari) – rivoyat qilgan hadislarining soni mingdan oz, uch yuzdan ziyoda bo‘lgan sahabalar uchun qo‘llaniladigan nom. Mas., Abdulloh ibn Mas’ud 848 ta hadis rivoyat qilgan.

**AS’HOB AS-SUFFA** (arab. أصحاب الصفة – suffa egalari) – Madinaga kelgan uy-joyi yo‘q faqir muhojirlardan iborat guruhga berilgan nom. Mas., Abu Hurayra, Ju‘al ibn Suroqa (ra).

**AS’HOB AL-ULUF** (arab. أصحاب الآلوف – minglab hadis egalari) – rivoyat qilgan hadislarining soni uch mingdan ortiq hadis rivoyat qilgan

sahobalar uchun qo'llaniladigan nom. Mas., Abu Xurayra (r.a.) 5374 ta hadis rivoyat qilgan.

**AS'HOB AL-HADIS**, ahl al-hadis, ahli hadis, ahl al-asar (arab. أصحاب الحديث, أهل الحديث, اهل الاعشر) – hadis egalari, hadis sohiblari) – hadis ilmi bilan shug'ullanuvchi muhaddislar.

**AXBOR** (birligi – xabar, arab. الأخبار – xabarlar) – shialarning muqaddas rivoyatlari, Muhammad (s.a.v.), Ali (r.a.) va qolgan imomlarning so'zлari, ishlari haqidagi rivoyatlar to'plami.

**ASHARAI MUBASHSHARA** (arab. العشرة المبشرة – o'nta bashorat qilinganlar) – jannatiyligi aytilgan o'n sahoba - Abu Bakr Siddiq, Umar ibn Xattob, Usmon ibn Affon, Ali ibn Abu Tolib, Abdurahmon ibn Avf, Sa'd ibn Abu Vaqqos, Zubayr ibn Avvom, Talha ibn Ubaydulloh, Abu Ubayda ibn Jarroh, Sa'd ibn Zaydga ishlatalidi.

**BALOG'AT, BOLIG'** (arab. البلاغة او بالغ – balog'at, yetuklik, mukammal, tugallangan) – roviyningadolatli bo'lishi uchun qo'yilgan talablardan biri. Hadis ilmida 5 yosh qilib belgilangan.

**BID'AT AR-ROVIY** (arab. بدعة الرواية – roviyning bid'ati) – jarh ilmidagi atama. Roviy din ishlariga bid'at amallarni kiritadigan yoki o'zi bu kabi ishlarga berilgan bo'ladi. Uning hadisi qabul qilinmaydi.

**VASIYAT** (arab. الوصية – vasiyat qilish) – shayx o'zi rivoyat qilgan hadislar yozilgan kitob(lar)ni o'limi arafasida yoki safarga ketayotganida shogirdiga yoki biror kishiga V. qilib qoldirishi.

**VAZAA HADISAN** (arab. وضع حديثا – hadis to'qigan) – jarh ishlatalidigan atama roviy bo'lib, roviy hadis to'qib chiqargan bo'ladi.

**DIROYAT ILMI** (arab. علم الراية – muhaddisga yetib kelgan hadisni umumiy qoidalar asosida maqbul va rad qilinishi jihatlari o'rganadi. Hadis nazariyasi

**JARH** (arab. الجرح – jarohat yetkazish, ayblash) – diyonati bilan xalqqa tanilgan muhaddisning tadqiqoti natijasida roviyda yoki uning rivoyatida yomon bir illat (nuqson) borligi uchun u naql qilgan rivoyatni rad etishi va roviyga nisbatan salbiy baho berishi.

**JARH VA TA'DIL** (arab. الجرح والتتعديل – ayblash vaadolatli sanash) – roviylarningadolati va zabti haqida bahs yuritib, ularning ishonchli yoki ishonchsizligi haqida yakuniy xulosa chiqaruvchi roviyga tanqidiy yondashish uslubi.

**JOME'** (arab. الجامع – jamlovchi, to'plam, ko'pligi-javome') – barcha hadis mavzularini o'zida jamlagan to'plam.

**ZABT** (arab. الضبط – aniq (xotira)) – roviyning rivoyat qilayotgan narsasini aniq bilishi.

**ZAIF** (arab. الصعيف – kuchsiz, nimjon) – sahih shartlaridan birortasini yo‘qotgan bo‘lib, bu bilan hasan darajasiga yetmagan hadis.

**ZINDIQ** (arab. الزنادقة ko‘pl. – islom tarixida, asosan, moniylik, mazdakiylilik va hurramiyalar ta‘limoti vakillarini anglatuvchi istiloh; keng ma’noda «Allohga ishonmovchi», mo‘minning ziddi. Zindiq so‘zi islomga sosoniyalar davridagi eroniy lahjadan o‘tgan. Mazdakiylar zindiq deb Avestoni yangicha, allegorik talqin etuvchi kishilarni atashgan.

**IJOZAT** (arab. الجازة – ijozat, ruxsat) – roviy (shogird)ga rivoyat qilishi uchun shayx (ustoz) tomonidan og‘zaki yoki yozma ruxsat berilishi. Mas., shayx o‘z shogirdiga: Senga Imom Termiziyning «Sunan»ini rivoyat qilishga I. beraman, deyishi.

**ILAL AL-HADIS** (arab. علل الحديث – hadisning illatlari) – hadislardagi hamma ham tushunmaydigan va tashqaridan farqi sezilmaydigan illat deb ataluvchi yashirin kamchiliklar.

**ILLAT** (arab. العلة – sabab, illatli, kasallik. Ko‘p. ilal) – hadisning sanadi yoki matnida bo‘lgan uning sahihligiga zarar yetkazuvchi ko‘zga ko‘rinmaydigan maxfiy kamchilik.

**ILM AR-RIJOL** (arab. علم الرجال – kishilar ilmi, shaxslarni bilish) – hadis ilmining roviy haqida to‘liq ma’lumotni o‘rganuvchi sohasi.

**ISNOD** (arab. الأسناد – tayanch, dalil, asos) – hadisni uning aytuvchisiga bog‘lash, ya’ni matnga olib boradigan kishilar (roviylar) zanjiri.

**IXTILOF** (arab. الاختلاف – tafovut, har xillik, farq, ixtiloffi) – ikki maqbul hadisning bir-biriga qarama-qarshi kelishi.

**KITOBAT** (arab. الكتابة – yozib berish yoki olish) – shayx shogirdiga eshitgan hadisini yozib berishi yoki roviy o‘z huzuridagi kishidan yoki qachondir eshitgan kishisidan xotirasida qolgan narsani yozishi yohud yozdirishi.

**KUNYA** (arab. الكنية – roviyning ota yoki ona, o‘g‘il yo qiz, aka yo opa, amaki yo amma, tog‘a yo xola bilan tanilishi. K. egalarining ismlarini bilish orqali bir roviyni boshqasi bilan chalkashtirilmaydi.

**KUTUB AL-ARBA’A** (arab. كتب الأربعه – to‘rt kitob) – sahihayn va sunan kitoblaridan ikkitasiga nisbatan ishlatiladi.

**KUTUB AS-SAB’A** (arab. كتب السبعة – yetti kitob) – olti ishonchli deb tan olingan kitoblarga qo‘srimcha tarzida Imom Dorimiyning «Sunan»iga

nisbatan ishlatiladi. Ba’zilar Imom Molikning «Muvatto»sini yettingchisi deb hisoblaydilar.

**LAQAB** (arab. الْقَبْ – kishining sifatini bildirib, uning darajasini ko’tarish yoki pasaytirish hamda uni madh etish yoki qoralash uchun ishlatiladigan atama.

**MAVZU** (arab. المَوْضُوع – qo‘yilgan, o‘rnatilgan, pasaytirilgan, tashlandiq, tark etilgan, soxta) – Rasululloh (s.a.v.)ga nisbat berilib to‘qilgan yolg‘on so‘z. Soxta (to‘qima) hadis.

**MAVQUF** (arab. الْمَوْفُوف – to‘xtalgan) – maqbul va mardud xabarlarga berilgan umumiy atama bo‘lib, rivoyat qilinayotgan xabar sahobaga yetganda to‘xtab qolib, isnod zanjiri oxiriga (Payg‘ambar (s.a.v.)ga) yetkazilmagan bo‘ladi. M. sahobaga nisbat berilgan gap, ish yoki taqrirdir. Ya’ni, M. bir sahobaga yoki bir guruh sahobalarga berilgan bo‘ladi.

**MANSUX** (arab. الْمَنْسُوخ – o‘chirilgan) – hukmi o‘chgan hadis. q. Nosix.

**MARFU'** (arab. الْمَرْفُوع – ko‘tarilgan, yuqori qo‘yilgan) – maqbul va mardud xabarlarga berilgan umumiy atama bo‘lib, Rasululloh (s.a.v.)ga nisbat berilgan ish, gap, taqrir yoki sifatlar. Uning sanadi muttasil yoki munqati’ bo‘lishi mumkin.

**MATN** (arab. الْمَتْن – mustahkam, matn) – sanadning nihoyasi, ya’ni ma’nolardan tashkil topgan hadisning lafzlari yohud sanadning tugagan joyidan boshlangan Payg‘ambar (s.a.v.) yoki boshqalar (sahoba, tobiyy, muhaddis, faqih)ning so‘zi.

**MATRUK** (arab. الْمَتْرُوك – tark etilgan, tashlandiq) – isnodida yolg‘onchilikda ayblangan roviy bo‘lgan hadis.

**MASHHUR** (arab. الْمَشْهُور – mashhur, hammaga ma’lum) – isnod yo‘llarining har birida uchta va undan ortiq shaxslar tomonidan rivoyat qilingan va mutavotir darajasiga yetmagan hadislar.

**MAQBUL** (arab. الْمَقْبُول – maqbul, yaxshi, loyiq) – hukmi qabul qilinishi mumkin bo‘lgan ohod hadislarga berilgan nom

**MAQLUB** (arab. الْمَقْطُوب – o‘zgargan, o‘girilgan) – hadisning isnodi yoki matnidagi biror lafzni boshqasi bilan o‘zgartirish yoki oldingisini keyingisiga yoki aksinchaligiga keyingi o‘rin oldiniga almashtirish.

**MAQTU'** (arab. الْمَقْطُوْع – uzilgan) – maqbul va mardud xabarlarga berilgan umumiy atama bo‘lib, tobiyy yoki undan keyingi tabaqadan bo‘lgan kishiga nisbat berilgan gap yoki ish.

**MUALLAQ** (arab. الْمَعْلَق – bog‘lab osib qo‘yilgan, ilingan) – isnodning boshidan bir yoki bir necha roviyning ketma-ket tushib qolishi.

**MUDALLAS** (arab. المدنس – aybi yashiringan, qorong‘u, noma’lum) – isnodlarning aybini yashirish, zohirini yaxshi qilib ko‘rsatish.

**MUDRAJ** (arab. المدرج – birlashgan, qo‘shilgan, ichiga kiritilgan) – isnod tartibini o‘zgartirish yohud matnda bo‘lмаган narsani unga ajratmay qo‘shib yuborilishi.

**MUZTARIB** (arab. المضارب – shikasta, nizom holati buzilgan) – quvvati jihatdan bir xil kuchga ega bo‘lgan turli yo‘llar bilan rivoyat qilingan hadis. M.ni bir roviy ikki marta yoki ko‘proq yoki ikki roviy yo bir necha roviy rivoyat qilgan bo‘lishi mumkin.

**MUKASSIRUN** (arab. المكثرون – ko‘p rivoyat qilganlar) – Rasululloh (sav)dan 1000 dan ortiq hadis rivoyat qilgan sahobaga berilgan atama.

**MUNKAR** (arab. المنكر – inkor qilingan) – hadis roviysiga ta’na qilinishining sababi uning juda ham qo‘pol xato qilishi, g‘ofilligi yoki fosiqligi bo‘lsa, u holda uning hadisi M. deyiladi. Yana ba’zilar esa M. hadis zaif roviyning siqa roviyga xilof ravishda qilgan rivoyatidir, deydilar.

**MUNQATI'** (arab. المنقطع – uzilgan, kesilgan) – isnodida qanday jihatdan bo‘lmasin (boshi, o‘rtasi, oxiri) uzilish sodir bo‘lgan hadis. Bu jihatdan muallaq, mursal va mu’dal ham M. jumlasiga kiradi. Olimlar M.ni mursal, muallaq yoki mu’zalning shartlariga to‘la muvofiq bo‘lмаганилиги uchun alohida bir tur sifatida istilohga kiritganlar.

**MUNOVALA** (arab. المناولة – taqdim qilish) – shayxning o‘z shogirdiga eshitganini yoki yozganini, «bu falonchidan rivoyat, uni mendan rivoyat qilgin» deb berishi (taqdim qilishi).

**MURSAL** (arab. المرسل – yuborilgan, otilgan, tashlangan) – isnodning oxirida tobiyyidan keyin turgan (sahoba) roviysi tushib qolgan hadis. M. hadisda katta yoki kichik tobiyy Rasululloh (s.a.v.) «shunday dedilar» yoki «bunday qildilar» yoki «huzurlarida bunday bo‘ldi» deb aytsa, shu hol muhaddislar nazdida M. hisoblanadi.

**MUSALSAL** (arab. المسلسل – zanjirlangan, ketma-ket, tizma) – isnoddagi kishilarning barchasi rivoyatni bir sifatda yoki bir holatda amalga oshirishi. Ya’ni, Payg‘ambar (s.a.v.) sahobaga hadislarni qanday holatda o‘rgatgan bo‘lsalar, sahabalarning tobiylarga ham so‘zma-so‘z va holatma-holatda o‘rgatishi va h.

**MUSAHHAF** (arab. المصحف – o‘zgartirib yuborilgan sahifa, noto‘g‘ri o‘qilgan yoki yozilgan) – ma’no yoki lafzi siqa roviylar rivoyat qilgan hadisdan boshqacha qilib o‘zgartirilgan so‘zdir. Bunda yozilgan xatning xarflardagi nuqtalariga nisbatan o‘zgarish aytilgan.

**MUSNAD** (arab. المسند – asoslangan, tayanch, dalillangan, ya’ni isnodga asoslangan) – 1. Isnodi muttasil ravishda o‘z nihoyasiga, ya’ni Payg‘ambar (s.a.v.)ga yetgan hadis, ya’ni sanadi bilan rivoyat qilingan hadis. 2. Sanad, isnod so‘zlarining sinonimi. 3. Hadis to‘plamlarining turi.

**MUSTADRAK** (arab. المستدرك – to‘ldirmoq) – muhaddis o‘zidan oldingi muhaddis o‘z shartlariga ko‘ra kitobiga kiritmay ketgan hadislarni to‘plab to‘ldirgan yangi asari.

**MUSTALAH AL-HADIS** (arab. مصطلح الحديث – hadis atamalari) – hadis ilmida ishlatiladigan atamalarni o‘rganuvchi soha. Turli usul va qoidalar asosida sanad va matn holatini o‘rganish ilmidir. Hadislarning to‘g‘risini noto‘g‘risidan, ya’ni sahihini kasalidan ajratadi.

**MUTAVOTIR** (arab. المتواتر – ketma-ket, uzlucksiz) – muhaddisgacha yetib kelgan hadis turi bo‘lib, odatda, yolg‘onga yo‘l qo‘yishi mumkin bo‘lmagan rostgo‘yligi e’tirof etilgan darajadagi ko‘pchilik kishilarning boshdan oxirigacha o‘zları kabi kishilardan naql qilgan rivoyatidir.

**MUTTASIL** (arab. المتصل – ulangan, uzlucksiz) – isnodi uzlucksiz bo‘lgan xoh marfu’, xoh mavquf hadislar. Ya’ni roviylar silsilasi – sanad uzlucksiz Rasululloh (s.a.v.)ga yetib borgan bo‘ladi.

**MUTTAFIQ VA MUFTARIQ** (arab. المتفق والمفترق – bir xillik va turlilik) – roviylarning ismi shariflari, kunya, nasablari lafzda va xatda bir xil bo‘lgani holda ularning shaxsiyati turli bo‘lishi.

**MUXAZRAM** (arab. المخضرم – ikki davrda yashagan) – ilk roviylar toifasidan bo‘lib johiliyat davrida yashab, Rasululloh (s.a.v.)ning hayotlik paytlarida imon keltirgan, lekin o‘zları bilan ko‘risha olmagan kishilar.

**MU’ZAL** (arab. المغضط – mushkul, qiyin qilingan, uzib qo‘yilgan) – isnodidan ikkita va undan ko‘p roviylar ketma-ket tushib qolgan hadis. Bunda roviylarning isnodning qaysi qismidan tushib qolgani ahamiyatlama emas.

**MU’TALIF VA MUXTALIF** (arab. المؤتلف والمختلف – kelishish va ixtilof) – roviylarning ismlari, laqabları, kunya va nasablari yozuvda bir xil bo‘lib, lafzda (o‘qilishida) ixtilof qilishi.

**MUHADDIS** (arab. المحدث – hadis rivoyat qiluvchi (olim), hikoya qiluvchi, suhbatdosh) – roviylarga berilgan xos nomlardan biri. Hadis ilmining rivoyati va diroyati hamda isnoddagi roviylar holatini tadqiq qilish bilan shug‘ullanadi.

**MUHKAM** (arab. المحكم – aniq, mustahkam) – o‘zi kabi boshqa bir hadisga zid bo‘lmagan maqbul hadis.

**MUHOJIR** (arab. المهاجر – muhojur, hijrat qilgan) – Makka fathidan oldin Madinaga ko‘chib borgan makkalik sahobalarga berilgan nom.

**NASX** (arab. النسخ – bekor qilmoq, ketkazmoq, o‘chirmoq, naql qilmoq, ko‘chirmoq) – shore’ (shari’at sohibi, hukm chiqaruvchi) avvalgi joriy qilgan hukmni keyingisi bilan o‘zgartirishi, ya’ni hukm kuchdan qolishi. Bu bilan hadislarning nosix (o‘chiruvchi) va mansuxi (o‘chirilgan) o‘rganiladi.

**NOSIX** (arab. الناسخ – o‘chiruvchi) – o‘zidan oldin kelgan hadis hukmini ketkazuvchi matn.

**OLIY VA NOZIL ISNOD** (arab. الاسناد العلي والنازل – yuqori va quyi isnod) – isnoddagi kishilarning soni kam (mas., uchta roviy) bo‘lgan hadisga oliv (yuqori), ko‘p bo‘lganiga (mas., to‘rtta roviy) nozil (quyi) deyiladi.

**OSOR** (arab. الاثار – iz, asar) – xabar, sunnat va hadisning sinonimi.

**OHOD** (arab. الاحاد – yolg‘iz, yagona) – roviylar soni mutavotir darajasiga yetmagan hadis turi.

**RIVOVAT ILMU** (arab. علم الرواية) – Payg‘ambar (s.a.v.)ning muayyan so‘zlari, fe’llari, taqrirlari, sifatlari, ularni rivoyat qilish, so‘zlarning o‘zgarishini va aniq ekanimi tadqiq qilinadi. Ya’ni, hadis matnidan kelib chiqadigan ilmnii o‘rganadi.

**SANAD** (arab. السند – tayanch) – hadis matniga olib boruvchi roviylar yo‘li. Isnodning sinonimi.

**SAHIFA** (arab. الصحيفة – sahifa, qog‘oz) – sahabalar tomonidan yozilgan hadis varaqlari.

**SAHIH** (arab. الصحيح – sog‘lom, haqiqiy, ishonchli, to‘g‘ri) – isnodi boshidan oxirigacha adolatli, anqlik egasi bo‘lgan kishining o‘zi kabi kishidan rivoyat qilgan, shozz (o‘zidan kuchliroq roviyga qarshi turish) va illatli (noqislik) bo‘lmagan hadis. shartlari: 1. Ittisol as-sanad; 2. Adolat ar-ruvvat; 3. Zabt ar-ruvvat; 4. Adam ash-shuzuz; 5. Adam al-illat.

**SAHIHAYN** (arab. صححين – ikki sahih) – bir hadisni Imom Buxoriy va Imom Muslim rivoyat qilgan hollarida qo‘llaniladigan atama.

**SAHOBA** (*ko ‘pl.*), **SAHOBIY** (arab. الصحابي – suhbatdosh, safdosh, murojaat qiluvchi, hamroh, ko‘pligi – sahoba) – Rasululloh (s.a.v.)ni imon keltirgan holda ko‘rgan va shu musulmonlik holida vafot etgan kishidir.

**SIMO‘** (arab. السماع – eshitish) – hadisni eshitish orqali o‘rganish yo‘llaridan biri.

**SIQA** (arab. الثقة – ishonchli) – jarh va ta’dil ilmida ishonchli roviyga berilgan ta’rif.

**SUNNAT, SUNNA** (arab. السنة – tariqat, ma’naviy yo‘l, odat, an’ana) – Rasululloh (s.a.v.)ning pokiza sayratlari, turmush tarzları, diniy yo‘llariga nisbatan ishlataligancha. Ba’zi muhaddislar «hadis Rasululloh (s.a.v.)ning gaplari va ishlarini o‘z ichiga oladi, sunnat esa faqat ishlarini ifodalaydi» deydilar. Sunnat qavliy, fe’liy va taqririyya bo‘linadi. Hadis so‘zi bilan sinonim.

**TABAA TOBE’IY** (arab. تبع التابعين – ergashganga ergashgan) – musulmon holida tobiylarni ko‘rgan, ergashgan va shu holida vafot etgan kishilar.

**TADVIN** (arab. التدوين – devon qilish) – og‘zaki rivoyat qilingan hadislarni muayyan tartibga solgan holda yozma tarzda kitobga jamlash.

**TARIX AR-RUVOT** (arab. تاريخ الرواة – roviylarning tarixi) – roviylarning tug‘ilganidan boshlab vafot etguncha bo‘lgan vaqtlarini bilish ilmi.

**TA’DIL** (arab. التعديل – adolatli qilish, to‘g‘rilash) – ishonchli muhaddis olim roviyning tarjimai holini o‘rganib, uni va u naql qilgan rivoyatni yaxshi sifatlar bilan eslashi.

**TTAQRIRIY SUNNAT** (arab. السنة التقريرية – ma’qullangan sunnat) – Rasululloh (s.a.v.)ning huzurlarida yoki yo‘qliklarida sahabalar tomonidan qilingan biror xatti-harakat yoki gap-so‘zga u zotning indamasliklari yoki ma’qullahslari.

**TOBE’IY** (arab. التابع – izdosh, ergashgan, sahabalarga ergashgan) – imon keltirgan holda sahabani ko‘rgan, u bilan suhbat qilgan va shunday imonda vafot etgan kishi, sahabalarning ishini davom ettirganlar.

**FE’LIY SUNNAT** (arab. السنة الفعلية – amaliy sunnat. Rasululloh (s.a.v.) dan sodir bo‘lgan shar’iy ishlar yoki sahabalar Payg‘ambar (s.a.v.)ning amallaridan naql qilgan narsaga aytildi.

**XABAR** (arab. الخبر – xabar, yangilik, hikoya, darak, ko‘pligi – axbor) – Muhammad (s.a.v.)ning so‘zlari va xatti-harakatlari haqidagi rivoyat (bu ma’noda sinonimi hadis, osor).

**XALQIY SUNNAT** (arab. السنة الخلقية – shakl-shamoyilga ko‘ra sunnat) – Rasululloh (s.a.v.)ning tashqi qiyofa va ko‘rinishlari haqidagi sunnat.

**XULUQIY SUNNAT** (arab. السنة الخلقية – odob-axloqqa doir sunna) – Rasululloh (s.a.v.)ning xulqiy-axloqiy sifatlari haqidagi sunnat.

**SHOZZ** (arab. الشاذ – nodir, juda kam uchraydigan) – ishonchli roviyning o‘zidan ko‘ra kuchliroq roviyga muxolif bo‘lishi.

**QAVLIY SUNNAT** (arab. **السنة القولية** – og‘zaki sunnat) – Rasululloh (s.a.v.)ning turli holat va munosabatlarda aytgan so‘zlari. Q.s.dan murod hadislar nazarda tutiladi.

**QIROAT** (arab. **القراءة** – o‘qish) – tolib hadislarni yoddan yoki kitobdan o‘qib shayxga eshittirishi.

**QUDSIY HADIS** (arab. **الحديث القدسي** – manbasi, pok, toza, muqaddas hadis) – ma’nosi Alloh taolodan bo‘lib, aytilishi, ya’ni lafzi Rasululloh (s.a.v.)dan bo‘lgan hadislar. Shuningdek, u «Hadisi Rabboniy», «Hadisi ilohiy» deb ham aytildi.

**QUSSOS** (arab. **القصاص** – qissachilar) – o‘zlarining rivoyat qilayotgan turli qissalarida yoki va’zlarida to‘qima hadislar keltiradigan voizlar. Qissachilar masjid, bozor yoki shu kabi odamlar ko‘p to‘planadigan joylarda o‘tganlarlarning rivoyatlarini xalqqa so‘zlab tirikchilik qilib obro‘ orttirishga harakat qilganlar.

**G‘ARIB** (arab. **الغريب** – bitta, yaqinlaridan uzoqda) – birgina ishonchli odamdan rivoyat qilingan sahif hadis.

**G‘ARIB AL-HADIS** (arab. **غريب الحديث** – g‘arib, begona so‘zlar) – hadislarda uchraydigan va kam ishlatilgani uchun tushunilishi qiyin bo‘lib qolgan so‘zlar.

**HADIS** (arab. **الحديث** – gapirish, so‘z, yangi) – Payg‘ambar (s.a.v.)ga nisbat berilgan gaplar. Olimlar fikricha sunnat, xabar so‘zlarini ham H.ga ma’nodosh.

**HASAN** (arab. **الحسن** – husn, chiroy, yaxshi) – sanad illatsiz va shuzuzsiz bo‘lib, lekin zabti pastroq bo‘lgan adolatli roviyining o‘zi kabilardan qilgan rivoyati.

**HASAN SAHIH** (arab. **حسن صحيح** – Imam Termiziyning ba‘zi hadislarga bergen ta’rifi. Bu istilohga ikki xil ta’rif berilgan: 1. Ikki isnodiga ega bo‘lgan hadisning bir isnodiga ko‘ra hasan, ikkinchisiga ko‘ra sahif hisoblansa bunday hadis «hasan sahih» hisoblanadi. 2. Bir isnodli hadisni ba‘zi olimlar hasan, boshqalari sahif deb aytgan bo‘lsa bunday hadis «hasan sahih» hisoblanadi.

**HOFIZ** (arab. **الحافظ** – xotirasida saqlovchi) – muhaddis darajalaridan biri bo‘lib, 100000 ta hadisni isnodalri bilan yoddan bilgan muhaddisiga nisbatan berilgan nom.

**HUJJAT** (arab. **الحجۃ** – hujjat, dalil) – muhaddis darajalaridan biri bo‘lib, 300000 ta hadisni isnodalri bilan yoddan bilgan muhaddisiga nisbatan berilgan nom.



## MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – T.: O'zbekiston, 2008. – 40 b.
2. Виждон эркинлиги ва диний ташкилотлар тўғрисида (янги таҳрири). // Ўзбекистоннинг янги Қонунлари. 19-сон. – Т.: Адолат, 1998. – Б. 223-235.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.
4. Каримов И.А. Дин одамзодни хеч қачон ёмон йўлга бошламайди // Ислом зиёси ўзбегим сиймосида. – Тошкент: Тошкент ислом университети, 2005. – Б. 524.
5. Каримов И.А. Аллоҳ қалбимизда, юрагимизда. «Туркистон пресс» ахборот агентлиги мухбирининг саволларига жавоблар // Каримов И.А. Биз келажагимизни ўз қўлимиз билан қурамиз. – Т. 7. – Т.: Ўзбекистон, 1999. – Б. 349-355.
6. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ // Каримов И. А. Биз келажагимизни ўз қўлимиз билан қурамиз. – Т. 7. – Т.: Ўзбекистон, – 1999. – Б. 132-154.

### O'zbek tilida

1. Абу Абдуллоҳ Мұхаммад ибн Исмоил ал-Бухорий. Саҳиҳ ал-Бухорий: 2 жилдли. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008.
2. Абу Исо ат-Термизий. Аш-Шамойил ан-Набавия / Таржимон У.Уватов. – Т.: 1993.
3. Абу Лайс Ас-Самарқандий, Ал-Фақих. Таңбехул-Ғоғилийн (Ғафлатдан уйғотиш). – Т. III. – Т.: Мовароуннаҳр, 2003.
4. Абу Тоҳирхожа. Самария // Абу Тоҳирхожа. Самария. Наршахий. Бухоро тарихи. Баённий. Шажараи Хоразмшоҳий. Ибрат. Фарғона тарихи. – Т.: Камалақ, 1991.
5. Абу Ҳафс Умар ибн Мұхаммад ан-Насафий. ал-Қанд фий зикри уламои Самарқанд (Самарқанд уламолари хотирасига доир қанд(дек ширин китоб) / Арабчадан кисқартириб таржима қилувчилар: Усмонхон Темурхон ўғли ва Бахтиёр Набиҳон ўғли. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2001.
6. Алимов У. Суннат ва ҳадис. – Т.: Шарқ, 2012.

7. Жўзжоний, Абдулҳаким Шаръий. Ислом хуқуқшунослиги, ҳанафий мазҳаби ва Ўрта Осиё факиҳлари. – Т.: «Тошкент ислом университети» нашриёти, 2002.
8. Алимова М. Имом ад-Доримиининг ҳадис илми ривожига кўшган ҳиссаси: тарих фан. ном. дис... автореф. – Т.: Тошкент ислом университети, 2009.
9. Жўзжоний А. Ислом хуқуқшунослиги ва ҳанафий мазҳаби тараққиётида Ўрта Осиё факиҳларининг ўрни: тарих фан. док. дис... автореф. – Т.: Тошкент ислом университети, 2005.
10. Зиёдов Ш. Абу Мансур ал-Мотуридий ёзма мероси ва унинг «Китаб ат-та’вилот» асари: фалс. фан. ном. дис... автореф. – Т.: Тошкент ислом университети, 2003.
11. Заҳидов Қ. Илк ислом давлатчилиги ва унинг шаклланиш жараёнлари: тарих фан. ном. дис... автореф. – Т.: Тошкент ислом университети, 2005.
12. Ибн Ҳишом ал-Маъфирий, Абдулмалик. Ас-Сийра ан-набавийя. 2 жилдли. (Пайғамбар (а.с.)нинг тарих ва хаёт йўллари). – Т.: Шарқ, 2011.
13. Имом ат-Термизий. Сунани Термизий. – Т. 1. – Т.: Қомус, 1998.
14. Имоми Аъзам асарлари / Таржимон ва нашрга тайёрловчи. Абдурашид қори Бахромов. – Т.: Мовароуннаҳр, 2003.
15. Матибаева Р. Абу Ҳанифа маноқиблари // Тошкент ислом университети илмий-таҳлилий ахбороти. – Тошкент, 2008. – № 2.
16. Матибаева Р. Имом Абу Ҳанифа ва билиш назарияси // Мъянавий ва диний етуклик – давр талаби: Тўплам. – Т.: Тошкент ислом университети, 2009.
17. Матибаеванинг Р. Абу-л-Муайяд ал-Маккий ал-Хоразмийнинг «Маноқиб Аби Ҳанифа» асари – ҳанафийлик бўйича нодир манба: тарих фан. ном. дис... автореф. – Т.: Тошкент ислом университети, 2009.
18. Минг бир ҳадис. – Т. 2 жилдли / Арабчадан Абдулазиз Мансуров таржимаси. – Т.: Ўзбек маскани, 1991.
19. Мовароуннаҳр алломаларининг ҳадис илми ривожига кўшган ҳиссалари / Масъул муҳаррир И.Усмонов. – Т.: Мовароуннаҳр, 2011.
20. Муратов Д. Абдуллоҳ ас-Субазмунийнинг «Кашф ал-осор» асари ҳадис илмига оид манба. Номзодлик диссертацияси. – Т.: 2008.
21. Муродов Д. Ҳадисшунослик атама ва иборалари (қисқача изоҳли лугат). – Т.: Фан, 2009.

22. Муборакфурий. Сийрат ал-Имом ал-Бухорий / таржимон У.Уватов. – Т.: ТИУ, 2008.
23. Мўминов А.Қ. Ҳанафий уламоларнинг марказий Мовароуннахр шаҳарлари ҳаётида тутган ўрни ва роли (II-VII/VIII-XIII асрлар). Тарих фанлари доктори ... дис. автореф. – Т. Тошкент ислом университети, 2003.
24. Нажмиддинов З. Абу Зайд ад-Дабусий меросининг Мовароуннахрда фикъ илми ривожига тутган ўрни: тарих фанлари номзоди ... дис. автореф. – Т.: Тошкент ислом университети, 2007.
25. Обидов Р. Суннат, ҳадис ва муҳаддислар. – Т.: Мовароуннахр, 2012.
26. Оқилов С. Абу-л-Муъин ан-Насафий ва унинг Мотуридия таълимоти ривожига кўшган ҳиссаси («Табсирату-л-адилла» асари асосида). Тарих фанлари номзоди ... дис. автореф. – Т.: Тошкент ислом университети, 2005.
27. Раҳимжонов Д. Абу Ҳафс ан-Насафийнинг «Китоб ал-қанд» асари ҳадис илми бўйича муҳим манба // Шарқшунослик. – Т.: ТошДШИ, 1997. – № 3.
28. Раҳимжонов Д. Абу Ҳафс Насафий. – Т.: Тошкент ислом университети нашриёт-матбаа бирлашмаси, 2010.
29. Раҳимжонов Д. Абу Ҳафс ан-Насафийнинг «Китоб ал-қанд фи маърифат уламо Самарқанд» асари – Самарқандда ҳадис илми тарихи бўйича муҳим манба. Тарих фанлари номзоди дис. ... автореф. – Т.: Тошкент ислом университети, 2003.
30. Раҳимжонов Д., Муратов Д. Ҳадисшунослик (ўқув қўлланма). – Т.: ТИУ нашриёт-матбаа босмахонаси. 2010.
31. Раҳматуллоҳ кори Обидов. Қуръон ва Тафсир илмлари. – Т.: «Тошкент ислом университети» нашриёт-матбаа бирлашмаси, 2003.
32. Ризоуддин ибн Фахриддин. Жавомеъул Калим. – Т.: Мовароуннахр, 2004.
33. Уватов У. Ал-Ҳаким ат-Термизий. – Т.: 2001.
34. Уватов У. Буюк муҳаддислар: Имом ал-Бухорий, Имом Муслим Имом ат-Термизий. – Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 1998.
35. Уватов У. Буюк муҳаддислар: Имом ал-Бухорий, Имом Муслим Имом ат-Термизий. – Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 1998.

36. Уватов У. Донолардан сабоқлар: – Т.: Абдулла Қодирий номидаги Халқ мероси нашриёти, 1994.
37. Уватов У. Иймон нури. – Т.: Ёзувчи, 1996.
38. Уватов У. Икки буюк донишманд. – Т.: Шарқ, 2005.
39. Уватов У. Имом ал-Бухорий хаёти. – Т.: 1998.
40. Уватов У. Мовароуннарх ва Ҳурисон олимларининг ҳадис илми ривожида тутган ўрни (ал-Имом ал-Бухорий, Муслим, Имом ат-Термизий). Докторлик диссертацияси. – Т.: 2001.
41. Уватов У. Мовароуннарх ва Ҳурисон олимларининг ҳадис илми ривожида тутган ўрни (Ал-Бухорий, Муслим, Ат-Термизий): тарих фанлари доктори... дис. автореф. – Т.: Тошкент ислом университети, 2002.
42. Уватов У. Муслим ибн ал-Ҳажжож. Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1995.
43. Уватов У. Муслим ибн Ҳажжож. – Т.: А.Қодирий, 1995. – 64 б.
44. Уватов У. Мұхаддислар имоми. – Т.: Маънавият, 1998.
45. Усмонов И.С. Ал-Ҳаким ат-Термизийнинг «Наводир ал-усул» асари ҳадис ва тасаввуф илмига оид мухим манба. Тарих фанлари номзоди ... дис. автореф.– Т.: Тошкент ислом университети, 2006.
46. Эшонジョンов Б. IX аср Мовароуннарх маданий ҳаётида Имом ал-Бухорийнинг мавқеи ва унинг «ал-Жоми’ ас-саҳиҳ» асаридаги фикхий масалалар: тарих фан. ном. дис... автореф. – Т.: Тошкент ислом университети, 2001.
47. Куръони карим маъноларининг таржима ва тафсири / Таржима ва изоҳлар муаллифи Абдулазиз Мансур. – Т.: Тошкент ислом университети, 2012.
48. Ҳадиси Кудсий. / Масъул Мұхаррир: Абдуллоҳ Исмоил Махдум. – Т.: Мовароуннарх, 1996.
49. Ҳамроқолов Ж. Мусталаҳ ал-ҳадис. – Т.: Мовароуннарх, 2004.

### **Рус тилида**

1. Бабаханов Ш.З. Великие мухаддисы о мире и дружбе между народами (из шести общепризнанных сборников). – Т.: 1998.
2. Большаков О.Г. История Халифата. 1. Ислам в Аравии (570-633). М., 1989.
3. Джон Бёртон. Мусульманское предание: Введение в хадисоведение. – М.: Диля, 2006. – 304 с.

4. Ермаков Д. Хадисы и хадисная литература // Ислам (историографические очерки) / Под общей редакцией С.М.Прозорова, – М.: Наука, 1991.
5. Мустафо ал-Буғи. Комментария 40 хадис имам ан-Навави / перевод Владимир Абдулла Нирша. – Казань: 2004.
6. Сахих аль-Бухари. Перевод: Владимир Абдулла Нирша. – Т. I. 1-е изд. – М.: Благотворительный фонд «Ибрагим бин Абдулазиз аль Ибрагим», 2002.

### **Түрк тилида**

Müsteba Uğur, Doç. Dr. Ansiklopedik hadis terimleri sözlüğü. – Ankara: Türkiye Diyanet vakfı yayınları/76, 1992.

Talat Koçyigit. Hadis usûlü. – Ankara: Turkiye diyanet vakfi yayınları. 2004.

### **Arab tilida**

1. Abdulloh ibn Abdurahmon. Taysir al-allom sharh umdat al-ahkom. – Bayrut: Dor al-fikr, 1999.
2. Abdu-l-Hayy al-Laknaviy. Al-Favoid al-bahiya fi tarojimi-l-hanafiya. – Bayrut: Doru-l-kutub al-islomi, 1998.
3. Abdu-l-Hayy al-Laknaviy. Ar-Raf'u va-t-takmil fi-l-jarh va-t-ta'dil. – Qohira: Dor as-Salom, 2000.
4. Abdurahmon Itr. Ma'olim as-sunna an-nabaviya. – Zarqo: Maktabat Manor, 1986.
5. Abu Dovud at-Tayolisiy. Musnad Abi Dovud at-tayolisiy. – Bayrut: Dor al-ma'rifa, 1982.
6. Abu Dovud. Sunan Abi Dovud. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya. 1996.
7. Abu Iso at-Termiziy. Al-Jome' as-sahih va huva sunan at-Termiziy. – Bayrut: Dor ihyo at-tiros al-arabiyy. 1995.
8. Abu Tayyib al-Azim al-Abodiy. Sharh sunan Abi Dovud. – Bayrut: Dor al-fikr, 1995. 1-juz.
9. Abu Hafs Umar ibn Muhammad an-Nasafiy. al-Qand fi zikr ulamo Samarqand / Yusuf al-Hodiy tahriri ostida. – Tehron: Oyina-yi mirosl, 1999.

10. Abu-l-Muayyad al-Xorazmiy, al-Imom al-Muvaffaq ibn Ahmad al-Makkiy. Manoqib Abi Hanifa. – Bayrut: Doru-l-kitob al-ilmiya, 1981.
11. Ad-Doraqutniy. Sunan. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya. 1996.
12. Az-Zahabiy. Siyar a'lom an-nubalo. – Bayrut: Dor al-fikr. 1997.
13. Al-Bayhaqiy. As-Sunan al-kubro. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya, 1999.
14. Al-Buxoriy. Al-Adab al-mufrad. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya. 1996.
15. Al-Buxoriy. At-Tarix as-sag'ir. – Bayrut: Dor al-ma'rifa. 1986.
16. Al-G'azzoliy. Al-Mustasfo min ilm al-usul. – Bayrut: Dor Hodir. 1995.
17. Ali ibn Bulbon. Sahih ibn Hibbon bi tartib ibn Bulbon. – Bayrut: Muassasa ar-risola, 1998.
18. Ali ibn Odam. Sharh sunan an-Nasoiy. – Bayrut: Dor al-me'roj. 1997.
19. Al-Muborakfuriy. Tuhfat al-Ahvaziy. Muqaddima. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya. Nashr yili ko'rsatilmagan. 1-juz.
20. Al-mu'jam al-mufahrис li-alfaz al-hadis an-nabaviy. Noshir Vensink. – Leyden: Brill, 1936.
21. al-Umary Akrom Ziyo. Buhus fi tarix as-sunna al-musharrifa. Madina: Maktaba al-ulum va al-hikam, 1994.
22. Al-Hokim an-Naysaburiy. Al-Mustadrak ala as-sahihayn. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya. 1990.
23. Al-Hokim an-Naysaburiy. Ma'rifat ulum al-hadis. – Bayrut: 1977.
24. An-Navaviy. Sharh riyoz as-solihin min kalom sayyid al-mursalin. – Bayrut: Dor al-vatan. 1995.
25. An-Navaviy. Sharh sahib Muslim. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya, 2000. 1-juz.
26. An-Nasoiy. Kitob as-sunan al-kubro. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya. 1991.
27. An-Nasoiy. Sunan an-Nasoiy. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya. 1995.
28. Ar-Romahurmuziy. Al-Muhaddis al-fosil bayn ar-roviy va al-voiy. – Bayrut: Dor al-fikr. 1984.
29. As-Suyutiyy, Jaloliddin. Tadrib ar-roviy fi sharh taqrīb an-Navoviy. 2 jildli. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya, 1989.

30. At-Tahonaviy Zafar Amad. Muqaddamat i'la as-sunan. 21-jildli. – J. 19-21. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmyya, 1997.
31. Badr ad-Din al-Ayniy. Umdat al-qoriy sharh sahib al-Buxoriy. – Bayrut. Dor ihyo at-tiros al-arabiyy, nashr yili yo'q.
32. Jalol ad-din as-Suyutiyy. Al-La'laiy al-masnu'a fi ahadis al-mavdu'a'. – Bayrut. Dor al-kutub al-ilmiya, 1996.
33. Jaloluddin as-Suyutiyy. Tadrib ar-roviy fi sharh taqrab an-Nawoviyy. 2 jildli. Dimashq: Dor al-fikr, 1996.
34. Ibn Abi Shayba. Musannaf. – Bayrut. Dor al-fikr, 1998.
35. Ibn al-Asir. Usd al-g'oba fi ma'rifat as-sahoba. – Bayrut. Dor al-kutub al-ilmiya, 1996.
36. Ibn Arabiy. Oridat al-Ahvaziyy bi sharh jome' at-Termiziyy. – Bayrut. Dor al-fikr, 1995.
37. Ibn Moja. Sunan. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya, 1998.
38. Ibn Saloh. Ulum al-hadis. – Damashq: Dor al-fikr, 1986.
39. Ibn Hajar al-Asqaloniy. Al-Isoba fi tamayiz as-sahoba. – Bayrut. Dor al-kutub al-ilmiya. 1995.
40. Ibn Hajar al-Asqaloniy. Tahzib at-tahzib. – Bayrut. Dor al-kutub al-islomiya, 1994.
41. Ibn Hajar Asqaloniy. Nuzhat an-nazar sharh nuxbat al-fikar. – Bayrut: Nashr yili ko'rsatilmagan.
42. Ibn Hajar Asqaloniy. Hady as-soriy muqaddima fath al-boriy. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya, 1997. 1-juz.
43. Ibn Xallikon. Vafayot al-a'yona va anba abno az-zamon. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya, 1998.
44. Ibn Hishom. As-Siyra an-nabaviyya. – Bayrut: Dor at-tiros al-arabiyy, 1997.
45. Ibrohim ibn Muhammad. Al-Bayon va at-ta'rif fi asbob vurud al-hadis ash-sharif. – Bayrut: Al-maktaba al-ilmiya. 1982.
46. Iyod ibn Muso. Sharh sahib Muslim. – Bayrut: Dor al-vafo, yili ko'rsatilmagan.
47. Islom ziyozi o'zbegim siymosida. – T.: «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2005.

48. Islom tarixi / A. Hasanov, N.Komilov, U.Uvatov, A.Azimov, D.Rahimjonov, Q.Zohidov – T.: Toshkent islam universiteti, 2008.
49. Islom ensiklopediyasi. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2004.
50. Mavsu’at al-hadis ash-sharif. – Shirkat Saxr li-baromij al-hosiba. – 1991-1996 (CD-ROM).
51. Mahmud at-Tahhon. Taysir mustalah al-hadis. Toshkent: Movarounnahr, 1992.
52. Molik ibn Anas. Al-Muvatto. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya. Nashr yili ko‘rsatilmagan.
53. Mustafo as-Sibo‘iy. As-Sunna va makanatuha fi tashri’ al-islamiy. – Ar-Riyod: Maktabat al-varroq, 1998.
54. Muhammad Abu Zahv. Al-Hadis va al-muhaddisun. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya, 1984.
55. Muhammad Abu-l-Lays al-Xayrobodiy. Mu’jam mustalahat al-hadis va ulumih. Va ashhur al-musannifin fih. – Urdun: Dor an-nafois, 2009.
56. Muhammad al-Humaydiy. Al-Jam’ bayn as-Sahihayn. – Bayrut: Dor Ibn Hazm, 1998.
57. Muhammad Jamoliddin Qosimiyy. Qavoid at-tahdis. – Bayrut. Dor al-kutub al-ilmiya, nashr yili ko‘rsatilmagan.
58. Muhammad ibn Abdulloh. Al-Qabas fi sharh muvatto ibn Anas. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya. 1998.
59. Muhammad ibn Ismoil. Subul as-salom sharh bulug‘ al-marom. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya. 1998.
60. Muhammad Ijoj al-Xatib. As-Sunna qabla at-tadvin. Dor al-fikr, 1993.
61. Muhammad Matar Zahroniy. Tadvin as-sunna an-nabaviyya. – Ar-Riyod: Dor al-minhoj, 1426/2005.
62. Muhammad Mustafo Ammora. Javohir al-Buxoriy va sharh al-Qastaloniyy. – Bayrut: Al-Maktaba al-islomiyya, nashr yili ko‘rsatilmagan.
63. Muhammad Muhammad Abu Zahv. Al-Hadis va al-muhaddisun. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya, 1984.
64. Nuriddin Itr. Manhaj an-naqd fi ulum al-hadis. – Damashq: Dor al-fikr, 1988.
65. Subhi Solih. Ulum al-hadis va mustalahahu. – Bayrut: Dor al-ilm li-l-malayin, 1991.

66. Toj ad-Din as-Subkiy. Tabaqot ash-shofe'iyyat al-kubro. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya, 1999.
67. Xatib Bag‘dodiy. Al-Jome’ li axloq ar-roviy va adab as-some’. – Ar-Riyod. Maktaba ma’orif, 1983. 1-2 juzlar.
68. Xatib Bag‘dodiy. Al-Jomi li-axloq ar-roviy va adab as-somi. 2 jildli. – Ar-Riyod: Maktabat al-maorif, 1983.
69. Xatib Bag‘dodiy. Al-Kifaya fi ilm ar-rivaya. – Bayrut, 1986.
70. Yusuf Qarzoviy. Kayfa nataomal maa-s-sunna an-nabaviya. – Qohira: Dor ash-shuruq, 2004.

### **G‘arb tillarida**

1. Abd al-Hadi al-Fadli. Introduction to Hadith. Translated by Nazmina Virjee. ICAS press. 2002.
2. Amini M.T. Textual critical Study of Hadith. Delhi. Idarah-i adabiyat-i Delli. 1997.
3. Goldziher I. Muslim studies (muhammedanische studien). Volume two. London. George allen & unwin ltd. 1969. Translated from the german by c. R. Barber and s. M. Stern.
4. Guillaume A. The traditions of islam. An introduction to the study of the Hadith literature. – London: Clarendon press, 1924.
5. Harald Motzki. Hadith. Origins and Developments. — (The Formation of the Classical Islamic World). – Burlington: Ashgate, 2004.
6. Juynboll G.H.A. Muslim tradition. – London: Cambridge university press. 1983.
7. Juynboll G.h.A. Studies on the Origins and Uses of Islamic Hadith. – Burlington: Variorum. 1996.
8. Kamali M.H. Hadith metodology. Authenticity, Compilation, Classification and Criticism of Hadith. – Kuala Lumpur: Ilmiah publishers, 2002.

## ILOVA

- hadis ilmi bilan shug‘ullangan kishilarga nisbatan berilgan nomlar<sup>1</sup>
- alloma** – o‘ta biluvchi
- amir al-mu’minin fi-l-hadis** – hadis bo‘yicha mu’minlarning amiri
- asad as-sunna** – sunnat sheri
- ahadu a’lom ad-dunyo fi-l-hifz va-l-itqon** – yodlash va puxta bilish bo‘yicha dunyoning bayroqlaridan biri
- ahadu a’lom as-sunna** – sunnat bayroqlaridan biri
- ahadu arkon al-hadis** – hadis ustunlaridan biri
- ahadu furson hozo ash-sha’n** – shu ishning chavandozlaridan biri
- javvol** – jahongashta
- imom** – yo‘lboshchi
- imom al-aimma** – imomlar imomi
- imom al-muslimin fi-l-hadis** – hadis bo‘yicha musulmonlarning imomi
- imom al-huffoz va-l-muhaddisin** – hofiz va muhaddislarning imomi
- imom ahl al-hadis** – hadis ahli imomi
- qavvom as-sunna** – sunnatda qoim turuvchi
- musnad ad-dunyo** – dunyo suyanchig‘i
- mufid** – foydali
- muhaddis** – hadis aytuvchi
- muhiy as-sunna** – sunnatni tiriltiruvchi
- nosir as-sunna** – sunnat qutqaruvchisi
- olim** – biluvchi
- rahhol** – safar qiluvchi
- roviy** – rivoyat qiluvchi
- sayyid al-muhaddisin** – muhaddislar sayyidi
- sayyid al-huffoz** – hofizlar sayyidi
- sulton al-muhaddisin** – muhaddislar sultoni

<sup>1</sup> Ushbu nomlar Sa’d Fahmiy Ahmad Bilolning «Siroj al-munir fi alqob al-muhaddisin» («Muhaddislar laqabları bo‘yicha yorqin chiroq») asarida sanab o’tilgan.

**tabib al-hadis fi ilalihi** – hadis illatlari bo‘yicha tabib

**tolib al-hadis** – hadis talab qiluvchi

**ustoz al-asotizin** – ustozlarning ustozi

**xayyot al-hadis** – hadis tikuvchisi

**hokim** – hukm yurituvchi

**hofiz** – yodda saqlovchi

**hujja** – dalil

**shayx al-muhaddisin** – muhaddislar shayxi

**shayx as-sunna** – sunnat shayxi

**shayx ahl al-hadis fi asrihi** – o‘z asri hadis ahli shayxi

## MUNDARIJA

So‘zboshi .....	3
I bob. Hadis ilmi tarixi .....	9
1. Hadisshunoslikka kirish .....	9
2. Hadisshunoslikka oid zamonaviy tadqiqotlar .....	24
3. Ilk islom davrida hadislar.....	40
4. Sahobalar davrida hadislarning o‘rni .....	52
5. Hadislarning yozma qayd etila boshlanishi .....	66
6. Hadis ilmining «oltin asri».....	78
7. Hijriy uchinchi asrdan keyingi hadis ilmi rivoji .....	98
8. Hadis ilmining markaziy osiyoga kirib kelishi .....	117
II bob. Hadis ilmlari.....	133
9. Hadis va uning odoblari .....	133
10. Sunnatning islom dinidagi o‘rni .....	150
11. Hadis ilmi istilohlari .....	162
12. Hadis isnodlari tahlili .....	177
13. Ishonchli hadislar .....	190
14. Zaif va soxta hadislar .....	203
15. «Jarh va ta’dil» ilmi.....	219
16. Hadislarning bugungi kundagi ahamiyati .....	232
Glossariy .....	246
Manba va adabiyotlar ro‘yxati.....	256
Illova .....	265

# **HADISSHUNOSLIK**

## **(o‘quv qo‘llanma)**

«Toshkent islom universiteti»  
nashriyot-matbaa b.irlashmasi  
Toshkent – 2013

Muharrir: **B. Eraliyev**  
Sahifalovchi: **F. Sobirov**  
Muqova dizayni: **K. Fatxulla**

Nashriyot guvohnoma raqami AI № 224. 2012-yil 16-noyabr  
Bosishga 2013-yil 25-dekabrda ruxsat etildi.  
Bichimi 60×84 ½. Shartli b.t. 16,27. Nashr t. 16,28.  
Adadi 50 dona. Buyurtma № 87.  
Bahosi shartnomaga asosida.

«Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa  
birlashmasi bosmaxonasida chop etildi.  
100011. Toshkent sh. A.Qodiriy, 11.